Respublika
Ta'lim Markazi

O‘ZBEKISTON TARIXI

(XVI–XIX asrlar)

9

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining
9-sinf o‘quvchilari uchun darslik

Yangi nashr

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi nashrga tavsiya etgan



Toshkent – 2024

UO‘K 94(575.1)(075.3)
KBK 63.3(5O')ya72
I-81

Mualliflar:
Nargiza Ismatova, Usmon Jo‘rayev

Taqrizchilar:

D. Kenjayev – *Toshkent shahar davlat xizmatlari markazi mutaxassisi, tarix fanlari nomzodi;*
X. Bekmuratov – *Termiz davlat universiteti dotsenti, tarix fanlari nomzodi;*
O‘. Xoshimov – *Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “O‘zbekiston tarixi” kafedrasi mudiri, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;*
O. Inomov – *Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD);*
F. Abdalniyozova – *“Ziyo-zukko” umumta’lim maktabi tarix fani o‘qituvchisi;*
O. Apanov – *Namangan viloyati Chortoq tumani 21-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi tarix fani o‘qituvchisi.*

O‘zbekiston tarixi. 9-sinf [Matn]: darslik / N. Ismatova, U. Jo‘rayev – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2024. – 192 b.

UO‘K 94(575.1)(075.3)
KBK 63.3(5O')ya72

Shartli belgilar:



Original maket va dizayn konsepsiyasi
Respublika ta’lim markazi tomonidan ishlandi.

ISBN 978-9910-718-46-5

© Respublika ta’lim markazi, 2024

MUNDARIJA

So‘zboshi....4

XV ASRNING OXIRI – XVI ASRNING BOSHLARIDA TURONDA SIYOSIY VAZIYAT

1–2-§. Qipchoq dashti va Movarounnahrdagi siyosiy vaziyat....6
3-§. Movarounnahrda Shayboniy hukmronligining o‘rnatilishi....14
4-§. Shayboniylar davrida davlat boshqaruvi....19
5-§. Shayboniylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot....22
6-§. Shayboniylar davrida ichki va tashqi savdo....28
7-§. Shayboniylar davrida madaniy hayot....31
8-§. Shayboniylar davri me’morchiligi....35
9-§. Shayboniylarning tashqi siyosati....43

MAMLAKATIMIZ TARIXIDA ASHTARXONIYLAR VA MANG‘ITLAR SULOLASI

10-§. Ashtarxoniylarning hukmronlik davri....48
11-§. Ashtarxoniylar davrida davlat boshqaruvi va tashqi siyosat....53
12-§. Ashtarxoniylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot....56
13-§. Ashtarxoniylar davrida me’morchilik va ta’lim....60
14-§. Mang‘itlar boshqaruvi davri....68
15-§. Mang‘itlar davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot....74
16-§. Mang‘itlar davrida ilm-fan va madaniyat....83

QO‘NG‘IROTLAR BOSHQARUVI

17-§. Xiva xonligining tashkil topishi....90
18-§. Tashqi siyosat....95
19-§. Qo‘ng‘irotlar davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot....99
20-§. Qo‘ng‘irotlar davrida Xiva me’morchiligi....107

XVI–XIX ASRLARDA QORAQALPOQLAR

21-§. XVI–XIX asrning birinchi yarmida qoraqalpoqlar....120
22-§. Qoraqalpoqlarning qo‘shni xalqlar bilan munosabatlari....123
23-§. Qoraqalpoqlarning turmush tarzi....128
24-§. Qoraqalpoqlarning madaniy hayoti....132
25-§. Qoraqalpoqlarning milliy kiyimlari....136

MINGLAR HUKMRONLIGI DAVRI

26-§. Minglar hukmronligi davrida siyosat....142
27-§. Qo‘qon xonligida davlat boshqaruvi....148
28-§. Qo‘qon xonligida ijtimoiy-iqtisodiy hayot....152
29-§. Qo‘qon xonligida kiyinish madaniyati....157
30-§. Ichki va tashqi savdo. Soliq tizimi....162
31-§. Qo‘qon xonligida ta’lim va madaniyat....165
32-§. Qo‘qon adabiy muhiti....167
33-§. Qo‘qon xonligining tashqi siyosati....172
34-§. O‘zbek davlatlarining harbiy salohiyati....176
35-§. Turkistonning uch xonlikka bo‘linib ketishi va uning oqibatlari....181
36-§. O‘zbek davlatlari tarixi bo‘yicha manbalar....184
O‘zbekiston tarixiga oid ayrim muhim sanalar....189

SO‘ZBOSHI

Siz quyi sinflarda mamlakatimiz tarixining eng qadimgi davridan XV asrgacha sodir bo‘lgan voqealar bilan tanishdingiz. Jumladan, Vatanimiz tarixida muhim rol o‘ynagan Birinchi va Ikkinchi Renessansga asos bo‘lgan jarayonlarni o‘rgandingiz. Ayni paytda xalqlar tarixida o‘ziga xos tub yangilanish davrlari borki, bunday zamonlarda muayyan xalq dahosi, uning o‘z salohiyatini namoyon etishga intilishi, yaratuvchanlik faoliyati eng yuksak cho‘qqilarga ko‘tariladi. Nisbatan qisqa muddatlarda erishilgan yutuqlar butun jahon ahlini lol qoldiradi.

Yer yuzidagi ba’zi xalqlargagina nasib etadigan bunday yuksak ko‘tarilishda – Renessans davrining asosini qurishda ajdodlarimizning ishtiroki bizni ruhlantiradi. Tariximizda ro‘y bergan ayrim voqelar esa o‘ylantiradi, kelgusi ishlarimiz uchun to‘g‘ri qaror qabul qilishimizga asos bo‘ladi.

O‘tgan o‘quv yilida XIII–XV asrlarda Amir Temur va temuriylar tarixini o‘rganish orqali insonning o‘z Vataniga bo‘lgan muhabbati, sadoqati davlatning rivojlanishi uchun omil bo‘lishiga guvoh bo‘ldingiz.

Buyuk Amir Temurning Turon hududida parchalanib ketgan davlatlarni birlashtirib, tanazzulga uchrayotgan xo‘jalik va madaniyatni qayta tiklash yo‘lidagi sa’y-harakatlari, bunyodkorlik faoliyati bilan tanishdingiz.

Qo‘lingizdagi ushbu darslik esa mamlakatimiz tarixining XVI–XIX asrlardagi hayoti haqida ma’lumot beradi. Darhaqiqat, bu davrda tariximiz bir tekisda kechgani yo‘q. Temuriylar davlati o‘rnida shayboniylar hokimiyati qaror topadi. Bu sulola 100 yil davomida katta bunyodkorlik ishlarini amalga oshiradi. Biroq, ichki nizolar oqibatida hokimiyat ashtarxoniylar sulolasi qo‘liga o‘tadi. Ular shayboniylarga qaraganda uzoqroq vaqt hukmronlik qilgan bo‘lsalar-da, Buxoro xonligida ilm-ma’rifat rivoji sekinlashadi. Jamiyat va davlat ma’naviy hayotida mutaassiblik ustunlik qiladi. Davlat parokandalikka yuz tutadi. Hokimiyat ashtarxoniylar qo‘lidan mang‘itlar qo‘liga o‘tadi.

Shuningdek, ashtarxoniylar davrida markaziy hokimiyatning zaiflashuvi oqibatida 1709-yilda Farg‘ona vodiysi mustaqil bo‘lib oladi va Qo‘qon xonligi tashkil topadi.

Temuriylardan so‘ng Xorazmda dastlab hokimiyat shayboniylar, so‘ng Eron safaviylari tomonidan egallanadi. Xorazm xalqi safaviylar qo‘shinini Xorazmdan haydab chiqaradi. 1511-yilda tashkil topgan yangi davlat – Xiva xonligini arabshohiylar va qo‘ng‘irotlar sulolasi boshqaradi.

Darslik bilan tanishar ekansiz, o‘rganiladigan davrga oid barcha voqea va hodisalar sizning tarixiy tafakkuringizni rivojlantiradi. Yangi O‘zbekistonni qurishda asosiy omil bo‘lgan “Bir bo‘lsak – yagona xalqmiz, birlashsak – Vatanmiz!” shiorining mazmun-mohiyatini tushunishingizga yordam beradi.



Respublika
Ta'lim Markazi

XV ASRNING OXIRI – XVI ASRNING BOSHLARIDA TURONDA SIYOSIY VAZIYAT



1–2-§. QIPCHOQ DASHTI VA MOVAROUNNAHRDAGI SIYOSIY VAZIYAT

O‘ylab ko‘ring

1. Qipchoq dashtiga qaysi hududlar kirganligini bilasizmi?
2. Sulton Husayn Mirzo hukmronligining so‘nggi yillarida Xurosonda siyosiy vaziyat qanday edi?
3. Badiuzzamon va Sulton Husayn Boyqaro o‘rtasida kelib chiqqan nizo Shayboniyxonga qanday imkoniyat beradi?
4. Zahiriddin Muhammad Bobur haqida nimalarni bilasiz?

Tarix saboqlari

Abulxayrxon Qipchoq dashtidagi turk-mo‘g‘ul qabilalarining 200 dan ortiq sarkardalarining qo‘llab-quvvatlashi natijasida Sharqiy Qipchoq dashtini birlashtiradi. Abulxayrxon Chingizxonning katta o‘g‘li Jo‘jixonning beshinchi o‘g‘li Shaybonning avlodi bo‘lib, shayboniylar sulolasining atalishi ham shu jihat bilan bog‘liqdir. Abulxayrxonning katta buvasi Po‘lat Sulton esa shayboniylar avlodiga mansub bo‘lgan. 1428-yilda Sibir g‘arbidagi Tura shahrini bosib oladi va uni davlat poytaxtiga aylantiradi. Abulxayrxon o‘z davlatini Oltin O‘rdadan mustaqil deb e’lon qiladi. 1430-yilda Xorazmni ishg‘ol qilgach, “Ulug‘ xon” unvonini qabul qiladi. Ammo tez orada Xorazmni tark etishga majbur bo‘ladi.

1446-yilda temuriylarga qarashli Sirdaryoning o‘rta oqimida joylashgan Sig‘noq, Oqqo‘rg‘on, Arquq va O‘zgan shaharlarini bosib oladi. Poytaxtini Turadan Sig‘noqqa ko‘chiradi. Shu tariqa Abulxayrxon Temuriylar davlatining qo‘shnisiga aylanadi. Shahzodalarning taxt uchun kurashida goh unisini, goh bunisini qo‘llab, Temuriylar davlatining siyosiy hayotiga aralasha boshlaydi.



Abulxayrxon o‘zining raqiblarini turli yo‘llar bilan mag‘lub etadi. Oqibatda Oltin O‘rda xoni Baroq-xonning o‘g‘illari Girayxon va Jonibekxonlar Mo‘g‘uliston xoni Isobug‘axon (Eson Buqo) huzuriga qochib boradilar. Xon ularga G‘arbiy Mo‘g‘uliston deb hisoblanuvchi hududlardan Chu vodiysi va Yettisuv o‘lkalarining bir qismini beradi. Bu joy keyinchalik Abulxayrxon ta’qibidan qochgan sultonlar uchun boshpanaga aylanadi va ular 1465–1466-yillarda Qozoq xonligiga asos soladilar.

Bilasizmi?

Amir Temur davrida o‘zbek davlatiga bo‘ysundirilgan Jo‘ji ulusidagi siyosiy hayot nazorati keyingi temuriylar hukmronligi yillarida qo‘ldan chiqib ketadi.

XV asr o‘rtalariga kelib esa, mazkur hudud, xususan, Yoyiq (Ural) daryosidan Balxash ko‘ligacha, Sirdaryo quyi oqimlaridan Tobol va Irtish daryolarigacha bo‘lgan hududda hukmronlik qilayotgan Abulxayrxon Turonda kechayotgan siyosiy jarayonga aralasha boshlaydi.



Manbalarda



Abulxayrxon 1412-yilda tug‘ilgan. Erta yetim qolib, Shayboniy avlodlarining boshqa bir vakili Jumadulxonga xizmat qilishi va uning dashtlarda hokimiyat uchun kurashida qatnashishiga to‘g‘ri keladi. 16 yoshida Abulxayr-o‘g‘lon asir tushadi, lekin mang‘it beylarining qarori bilan ozod qilinadi. Jumadulxonning o‘limidan so‘ng u tezda o‘zbek ulusining ko‘plab qabilalari sardorlari qo‘llab-quvvatlashiga erishadi.

1428-yil Turada (G‘arbiy Sibir) Abulxayr xon deb e’lon qilinadi. Abulxayrxonni saylashda qatnashganlar orasida nafaqat sultonlar, qabilalar va urug‘larning rahnamolari, bahodirlar, balki musulmon ulamolarining vakillari ham bor edi...

Abulxayrxon ayni paytda o‘zbek ulusining siyosiy hayotida muhim rol o‘ynagan Mang‘it amirlariga ham tayangan. Agar Mang‘it amiri Yedigeyning o‘g‘li Mansur Baroqxon voqealarida faol ishtirok etgan bo‘lsa, Abulxayrning yuksalishida o‘sha Yedigeyning nabirasi Vaqqosbey muhim rol o‘ynadi. Yosh xon dastlab Nuriddinning o‘g‘li Vaqqosbey bilan qalin do‘st edi.

Mas’ud bin Usmoniy Kuhistoniyning “Abulxayrxon tarixi” asaridan

O‘ylab ko‘ring

Quyi sinflarda olgan bilimlaringizga tayanib quyidagi vazifalarni bajaring:

1. Abulxayrxon davlati tarkibiga Turk xoqonligining qaysi hududlari kirganini aniqlang. Mazkur har ikki davlat hududini zamonaviy xaritadan ko‘rsating.

2. Temuriylar imperiyasining qaysi hududlari Abulxayrxon davlati tarkibiga kirgan?

3. Abulxayrxon qanday qilib Turonda yuz berayotgan siyosiy vaziyatlarga tortilgan?

– Abulxayrxon mashhur shoir, tasavvuf, so‘fiylik ixlosmandi Jaloliddin Rumiy (1207–1273) asarlarini tarjima qilishni buyurgan.
– 1428-yil u poytaxti Tura bo‘lgan Sibir xonligini qo‘lga kiritadi.
– Abulxayrxon 1430-yilda qisqa muddatga Xorazmni egallab oladi.
– 1446-yilda Sig‘noq va So‘zak shaharlarini qo‘lga kiritadi.
– 1446-yilda Abulxayrxon davlat poytaxtini Turadan Sig‘noq shahriga ko‘chiradi.
– Abulxayrxon Movarounnahr sultoni, astronom va munajjim Ulug‘bekning qizi Robiya Sulton begimga uylanadi. Ularning farzandi Ko‘chkunchixo‘ja keyinchalik Buxoro xonligini 20 yil davomida boshqargan.

Tarix saboqlari

Ulug‘bek fojiasidan so‘ng taxtga chiqqan Abdullatif o‘ldirilgach, Samarqandda Ulug‘bekning kuyovi Abdulloh Mirzo, Buxoroda esa Mironshohning nabirasi Sulton Abu Saidlar podshoh qilib ko‘tariladi. Abdulloh Mirzo mamlakat barqarorligini tiklash uchun barcha choralarni ko‘radi, ammo temuriylar taxtida uzoq vaqt o‘tira olmaydi.

Avval u amakivachchasi Abu Said bilan kurashadi. O‘zaro janglarning birida Abdulloh Mirzo halok bo‘ladi. Abu Said esa Abulxayrxon yordamida Samarqand taxtini egallaydi. Shu tariqa Movarounnahr hukmdoriga aylanadi.

Temuriylar mulkining Xuroson qismi bu davrda Shohruxning nabirasi Abulqosim Bobur tasarrufida edi. 1457-yilda Abulqosim Bobur vafot etgach, Abu Said Hirot shahrini egallab, saltanatning har ikki qismini birlashtiradi. Bu davrda Sulton Husayn Boyqaro (Umarshayx Mirzoning chevarasi) Xorazmni egallab oladi.

1469-yilda esa Husayn Boyqaro Hirot taxtini egallaydi. Natijada Temuriylar davlati ikki mustaqil qismga bo‘linib ketadi.

Movarounnahrda birin-ketin Abu Saidning o‘g‘illari Sulton Ahmad Mirzo, Sulton Mahmud Mirzo va Sulton Ali Mirzolar hukmronlik qiladilar.

1494-yilda Farg‘ona hokimi Umarshayx Mirzo 39 yoshida vafot etadi. 12 yoshli o‘g‘li Bobur valiahd sifatida taxtga o‘tqaziladi. Shu davrdan boshlab Bobur uchun bolalikning sho‘xliklari, erkaliklari ortda qoladi. Davlatni boshqarish, uni turli ichki va tashqi dushmanlardan himoya qilish endi Boburning zimmasiga tushadi.





Boburning siyosiy maqsadi Amir Temur saltanatini qayta tiklash edi.

Umarshayx Mirzoga tobe bir necha bek va hokimlar yosh Boburga bo‘ysunishdan bosh tortadilar.

Ularning ayrimlari Boburning ukalarini yoqlasa, ba’zilari mustaqillik da’vosini qiladilar. Yana boshqa birlari esa Boburning amaki va tog‘alariga qo‘shilib, uni jismonan yo‘q qilish payiga tushishadi.

Bobur o‘z hukmronligining dastlabki yillarida amakisi Sulton Ahmad Mirzo va tog‘asi Sulton Mahmudxonning xurujlarini daf qilib, mavqeyini mustahkamlash, bek va amaldorlar bilan o‘zaro munosabatni yaxshilash, qo‘shinni tartibga keltirish, davlat ishlarida intizom o‘rnatish kabi muhim chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Ikki marta Samarqandni egallash uchun qilgan harakati muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Nihoyat 1497-yilning kuzida 7 oylik qamaldan keyin Bobur Samarqandni egallaydi.

Ammo qamal natijasida sovuq va ochlikdan Bobur qo‘shinining ahvoli tanglashadi. Natijada ko‘pgina navkarlar Boburni tashlab ketadilar. Andijonda qolgan beklar Boburga qarshi isyon ko‘taradilar. Bobur esa Samarqandni tashlab Andijonga yo‘l olishga majbur bo‘ladi. Ikki yillik kurashdan so‘ng Andijonni qaytarib oladi.

Temuriylarning o‘zaro kurashlari kuchaygan kezlarda Shayboniyxon Movarounnahrni istilo qilishga kirishadi. 1501-yil aprelida Zarafshon bo‘yidagi Saripul qishlog‘i yaqinida Shayboniyxon bilan bo‘lgan jangda Bobur qo‘shini yengiladi va Samarqandga chekinadi.

O‘ylab ko‘ring

1. Voqealarni tahlil qiling. Nima uchun temuriyzodalar Shayboniyxonga qarshi kurashda o‘zaro kelisha olmadilar? Fikringizni asoslash uchun 3 ta dalil keltiring.

2. Nima deb o‘ylaysiz, Bobur Andijonni qaytarib olganidan so‘ng uning hokimiyati mustahkamlandimi?

3. Ushbu matnni diqqat bilan o‘qing. “...qamal natijasida sovuq va ochlikdan Bobur qo‘shinining ahvoli tanglashadi. Natijada ko‘pgina navkarlar Boburni tashlab ketadilar”. Bobur qo‘shinining iqtisodiy ahvoliga baho bering va buning sabablarini taxmin qiling. Nima uchun Boburning qo‘shini tang bo‘lib qoldi?

Temuriy shahzoda Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili, buyuk shoir, tarixchi, geograf, davlat arbobi, iste’dodli sarkarda, Hindistonda boburiylar sulolasi asoschisidir.

Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yil 14-fevralda Andijonda, Farg‘ona viloyati hokimi Umarshayx Mirzo xonadonida tavallud topgan. Onasi Qutlug‘ Nigorxonim Toshkent hokimi Yunusxonning qizi edi.

Tarix saboqlari

Shahar Shayboniyxon tomonidan yana to‘rt oy qamal qilinadi. Qamalda qolgan shahar aholisining ochlikdan tinkasi quriydi. Oqibatda Bobur 1501-yilning ikkinchi yarmida Samarqandni tark etadi.

Bobur Shayboniyxonga qarshi bir necha yil davomida muttasil kurash olib borsa-da, ammo mamlakatda hukm surgan og‘ir siyosiy parokandalik tufayli maqsadiga erisha olmaydi.

O‘ylab ko‘ring

Nima deb o‘ylaysiz, siyosiy parokandalik mamlakat iqtisodiga ta’sir ko‘rsatadimi? Nima uchun? Fikringizni asoslang.



Bobur portreti (nusxasi)

Tarix saboqlari

Bobur Samarqand taxti uchun kurashayotgan paytda uning eng ishongan beklaridan biriga aylangan harbiy amaldor Ahmad Tanbal Andijonni egallab oladi. 1501–1504-yillarda Boburning Farg‘ona mulkini qaytarib olish uchun olib borgan kurashi muvaffaqiyatsizlik bilan tugaydi. Temuriylarning to‘xtovsiz janglari va og‘ir soliqlaridan toliqqan xalq Boburni qo‘llamaydi. Bobur 1504-yilda Movarounnahrni tark etishga majbur bo‘ladi.

Bobur 200–300 navkari bilan Hisor tog‘lari orqali Afg‘onistonga o‘tadi va u yerdagi ichki nizolardan foydalanib G‘azna va Kobulni egallaydi. Kobulni egallagach, mustaqil davlat tuzishga jadal kirishadi. Qo‘shinni tartibga keltiradi va qattiq ichki intizom o‘rnatadi.





“Boburnoma”

Bobur nomini dunyoga mashhur qilgan shoh asari “Boburnoma”ni 1518–1519-yillarda yoza boshlagan.

1519-yil bahoriga kelib Bobur Hindistonni zabt etish rejalarini amalga oshirishga kirishadi va keyingi 5–6 yil davomida bir necha yurishlar uyushtiradi. 1526-yil aprelda Panipatda asosiy raqibi, Dehli sultoni Ibrohim Lo‘diyning yuz ming kishilik qo‘shinini 12 ming kishilik qo‘shin bilan tor-mor qiladi hamda Dehlini egallaydi.

Bobur bilan Alisher Navoiy o‘rtasida yozishmalar bo‘lgan. Davlat arbobi va ko‘p vaqti jang-u jadallarda o‘tgan sarkarda sifatida ijtimoiy faoliyatining eng qizg‘in davrida ham, shaxsiy hayoti va davlati nihoyatda murakkab va xatarli sharoitda qolgan chog‘larida ham Bobur ijodiy ishga vaqt topa bilgan. San’at, ijod va ilm ahlini o‘z atrofiga to‘plab, homiylik qilgan, ularni rag‘batlantirgan. Hozirda uning 119 ta g‘azali, bir masnu’ (ham gorizontal, ham vertikal tomonidan o‘qish mumkin bo‘lgan janr) she’ri, 209 ruboiysi, 10 dan ortiq tuyuq va qit’alari, 50 dan ortiq muammo va 60 dan ziyod fardlari aniqlangan. Devoni tarkibidan umumiy hajmi 270 baytdan iborat 8 masnaviy ham o‘rin olgan. 1521-yil Hindistonga yurishlari davrida Bobur valiahd Humoyun va Komron Mirzolarga dasturulamal sifatida mo‘ljallangan “Mubayyin” asarini yaratgan. Masnaviy tarzida yozilgan, islom huquqshunosligi va shariat aqidalariga bag‘ishlangan bu asarda Movarounnahr va Hindistonga oid o‘sha davr ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bo‘yicha qiziqarli ma’lumotlar ham jamlangan.

Manbalarda

Uzoqdan qorasi ko‘ringan Sulton Ibrohimning qo‘shini hech yerda to‘xtamay tezlik bilan bizga qarab kelaverdi. Yaqinroq kelgach, ularga qoramiz ko‘rindi. Bizning saf tortib, jangga shay turganimizni ko‘rib, ular nima qilishlarini bilmay taraddudlanib qoldilar. Esankirab, turishni ham, kelishni ham bilmay, na joyida turoldi, na avvalgidek tezlik bilan to‘xtamasdan ilgarilashni o‘ladi. To‘lg‘amaga tayinlangan askarlarga o‘ng va chap qo‘ldan dushmanning orqa tomoniga o‘tib, o‘q otib urush boshlashlari, o‘ng va chap qanotlardagilar ham dushman bilan olishishlari uchun farmon bo‘ldi. To‘lg‘amadagilar dushman orqasiga o‘tib, o‘q ota boshladilar. Chap qanotdagi Mahdiy Xoja jangni hammadan oldin boshlab yubordi. Mahdiy Xojaga qarshi bir to‘da askar bir fil bilan bostirib keldi. Mahdiy Xojaning odamlari ko‘p o‘q yog‘dirib, ularni chekinishga majbur qildi. Chap qanotga markazdan Ahmadiy parvonachi, Turdibek Qo‘chbek va Muhib Ali xalifa yordamga yuborildi.

O‘ng qanotda ham jang boshlanib ketdi. Muhammad Ali ko‘kaldosh, Shoh Mansur barlos, Yusuf Ali va Abdulloga markaz qo‘shini oldida turib jang boshlash buyurildi. Ustod Aliquli ham markaz qo‘shini oldida turib farangidan otdi. Mustafo to‘pchi ham markaziy qo‘shinning chap qanotidagi arava ustidagi zarbzandan (to‘pga o‘xshash qurol) yaxshi zarbalar berdi. O‘ng qanot, chap qanot, markaz va to‘lg‘amadagilar dushmanni har tarafdan o‘rab olib, ustiga o‘q yog‘dirib, jangni astoydil qizitdilar. Dushman o‘ng va chap qanotlarga bir-ikki marta qisqa-qisqa hamlalar ham qildi. Bizning jangchilarimiz ularning ustiga o‘q yog‘dirib, yana markaz tomonga siqib keldilar. Dushmanning o‘ng va chap qanoti bir yerga to‘planib qolib, shu darajada tiqilinchlik hosil bo‘ldiki, na oldinga yurishga, na orqaga qochishga yo‘l topoldilar. Oftob bir nayza bo‘yi ko‘tarilganda urushni tezlashtirishga chaqirildi.

Tushgacha jang davom etdi. Kun tushga yetganida dushman yengildi va yakson qilindi. Tangri taolo fazl-u karami bilan bunday qiyin ishni bizga oson qildi va shu qadar ko‘psonli lashkarni yarim kunda yer bilan yakson qildi.

Zahiriddin Muhammad Boburning
“Boburnoma” asaridan



“Boburnoma”ga ishlangan miniatyura

Loyiha ishi

1. Siz Boburning o‘rnida bo‘lganingizda qanday yo‘l tutgan bo‘lardingiz? Har bir harakatingizni asoslang.
2. Bobur Shayboniyxondan yengilib, Samarqandni tashlab chiqadi, lekin u tarixda mohir sarkarda sifatida tilga olinadi. Buning sababi nimada? Fikr bildirishdan avval “Boburnoma”dan Panipat jangi tafsilotlarini o‘qing.
3. Bobur hayotidagi muhim voqealar tarixini infografikada aks ettiring.
4. Bobur har bir siyosiy va harbiy harakatlarini amalga oshirgan paytidagi yoshini aniqlang.
5. Qaysi jarayonda Bobur sizning yoshingizda bo‘lgan?
6. Jahon tarixidan olgan bilimlaringizga tayanib “Bobur – mohir sarkarda”, “Hindistonda Boburiylar imperiyasi” kabi mavzularda taqdimot tayyorlang.

3-§. MOVAROUNNAHRDA SHAYBONIY HUKMRONLIGINING O‘RNATILISHI

O‘ylab ko‘ring

1. Nima deb o‘ylaysiz, Movarounnahrda yuzaga kelgan vaziyatda Bobur o‘z hukmronligini saqlab qolishi mumkinmidi?

2. Abulxayrxon Turonda yuz berayotgan siyosiy vaziyatdan qanday foydalangan edi? Siz Abulxayrxonning o‘rnida bo‘lganingizda qanday yo‘l tutgan bo‘lar edingiz?

3. Boburning Samarqandni tark etishi Shayboniyxonga qanday imkoniyatlar bergan? Fikringizni asoslang.

Tarix saboqlari

Muhammad Shayboniyning siyosiy maydonga chiqishi

O‘zbek ulusi hukmdori Abulxayrxonning o‘g‘illaridan biri Shohbudog‘ Sulton to‘ng‘ich o‘g‘liga Sulton Muhammad Shayboniy deb ism qo‘ygan. Uning taxallusi esa “Shohbaxt” edi. Muhammad Shayboniy otasining erta vafotidan so‘ng bobosining qaramog‘ida qolgan. Ukasi Sulton Muhammad bilan birga Boyshayx otalig‘ida voyaga yetgan.

Abulxayrxon tuzgan O‘zbek ulusi davlati 1468-yilda qulaydi. Shayboniyxon esa bobosining davlatini 1480-yilda qayta tiklaydi. O‘zaro kurashlar va ichki nizolar tufayli tobora zaiflashib borayotgan temuriylar hududi bo‘lgan Movarounnahrda ham o‘z hukmronligini o‘rnatish uchun harakat boshlaydi. 1499-yilda Jizzax va Samarqand orqali Qarshi va Shahrisabzgacha bosib boradi va katta o‘lja bilan Qipchoq dashtiga qaytadi.

1500-yil Sulton Ali Mirzo kaltabinlik bilan Samarqandni Shayboniyxonga jangsiz topshiradi. Shu yiliyoq Buxoro ham zabt etiladi. Biroq Zahiriddin Muhammad Bobur 1500-yili Samarqandni qaytarib olishga muvaffaq bo‘ladi. Qisqa vaqt ichida Samarqandning barcha tumanlari, Qarshi va G‘uzor shaharlarida Bobur hokimiyati e’tirof etiladi.

Lekin 1501-yil aprelda Zarafshon bo‘yidagi Saripul qishlog‘i yaqinida bo‘lgan jangda Bobur qo‘shini yengiladi. Bir necha oylik qamaldan so‘ng Samarqand yana Muhammad Shayboniyxon qo‘liga o‘tadi.

1503-yilda Shayboniyxon Toshkent xoni Mahmudxon, Bobur va qalmoqlarning birlashgan qo‘shinini Sirdaryo bo‘yida tor-mor qiladi.

Shayboniyxon 1505–1507-yillar ichida Urganch, Balx, Hirotda ham o‘z hokimiyatini o‘rnatadi. Keyingi ikki yil ichida Xurosonning boshqa hududlari, jumladan, Damg‘on, Astrobod, Mashhadni ham egallaydi. Shu tariqa, Abu Saiddan so‘ng birorta temuriy bajara olmagan ishni Muhammad Shayboniyxon eplaydi – shimolda Sirdaryodan janubda Qandahorgacha, sharqda Xitoygacha, g‘arbda Kaspiy dengizigacha bo‘lgan hududlarni yagona davlatga birlashtirishga muvaffaq bo‘ladi.

Bu esa, o‘z o‘rnida, uning siyosiy, iqtisodiy qudratini yuksaltirib yuboradi. U Eron sari harakatlanib, hukmron sulola – safaviylar bilan to‘qnashishni rejalashtiradi.



Muhammad Shayboniy portreti. Musavvir Kamoliddin Behzod (nusxasi)



Biroq 1510-yili Marv yaqinida Ismoil Safaviy qo‘shini bilan yuz bergan jangda Muhammad Shayboniyxon yengiladi va halok bo‘ladi.

Muhammad Shayboniyxon vafotidan so‘ng Afg‘onistonda mustaqil davlat qurishga kirishgan Bobur qulay vaziyatni qo‘ldan boy bermay, 1511-yilda shoh Ismoil bilan harbiy-siyosiy ittifoq tuzadi. Shu yilning bahorida Hisorni, yozida Buxoroni, kuzga borib Samarqandni yana qo‘lga kiritadi. Lekin Boburning shia mazhabidagi eroniylar bilan ish tutishi mahalliy aholida norozilik uyg‘otadi. 1512-yil 28-aprelda Ko‘li Malik jangida shayboniy Ubaydulla Sulton boshliq qo‘shindan yengiladi va Hisor tomon ketishga majbur bo‘ladi.

1512-yil kuzida Bobur shoh Ismoil yuborgan Najmi Soniy laqabli lashkarboshi bilan Balxda uchrashib, Amudaryodan kechib o‘tadi. Avval Huzar (G‘uzor) qal’asini egallaydi, so‘ng Qarshiga yurish qiladi, shahar uzoq muddatli qamaldan so‘ng taslim bo‘ladi.

1512-yil noyabrida esa G‘ijduvon jangida Bobur shayboniylardan yana yengilib, Kobulga qaytishga majbur bo‘ladi. Shu tariqa Bobur Movarounnahrni egallash ilinjidan uzil-kesil umidini uzadi va butun e’tiborini Hindistonga qaratadi.

Manbalarda

“Biz saf tortib chiqqach, g‘anim ham ro‘parada saflanib, paydo bo‘ldi. Saflar yaqinlashgach, g‘animning o‘ng qanotining uchi bizning orqamiz sari burildi. Men ham olg‘a qarab, ular sari yurdim. Shu darajaga yetdiki, g‘animning ba’zi qari ulug‘lari Shayboqxonga: “Yurish kerak, to‘xtab turmoqning vaqti o‘tdi” deyishdi. G‘animning o‘ng qanoti bizning chap qanotimizni bosib orqaga aylandi. Bizga ko‘makka kelgan mo‘g‘ul lashkarining urushga toqatlari yo‘q edi. Urushmoqni qo‘yib, o‘zimizning elniyoq talab, otdan tushirishga kirishdilar. O‘zbakning urushda bir ulug‘ hunari ushbu to‘lg‘amadir, ya’ni jangga tinimsiz askar solib turishdir. Men bilan o‘n-o‘n ikki kishi qolib edi. Ko‘hak daryosi yaqin edi. O‘ng qanotning uchi daryoga to‘qinib edi. Daryo tomonga yo‘naldik. Ko‘hak daryosining eng to‘lib oqadigan payti edi. Daryoga yetishimiz bilan zirhlangan holatimizda suvga kirdik”.

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asaridan

O‘ylab ko‘ring

1. Nima uchun Samarqand aholisi Boburning shoh Ismoil bilan tuzgan harbiy-siyosiy ittifoqidan norozi bo‘lgan edi?
2. Siz Boburning o‘rnida nima qilgan bo‘lardingiz?
3. Shayboniyxonning o‘limi voqealarning keyingi yo‘nalishiga qanday ta’sir ko‘rsatdi?

Tarix saboqlari

Keyingi shayboniylar Ko‘chkunchixon, Abu Saidxon davrlarida markaziy hokimiyat kuchli salohiyatga ega emas edi. 1533-yildan davlatni boshqara boshlagan Ubaydullaxon ichki kelish-movchiliklarga barham bergani, ikki marta Hirotni eronliklardan tortib olgani bilan mashhurdir.

Ubaydullaxon 1533-yilda davlat poytaxtini Samarqanddan Buxoro shahriga ko‘chiradi. Shu yildan boshlab shayboniylar davlati Buxoro xonligi deb ataladigan bo‘ldi.

Ammo uning o‘limidan so‘ng yuz bergan siyosiy parokandalik oqibatida markaziy hokimiyatning parchalanish jarayoni boshlanadi. Qo‘shhokimiyatchilik vujudga keladi. Oqibatda Buxoroda taxtga Abdulazizxon o‘tirgan bo‘lsa, Samarqandda oliy hukmdor sifatida Ko‘chkunchixonning o‘g‘illari – avval Abdullaxon I, so‘ngra Abdullatifxon hukmronlik qilishadi.

Ikkihokimiyatchilik viloyat hokimlarining boshboshdoqligini kuchaytirib yuborishi tabiiy edi. Ushbu holat Abdullaxon II zamonigacha davom etadi. O‘z siyosiy yuksalishini 1557-yilda Buxoroni qo‘lga kiritishdan boshlagan shayboniy shahzoda Balx, Samarqand, Toshkent, Farg‘ona, Badaxshon, Ko‘lob, Xuroson, Xorazm ustidan ham o‘z hukmronligini o‘rnatib, mamlakatni birlashtirishga, markazlashgan davlat boshqaruvini tiklashga erishadi.

Abdullaxon II ning vafotidan (1598) so‘ng taxtga chiqqan o‘g‘li Abdulmo‘minxon olti oy hukmronlik qiladi xolos. Amakisi Pir Muhammadxon II esa tarixda shayboniylar sulolasining so‘nggi vakili sifatida nom qoldiradi.



Abdullaxon kalxat bilan ovda. 1618-yilda ishlangan miniatyura

Abdullaxon II ning o‘zi ham iste’dodli shoir bo‘lib, “Xon” taxallusi bilan o‘zbek va fors tillarida she’rlar yozgan.



Bilasizmi?

Shayboniylar davrida Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma” (“Sharafnomayi shohiy”) (1584–1589), Amin Ahmad Roziyning “Haft iqlim” (1593–1594), Mutribiyning dunyo xaritasi ilova qilingan “Tazkirati shuaro” (taxminan 1593–1595) va boshqa ilmiy asarlar yaratilgan. Buxoroda mashhur Abdullaxon madrasasi qurilgan. Hasanxo‘ja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob” asari Abdullaxon II ga bag‘ishlangan.

Mustaqil faoliyat

1. Bobur va Shayboniyxon to‘qnashuvlarining sabablari nimada edi?
2. 1501-yilda Boburni Samarqandni tashlab chiqishga nima majbur qiladi? Agar Bobur Samarqandni tark etmaganida Shayboniyxon shaharni egallarmidi?
3. Shayboniyxonning siyosiy, iqtisodiy qudrati yuksalishiga nimalar sabab bo‘ldi?
4. Muhammad Shayboniyxon birlashtirgan hududlarni zamonaviy xaritadan ko‘rsating.
5. Shayboniylar hukmronligi qaysi davrni o‘z ichiga oladi?



4-§. SHAYBONIYLAR DAVRIDA DAVLAT BOSHQARUVI

O‘ylab ko‘ring

1. Temuriylar davri davlat boshqaruvini eslang. Nima deb o‘ylaysiz, shayboniylar temuriylar davridagi davlat boshqaruvining qaysi jihatlarini olganlar?
2. Temuriylar davrida davlat boshqaruvida hokimiyat qanday an’analarga asoslangan edi?
3. Turon tarixida qaysi sulola davrida hokimiyat avloddan avlodga o‘tmasdan oliy hukmdor saylab qo‘yilgan?
4. Bo‘lajak hukmdorni oq kigizda ko‘tarish orqali amalga oshirilgan tadbir qaysi xalqning udumi bo‘lgan?

Tarix saboqlari

Shayboniylar davrida davlat boshqaruvi

Shayboniylar davri davlat boshqaruvi ularga qadar ko‘p asrlar davomida shakllangan, asosan, o‘troq aholiga xos murakkab idora tizimi an’analari hamda ayrim hollarda yarimko‘chmanchi jamiyat an’analarini o‘zida birlashtirgan. Chunonchi, dargoh va devonlar tizimida biroz o‘zgarish yuz beradi.

Ya’ni endi devonlarning ish vazifalari dargoh huzuridagi xizmatlar zimmasiga yuklatiladi. Shu tariqa, devonlarning davlat boshqaruv tizimidagi o‘rni yo‘qolib boradi.

Davlat boshqaruvining oliy organi dargoh hisoblangan. Davlat tepasida oliy hukmdor – xon turgan. Xonlikka nomzodni taxtga o‘tqazish uni oq kigizga solib ko‘tarish orqali amalga oshirilgan. Bu marosimda kigizning to‘rt uchini xonga mansub urug‘ning qudratli vakillari, asilzoda amirlar va ulamolar ushlab turishgan.

Taxt dastlab otadan bolaga emas, balki shayboniylar orasidagi yoshi katta shaxsga nasib etgan. Lekin Abdullaxon II davriga kelib, oliy hukmdorlik mavqeyining otadan o‘g‘ilga o‘tish an’anasi shakllana boshladi.

Taxt vorisi “navvob”, “qolg‘a”, “kichik xon” deb atalgan. Masalan, Ko‘chkunchixon oliy hukmdor bo‘lgach, yosh jihatdan xondan keyin ikkinchi o‘rinda turgan uning ukasi Suyunchxo‘ja “qolg‘a” sifatida belgilangan. Suyunchxo‘janing vafoti munosabati bilan, xondan keyingi yoshi ulug‘ shahzodalardan biri – Jonibek sulton valiahd etib belgilanadi. 1529-yili u ham hayotdan ko‘z yumgach, eng katta shahzodalar Abu Said va Abdulla birin-ketin “qolg‘a”, keyin esa oliy hukmdorlik martabasiga ko‘tarilishgan. Abdullaxon II tomonidan kiritilgan tartibga ko‘ra, valiahdga boshqarish uchun Balx viloyati beriladigan bo‘ldi.

Oliy hukmdor huzurida o‘tkazilgan majlislar va qabul marosimlarida har bir mansab va lavozim egasi faqat uning uchun ajratilgan joyda o‘tirishi lozim bo‘lgan.

Bu joy lavozimning katta-kichikligiga qarab xonning o‘ng yoki so‘l tarafida, oliy hukmdorga yaqin yoki uzoqroqda bo‘lishi mumkin edi. Nufuzli amaldorlar bu majlislarda o‘tirib, ba’zilari esa faqat tik turib ishtirok etardilar.

Hokimiyat tepasiga kelgan shayboniy hukmdorlar birinchi navbatda sulola vakillari, qarindosh-urug‘larini mulk bilan ta’minlaganlar. Ular o‘zlariga ajratilgan viloyatlarning hokimi ham hisoblanishgan. Ayni paytda ular ham markaziy hokimiyatdagi kabi boshqaruv tizimini tashkil etganlar.

Dargohda yirik amaldor **naqib** sanalgan. Bu lavozimni egallagan shaxs oliy hukmdorning eng yaqin va ishonchli kishisi bo‘lib, xon qabulidagi marosimlarda oliy hukmdorga juda yaqin o‘tirgan. Ichki va tashqi siyosat, harbiy masalalarda xonning asosiy maslahatchisi sifatida e’tirof etilgan.

Davlat ahamiyatiga molik lavozimlardan yana biri **otaliq** edi. Shahzodalar tarbiyasiga mutasaddi bo‘lgan otaliqlar, odatda, qabilalarning yoshi katta amirlaridan tayinlangan.

Oliy hukmdor chiqargan hukmlar, yorliqlarni ijrochilarga, muayyan amalga tayinlangan amaldorga yetkazuvchi **parvonachi** ham dargohda muhim o‘rin egallagan. Harbiy harakatlar davrida parvonachi qo‘shinga qo‘mondonlik qilgan.

Aholining arz-dodlari va iltimoslari aks etgan xatlarni qabul qiluvchi va ularga javob qaytaruvchi, mamlakatdagi adolat tartiblariga rioya qilinishini nazorat qiluvchi amaldor **dodxoh** edi. Shuningdek, ushbu mansab egasi elchilarni qabul qilgan, elchilarni kutib olish va kuzatish ishlarini tashkil etgan va o‘zi ham elchi sifatida boshqa mamlakatlarga borib kelgan.

Shayboniylar davri boshqaruv tizimida eng muhim o‘rin tutgan lavozimlardan biri **ko‘kaldosh** edi. Bu lavozim egasi oliy hukmdor va sulolaga eng yaqin kishilardan biri sanalib, odatda, hukmron sulolaning biror-bir vakili bilan bir onani emgan shaxs bo‘lgan.

Hukmron sulolaga tegishli yer-suv, mol-mulk boshqaruvi, nazorati va soliq ishlarini olib borgan maxsus tuzilma manbalarda **devoni sarkorixossa** tarzida uchraydi. Bu davrda **devonbegi** – bosh vazir ham faoliyat yuritgan. Ushbu mansab egasi mamlakatning muhim ishlari, mol-mulk, moliya, soliq, yer-suv masalalari, mansablarga tayinlash va bularning barchasi haqida oliy hukmdorga har kuni hisobot berib turishga mas’ul bo‘lgan.



Qabul

Oliy hukmdor bilan shahzodalar o‘rtasidagi aloqalarni o‘rnatilgan tartiblar asosida yo‘lga qo‘yish ishi bilan xon **yasovuli** shug‘ullangan.

Dargohda boshqa lavozim va mansablar ham mavjud bo‘lib, ular jumlasiga saroy xavfsizligi, tartib, keldi-ketdidan xabardorlik zimmasiga yuklatilgan **eshik og‘asi,** hukmdor tomonidan tortiq qilingan kiyimlar, harbiy asbob-anjomlar, shuningdek, soliq daftarlariga yig‘ilgan xirojni yozib borish yuklatilgan **mushrif,** tungi qo‘riqlash boshlig‘i – **mirshab,** oliy hukmdorga tegishli yilqi, ot-ulov, ularning ta’minoti kabilarga javobgar **miroxur,** xorijlik elchilarni qabul qilishga mutasaddi bo‘lgan **shig‘ovul, dasturxonchi, munshiy,** ovqat suzuvchi va ichimlik quyuvchi – **to‘qsoba,** ov qurol-aslahalari va ov qushlari, itlariga mas’ul bo‘lgan **qushbegi** shug‘ullangan.

Xonlikda **jibochi, jarchi, qorovulbegi, kitobdor, mirzaboshi, muhrdor, xazinachi, mehtar** kabi lavozimlar ham bo‘lgan. Jamiyat hayotida **shayxulislom, muftiy, qozilarning** ham o‘z o‘rni bo‘lgan. Ular intizom va tartibni shariat qonunlari bo‘yicha saqlab turishga harakat qilishgan. Qozilar oliy hukmdor – xon tomonidan tayinlangan.

Poytaxt shahar – Buxoro qozisi bosh qozi – **qozikalon** deb atalgan. Unga viloyatlar qozilari bo‘ysungan. Shuningdek, qo‘shinda **qozi askar** lavozimi ham bor edi. Ko‘p hollarda qozilarni tayinlashda ularning qozilar avlodidan ekaniga alohida e’tibor qaratilgan. Murakkab boshqaruv tizimida **sadr, muhtasib, rais** singari lavozimlar ham bo‘lgan.

Abdullaxon II davrida harbiy san’at taraqqiy etgan. Qo‘shin tarkibini nayza, qilich, manjaniq, naftandoz va shotular bilan qurollangan otliq va piyoda qismlar tashkil etgan. XVI asrning ikkinchi yarmidan qo‘shin Usmonli (sultonligi) va Rossiyadan keltirilgan pilta miltiq va zambaraklar bilan qurollantirila boshlangan.



Askar (surat nusxasi)

Bilasizmi?

Abdullaxon II davrida mamlakat hududi Qashqardan Orol va Kaspiy dengizlari sohillarigacha, Turkiston va Sayramdan Xurosonning sharqiy qismigacha bo‘lgan yerlardan iborat edi.

Mustaqil faoliyat

1. Temuriylar davridagi davlat boshqaruv shakli bilan shayboniylar davlat boshqaruvini solishtirib chiqing. O‘xshash va o‘ziga xos jihatlarini aniqlang.
2. Shayboniylar davridagi davlat boshqaruvi iyerarxiyasini tuzing.

5-§. SHAYBONIYLAR DAVRIDA IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOT

O‘ylab ko‘ring

1. Nima deb o‘ylaysiz, yuzaga kelgan siyosiy vaziyatdan so‘ng aholining turmush tarzi qay darajada o‘zgargan?

2. Bu davrda aholining asosiy qismi qanday yumushlar bilan shug‘ullangan? Qaysi kasblar rivojlangan?

Tarix saboqlari

Shayboniylar davrida xalqning turmush tarzi

Shayboniylar davrida aholi turli ijtimoiy guruhlardan tashkil topgan bo‘lib, hukmdor sulola – xon, shahzodalar, amirlar, turli toifa amaldorlar, harbiylar, katta-kichik mulk egalari, dindorlar, mudarrislar, dehqonlar, hunarmand va savdogarlar, qishloq va shahar kambag‘allaridan iborat edi.

Aholining asosiy qismi sug‘orma dehqonchilik qilishga qulay bo‘lgan vohalar va ularda joylashgan shahar, qishloqlarda yashagan. Shuningdek, yarimko‘chmanchi hayot tarzini kechirgan abdal, qarluq, qang‘li, barlos, jaloyir va boshqa urug‘lar, asosan, lalmi yerlarda yashab, dehqonchilikdan tashqari chorvachilik bilan ham shug‘ullanishgan.

Shayboniy hukmdorlar iqtisodiyotning asosiy sohasi – dehqonchilikni rivojlantirishga katta e’tibor berishgan. Harbiy harakatlar natijasida dehqonlarning xonavayron qilingan xo‘jaliklarini tiklashga qaratilgan qator chora-tadbirlar ko‘rilgan.

Misol uchun, Shayboniyxon davlat xazinasiga tushadigan soliqlar hajmining pasayib ketmasligini ta’minlash maqsadida qochib ketgan dehqonlar va kichik yer egalarini o‘z joylariga qaytaradi va ularga soliq to‘lashda imtiyozlar beradi.

Dehqonchilikni rivojlantirishda sun’iy sug‘orish tizimi muhim o‘rin tutgan. Zarafshon, Chirchiq, Sirdaryo, Amudaryo, Vaxsh, Murg‘ob daryolaridan mahalliy aholi asrlar davomida unumli foydalanib kelgan.



Shayboniylar ham bu an’anani davom ettirishgan. Ularning hukmronligi davrida yangi sug‘orish tizimlarining barpo etilishi, eskilarining ta’mirlanishi dehqonchilikning nisbatan jonlanishiga samarali ta’sir ko‘rsatadi.

Muhammad Shayboniyxon Zarafshon daryosining Oqdaryo va Qoradaryoga ayrilish yerida suvtaqsimlagich qurdirgan, Abdullaxon II tomonidan Oqjobda Abdullaxon bandi, XVI asrning ikkinchi yarmida Puli Karmina, Puli Mehtar, Puli Jondor va boshqalar quriladi.

Zarafshon daryosidan Jizzax vohasigacha tortilgan va Sangzor daryosi bilan tutashuvchi Tuyatortar arig‘i, Murg‘ob vohasidagi Hovuzixon suv ombori, Afshona arig‘i, Amudaryodan Chorjo‘ygacha, Murg‘ob daryosidan Marv atrofiga chiqarilgan ariqlar ham aynan Abdullaxon II boshchiligida bajarilgan ishlardir. Bir so‘z bilan aytganda, yurtda sug‘orish inshootlari yaratiladi, ko‘priklar quriladi va ariqlar qaziladi.

Muhammad Shayboniyxon tomonidan qurdirilgan Zarafshon daryosining Oqdaryo va Qoradaryoga ayrilish yeridagi suvtaqsimlagich



Manbalarda

“... Ayniqsa ul hazrat Abdullaxon zamonida va shu kunlarda, ya’ni to‘qqiz yuz to‘qson uchunchi yilda uning obodonchiligi kundan kunga ortmoqda. “Odamlar o‘z podshohlarining dinida bo‘ladilar” (maqolining) taqozasicha, arkon-u davlatdan har biri Buxoroda ul hazrat Abdullaxonga muvofiq qilib ko‘p binolar: masjidlar, rabot va ko‘priklar hamda havuzlar bino qildilar. Olimlar, zohidlar, taqvodorlar va diyonatchilarning maoshlari uchun ekinzorlar, obod joylarni vaqf qildilar”.

Hofiz Tanish Buxoriy, “Abdullanoma”

O‘ylab ko‘ring

1. Nima deb o‘ylaysiz, xo‘jalikni tiklash uzoq vaqt urush va notinchlikda bo‘lgan davrdan so‘ng xalq hayoti va davlat iqtisodiyotiga qanday ta’sir ko‘rsatadi? Bularning ichida kichik xo‘jaliklarning o‘rni qanday deb o‘ylaysiz? Zamonaviy til bilan aytganda, kichik biznesni rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotiga qanday ta’sir qiladi?

2. Suv inshootlari va ko‘priklarning qurilishi mamlakat iqtisodi uchun qanday ahamiyatga ega? Fikringizni bugungi kun bilan bog‘lab tushuntiring.

Manbalarda

1582-yil (bundan 442 yil oldin) – Buxoro hukmdori Abdullaxon II Sohibqirondan o‘rnak olib, Amir Temur bundan qariyb 200 yil oldin qurdirgan minora qarshisida Ulug‘tog‘ safaridan yodgorlik sifatida masjid qurdiradi. Bu haqda tarixchi Hofiz Tanish Buxoriy shunday yozadi: “O‘sha kuni (1582-yil 3-may) namozi peshingacha to‘xtab lashkarga buyurdiki, “Ko‘p tosh to‘plasinlar”. Buyruqni bajarib to‘plangan toshdan-u makonda bir masjid bino qildilar. Shu bilan ro‘zg‘or sahifalarida u balandqadr shohdan bir yodgorlik qoldirdilar. Shunday ishni firdavsmakon, din-u dunyo qutbi shahriyor Amir Temur Ko‘ragon... ham qilgan edi”.



Surxondaryoda xalq orasida Iskandar ko‘prigi nomi bilan mashhur bo‘lgan G‘ishtko‘prik

Bilasizmi?

Abdullaxon bandi

Bu inshoot qoldiqlari Navoiy viloyati Nurota tumanining Eski Oqchob qishlog‘i yaqinidagi Beklarsoy darasida hozirgacha saqlangan.

1582-yilning kuzida Abdullaxon Qipchoq dashtidagi Bobo Sultonga qarshi jangdan qaytayotganda Oqchob darasida band qurdirishga buyruq beradi. Chunki bahorgi yog‘ingarchilikdan so‘ng bu yerda ko‘p miqdorda suv to‘planar, bu suvlardan hech foydalanilmas edi. Oqchob darasi Nurota tizmasining Jo‘sh qishlog‘iga yaqin yerda joylashgan. Nurota hududida qurilgan bu to‘g‘on shayboniylar davridagi ulkan va ancha murakkab suv inshootlaridan biri bo‘lgan. Bugungi kunda to‘g‘onning uchdan ikki qismi saqlanib qolgan.



Tarix saboqlari

Shayboniylar davrida hunarmandchilik



Shayboniylar davrida ham iqtisodiy munosabatlarda muhim o‘rin tutgan hunarmandchilik keng rivojlangan edi. Samarqandda tuzilgan qozilik hujjatlarida oltmishdan ortiq hunar turi keltirib o‘tilgani buning tasdig‘idir.

Hunarmandchilikning eng rivojlangan asosiy sohalaridan biri to‘qimachilik edi. To‘quvchilar yaratgan ko‘pdan ko‘p mahsulot turlariga qo‘shni qishloqlar, boshqa shaharlar va mamlakatlar orasida ham talab katta bo‘lgan.

Mamlakatning turli markazlarida ip gazlamalar (bo‘z, olacha, zandanachi, chit), ipak gazlamalar, oltin va kumush bezakli yo‘l-yo‘l parchalar, atlaslar, baxmallar, kimxob, tafta va zarbof, yarimipak gazlamalar va boshqalar ishlab chiqarilgan. Bu matolarga xorijda ham talab katta edi.

Manbalarda



Sirlangan sopol ko‘za

“Yaxshi nonvoyliklari va oshpazliklari bordir. Shaharni mashhur etgan yana bir mahsulot yozuv qog‘ozi bo‘lib, olamda yaxshi qog‘oz Samarqanddan chiqadi. Qog‘oz juvozlariga suv butkul Konigildan kelgan. Samarqandlik hunarmand-qog‘ozgarlar ipakdan (qog‘ozi abrishumi), yarim-ipakdan va paxtadan qog‘oz tayyorlashgan. Qog‘ozning qizil, ko‘k, sariq va boshqa ranglarga bo‘yalgan xillari ham mavjud edi”.

Zahiriddin Muhammad Bobur, “Boburnoma”



Shisha idish



Egar



Sirlangan sopol lagan



Qalam

Eng mashhur matolardan biri Samarqandning baxmali edi. Zahiriddin Muhammad Bobur “Samarqandning yana bir matosi qirmizi baxmaldirki, uni atrof va yiroq-yaqinlarga eltadilar”, deb yozgan.

Bo‘yoqchilik, kiyim-bosh (to‘n, ko‘ylak, ro‘mol, poyabzal va boshqalar), kulolchilik (turli-tuman idishlar, tandirlar, g‘isht, qurilishda ishlatiladigan koshinli g‘ishtlar va h.k.), yog‘ochga ishlov berish, kemasozlik, teriga ishlov berish, metallar – temir, mis, birinj, cho‘yan, kumush, oltin kabilardan turli-tuman uy-ro‘zg‘or buyumlari, mehnat qurollari, binolar qurilishida ishlatiladigan turli temir moslamalar va buyumlar, zeb-ziynat asboblari, harbiy qurol-aslahalar ishlab chiqarish ham rivojlangan.

Abdullaxon II ning “oltin dubulg‘a”si va “yuzlab ko‘zlar ochilib turgan sovut”i haqidagi ma’lumot temirchi-ustalarning yuksak mahoratidan darak beradi.



Mustaqil faoliyat

1. Mavzuda berilgan rasmlar asosida shayboniylar davrida ilm-fanning qaysi sohalari rivojlanganligini mulohaza qiling.

2. Ushbu hunarmandchilik mahsulotlarini yasash uchun qanday bilim, ko‘nikma va malakalar kerak bo‘ladi? Har bir buyum yuzasidan o‘z xulosangizni yozing. Buyumlarga tarixiy ashyo sifatida baho bering.



Qalamdon



Mis ko‘za



Sirlangan sopol tovoq



Sirlangan sopol koshin



Ayollar taqinchog‘i, tumor

6-§. SHAYBONIYLAR DAVRIDA ICHKI VA TASHQI SAVDO

O‘ylab ko‘ring

1. Shayboniylar davrida ichki va tashqi savdoning rivojlanishi uchun qanday omillar yuzaga kelgan edi? Hunarmandchilikning rivojlanishi tashqi savdoga qanday ta’sir etgan?

2. To‘yingan bozor va to‘yinmagan bozor tushunchalariga izoh bering.

3. Mazkur davrda jahon bozorlarida qanday mahsulotlar xaridorgir bo‘lgan?



Savdogar

Tarix saboqlari

Shayboniylar davrida ichki va tashqi savdo rivojlanishda davom etadi. XVI asr o‘rtalarida Buxoroda bo‘lgan ingliz diplomati Antoni Jenkinson: “Shaharda har yili Hindiston, Eron, Balx, Rossiya va boshqa ko‘plab mamlakatlardan keluvchi savdogarlarning yig‘ilishi bo‘ladi”, deb qayd etgan.

Xorijiy savdogarlar mamlakatga o‘z yurtlaridan asl mollarni olib kelishgan va bu yerdan o‘z davlatlarida ehtiyojtalab mahsulotlarni olib ketishgan. Xususan, hindistonlik savdogarlar qimmatbaho toshlar, marvarid, shuningdek, novshadil, kimxob, doka, chubi sandal, shakar, novvot, xina, sano, o‘sma, zarchuba, haqiq va turli noyob matolar, shol (rizoyi – bir xil rangdagi, raxdor – yo‘l-yo‘l, butador palma tasviri tushirilgan), belbog‘lar uchun mato, alvon, yarimetik juroblar (paypoq) va qo‘lqoplar, qalamdonlar, qo‘lyozmalar va boshqalarni olib kelishgan. Mamlakatning turli markazlari o‘zining ixtisoslashgan bozorlari bilan mashhur bo‘lgan.

Antoni Jenkinson – ingliz sayyohi, savdo agenti va diplomat. Yevropa, Osiyo va Afrikaga sayohat qilgan.

U Amudaryo, Mang‘it ulusi, Xorazm va Buxoro xonligining XVI asr o‘rtalaridagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli, shuningdek, O‘rta Osiyo xalqlarining turmushi, odatlari va boshqalar haqida muhim tarixiy ma’lumotlar yozib qoldirgan.



Manbalarda

“Samarqand shahri ajoyib orasta bir shahardir. Bu shaharning bir xususiyati borki, bunaqasi kamdan kam shaharda bo‘ladi, ya’ni har hunarmandning alohida bozori bor, bir-biriga aralashgan emas, bu qiziq rasmdir”.

Zahiriddin Muhammad Bobur, “Boburnoma”

Tarix saboqlari

Shayboniylar davrida pul munosabatlari

Shayboniylar davrida oltin (“ashrafiy”), kumush (“tanga”, “tangacha”, “xoniy”), kumush va mis aralashmasidan tayyorlangan mis tangalar (“mis dinor”, “dinor”) muomalada bo‘lgan.

Muhammad Shayboniyxon va Abdullaxon II tomonidan oltin tangalar zarb etilgani ma’lum. Jumladan, Muhammad Shayboniyxon turli og‘irlikdagi tangalar o‘rniga bir xil og‘irlik o‘lchoviga ega kumush (5,2 gramm) va mis tangalar zarb ettirgan.

XVI asrning birinchi choragida ikki dinor, uchdan ikki, yarim, uchdan bir va oltidan bir dinor qiymatiga ega mis tangalar muomalaga chiqarilgan. Eng kichik mis tanga **pul** deb atalgan.

Kumush tangalarning qiymati mis tangalar bilan belgilanib, u 20–21 mis tangaga teng bo‘lgan. Asta-sekinlik bilan kumushning narxi oshib borgan. Bu esa kumush tangalarning davlat hududidan olib chiqib ketilishiga sabab bo‘lgan.

Natijada zarbxonalarga kumush tanga zarbi uchun keltiriladigan metallning hajmi kamayib boradi. Shunday sharoitda Abdullaxon II pul islohotini o‘tkazib, juda kichik tanga tarzidagi oltin tanga zarb ettiradi. Kumushning tanqisligi tufayli kumush tanganing qiymati bir yarim barobar oshadi.

Abdullaxon II o‘tkazgan pul islohoti natijasida tanga zarb etish nisbatan markazlashtiriladi. Asosiy zarbxona Buxoroda bo‘lib, Balx, Samarqand va Toshkentda ham tanga zarb etilgan.

Shayboniyxon chiqargan tangalarda u olgan unvonlar: “Eng buyuk sulton, rahmdil (Allohning) podshohi, din himoyachisi”; “O‘z davrining imomi, rahmdil (Allohning) hokimi Abulfath”, degan yozuvlar bo‘lgan.

Yozuvlar har xil bo‘lib, ikkinchisida ancha aniqroq, ilohiy fikr ifodalangan va sarlavhada Shayboniyxon o‘z davrining imomi ekanligi ta’kidlangan.



Shayboniyxon tomonidan Buxoroda zarb qilingan tanga, 1510-yil

Tarix saboqlari

Shayboniylar davrida soliq siyosati

1. Tarixda soliqlar qanday paydo bo‘lgan?
2. Soliqlarning qanday turlarini bilasiz?
3. Soliqlarsiz davlat faoliyat ko‘rsatishi mumkinmi? Soliqlar nimalarga ishlatiladi?
4. Kimlarni faol soliq to‘lovchi deb ayta olamiz?
5. Sizning oilangiz qanday turdagi soliqlar va majburiy to‘lovlarni to‘laydi?

Shayboniylar davrida ham asosiy yer solig‘i temuriylar zamonidagi kabi **xiroj** (mol) deb atalgan.

Bog‘lar va polizlarning har tanobidan **tanob puli**, bedazorlardan **alaf puli** undirilgan bo‘lib, bu ikki soliq turi ba’zan yagona nom bilan **tanobona** deb atalgan.

Shuningdek, xon saroyi, boshqaruv tuzilmasi va harbiy kuchlarni ta’minlash uchun turli soliqlar to‘plami – **ixrojot** joriy etilgan. Bu soliqlardan tashqari, aholi barcha musulmon davlatlaridagi kabi zakot to‘lagan. Unga ko‘ra, har bir musulmon o‘z daromadining 1/40 qismini **zakot** tarzida to‘lashi lozim edi. Ko‘chmanchi va yarimko‘chmanchi aholi zakotni tovar bilan to‘lagan. Ya’ni 40 ta qo‘ydan bir qo‘y to‘langan. Qo‘shin ta’minoti uchun **tog‘ar,** askarlar uchun oziq-ovqat, ot va tuyalar uchun yem-xashak – **oshlig‘** kabilar undirilgan.

Aholi bir qator mehnat majburiyatlarini bajarishga – sug‘orish tizimlarini barpo etish, ta’mirlash va tozalash, qal’a yoki qo‘rg‘onlar va shahar devorlarini qurish, qayta tiklash, ta’mirlash kabi ishlarga jalb etilgan.

Mustaqil faoliyat

1. Iqtisodiy bilim asoslari fanidan olgan bilimlaringiz asosida javob berishga harakat qiling:
   - Davlat qanday holatlarda pul islohotlarini o‘tkazadi?
   - Shayboniylar davrida pul islohotlarini o‘tkazish uchun zarurat mavjud edimi?
   - Pul islohotlari davlatning soliq siyosatiga ta’sir etadimi?

2. Shayboniylar davrida mavjud bo‘lgan soliqlar ro‘yxatini shakllantiring. Uni Amir Temur va temuriylar davrida mavjud bo‘lgan soliq turlari bilan taqqoslang.



7-§. SHAYBONIYLAR DAVRIDA MADANIY HAYOT

O‘ylab ko‘ring

1. Xalqlar madaniyatining rivojlanish darajasi nimalar asosida belgilanadi?
2. Ilm-fan, madaniyat rivojlanishi uchun qanday omillar zarur?

Tarix saboqlari

Umumiy manzara

O‘rta Osiyodagi XVI asrga oid me’morchilik obidalarining asosiy qismi Abdullaxon II davrida bunyod etilgan bo‘lib, manbalarning ma’lumot berishicha, ularning soni 1000 dan oshadi.

Shayboniylar davrida ham madaniy hayotning ko‘plab jabhalari: adabiyot, tarix, xattotlik, musiqa, epigrafika, me’morchilik, naqqoshlik san’ati, tasviriy san’at, fiqh, tibbiyot, riyozat (matematika), handasa (geometriya), astronomiya (ilmi nujum) rivojlandi. Bu davrda yaratilgan adabiy asarlar orasida buxorolik adabiyotshunos olim va shoir Hasanxo‘ja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob” (Do‘stlar yodnomasi) asari davr haqida qimmatli ma’lumotlarni taqdim qiladi. Abdullaxon II ga atab yozilgan mazkur asar O‘rta Osiyo, Eron va Hindistondagi adabiy muhit haqida boy ma’lumotlar beruvchi muhim manba hisoblanadi.

Hukmron sulola vakillari adabiyot rivojiga homiylik qilish bilan birga o‘zlari ham ijod bilan shug‘ullanganlar. Xususan, Shayboniyxon, Ubaydullaxon, Abdullaxon II, Do‘st Muhammad Sulton (Navro‘z Ahmadxonning o‘g‘li) kabilarning ayrim asarlari va g‘azallari bizgacha yetib kelgan.

Shayboniylar davrida mamlakat madaniy hayotining asosiy markazlari an’anaviy ravishda Samarqand va Buxoro bo‘lib qolavergan. Abdullaxon II Buxoroni uzil-kesil davlat poytaxtiga aylantirgan va u yerda “madrasa, masjidlar, darvishlar xonaqolari, daryolardagi ko‘priklar, savdo yo‘llarida yaxshi himoyalangan to‘xtash joylari (rabotlar) va boshqa foydali binolarni qurishda cheksiz xatti-harakatlarni amalga oshirgan”. Shahar hududiy jihatdan ham kengayib borgan. Uning yaqinidagi Sumiton qishlog‘ining poytaxt hududiga kiritilishi munosabati bilan shahar devorlari qayta qurilib, bu yerda Yangi darvoza – Darvozayi nav barpo etilgan.

Mamlakatning Buxoro, Samarqand, Toshkent, Qarshi, Karmana, Turkiston, Marv, Balx, Hirot, Xiva kabi ko‘plab shaharlarida turli me’morchilik inshootlari – madrasa va masjidlar, xonaqohlar, timlar, minoralar, hammomlar, karvonsaroylar, sardoba va ko‘priklar bunyod etilib, shaharlar devorlari ta’mirlangan.

Misol uchun, Samarqanddagi Shayboniyxon qurdirgan Xoniya, Abu Said va Qulbobo Ko‘kaldosh nomlari bilan bog‘liq madrasalar, Samarqand yaqinidagi suvayirg‘ich, Buxoroda shahar devorining ta’mirlanishi, Mir Arab, Abdullaxon, Modarixon madrasalari, Toshkentdagi Baroqxon (hozirgi Hazrati Imom) va Ko‘kaldosh madrasalari, Turkistonda Shayboniyxon masjidi, Karmanada Qosim Shayx masjidi, Balxda qal’a devorining ta’mirlanishi, Abdullaxon madrasasi, Hirotda Ko‘kaldosh madrasasi kabilar shular jumlasidandir.

Bu davrda miniatyuralar ishlangan qo‘lyozma kitoblar soni salmoqli edi. Ularda oldingi davrlardagi miniatyuralardan farqli ravishda oddiy xalq vakillari – baliqchilar, yog‘och kesuvchilar, bog‘bonlar va boshqalar aks ettirilgan. Bu davrda portret janri ham rivojlangan. Bunga Abdullaxon II portreti (1570) misol bo‘la oladi. Abdullaxon II ning Xuroson va Mashhadga yurishlari davomida Buxoro kutubxonasi to‘ldiriladi va bu yerga safaviylar miniatyura maktabi an’analari ham kirib keladi.

O‘zbek davlatining Hindiston bilan munosabatlari mustahkamlanishi natijasida Buxoro qo‘lyozma kitoblarida hind uslubidagi miniatyuralar chizish rasm bo‘la boshlagan.

Xattotlar tomonidan yuqori saviyada ko‘chirilgan asarlar rassomlar tomonidan go‘zal miniatyura va zarvaraqlar bilan ziynatlanib, Abdulazizxon (1509–1550) kutubxonasida saqlangan. Kutubxonani shaxsan ko‘rgan va undan foydalangan mashhur adib va shoir Hasanxoja Nisoriy: “Abdulazizxonning kutubxonasida kotiblar podshohi Amir Ali Husayniy, kitobdor (kitobxona boshlig‘i) mavlono Sulton Mirak Munshiylar faoliyat yuritgan”, deya qayd etgan.

Manbalarda

Muhammad Shayboniyxonning saroy majlisida uyushtirilgan ilmiy munozaralarda Movarounnahrning yirik olimlari ishtirok etib, o‘z fikrlarini bildirganlar.

Masalan, 1502-yil Samarqand yaqinidagi Konigilda o‘tkazilgan shunday majlislarning birida urushlar va o‘zaro tortishuvlar natijasida qarovsiz qolgan mulk yerlaridan foydalanish haqida qaror qabul qilingan edi. Shuningdek, uning hukmronligi davrida tarixiy va badiiy adabiyotda o‘zbek tilining mavqeyi kuchayadi. Xonning buyrug‘i bilan fors tilida va mo‘g‘ul yozuvida bitilgan asarlar turkiy tilga tarjima qilinadi.

Bundan tashqari, mashhur tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiyning tarixiy asarlari, xususan, “Zafarnoma”si, Ulug‘bekka bag‘ishlangan “Muntaxabi Jome’ va tavorixi shoni” nomli asarlari ham o‘zbek tiliga o‘girilgan.

Tarix saboqlari

Mazkur davrda uzluksiz va ko‘p qirrali ilmiy-adabiy muhit yuzaga keladi. XVI asrdagi mumtoz an’analarni davom ettirgan holda yangi asarlar yaratiladi. Xususan, bunday mumtoz asarlar qatoriga Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”, Muhammad Shayboniyxonning “Devon” va “Bahr ul-hido” (“Hidoyat dengizi”) nomli dostonlarini kiritish mumkin. Shayboniyxon devoni hozirgi kunda Istanbulning To‘pqopi saroyi muzeyida, “Bahr ul-hido” esa Britaniya muzeyida saqlanadi.

Bu davrda yaratilgan tarixiy asarlar ichida “Shayboniynoma” asari ajralib turadi. Asar muallifi Muhammad Solih – shoir, tarixchi, davlat arbobi. “Shayboniynoma” asari she’riy uslubda yozilgan bo‘lib, unda Shayboniyxonning tug‘ilganidan boshlab, 1505-yillar orasida Qipchoq dashti, Movarounnahr hamda Xorazmda ro‘y bergan ijtimoiy-siyosiy voqealargacha hikoya qilinadi. Muhammad Shayboniyxon, Ubaydullaxon, Abdullaxon II kabi hukmdorlar fan va madaniyatni rivojlantirishga alohida e’tibor berishi natijasida Movarounnahrda adabiy muhit yuzaga keladi. Ushbu hukmdorlar tomonidan asarlar, she’r va g‘azallar yaratildiki, ular bevosita ilmiy-madaniy jarayonlarning rivojlanishiga turtki berdi.

Manbalarda

Tibbiyot sohasida tabib va olim Sulton Ali inson tanasi kasalliklari va davolariga bag‘ishlangan “Dastur al-iloj”, “Muqaddimayi dastur al-iloj” risolalarini yozgan.

Muhammad Yusuf “Isitmani o‘rganishga doir”, “Qon tomiri va peshob” kabi asarlarni yaratgan.

Buxoro darvozalari tarixi

Tarix saboqlari

Shayboniyxon ta’lim sohasida ham islohotlar o‘tkazgan. Bu islohotlarning o‘tkazilishiga amaldorlar qatlamini shakllantirish va ularni jamiyatning asosiy tayanchiga aylantirish zarurati sabab bo‘lgan. Xonlar va sultonlarga barcha sohalar bo‘yicha ilmli, diplomatlik qobiliyatga ega bo‘lgan amaldorlar zarur edi. Islohotga ko‘ra, ko‘p bosqichli o‘qitish tizimi joriy etilgan.

Ta’limning quyi bosqichi maktab hisoblangan. Bolalar maktabga 6 yoshidan qabul qilingan. Maktabda ikki yil o‘qigach o‘quvchilar madrasaga o‘tkazilgan. Madrasada 3 bosqichli ta’lim joriy etilgan bo‘lib, uning har bir bosqichida 8 yildan o‘qilgan. Shu tariqa o‘qish 26 yil davom etgan.

Mustaqil faoliyat

1. Nima uchun Shayboniyxon va uning davomchilari mamlakatda ilm-fanning rivojlanishi uchun sharoit yaratishga harakat qildilar?
2. Shayboniyxonning ta’lim sohasidagi islohotlaridan ko‘zlangan maqsad nima edi?
3. Siz Shayboniyxonning o‘rnida bo‘lganingizda mamlakatni iqtisodiy nochorlikdan olib chiqish uchun qanday tadbirlar ko‘rgan bo‘lardingiz? Ilm-fan rivojiga e’tibor berarmidingiz? Javobingizni asoslang.



Bilasizmi?

Buxoroda mashhur Abdullaxon kutubxonasi tashkil qilingan.



Manbalarda

“Kunlardan bir kun shoir va adabiyotshunos Mutribiy Samarqandiy Samarqandning Aliobod nohiyasidagi Xoja Guzor nomli hayvonot va nabotot olami namunalari qo‘riqlanib, parvarishlanadigan joyda Abdullaxon II bilan ko‘rishish sharafiga musharraf bo‘ladi. Shunda xon unga she’riyat sohasiga oid 3 ta savol beradi.

Mutribiy Samarqandiy esa savollarning barchasiga to‘g‘ri va aniq javob beradi. Abdullaxon II shoirning bilimi va topqirligidan mamnun bo‘lib, unga tahsin aytadi hamda uni movut chakmon va tilla tangalar bilan mukofotlaydi”.

Tazkiranavis olim Mutribiy Samarqandiy



Qosim Shayx maqbarasi. Navoiy shahri

8-§. SHAYBONIYLAR DAVRI ME’MORCHILIGI

O‘ylab ko‘ring

1. Mamlakatda oliy ta’lim muassasalarining ko‘pligi nimadan dalolat beradi?
2. Siz yashayotgan hududda XVI asrda qurilgan tarixiy majmualar, yodgorliklar bormi? Ular haqida nimalarni bilasiz?
3. Mamlakatimizdagi qaysi tarixiy yodgorliklar Butunjahon nomoddiy ma’naviy merosi ro‘yxatiga kiritilgan?

Tarix saboqlari

Shayboniylar 100 yil mobaynida (1500–1601) Markaziy Osiyoda hukmronlik qilib, tarixda salmoqli iz qoldirdi.

Shayboniylar dastlab temuriylar davridagi me’morchilik an’analarini davom ettiradilar. Buxoro shahrida katta qurilish va bunyodkorlik ishlarini amalga oshiradilar. Shaharni ta’mirlash ishlari kengaytiriladi, uning mudofaa devorlari yanada mustahkamlanadi. Shaharning shohko‘chalarida mahobatli jamoat binolari barpo etiladi. Bu qurilishlarda, ularni bezash ishlarida Movarounnahr, Hirot, Balx ustalari ishtirok etadilar.



Toqi Sarrofon. Buxoro

Bilasizmi?

Mir Arab madrasasining qurilishi va o‘ziga xos jihatlarini diqqat bilan o‘rganing. U temuriylar davrida qurilgan madrasalardan nimasi bilan farq qiladi?

Ko‘kaldosh madrasasi (Toshkent)

Shayboniylar davrida Toshkentda Ko‘kaldosh madrasasi qad ko‘targan. Madrasa 1551–1575-yillar orasida qurib ishga tushirilgan. Ko‘kaldosh madrasasi hozirgi Chorsu maydonidagi Shahriston tepaligida, Xo‘ja Ahror Valiy jome masjidining yonida an’anaviy sharq uslubida bunyod etilgan. Binoni qurishda an’anaviy kompozitsiyaga rioya qilingan: chorsu hovlisi keng, hujralar va ochiq ayvonlar bilan o‘ralgan. Hovlining yo‘llari hujralarni (darsxonalarni) masjid bilan ulaydi. Hujralar soni 38 ta bo‘lgan. Ko‘kaldosh Toshkentdagi eng chiroyli madrasalardan biridir.

Madrasa dastlab 3 qavatli edi. Darvozadan kiraverishda chapda masjid, o‘ngda darsxona joylashgan. Masjid va darsxonalarning usti o‘zaro kesishgan ravoqlarga o‘rnatilgan gumbazlardan iborat.

Me’morlar madrasani bezashda, asosan, binoning old tomoniga e’tibor berishgan. Sirkor parchin va girih naqshlar bilan bezatilgan hashamatli peshtoqning ikki yoniga ikki qavatli ravoq ishlangan. Ikkinchi qavatdagi hujralar faqat peshtoqning ikki yonidagina saqlangan. Bosh tarzining ikki burchagi guldastalar bilan yakunlanib, tepasiga qafasa o‘rnatilgan.



Mir Arab madrasasi

Mir Arab madrasasi – Buxorodagi Minorayi kalonning qarshisida joylashgan me’moriy yodgorlik. Mir Arab madrasasi ikki ulkan gumbazi bilan boshqa tarixiy binolardan ajralib turadi. Madrasaning kirish qismi kunbotar tomondadir. Darvoza ulkan peshtoq ostida joylashgan. Bino to‘rt qavatdan iborat bo‘lib, unda 114 ta xona bor. Madrasaning ichki qismi ham ajoyib tarzda loyihalashtirilgan. Hujralarni to‘rtta ulkan peshtoq ajratib turadi. Madrasa binosini 1530–1536-yillarda shayx Mir Arab qurdirgan. Xalq orasida “Mir Arab” nomi bilan mashhur bo‘lgan bu olimning asl ismi Sayyid Abdulloh Yamaniydir. U yigirma ikki yoshida ilm izlab Samarqandga keladi va Xoja Ahror Valiyga shogird tushadi. Xoja Ahror Valiy vafotidan so‘ng uning o‘g‘li Muhammad Bakr Sayyid Abdullohni Buxoro amiri Ubaydullaxon bilan tanishtiradi. Tez orada u ilm-ma’rifati bilan el orasida taniladi va hurmat qozonadi. Biroq madrasa qurilishini nihoyasiga yetkaza olmaydi, 1536-yil boshida Mir Arab vafot etadi va uning vasiyatiga ko‘ra kuyovi Shayx Zakariyo qurilishni oxiriga yetkazadi.

Madrasa O‘zbekiston musulmonlari idorasi tasarrufida bo‘lib, sho‘rolar davrida diniy o‘quv yurti faoliyati vaqtincha to‘xtatilgan. Madrasaga, asosan, maktabni tugatganlar qabul qilingan. 10 yoshdan 40 yoshgacha bo‘lgan talabalar tahsil olgan.

Bosh tarzi ulkan peshtoqli, darvozasi orqasida 5 gumbazli miyonsaroy, ikki yonida baland gumbazli keng darsxona va masjid, go‘rxona joylashgan. Koshinkori naqshlar yozuvlar bilan uyg‘unlashgan. Go‘rxona ichi gumbazosti bag‘ali qalqonsimon muqarnasli, shipi va devorlari ganch o‘ymakorligida bezatilgan, izorasi rang-barang koshinli. Go‘rxonada Ubaydullaxonning yog‘ochdan xotamkori usulida ishlangan sag‘anasi, Mir Arab va uning qarindoshlari qabrlari bor.

Hozirgi kunga kelib Mir Arab madrasasida 3 yil davomida diniy ta’lim bilan bir qatorda umumta’lim fanlari ham o‘qitiladi.



Toqi Zargaron

Mazkur me’moriy yodgorlik ham shayboniy hukmdor Abdullaxon II davrida qurilgan. Toqi Zargaron chorsuda joylashgan ikkita katta yo‘lni me’moriy jihatdan uyg‘unlashtirgan yodgorlik hisoblanadi. Chorsu ikkala yo‘ldagi qatnovni ham osonlashtirgan.

Toqning atrofida to‘rtburchak shaklni hosil qiluvchi kichik gumbazlar mavjud. Sakkiz burchakli xona ulkan gumbaz bilan yopilgan. Ular burchaklardagi do‘kon va ustaxonalar tomi bo‘lgan. Toqning gumbaz tomli xonalari bo‘lib, salqin va qorong‘i edi.

Toqda ziraklar, uzuk, qurol-aslahalar uchun bezaklar, o‘yma muhrlar, munchoq va marjonlar yasalgan.

Toqi Zargaronda chet davlatlardan savdogarlar kelib o‘z buyumlarini sotishgan. Asosan, bu toqqa arablar, forslar, hindlar, ruslar, xitoylar, turklar va boshqa millatga mansub savdogarlar kelishgan. Ular toqda Xitoy shoyisi, Kashmir ro‘moli, Misr zarbof gazlamalari, arab joynamozlari, Tibet ziravorlari kabi mahsulotlar sotishgan. Ovqatlanish uchun ajratilgan joylarda somsa, non va issiq taomlar sotilgan. Mazkur toqda hukmdor farmonlari ham e’lon qilingan.

O‘tmishda uning dalonlarida 36 ta zargarlik ustaxonasi va do‘konlar bo‘lgan. Atrofiga savdo rastalari, ombor, karvonsaroylar qurilgan.

Toqi Zargaron Ulug‘bek madrasasi yonida, qadimiy shahriston markazi – ikkita katta ko‘cha kesishgan chorraha ustini qoplab turadi.

Toqi Zargaronda ayni davrda hunarmandlar ustaxonalari va savdo rastalari mavjud. Ushbu do‘konlarda hozirgi kunda ziravorlar, yog‘ochdan yasalgan buyumlar va zargarlik ashyolari, qadimiy kolleksiyalar sotiladi.



Abdullaxon madrasasi (Buxoro)

Mazkur me’moriy obida Abdullaxon II tomonidan bunyod etilgan. Uning qurilishida xom va pishgan g‘isht, loy, taxta, maxsus “qir” qotishmasi va shu kabi mahsulotlardan foydalanilgan. Me’moriy obidaning hovli atrofini ikki oshyonli hujralar o‘rab turadi. Har ikki tomonida baland peshtoq joylashgan. Peshtoqlar orqali ichkari xonalar va xonaqohga o‘tiladi. Madrasaning katta peshtoqi janubga qaragan. Peshtoq qanotlari va guldastalar sirkor bezaklar bilan pardozlangan. Darvozadan o‘tib, ikki yondagi katta xonalar – darsxona va masjidga kiriladi.

Me’moriy obida Sharq an’analarini o‘zida mujassamlashtirgan, gumbazli uslubda, bezaklar qo‘llanilgan holda qurilgan. Modarixon madrasasi bilan birgalikdagi ko‘rinishi “qo‘sh” uslub namunasi hisoblanadi.

Madrasa darvozasi xotamkori uslubining noyob namunasi – girih shaklli mayda yog‘och parchalaridan terilgan. Me’moriy obidaning o‘ziga xos jihatlaridan biri shundaki, tuzilishi odatdagi madrasalardan ancha farq qiladi. Madrasa ro‘paradagi Modarixon madrasasiga qarab biroz egilgan holatda qurilgan.

Modarixon madrasasi Abdullaxonning onasiga atab qurilganligini hisobga olsak, bu onaga o‘ziga xos hurmat ramzidir. Abdullaxon davri me’morchiligining yetuk namunasi bo‘lgan bu madrasa Buxoro me’morchiligining XVI asrda erishgan barcha ijodiy yutuqlarini namoyon etadi.

Manbalarda

– Shayboniyxon o‘rta osiyoliklarning ichki kuchlariga tayanib yurishlar qilgan va oqibatda chegarasi Amudaryo doirasidan juda uzoqqa cho‘zilgan ulkan mamlakatni barpo etgan buyuk hukmdorlarning oxirgisi edi.

– Ilk Amu va Sir daryolarining narigi tarafidagi musulmonlar bilan G‘arbiy Osiyodagi din qardoshlari o‘rtasida juda yaqin bo‘lmasa-da, doimiy aloqa bor edi. Temuriylarning inqirozi bilan bu aloqa tamom bo‘ladi. Movarounnahr mustaqil bo‘lishi natijasida juda qadim zamonlardagi kabi uning suv hududi Turon bilan Eron orasida asosiy bir chegara holatini oladi.



Buxoro hammomlari

XVI asrda qurilgan Hammomi Bozori kord (erkaklar hammomi) va Hammomi Kunjak (ayollar hammomi) hali-hamon xizmat ko‘rsatib kelayotgan bo‘lsa, Hammomi Sarrofon (erkaklar hammomi) bizning davrimizgacha buzilmay yetib kelgan.

Arxitekturasi bir-biriga juda o‘xshash bo‘lgan bu hammomlarning yechinish xonasi, choy ichib hordiq chiqariladigan katta (yog‘och ustunli) xona, o‘rtada asosiy xona, uning atrofida yuvinish xonalari bo‘lib, ular katta va kichik gumbazlar bilan yopilgan. Ustunlari juda mustahkam.

Hammom yerosti qismining tuzilishida oldin chuqurlik bo‘lib, chuqurlikda go‘lax (olovxona) joylashtirilgan. Keyin issiq havo aylanib yurish yo‘llari bo‘lgan. Xonalar poyostonasi issiq havo yo‘li va go‘lax ustida qurilgan.

Buxoro hammomlari, asosan, madrasa, masjid, bozorlar va boshqa tarixiy binolar markazlari oldida qurilgan. Hammomlar ko‘p xonali, yer ostida gumbazsimon shaklda bunyod etilgan. Hammomlar polosti kanallar orqali issiq havo bilan isitilgan. Oqova suvlar uchun ariqchalar qazilgan, xushbo‘y moddalar va kul suv (ishqorli suv) uchun mo‘ljallangan hovuzchalar sirti suvga chidamli maxsus qorishmalar bilan qoplangan, devorlar ganch bilan suvalgan, sirli sopol parchinlar bilan bezatilgan.

Hammomlarni yoritish va havosini yangilab turish maqsadida gumbazlar cho‘qqisi oynaband qilib ishlangan. O‘rta asrlarda Buxoro hammomlari “garmoba” deb nomlangan bo‘lib, ichki va tashqi me’moriy uslubi o‘zgarmasdan birdek saqlanib kelingan. Hammomlarning ichki qismi dam olish



va yechinish kabi xonalardan iborat bo‘lgan. Asosiy yuvinish xonalariga pillapoya orqali bir metr pastga tushilgan. Mavjud yettita xona ichma-ich qurilgan. Xonalarning havosi bir-biridan issiq va sovuqligi hamda hajmi bilan ajralib turgan. Birinchi xona oyoq yuviladigan xona, harorati o‘rta, sovuqxona ham deyilgan. Sovuqxonaning devor tomonlariga marmartosh bilan uzun supa qilingan. Supalarning usti nafis marmarlar bilan qoplangan. Supalar balandligi yarim metr bo‘lgan. Xonalar katta-kichik hajmdagi gumbazlar bilan bir-biriga tutashtirib borilgan. Sovuq havoli xonalar devori bir qavatli, issiqxonalar devori esa ikki qavatli bo‘lgan.

Manbalarda

1558-yil Buxoroga tashrif buyurgan ingliz sayyohi Antoni Jenkinson bu yerdagi hammomlar haqida shunday deydi: “Ayniqsa, hammomlar shunday ko‘rkam qurilganki, bunaqasi dunyoning hech qayerida yo‘q”.

Mustaqil faoliyat

1. Mamlakatda ilm-fanning rivoji uchun eng zarur bo‘lgan asosiy omillarni qayd eting.

2. Mamlakatimiz hududida XVI asrda qurilgan me’moriy obidalar haqida ma’lumot to‘plang va quyidagi savollarga javob bering.

– Me’moriy obida qurilgan davr.

– Me’moriy obidaning vazifasi nimadan iborat bo‘lgan? Undan nima maqsadlarda foydalanilgan?

– Obidaning arxitekturasi, o‘ziga xosligi.

– Hozirgi kundagi ahvoli.

Javoblaringiz asosida taqdimot tayyorlang.



Baroqxon madrasasi

Baroqxon madrasasi 1531–1532-yillar – XVI asr ikkinchi yarmida Toshkentda qurilgan. Hovli atrofida hujralar va ichki tarafida peshtoq bo‘lib, madrasaning g‘arbiy qismi birmuncha oldinga chiqqan. Poydevori toshdan, qalin devorlari turli hajmdagi pishiq g‘ishtdan ishlangan. Ba’zi joylari sinchli. Baroqxon madrasasi o‘rnida dastlab ikkita (katta va kichik) maqbara bo‘lgan. Kichik maqbarada Baroqxon qabri bor. Baroqxon ikki maqbarani o‘z ichiga olgan madrasa qurdirgan. Madrasaning sharq tomonidagi ulkan peshtoqqa rang-barang sirkor g‘ishtchalardan namoyon terilgan. U handasiy va girih naqshlar bilan hoshiyalangan.

Baroqxon – shayboniylar sulolasidan bo‘lgan xon. Abulxayrxonning nevarasi, Toshkent hokimi Suyunchxo‘janing kichik o‘g‘li edi.

Peshtoqning yuqori qismi saqlanmagan. Asosiy peshtoqning orqa tomonida yana peshtoq va besh qirrali ravoq bor. G‘arb tomondagi ichki peshtoq ko‘k gumbazning tarkibiy qismi bo‘lgan.

Baroqxon madrasasining to‘rt burchagida cho‘ziq xona (qorixona)lar bo‘lgan. Bino shakli va bezaklari o‘z holicha qolgan. Uning 22 m li gumbazi ko‘k sirkor g‘ishtchalar bilan pardozlangan. Gumbaz ostidagi 4,5 m li poygumbazga turli rangdagi sirkor g‘ishtchalardan handasiy va girih naqshlar terib ishlangan, Qur’on suralari bitilgan. Maqbara ichki qismidagi bezaklar keyinchalik ko‘chib tushgan.

Ichki devorning tepa qismida ganchdan ishlangan naqshlar bo‘lib, ularga oltin suvi yugurtirilgan, pastki qismida olti burchakli sopollardan terilgan keng izora bor (ular yashil sirkor, zarhalli g‘ishtchalar bilan ajratilgan). Baroqxon madrasasi naqshlarining go‘zalligi, qurilish uslubi jihatidan Samarqandning eng yaxshi me’moriy yodgorliklaridan biri – XV asrning ikkinchi yarmiga oid Oqsaroyga yaqin turadi.



9-§. SHAYBONIYLARNING TASHQI SIYOSATI

O‘ylab ko‘ring

1. Shayboniylar hokimiyat tepasiga kelgan vaqtda ularning hukmronligiga bevosita ta’sir ko‘rsata oladigan qaysi sulolalar o‘z davlatlarini qura boshlagan edilar?

2. Safaviylar va boburiylarning shayboniylar bilan munosabatlari qanday kechgan? Bu sulolalar shayboniylar hukmronligidagi mamlakatlarga qanday xavf solgan?

3. Faraz qiling, siz shayboniylar saroyida maslahatchisiz. Siz ularga safaviylar, boburiylar bilan qanday munosabat o‘rnatishni maslahat bergan bo‘lardingiz? Nima uchun?

4. 1576-yilda Eronda qanday vaziyat yuzaga kelgan edi? Bu vaziyat qaysi voqealarga sabab bo‘ldi?

Tarix saboqlari

Shayboniylarning Xurosonni qo‘lga kiritish borasida amalga oshirgan tadbirlari

Shayboniylar hokimiyat tepasiga kelgan davrdan boshlab butun XVI asr mobaynida faol tashqi siyosat olib bordilar. Hukmronliklarining dastlabki davridayoq ular bilan oldinma-keyin Eronda safaviylar, Hindistonda boburiylar hukmronligining o‘rnatilishi natijasida mintaqada uch siyosiy kuchning manfaatlari to‘qnashadi. Manfaatlar to‘qnashgan asosiy nuqta siyosiy, harbiy va iqtisodiy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo‘lgan Xuroson edi.

Shayboniylarning Hirot va Balxga egalik qilish borasidagi harakatlari ham bu kurashning markazida turdi.

Xuroson masalasini hal qilish va nazoratda ushlab turishda Muhammad Shayboniyxon, Ubaydullaxon va Abdullaxon II davrida shayboniylarning qo‘llari baland keladi. Boshqa paytlarda safaviylar g‘olib bo‘lishadi. Xuroson uchun bo‘lgan kurashlarni muvaffaqiyatli olib borish yo‘lida safaviylar uchun asosiy to‘siq Usmonli saltanati edi. Navro‘z Ahmadxon, Abdullaxon II va boshqa hukmdorlar usmonli sultonlar bilan yaqinlashishga harakat qilganlar. O‘z navbatida, ular ham o‘zbek davlati poytaxtiga bir necha bor o‘z elchilarini yuborishgan. Masalan, shahzoda Abdulmo‘min usmonli sultoni Murod III ga yuborgan xatida Eronga qarshi birga kurashish taklifini bildirgan edi.

Shayboniylar safaviylarga qarshi kurashda boburiylardan ham foydalanishga harakat qilishadi. Biroq boburiylar shayboniylarning safaviylar bilan kurashiga faol aralashish yo‘lini tutishmaydi.

1576-yilda Eronda yuzaga kelgan siyosiy inqirozdan foydalangan usmonli sultoni Murod III safaviylarga qarshi urush ochadi.

Bu voqea Abdullaxon II ning Xurosonga bostirib kirishi, Mashhad, Nishopur va boshqa shaharlarni egallashi uchun qulay vaziyat yaratadi.

Abdullaxon II Hindistonga Mir Quraysh boshchiligida elchilar jo‘natadi. Maqsad Badaxshon va Eronning boshqa hududlarini shayboniy hukmdor tomonidan egallanishi tufayli o‘zaro munosabatlarga oydinlik kiritish edi. Boburiylar yetakchisiga yo‘llangan xatda Badaxshonning zabt etilishi sabablari, u orqali Makka va Madinaga yo‘l ochilgani, bu hududni kofirlar zulmidan qutqarish yo‘lidagi harakat sifatida asoslangan edi.

1586-yili Buxoroga Hakim Humom va Sadr Jahon boshchiligidagi elchilarning yetib kelgani Akbarshohning shayboniylar bilan munosabatlarni keskinlashtirmaslikka qaror qilganini ko‘rsatadi.

Bilasizmi?

1. Jahon tarixi bilan bog‘lang: o‘rganilayotgan davrda Moskva hukmdorlari qaysi xonliklarni o‘ziga bo‘ysundira boshladilar?

2. Qaysi hududlar Moskva boshqaruviga o‘tdi? Buning natijasida qanday iqtisodiy imkoniyatlar yuzaga keldi?

Manbalarda

“Temur tuzuklari”, “Zafarnoma”, “Boburnoma” kabi tarixiy manbalardagi turk-o‘zbek urug‘larini dasht o‘zbeklarining urug‘lariga taqqoslaganda, ular orasida deyarli farq yo‘qligini ko‘rish mumkin. Yuqoridagi manbalarni yuzakiroq o‘rganishning o‘ziyoq hali dasht o‘zbeklari ikki daryo oralig‘iga joylashmagan XIV–XV asrlarda o‘zbeklarning tarkibida bo‘lgan urug‘lar bu yerda yashaganligini aniqlashga imkon beradi. Jumladan, yuqoridagi manbalarda Temurbek va undan oldingi davrlarda ikki daryo oralig‘ida yashagan arg‘unlar, oyratlar, qovchin, do‘g‘lat, ming, mo‘g‘ul, uyg‘ur, turkman, norin, itarchi (o‘tarchi bo‘lsa kerak), qorluq, qushchi, tulkichi, totar, kerait, qipchoq, mang‘it, tag‘oyi va boshqa turkiy xalqlar keltiriladi. Ana shu urug‘larning barchasi temuriylar davlatida ham, dasht o‘zbeklari davlati tarkibida ham bo‘lgan. Dasht o‘zbeklarining yo‘lboshchisi Shayboniyxonning esa dastlab faqat olti o‘zbek urug‘iga: qushchi, do‘rmon, uyg‘ur, qurlaut, echki, nayman, keyinchalik 15 urug‘iga tayanib hokimiyatni qo‘lga olganligi ma’lum. Shuning uchun ham bu urug‘larning madaniyati, ijtimoiy rivojlanish darajasi har xil bo‘lsa-da, kelib chiqishi deyarli bir xil edi.

Tarix g‘ildiragining bosib o‘tilgan ma’lum nuqtasida ular hokimiyat va ustunlik uchun bir-biri bilan shiddatli kurash olib borgan siyosiy kuchlar edi. Ammo shunisi aniqki, ikkala sulola ham bizning bobolarimiz, ya’ni ajdodlarimizdir. Vorislar ulug‘ ajdodlarini tanlay olmaydilar, “ular Allohdandir” degan ibora bor, biz esa ular yaratgan qudratli davlatchilik va madaniyatning vorislaridirmiz.

Ziyodulla Muqimov, huquqshunos olim

Tarix saboqlari

Shayboniylarning Qozoq, Sibir xonliklari va Moskva davlati bilan munosabati

Shayboniyxonning markazlashgan davlat tuzish yo‘lidagi raqiblaridan biri Qipchoq dashtidagi qozoq sultonlari edi. XVI asrning boshlarida qozoq sultonlari Shayboniyxonning harbiy yurishlaridan foydalanib Movarounnahrga bir necha marta bosqinchilik harakatlari uyushtiradilar, Buxoro va Samarqandni talon-toroj qilib, aholini asir oladilar. 1509-yilda Shayboniyxon qozoq sultonlari Jonish Sulton, Burunduqxon va Qosim Sultonlarga qattiq zarbalar beradi. Buning natijasida Sig‘noq, Yassi, Savron shaharlarini qo‘lga kiritadi hamda Turkistondagi Xo‘ja Ahmad Yassaviy maqbarasini ta’mirlashga buyruq beradi.

Shayboniylar hukmronligi davrida mamlakatning shimolida joylashib olgan Qozoq xonligi bilan muayyan aloqalar olib boriladi, biroq bu aloqalar ko‘p hollarda harbiy to‘qnashuvlar tufayli izdan chiqar edi.

O‘zbek davlati Sibir xonligi bilan ham aloqalarni yo‘lga qo‘yadi. Kuchumxon Abdullaxon II ning harbiy yordami bilan 1563-yili Sibir xonligida hokimiyat tepasiga keladi. Shayboniylar Sibir xonligi, xususan, uning g‘arbiy qismida islom dinining tarqalishida muhim o‘rin tutishgan. Jumladan, 1574-yilda Abdullaxon II ga yo‘llagan xatida Kuchumxon uning davlati hududida kishilarni imon yo‘liga boshlovchi aziz-avliyolarning yo‘qligi tufayli bu yerga sayyid-u shayxlardan yuborishni so‘raydi. O‘zbek hukmdori bu iltimosni qondiradi. Shu tariqa, ilk turonliklarning Sibirdagi soni ortib boradi.

Rossiya hukmdori Ivan Grozniy tomonidan Qozon (1552) va Ashtarxon (1556) xonliklari bosib olinganidan so‘ng ruslarning sharqqa yurishi, Sibir yerlarini asta-sekinlik bilan bosib olish jarayoni boshlanadi.

Yermak boshliq kazaklar 1581–1583-yillarda Kuchumxonga qarshi kurashga kirishadi. Bu kurashda Kuchumxonning qo‘li baland kelgan bo‘lsa-da, davlat ichidagi uyushmaganlik uning hokimiyatini zaiflashtiradi.

Shu tariqa, sharqiy yo‘nalishda bir qadar muvaffaqiyatga erishgan Rus davlati shayboniylar bilan elchilik aloqalarini yo‘lga qo‘yishga harakat qila boshlaydi.



Uzoq Sibirdagi Rossiya fuqarolari o‘z podshosiga *“Endilikda biz tomonlarga hech qayerdan savdogarlar kelayotganlari yo‘q va shu sabab nihoyatda nochormiz. Agar savdogarlar kelib-ketib turganlarida edi, bizning qornimiz ham to‘q bo‘lardi... Oliy hazrat, Buxoro va No‘g‘oy xonligiga elchilar yuborib (u tomonlardan savdogarlar yuborilishini so‘ra), toki bizning yerimizda ham to‘kinlik bo‘lsin”,* deb yozgan murojaatnomasi ko‘p narsaga ishoradir. Shu sababli rus hukumati buxorolik savdogarlardan soliq olmaslik, ularga boj solmaslik, ular faoliyatiga to‘siq qo‘ymaslik borasida maxsus ko‘rsatma bergan. Shu tariqa Abdullaxon II davrida o‘zbek davlatchiligi yana bir bor yuksak marralarga ko‘tariladi. Davlat markazlashadi, ichki va tashqi siyosatda zalvarli qadamlar qo‘yiladi va madaniy hayot rivoj topadi.

Shayboniylarning asosiy raqibi islomning shialik yo‘nalishiga e’tiqod qiluvchi safaviylar davlati edi. Bu ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlar geosiyosiy maqsadlar borasida ham vujudga kelgan.

Usmonli sultonligi g‘arbda Safaviylar davlati bilan raqobatlashgan, Shayboniylar davlati bilan Usmonli sultonligi o‘rtasida mustahkam diplomatik va ittifoqchilik aloqalari o‘rnatilgan. Usmonli sultonligi safaviylarning Xuroson uchun kurashida shayboniylarni qo‘llab-quvvatlaydi.

Davlatlar o‘rtasida karvonlar, savdogarlar, elchilar almashinib turgan.

Shayboniylarning yana bir o‘zbek davlati – Xiva xonligi bilan munosabatlari turlicha kechgan. Xitoy bilan esa iliq munosabatlarda bo‘lgan.

Mustaqil faoliyat

1. Shayboniylarning tashqi siyosati nimalarga asoslangan? Nima uchun shayboniylar Rossiya bilan iqtisodiy munosabatlarga kirishgan?
2. Nima sababdan boburiylar safaviylarga qarshi shayboniylar bilan ittifoq tuzmagan?
3. Shayboniylar va Usmonli sultonligi o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar qanday manfaatlardan kelib chiqqan?



MAMLAKATIMIZ TARIXIDA ASHTARXONIYLAR VA MANG‘ITLAR SULOLASI



10-§. ASHTARXONIYLARNING HUKMRONLIK DAVRI

Tarix saboqlari

Buxoro xonligidagi shayboniylar sulolasining so‘nggi hukmdori Pir Muhammadxon II ashtarxoniylar urug‘i bilan bo‘lgan jangda halok bo‘ladi. Shu tariqa yuz yil davomida o‘zbek davlatini boshqargan sulola faoliyati tugab, hokimiyat 1601-yilda ashtarxoniylar qo‘liga o‘tadi.

O‘ylab ko‘ring

Jahon tarixidan olgan bilimlaringizni muvofiqlashtiring.

1. 1556-yilda Rossiya podshosi Ivan Grozniy qaysi hududlarni bosib olgan?
2. 1552–1556-yillarda Qozon va Ashtarxon xonliklarining taqdirida qanday o‘zgarishlar yuz bergan?
3. Turkiy Qozon va Ashtarxon xonliklarining tugatilishi Sharqiy Qipchoq dashtidagi ahvolga qanday ta’sir ko‘rsatgan? Uning oqibatida qanday geosiyosiy o‘zgarishlar ro‘y berdi?



Bilasizmi?

1556-yili Ashtarxon xonligi Rossiya davlati tomonidan bosib olinadi. Oqibatda Yor Muhammadxon Buxoroga jo‘nashga majbur bo‘ladi. U amakivachchalari tomonidan katta izzat-ikrom bilan qabul qilinadi. Shayboniylardan bo‘lgan Iskandarxon Yor Muhammadxonning to‘ng‘ich o‘g‘li Joni Muhammad sultonga qizi Zuhrabonuni turmushga beradi. Shu orqali ular o‘rtasidagi munosabatlar yanada mustahkamlanadi. Mazkur nikohdan Din Muhammad, Boqi Muhammad va Vali Muhammadlar dunyoga kelgan.

Tarix saboqlari

Shayboniylar xonadonining eng yaqinlari va tayanchlaridan biriga aylangan Yor Muhammadxon va uning avlodlari oliy hukmdorga xizmat qila boshlashadi. Borib-borib ularning ham mavqelari oshib, mamlakatning e’tiborli viloyatlaridan biri Samarqandni boshqarishga erishadilar. 1601-yilda Boqi Muhammad oliy taxtni shayboniylardan tortib olishga muvaffaq bo‘ladi. Shu bilan mamlakatda ashtarxoniylar sulolasining bir yarim asrlik hukmronlik davri boshlanadi. Boqi Muhammadxon mamlakat yaxlitligini saqlash uchun safaviylar va qozoq xonlari bilan kurash olib borishga majbur bo‘lgan.

Boqi Muhammad vafotidan keyin taxtga o‘tirgan Vali Muhammadxon ham o‘zining olti yillik boshqaruvi davomida, asosan, yurtni birlashtirish, markaziy hokimiyatga bo‘ysunishdan bosh tortgan siyosiy kuchlarga qarshi kurashish hamda davlatning janubiy chegaralarini himoya qilish bilan shug‘ullanishiga to‘g‘ri keladi.

Bilasizmi?

Boqi Muhammadxon shayboniylar hukmronligining so‘nggi davrida markaziy hokimiyat bo‘ysunuvidan chiqib ketgan Xorazm, Balx, Marv kabi shaharlarni o‘z izmiga solishga muvaffaq bo‘ladi. Andxud, Shibirg‘on, Chechaktu, Maymana, Faryob – Murg‘ob daryosigacha bo‘lgan yerlar, shuningdek, Bag‘lon, Badaxshon ham o‘zbek davlati ixtiyoriga qaytariladi.





Bilasizmi?

Yalangto‘sh Bahodir

Yalangto‘sh Bahodir 1578-yilda Nurota hokimi oilasida tug‘ilgan. Manbalarda uning ismi Yalangto‘sh biy deb yozilgan. Buxoroda boshqarish ilmi va harbiy sohani juda erta o‘rganadi.

1611-yil Imomqulixonni taxtga o‘tqazishda faol qatnashgan. Shundan so‘ng Yalangto‘sh Bahodirning mavqeyi ortadi. U Samarqandni 1626-yildan amalda mustaqil idora eta boshlaydi. Unga otaliq unvoni beriladi. Yalangto‘sh Bahodir Buxoro xonligining barcha harbiy amaliyotlarida faol ishtirok etadi.

1640-yil Imomqulixon Moskvaga elchilar orqali noma yo‘llab, unda Rossiyaning qalmiqlarga qarshi kurashida Yalangto‘sh Bahodir boshchiligida 12 amir va katta qo‘shin yuborishga tayyor ekanligini bildiradi.

Yalangto‘sh keyinchalik ham ashtarxoniy hukmdorni qo‘llab-quvvatlashda davom etgan. Iqtisodiy jihatdan kuchli bo‘lgan bu amaldorning shaxsiy qo‘shini ham bo‘lgan. 1648-yil yozida Abdulazizxon 200 ming kishilik qo‘shin bilan Balxga yurish qilib, boburiylardan bu viloyatni qaytarib oladi. Bu yurishda Yalangto‘sh Bahodir boshchiligidagi lashkarlar ham bo‘lgan.

“Bahodir Yalangto‘sh” badiiy filmi orqali uning qo‘shini va salohiyatiga baho bering.

Filmda aks etgan voqealar ketma-ketligi bo‘yicha infografika tuzing.

Tarix saboqlari

Ashtarxoniylarga bir necha marotaba mag‘lub bo‘lgan safaviy shoh Abbos boshqacha yo‘lni tanlaydi: Vali Muhammadxon huzuriga “yaxshi qo‘shnichilik va do‘stlik” taklifi bilan elchilar yuboradi. Unga javoban ashtarxoniylar ham elchilar jo‘natadi. Safaviylar bilan murosaga borgani uchun bir guruh buxorolik yirik amaldorlar Vali Muhammadxondan norozi bo‘ladilar.

Natijada mahalliy zodagonlar 1611-yilda Samarqand hokimi Imomquli sultonni oliy taxtga o‘tqazadilar.

Imomqulixon mamlakatni o‘ttiz yildan ortiqroq boshqaradi. U mahalliy siyosiy kuchlarning boshboshdoqliklariga hamda o‘zaro urushlariga nisbatan chek qo‘yib, mamlakat chegaralarini mustahkamlash ishiga ham katta kuch-g‘ayrat sarflaydi. Imomqulixonning taxtga chiqishida faol qatnashgan va uning safaviylarga qarshi kurashini qo‘llagan yirik arbob Yalangto‘sh edi.

1642–1645-yillarda o‘zbek davlatini boshqargan ashtarxoniylar yetakchisi Nadr Muhammadxon taxtga o‘tirgach, muhim siyosiy, iqtisodiy mavqega ega bo‘lgan zodagonlarning mulkini tortib olib, ularni o‘zidan uzoqlashtiradi. Boshqa yirik amirlar va amaldorlarga sovg‘a-salomlar ulashadi, mamlakat viloyatlarini farzandlari, nabiralari va jiyanlariga bo‘lib beradi. Natijada oliy hukmdorga qarshi kayfiyatda bo‘lgan amirlar fitna uyushtiradilar. 1645-yili Movarounnahrga qozoqlar hujum qilib Xo‘jandgacha keladilar. Qozoqlarni quvib chiqarish uchun Nadr Muhammad o‘g‘li Abdulazizni safarbar etadi. Xondan norozi bo‘lgan bir guruh amirlar bundan foydalanib Abdulazizni xon deb e’lon qiladilar. Oxir-oqibat Nadr Muhammadxonning hokimiyatni qaytarib olishga bo‘lgan harakatlari samarasiz yakunlanadi. Nadr Muhammadxon Makkaga haj amalini bajarish uchun ketayotganda yo‘lda vafot etadi.

Yalangto‘sh (1578–1656) – o‘zbek davlatini ashtarxoniylar boshqargan davrning eng yirik davlat va harbiy arbobi, turli yillarda Balx, Samarqand viloyatlari hokimi.



Tarix saboqlari

Abdulazizxon davri (1645–1681-yillar)da ham, Subhonqulixon (1681–1702), Ubaydullaxon (1702–1711) va Abulfayzxon (1711–1747) hukmronlik qilgan davrlarda ham mamlakatdagi ichki nizolar tinmaydi. Natijada siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz yuzaga keladi.

Toshkent, Xo‘jand, Balx, Badaxshon, Hisor va boshqa viloyatlar deyarli mustaqil mulklarga aylanadi. Bu holat davlatni xorijiy bosqinchilar uchun yengil o‘ljaga aylantiradi. Yuzaga kelgan vaziyatdan Eron shohi Nodirshoh ustalik bilan foydalanadi. 1740-yilda Buxoroga Eron qo‘shinlarining yurishi boshlanadi. Jangsiz taslim bo‘lgan Buxoroda Abulfayzxon nomigagina oliy hukmdor etib qoldiriladi.

O‘ylab ko‘ring

1. Abulfayzxonning nomigagina oliy hukmdor bo‘lishi ashtarxoniylar sulolasining siyosiy mavqeyiga qanday ta’sir ko‘rsatgan?
2. Mamlakatlarning tanazzuliga sabab bo‘ladigan omillarni sanab o‘ting. Fikringizni asoslang.

Manbalarda

Abulfayzxon Eron bosqiniga qarshi kurashni uyushtira olmadi va taslim bo‘ldi. Nodirshoh Buxoro xonligining taslim bo‘lish shartlarini xonlikning Bosh vaziri Muhammad Hakimbiy orqali Abulfayzxonga ma’lum qildi. Taslim bo‘lish haqidagi shartnomani imzolash uchun Abulfayzxon Zarafshon daryosi bo‘yidagi Chorbakr qo‘rig‘iga – Nodirshoh huzuriga borishga majbur bo‘ldi. Shartnomaga ko‘ra, Nodirshoh qo‘shinlari uchun 8 yilga yetadigan 200 ming xarbor bug‘doy va arpa to‘plab berdi. Bundan tashqari, Buxoro xonligi aholisidan 10 ming kishilik qo‘shin to‘planib Nodirshoh ixtiyoriga jo‘natildi. Bu qo‘shinga Muhammad Hakimbiyning o‘g‘li Muhammad Rahim qo‘mondon etib tayinlandi.

Mustaqil faoliyat

1. Vali Muhammadxon safaviylar bilan murosaga borganidan buxorolik yirik amaldorlar nima uchun norozi bo‘ldilar? Buning tarixiy sabablari nimada?
2. Ashtarxoniylarning hokimiyat tepasiga kelishidagi tarixiy sharoitlarni aniqlang. Voqealar ketma-ketligini shakllantiring. Bu borada Yalangto‘sh Bahodirning ta’siri bo‘lganmi? Fikringizni asoslang.
3. Mamlakatda siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy inqirozlar yuzaga kelishiga qanday omillar ta’sir etdi? Bu inqirozlarning natijasi mamlakat rivojiga, uning mudofaasiga qanday ta’sir ko‘rsatdi? Fikringizni asoslang.

11-§. ASHTARXONIYLAR DAVRIDA DAVLAT BOSHQARUVI VA TASHQI SIYOSAT

O‘ylab ko‘ring

1. Shayboniylar davlat boshqaruvida qanday lavozimlar bor edi? Ularning vazifalarini esga oling.
2. Shayboniylar davrida davlatning asosiy boshqaruv idorasi qanday nom bilan atalgan va bu idorani kim boshqargan?

Tarix saboqlari

Davlat boshqaruvi

Ashtarxoniylar davri davlat boshqaruvi shayboniylar zamonidagisidan deyarli farq qilmas edi. So‘z ketayotgan bosqichda ham dargoh (oliy devon) asosiy boshqaruv idorasi sifatidagi mavqeyini saqlab qoladi.

Davlat boshqaruv tizimining turli pog‘onalarini xizmat vazifalari aniq belgilangan dunyoviy va diniy lavozim egalari – naqib, otaliq, parvonachi, dodxoh, devonbegi, qushbegi, chuhraboshi, miroxur, yasovul, inoq, qurchi, qozi, harbiy qozi, bosh qozi, shayxulislom, a’lam, rais, bosh muftiy, harbiy muftiy, eshikog‘aboshi, mirzaboshi, munshiy, saroy kutubxonasi boshlig‘i, dasturxonchi kabilar egallashgan. Ular lavozimlari nazarda tutgan vazifalarni bajarish qatorida harbiy harakatlarda ham faol qatnashgan.

Ashtarxoniylar davrida mahalliy boshqaruv tizimida muhim rol o‘ynagan otaliqning, shuningdek, oliy hukmdorning ovlarda ishtiroki uchun zarur bo‘lgan ov qushlari, tozi itlar va boshqalarga mas’ul bo‘lgan **qushbegi** lavozimining ham ahamiyati ortib boradi. Chunonchi, qushbegi muayyan shaxslarni mansabga tayinlash va unvon berish, xon yorlig‘isiz ham zarur masalalarda shaxsan yozma ko‘rsatmalar bera olish, oliy qabullarda o‘z xohishiga ko‘ra ishtirok etish kabi imtiyozlarga ega bo‘lgan.



O‘ylab ko‘ring

1. Ashtarxoniylar davlat boshqaruvida qanday o‘zgarishlar qiladilar? Buning sababi nimada edi?
2. Siz qanday o‘zgarishlar qilgan bo‘lardingiz? Davr nuqtayi nazaridan javob bering, fikringizni quvvatlash uchun tarixiy dalillar keltiring.
3. Usmonli sultonligi tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishini qayd eting.
4. Sizga ashtarxoniylar davrida davlat boshqaruvi berilganida usmonlilar va safaviylar bilan qanday munosabatda bo‘lardingiz? Boburiylar bilan-chi?

Tarix saboqlari

Tashqi siyosat

Ashtarxoniylar ham shayboniylar kabi Xuroson masalasida Eron va Hindiston omilini hisobga olib harakat qiladilar.

Xurosonni qo‘lga olgan safaviylar Balx va Buxoroni ham egallash yo‘llarini qidira boshladilar. O‘z navbatida, ashtarxoniylar ham Xurosonni Buxoro xonligi hukmiga butunlay o‘tkazish ishini hal qila olmadilar. Natijada, Balx mulkining janubiy hududlarini himoya qilish davlat tashqi siyosati oldida turgan vazifalardan biriga aylanib qoladi.

Xuroson va Hirotga ega bo‘lgan safaviylar o‘z e’tiborlarini Xorazmga qaratadilar. Lekin Eronga shimol va g‘arbdan usmonlilar tahdidi kuchayganda vaziyatdan chiqish uchun safaviylar yana Buxoro bilan do‘stona munosabatda bo‘lishga intilib, ashtarxoniylar davlatiga elchilar yuborib, “tinchlik”, “do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilik” siyosatini ishga solishadi.

Ashtarxoniylar Hindiston bilan aloqalarda barqarorlikni ushlab turishga harakat qiladilar. Imomqulixon davrida “Hindiston hukmdori, Akbar podshohning o‘g‘li Jahongir podshoh” huzuriga qimmatbaho sovg‘alar bilan elchilar yuboriladi. Jahongir podshoh ham xon elchisini ehtirom bilan qabul qilgani ma’lum.

1657-yilda Abdulazizxon ham bu olis yurtga naqshbandiya tariqati vakilini elchi sifatida jo‘natadi. Keyingi yillarda esa Hindistonga Rustambiy va Muhammad Sharif elchiliklarini yuboradi, Hindistondan Buxoroga Yakkatozxon elchiligi keladi. Ikki davlat o‘rtasidagi elchiliklar almashinuvi jarayonida ashtarxoniylar ham, boburiylar ham safaviylarga qarshi kurash rejalarini bir-birlariga taklif qilishgan.

1691-yilda usmonli Sulton Ahmad II tomonidan Subhonqulixon saroyiga elchi Mustafo yuboriladi. U turk hukmdorining Eronga qarshi birgalikda kurashish taklifini keltiradi.

Ashtarxoniy hukmdorlar davrida ham Rossiya bilan tashqi aloqalar davom etadi. Bu aloqalarni amalga oshirgan ashtarxoniy hukmdorlar, shayboniylar singari, elchilar orqali o‘z savdogarlari uchun qulay sharoitlarni yaratishga intiladilar. Buxorodan Moskvaga yuborilgan Mulla Farrux (1671) elchiligi ulardan biri bo‘lib, u ikki davlat o‘rtasidagi aloqalarni yaxshilashga qaratilgan edi. Rus hukumati buxorolik savdogarlarning Rossiyada erkin faoliyat yuritishiga qarshi bir qator to‘siqlar qo‘yadi. Masalan, Rossiyadan taqiqlangan ayrim tovarlarni savdogarlar emin-erkin xarid qilib, uni o‘z yurtlariga olib keta olishmas edi. Metall va undan yasalgan buyumlar shular

jumlasidandir. Metall harbiy sohada asosiy mahsulot bo‘lgani sababli uni mamlakatdan olib chiqish taqiqlangan.

Turkiy dunyo bilan aloqador bo‘lgan Volgabo‘yi, Ural, G‘arbiy Sibir aholisining o‘zbek savdogarlari bilan aloqaga kirishishlarining oldini olishga ham harakat qilishadi. Ashtarxoniylar davrida mamlakatga Ivan Xoxlov, aka-uka Pazuxinlar, Daudov va Muhammad Yusuf Qosimov, Florio Beneveni va Rossiyaning boshqa elchilari keladi.

Dastlab savdo-elchilik tariqasida kelgan ruslar xonlik hududi, karvon yo‘llari, aholisi, ishlab chiqaruvchi kuchlari, iqtisodi, shaharlari, aholining turmush tarzi va boshqalar haqida ma’lumotlar ham to‘playdilar.

Rossiya hukumati bu elchiliklar orqali ashtarxoniylar va hududda joylashgan boshqa davlatlar, shuningdek, Hindiston bilan ham munosabatlar o‘rnatishga harakat qiladi.

XVIII asrning boshlariga kelib, Rossiyadan elchiliklar nafaqat savdo-iqtisodiy, balki biror-bir muayyan siyosiy masalalar yechimiga qaratilgan vazifa bilan ham yuborila boshlanadi.

Jumladan, Florio Beneveni elchiligi zimmasiga Pyotr I tomonidan berilgan yo‘riqnomaga ko‘ra quyidagi vazifalar ham yuklangan:

– o‘zbek davlatini Rossiya bilan harbiy ittifoqqa chaqirish, unga rus soldatlaridan iborat gvardiyani taklif etish;

– Buxoro oltini qayerdan va qancha olinishini aniqlash;

– qo‘shni davlatlarning harbiy holati va strategiyasini o‘rganish;

– xonlikning Eron, Xiva va usmonlilar bilan munosabatlari haqida ma’lumotlar to‘plash.

Mustaqil faoliyat

1. Nima uchun rus hukumati Buxoro savdogarlariga metall va undan yasalgan buyumlarni mamlakatdan olib ketishni taqiqlagan hamda Volgabo‘yi, Ural, G‘arbiy Sibir aholisining o‘zbek savdogarlari bilan aloqaga kirishishlarining oldini olishga harakat qilgan?

2. Usmonlilar, boburiylar, safaviylar va Rossiya imperiyasining Buxoroda manfaatlari to‘qnashishiga sabab nima edi?

3. Florio Beneveni elchiligi zimmasiga Pyotr I tomonidan berilgan yo‘riqnomada elchilar uchun belgilangan vazifalarning mohiyatida qanday maqsadlar yashiringan edi? Javobingizni asoslang.



12-§. ASHTARXONIYLAR DAVRIDA IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOT

O‘ylab ko‘ring

1. Ushbu davrda qanday kasblarga ehtiyoj yuqori bo‘lgan?
2. Ijtimoiy hayotning qaysi sohalarini rivojlantirishga zarurat mavjud edi?
3. Bu davrda jahonda qanday yangi kasblar paydo bo‘ldi? Ulardan qaysi biri Markaziy Osiyo davlatlariga ham kirib keldi?
4. Bu davrda mamlakatda zamonaviy kasblarning rivojlanishida Buyuk ipak yo‘li qanday rol o‘ynadi?

Manbalarda

“Imomqulixon nochorlar ishini yengillashtirdi, arz bilan kelganlarni qaytarmadi. Uning zamonida na kambag‘al, na bechora qolgandi.

Chiqargan buyruqlari ijrosi borasida amaldorlariga qattiq turdi, qorong‘i tushishi bilan oddiy kiyim kiyib vaziri va qo‘rchi bilan bozorlar-u mahallalarni aylanib, oddiy xalqning haqiqiy turmush ahvolidan boxabar bo‘lib turardi. Buni xalq bilardi. Shuning uchun ham uning hukmronligi yillari mamlakatda biror marta ham isyon tug‘i ko‘tarilmadi”.



Tarix saboqlari

Aholining mashg‘ulotlari

Ashtarxoniylar davrida ham dehqonchilikning barcha sohalari – g‘allachilik, paxtachilik, pillachilik, bog‘dorchilik va boshqalar rivojlandi. Shayboniylar davridagi kabi asosiy dehqonchilik mahsulotlari – yigirmadan ortiq navi mavjud bo‘lgan bug‘doy, sholining turli navlari, g‘o‘za, makkajo‘xori, arpa, tariq, kanop, tamaki, yasmiq, yog‘ olishda keng qo‘llanilgan kunjut, zig‘ir, piyoz, sabzi, turp, sholg‘om, lavlagi, qovoq, bo‘yoqlar (ro‘yon, buzg‘unch, qirmiz) va boshqalar ekilgan.

Mamlakatda chorva mollarini yetishtirishga katta e’tibor qaratilgan. Birgina Nadr Muhammadning o‘zida 600 qator tuyasi, 8000 oti, qorako‘l teri beruvchi 80000 ta qo‘yi bo‘lgan.

Ashtarxoniylar davrida ham shayboniylar davridagi kabi davlat yerlarining hajmi ortgan. Davlat yerlari dunyoviy va diniy amaldorlarga suyurg‘ol, tiul, iqto, tanho tarzida tortiq etilgan. O‘z yer maydoniga ega bo‘lmagan aholining katta qismi esa ko‘p hollarda yerni ijaraga olib, tirikchilik qilgan.

Ashtarxoniylar davrida hunarmandchilik rivojlangan. Hunarmandchilikning an’anaviy sohalari – to‘qimachilik, duradgorlik, teriga ishlov berish, temirchilik, qurolsozlik, zargarlik, kulolchilik va boshqalarda yaratilgan tovarlar ichki va tashqi bozorga chiqarilgan.

Siyosiy vaziyat qanday bo‘lishidan qat’i nazar, ashtarxoniylar ilm, fan, san’at va me’morchilikka homiylik qilishgan.



Tarix saboqlari

Moliya va pul islohotlari

Shayboniylar davrida muomalada bo‘lgan, ayniqsa, Abdullaxon II pul islohoti natijasida moliya bozorida o‘zining o‘rnini egallagan mis, kumush va oltin tangalar ashtarxoniylar davrida ham muomalada bo‘ladi. XVII asrning ikkinchi yarmida oz-ozdan har safar tangalardagi kumush ulushi 5–10 foizdan kamaytiriladi. Mamlakatda yuzaga kelgan siyosiy beqarorlik davrida davlat xazinasi bo‘shab boradi.

Bu mushkul vaziyatdan chiqib ketish uchun ashtarxoniy hukmdor Ubaydullaxon 1708-yilda pul islohotini o‘tkazadi. Natijada tarkibining to‘rtdan bir qismini kumush tashkil qilgan va bozorda muomalada bo‘lgan asosiy tanga zarb etiladi. Avvalgi tangalarning tarkibidan kumush 4 marta kamaygan bo‘lsa-da, tarkibida 9 foiz kumush bo‘lgan yangi tanga qiymati tarkibining 35 foizini kumush tashkil etuvchi oldingi tanga pulga teng deb e’lon qilinadi. Bu esa birinchi navbatda savdogarlar va aholining keskin noroziligiga olib keladi va xalq qo‘zg‘olon ko‘taradi. Qo‘zg‘olon shafqatsizlarcha bostiriladi.

XVIII asrda muntazam ravishda oltin tangalar zarb etish yo‘lga qo‘yiladi. Bir oltin tanga (ashrafiy) 50–80 kumush tangaga tenglashtiriladi.

Ashtarxoniylar davrida ham aholi xiroj (mol), ushr, tanob puli, alaf puli, zakot va boshqa soliqlarni to‘lagan. Aholi turli mehnat majburiyatlarini o‘tashda davom etgan.

Ashtarxoniylar hukmronligi davrida mulkiy munosabatlar, nikoh-oila va jinoyat-jazo masalalari hamda sud ishlarini yuritish tartibi shariat qoidalari bilan belgilangan.

Bu davr yer huquqiga oid muhim manbalardan biri – “Buxoro yer hujjatlari” to‘plami bizgacha yetib kelgan. Hujjatda vaqf mulkini almashtirish, xususiy yer egaligi huquqi, g‘alla uyumlarini muhrlash va boshqa shu kabi yerga oid munosabatlar tartibga solingan.



Manbalarda

Mamlakat qanchalik katta iqtisodiy, madaniy, ma’naviy shart-sharoit va imkonlarga ega bo‘lmasin, markaziy hokimiyatning zaiflashishi, mahalliychilik, siyosiy boshboshdoqlik davlatning qudratini yo‘qqa chiqardi.

Ashtarxoniylar hukmronligi yillari ko‘zga tashlanadigan yana bir muhim jihat xususida to‘xtalish lozim. U ham bo‘lsa, davlatimizning xalqaro hayotdagi mavqeyining susayib borishi masalasi. E’tibor berilsa, tashqi aloqalar, asosan, Xuroson doirasida, shimoldagi ko‘chmanchi xalqlar bilan munosabatlarda cheklanib qoldi. Bu vaqtda ilm-fan, texnika taraqqiyotida, harbiy san’atda ilgarilab borayotgan Yevropa davlatlari bilan aloqalar o‘rnatish, jahon siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-madaniy davrasiga kirish, buning orqasida dunyo miqyosida fikrlash, siyosat yuritish an’anasi bizning siyosatchilar, davlat arboblarida bo‘lmagan.

Shuning uchun ajdodlarimiz gidravlika, mashina, mexanizmlar, eng zamonaviy harbiy qurollardan bexabar qolaverganlar.

Azamat Ziyo, “O‘zbek davlatchiligi tarixi”

Mustaqil faoliyat

1. Ashtarxoniylar davrida o‘tkazilgan moliya va pul islohotlarini shayboniylar davridagi soliq va pul islohotlari bilan taqqoslang, natijalarini daftaringizda qayd qiling.

2. Imomqulixon haqidagi ma’lumotlarni tahlil qilib, munosabat bildiring.



13-§. ASHTARXONIYLAR DAVRIDA ME’MORCHILIK VA TA’LIM

O‘ylab ko‘ring

1. Samarqanddagi Registon maydonida joylashgan inshootlarning nomini bilasizmi? Bu inshootlar kim tomonidan qurilgan va ular qanday maqsadlarga xizmat qilgan?

2. Nima deb o‘ylaysiz, bu inshootlar qancha vaqtda, qanday mehnat qurollari va qurilish ashyolari bilan barpo etilgan? Ularda qancha odam ishlagan bo‘lishi mumkin? Bu inshootlarni qurish uchun qaysi kasb egalari jalb qilingan?

3. Berilgan rasmni diqqat bilan kuzating va hikoya tuzing.



Tarix saboqlari

Me’morchilik

Ashtarxoniylar davrida ham Samarqand va Buxoro mamlakatning yirik madaniy markazlari maqomini saqlab qoldi. Yirik amaldorlar, ulamolar va jamiyatning boshqa vakillari tomonidan saroylar, madrasalar, masjidlar, xonaqohlar, bozorlar, karvonsaroylar va boshqalar qurdirildi.

Samarqandda qozi Soqiy tomonidan qurdirilgan madrasa, Yalangto‘sh Bahodir tomonidan qurdirilgan Sherdor va Tillakori madrasalari, Sayyid Ahmadxoja madrasasi, Nodir devonbegi madrasalari shular jumlasidandir.

Buxoroda ikki qavatli Mag‘oki ko‘rpa masjidi, zargarlar bozori yaqinida joylashganligi uchun “Zargarlar madrasasi” deb ham ataluvchi Abdulazizxon madrasasi, Xiyobon, Bozori Go‘sfand va Jo‘ybori Kalon madrasalari ham bunyod etildi. XVII asrda madrasa va masjidlar qurilishida ashtarxoniylar davrida yuqori nufuzga ega bo‘lgan ayrim amaldorlar ham o‘z hissalarini qo‘shishdi.

Shunday shaxslardan biri XVII asrning birinchi yarmidagi yirik amaldor va vazir Nodir devonbegi bo‘lib, uning mablag‘iga butun me’moriy ansambl – xonaqoh, hovuz va madrasa bunyod etilgan. U tomonidan bundan ilgariroq Buxoro Registonidagi Ark devorlari ostida Poyandabiy otaliq masjidi ham qurilgan.

Telpakfurushlar gumbazidan Registonga olib boruvchi yo‘lda, Bozori-av degan joyda Abdulazizxonning amaldori Muhammadyor otaliq tomonidan xonaqoh quriladi. Shu asrda bu markazda Bolohovuz masjidi ham bunyod etiladi.

Samarqand, Registon maydoni. Ulug‘bek, Sherdor va Tillakori madrasalari



Abdulazizxon madrasasi

Buxorodagi me’moriy yodgorliklardan biri bo‘lgan Abdulazizxon madrasasi ashtarxoniylarning beshinchi vakili Abdulazizxonning buyrug‘i bilan me’mor Mimxoqon ibn Xo‘ja Muhammadamin tomonidan Buxorodagi Ulug‘bek madrasasi qarshisida 1652-yilda bunyod etilgan.

Bu tarixiy obida o‘zidan avval qurilganlaridan uslubiy jihatdan ajralib turadi. Tashqi ko‘rinishi oddiy. Hovlisi keng, ikki qavatli. Ikki ayvon, qishki va yozgi masjidlardan iborat. Hujralari yozda salqin, qishda esa sovuq o‘tmaydigan qilib qurilgan. Naqshlarida turli mavjudotlarning quyoshga intilgan holati tasvirlangan. Xilma-xil geometrik shakllar esa tasviriy san’atning go‘zal unsurlari bilan uyg‘unlashib ketgan. O‘sha davr ustalari naqshinkor devorlarda uchayotgan semurg‘, guldon ostidan chiqayotgan ajdarlarni mahorat bilan tasvirlashgan.

Turli koshinlar orasidagi islimiy naqshlar – gullar surati ham ota-bobolarimizning o‘ta nozik did egalari bo‘lishganidan darak beradi. Madrasa tarkibidagi qishki masjidda o‘sha davr ustalari odam suratini bo‘yoqlar vositasida yashirin tarzda tushirganlar. Ular mehrobdagi sharafani odam boshidagi sallaga monand qilib yasaganlar. Shu bois ham kunning ma’lum bir paytida, aniqrog‘i, quyosh nuri tushgan pallada sal naridan turib mehrobga qarasangiz, u yerda sallali nuroniy bir kishini ko‘rasiz. Boshqa pallalarda esa bu tasvir “g‘oyib” bo‘lib qoladi. Bu tasvirni ko‘rgan sayyohlar esa “Buxoroning o‘zi mo‘jiza. Mo‘jizaning ichida mo‘jizani ko‘rishdan xursandmiz” deyishadi. Islimiy naqshlar qatorida afsonaviy jonivorlar tasviri ham berilgan. Madrasa hujralari, ayniqsa, janubiy ayvon peshtoqi turli-tuman naqshlar bilan bezatilgan. Naqshlar, asosan, moviy rang bo‘yoqlar bilan chizilgan.

Bugungi kunda madrasa hovlisida sayyohlar uchun milliy musiqa va folklor tomoshalari ko‘rsatiladi. Shimoli-sharqiy burchagidagi miyonsaroyda Buxoro yog‘och o‘ymakorligi namunalaridan iborat ko‘rgazma tashkil etilgan.

Islimiy naqsh – o‘simliksimon shakldagi takrorlanuvchi taqsimlardan tuzilgan asosiy naqsh turi.



Jo‘ybori Kalon madrasasi

Jo‘ybori Kalon madrasasi XVII asr o‘rtalarida xonlik poytaxtidagi Jo‘ybor mavzeyining Havzi nav guzarida bunyod etilgan. Buxorodagi eng nufuzli va mashhur madrasalardan edi. Tarixiy manbalarda Jo‘ybori Kalon madrasasiga oid ko‘plab ma’lumotlar berilgan. Bir qavatli madrasada 29 ta (ayrim manbalarda 21 ta) hujra va katta kutubxona bo‘lgan. Uning kutubxonasida 8 ming jilddan ortiq kitoblar saqlangan.

Jo‘ybori Kalon madrasasining qurilishida azaliy an’anaga rioya qilingan. Hashamatli peshtoq ichidagi darvoza orqali miyonsaroyga kiriladi. Miyonsaroydan chap qo‘lda masjid, o‘ng qo‘lda tomga chiqiladigan pillapoya va hujralar tizilmasi joylashgan. Ko‘cha va sahna tomonga qaratilgan yorug‘kirar gumbazlari orqali tutashtirilgan. Ko‘cha va sahna tomonga qaratilgan yorug‘lik kiruvchi girihlar panjaralari mavjud. Madrasa ichkari hovlisining devori bezaksiz. Hujralar yuza qismi, eshiklar ustiga obi g‘isht kesmalari bilan zeb berilgan.

> Jo‘ybori Kalon madrasasining bir necha nusxadan iborat vaqf hujjatlari saqlanib qolgan. Ulardan birida “Agar imoratning birorta g‘ishti siniq holda qolarkan, vazifadorlarning hech biriga bir chaqayam berilmasin!” deb yozilgan.
>
> *Vaqfnomadan*

Hovli o‘rtasida obrav – chiqindi suvlari tushib ketadigan yo‘l mavjud. Peshtoq chap qanot devorida uchta hujra bor. Devorlarning ko‘cha tomon yuziga arkalar bilan bezak berilgan. Peshtoq ikki tomonida guldasta, guldastada ko‘shk yo‘q. Madrasa bezaklari gulnoriy (bahor gullari rangiday bezak berish san’ati) rangda koshin bilan parchinkoriy qilingan. Peshtoq kitobasida yozuvlar bo‘lgan. Biroq bugungi kunda yozuvlardan bironta so‘z qolmagan. Peshtoqning yuza qismida koshinkoriy namunalar mavjud.



Tarix saboqlari

Ilm-fan

Bu davrda diniy mutaassiblik kuchaygan bo‘lsa-da, ilm ahllarining ijodi batamom to‘xtab qolgani yo‘q. Chunonchi, Abdulazizxon xattotlik san’atini mukammal egallagan bo‘lib, nas’h va nasta’liq xatlarida yuksak darajada yozish mahoratiga ega edi. Manbalarda qayd etilishicha, oliy hukmdorlik yillarida Hindiston, Eron va Usmonli davlatiga yo‘llanadigan maktublarni o‘zi tahrir qilgan. Ayrim hollarda shaxsan o‘zi ham maktub yozganligi qayd etiladi.

Sulolaning yana bir vakili Subhonqulixon davrida Buxoro Registonidagi Ark devorlari tagida 1682-yilda bir qavatli, sakkiz burchakli kasalxona qurilgan. “Buxoro taxtiga o‘tirishi bilan (Subhonqulixon) Buxoro Registoni ichida Zamzamni eslatuvchi hovuz qurishni buyurdi. Va bu yerda shifoxona uchun mo‘ljallangan bino – Dor ush-shifo qurdirdiki, unda kasallarni turli dorilar va ovqat bilan davolovchi mohir tabiblar xizmat qiladi”, deyiladi manbalarda.

Dor ush-shifoning binosi madrasa vazifasini ham o‘tagan. Unga doir vaqf hujjatiga ko‘ra, bu madrasa talabalarning tabobat va ilohiyot ilmlarini o‘rgatishga ixtisoslashgan edi. Bu yerda bemorlarga xizmat ham ko‘rsatilgan. Shuningdek, Subhonqulixonning tibbiyotga oid kitoblari jamlangan nodir kutubxonasi ham bo‘lgan.

Diniy mutaassiblik (dinga mukkasidan ketish) – o‘zi ergashgan g‘oyani birdan bir to‘g‘ri yo‘l deb qattiq ishonish, o‘zgalar va o‘zgacha qarashlarga nisbatan o‘ta murosasiz bo‘lish yoki ularni butunlay rad etish.

Subhonqulixon turli kasalliklar, ularni aniqlash va davolashga bag‘ishlangan “Ihyo at-tibbi Subhoniy” asarining muallifi sifatida mashhur bo‘lgan.



Dor ush-shifo madrasasi, 1922-yil





Subhonqulixon xonlikka qarashli hamma hududlarda yoz faslida barcha novvoylarga yopiladigan non yuziga kunjut urug‘ini sepishni buyurgan. Bundan ko‘zlangan maqsad kunjutning shifobaxsh xususiyati orqali yozgi ich ketishni kamaytirish bo‘lgan. Subhonqulixon farmoni bilan boshlangan bu tadbir keyinchalik odat tusiga aylangan.

Bilasizmi?

Subhonqulixonning “Ihyo at-tibbi Subhoniy” (“Subhoniy tibbiyoti bo‘yicha davolash”) asari qo‘lyozmasining bir nusxasi Budapeshtdagi (Vengriya) kutubxonada saqlanmoqda.

Tarix saboqlari

Subhonqulixonning “Ihyo at-tibbi Subhoniy” (“Subhoniy tibbiyoti bo‘yicha davolash”) asarida turli xil kasalliklarni aniqlash va davolash usullari haqida batafsil ma’lumot berilgan. Subhonqulixonning bu asari shu darajada ahamiyatli ediki, bu asar o‘sha davr hakimlari uchun yirik qo‘llanma bo‘lib xizmat qilgan. Uning ikkinchi asari 8 qismdan iborat bo‘lib, “Subhonning hayotbaxsh tibbiyoti” deb nomlangan.

Bu asar ham tabobat sohasidagi muhim asarlardan biri hisoblanadi. Jumladan, uning har bir qismida dorilarning sifatli tayyorlanishi va ishlatilishiga oid masalalar yoritilgan. Shuningdek, asarda insonning sog‘lig‘i uchun foydali bo‘lgan o‘simliklar haqida ham to‘xtalib o‘tilgan. Bu ikkala asar chindan ham o‘z davrining mukammal yozilgan ijod namunasi hisoblanadi.

Manbalarda

“Tib ilmida tengi yo‘q edilar, chunonchi, “Tibbi Subhoniy” buning qat’iy dalilidir.
She’rga ta’bi baland edi. “Nishoniy”ni taxallus qilgan edilar”.

Hoji Abdulazim Shar’iy, “Ayn at-tavorix” asaridan

Tarix saboqlari

XVII asrda Soqiy, Yusuf Qorabog‘iy, Turobiy, Sayido Nasafiy, Qosimxoja Samarqandiy, Fitrat, Mulham, So‘fi Olloyor, Mashrab kabi ijodkorlar faoliyat yuritgan.

Ashtarxoniylar davrida tarix fani bo‘yicha ham qator asarlar yaratilgan.

Mahmud ibn Valining “Bahr ul-asror”, Xoja Samandar Termiziyning “Dastur al-muluk”, Muhammad Yusuf Munshiyning “Muqimxon tarixi”, Mir Muhammad Amin Buxoriyning “Ubaydullanoma”, Abdurahmon Tolening “Abulfayzxon tarixi”, Hojamqulixon Balxiyning “Qipchoqxon tarixi” va boshqa mualliflarning asarlari aynan shu sulola hukmronligi davrida yozilgan. Subhonqulixon adabiy soha bilan ham shug‘ullangan. Masalan, “Nishoniy” taxallusi bilan bir qancha asarlar yozgan.

Ashtarxoniylar hukmronligi yillarida, ayniqsa, XVII asrda matematika, astronomiya, geometriya (mulla Tursun Faroiziy, mulla Ne’mat Samarqandiy), musiqashunoslik (Abdullo Ofarinkentiy, Ali Buxoriy, mulla Rahmat Samarqandiy) sohalarida ham qator ishlar amalga oshirilgan.

Subhonqulixon astronomiyaga oid “Lub-lavoih al-qamar fi-l-ixtiyorat” (Oy nurining ixtiyorat uchun mohiyati) asarini o‘zidan oldin o‘tgan astronom olimlarning ma’lumotlariga asoslangan holda yozgan.

Ashtarxoniylar kitob san’ati rivojiga homiylik qilishgan. Bu davrda Buxoro maktabida diniy adabiyotlar – so‘fiylarning hayotiga oid asarlarga miniatyuralar ishlash rasm bo‘la boshlagan.

Ashtarxoniylar davrida yaratilgan miniatyuralar hoshiyalarida qayd etilgan Muhammad Sharif, Muhammad Muqim, Muhammad Darvish, Muhammad Murod, Avaz Muhammad, Muhammad Amin, Behzod, Mullo Gadoy nomlari Buxoro miniatyura maktabi vakillarining soni ko‘p bo‘lganini ko‘rsatadi. Bu sulola hukmronligi davrida Hindiston bilan aloqalarning rivojlanishi tufayli miniatyura san’ati borasida ham ikki hudud musavvirlari o‘rtasida o‘zaro aloqalar rivojlanib, bu san’at turi an’analari bir-birini boyitib boradi.



Yosh olimlarning munozarasi, 1600–1630-yillar

Bilasizmi?

Muhammad Murod Samarqandiyning Firdavsiyning “Shohnoma” (1556-yilda ko‘chirilgan nusxasini bezagan 115 ta miniatyurasi), Sa’diyning “Bo‘ston” asarlariga ishlagan miniatyuralari bizgacha yetib kelgan.



Kitob o‘qiyotgan o‘smir. Muhammad Sharif va Muhammad Murod Samarqandiy. 1600–1630-yillar, Parij. Luvr



Piyola tutgan malika. Muhammad Sharif va Muhammad Murod Samarqandiy. 1600–1630-yillar, Frir galereyasi. Vashington



Muhammad Murod Samarqandiy. Saroydagi bazmga tayyorgarlik. Sa’diy, “Bo‘ston”, Buxoro. 1616-yil, Chester Bitti kutubxonasi, Dublin

Mustaqil faoliyat

1. “Yosh olimlarning munozarasi” miniatyurasini diqqat bilan kuzating va miniatyura asosida 10 ta gap tuzing. Berilgan voqeani tasvirlang.

2. Har bir asar haqida ma’lumot to‘plang, ularning chizilishi va o‘ziga xosligi haqida fikr bildiring. Shu davrga oid boshqa miniatyura asarlarini toping.

3. Bu asarlarning ranglari va chizilishiga, bugungi kungacha saqlanib qolganiga e’tibor qaratib, kimyo va unga yondosh bo‘lgan fanlar haqida mulohaza bildiring.

4. Tasviriy san’atning rivojlanishida qaysi soha ilmlariga tayaniladi?

14-§. MANG‘ITLAR BOSHQARUVI DAVRI

O‘ylab ko‘ring

1. 1740-yilda Buxoro tarixida qanday voqea yuz bergan edi? Bu voqeadan so‘ng Abulfayzxonning taqdiri qanday kechgan?

2. Abulfayzxonning hukmronligi ashtarxoniylarning maqomiga qanday ta’sir o‘tkazgan?

1756-yili Buxoroda hokimiyat tepasiga yangi sulola – mang‘itlar sulolasi keladi va davlatni 1920-yilgacha idora qiladi.

Tarix saboqlari

XVIII asr o‘rtalarida Buxoro xonligida siyosiy va iqtisodiy inqiroz

XVIII asr boshlarida Buxoro xonligi tarkibidan Farg‘ona vodiysi ajralib chiqishi mamlakatning bekliklarga bo‘linish xavfini keskin kuchaytiradi.

XVIII asr 40-yillariga kelib esa Buxoro xonligida siyosiy va iqtisodiy inqiroz yanada kuchayadi. Ashtarxoniylar sulolasining so‘nggi vakili Abulfayzxon siyosati natijasida xalqning moddiy ahvoli og‘irlashadi.

Eron shohi Nodirshohning Buxoro davlatiga hujumi, mamlakatning asosiy shaharlari bo‘lgan Buxoro va Samarqandning ular tomonidan egallanishi va talanishi oqibatida siyosiy vaziyat yanada murakkablashadi.

Ana shunday qaltis va nozik bir fursatda Buxoroda hokimiyat tepasiga mang‘itlar sulolasi keladi. Ashtarxoniylar saroyida dastlab miroxur va parvonachi lavozimlarida ishlagan Muhammad Hakimbiy qisqa fursatda Buxoro xonligidagi mang‘itlar qavmining yo‘lboshchisiga aylanadi.

Muhammad Hakimbiy ko‘p sonli mang‘itlar qavmi va urug‘ yo‘lboshchilariga tayanib, qatag‘on va kenagas urug‘lari, jumladan, shahrisabzlik Ibrohim Kenagasning qavmlariga qarshi Buxoroda markaziy hokimiyatni mustahkamlash uchun qattiq va murosasiz kurash olib boradi. Tez orada u saroyda devonbegi lavozimini egallaydi. Abulfayzxon tomonidan Muhammad Hakimbiy saroydagi barcha shahzodalar otaliqlarining boshlig‘i etib tayinlanadi hamda unga otaliq unvoni beriladi.

Muhammad Hakimbiy otaliq va qushbegi – bosh vazir sifatida mang‘itlar sulolasining Buxoroda hokimiyat tepasiga kelishi uchun yetarli shart-sharoit yaratib bergan. 1743-yilda Muhammad Hakimbiy vafotidan so‘ng uning o‘g‘li Muhammad Rahimbiy o‘zining muntazam qo‘shinga egaligidan foydalanib, hokimiyatga intiladi. Abdulfayzxon uni otasining o‘rniga tayinlashga majbur bo‘ladi.

1747-yilda Eron shohi Nodirshohning o‘ldirilishi Muhammad Rahimbiyning Buxoro taxtini egallashiga yo‘l ochadi. 1756-yilda u hokimiyatni to‘la egallaydi. Biroq mang‘itlar chingiziy bo‘lmaganligi uchun Muhammad Rahimbiy o‘zini xon emas, amir deb e’lon qiladi. Shu davrdan boshlab davlat nomi Buxoro amirligi deb yuritila boshlanadi. Muhammad Rahimbiy yirik yer egalarining davlatni boshqarish ishlarida shu vaqtgacha davom etib kelgan aralashuvlarini keskin kamaytirishga erisha oladi. Uning o‘limidan so‘ng hokimiyat amakisi Doniyolbiyga o‘tadi.

O‘limidan oldin Doniyolbiy to‘ng‘ich o‘g‘li Shohmurodni o‘zining vorisi deb e’lon qiladi. U o‘zini diniy ishlarga bag‘ishlab, ilohiyotga oid risolalar yozadi.

1785-yilda Buxoro shahrida kelib chiqqan qo‘zg‘olon natijasida mingdan ortiq kishi halok bo‘ladi. Shunday sharoitda hokimiyatga amir Shohmurod keladi.

U hokimiyat tepasiga kelgan dastlabki kunlaridanoq poytaxt shahar aholisining talablarini qondirishga harakat qiladi. Buxoro aholisiga ularni turli soliqlardan ozod etuvchi tarxon yorlig‘ini beradi.

Bilasizmi?

A. Zamonov. Mang‘itlar sulolasi haqida

Mang‘itlar turkiy qabila bo‘lib, ular Chingizxon davrida Amudaryoning chap sohiliga ko‘chirilgan edi. Mang‘itlar turkiy qabilalarning eng jasurlaridan biri bo‘lganligi uchun boshqa qabilalardan nufuzi yuqori bo‘lgan, Xiva xonlariga xizmat qilganlar. Keyinchalik Buxoro xonligida Qarshi atrofida o‘rnashib olganlar. Bir tarafdan o‘zlarining jangovar ruhi bilan, ikkinchi tarafdan xonlik saroyidagi e’tibor va ta’sirlari bilan obro‘ qozonganlar.

Mang‘itlarning bir qismi XV asr oxiri – XVI asr boshlarida Shayboniyxon bilan birga Movarounnahrga kirib keladi. Mang‘itlarning kichikroq qismi XVI asr boshlarida aka-uka shayboniylar Elbars va Bilbars qo‘shini tarkibida Xorazmga ham o‘rnashadi. Shu tariqa, mang‘itlar ikki davlat – Buxoro va Xorazm davlatlarining tashkil topishida qatnashgan.



Manbalarda

“Muhammad Rahim Buxoro amirlari orasida mamlakatning barcha hududlarida muayyan darajada tinchlikni saqlay olgan, davlatning chegaralarini mustahkamlagan hamda tashqi dushmanlardan himoya qilgan davlat boshliqlaridan biri. Davlatni qattiqqo‘llik asosida boshqarish unga isyonchilar bilan bo‘lgan to‘qnashuvda g‘alabaga erishish hamda Hisor va Shahrisabz bekliklarini amirlik tasarrufiga to‘liq o‘tkazish imkonini tug‘dirdi”.

Akbar Zamonov, “O‘zbekiston tarixi” kitobidan

Tarix saboqlari

Shohmurod mamlakatda yuzaga kelgan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy holatni barqarorlashtirishga harakat qiladi. Jumladan, urug‘larning isyon chiqarishlariga barham berish maqsadida Zarafshon vohasida egallanmagan ko‘plab yerlarni tekinga tarqatib beradi.

Oqibatda vohada ko‘plab aholi o‘troqlasha boradi. Shuningdek, mamlakatning ichki ijtimoiy-iqtisodiy hayotini tartibga solish, ma’naviy hayotni jonlantirishga qaratilgan bir qator tadbirlar amalga oshiriladi. Uning davrida Nodirshoh tomonidan bosib olingan Marv qaytarib olinadi. Shohmuroddan Rossiyaga elchilar boradi. Elchilarni imperator Yekaterina II qabul qiladi. Imperator Buxoroda madrasa qurish uchun 50 ming oltin rubl xayriya qiladi.

Amirlik hududini birlashtirish masalasida amir Nasrulla keskin harakat qiladi. Shahrisabz “yigirma yil davomidagi o‘ttiz ikki yurishdan so‘ng” Buxoroga qo‘shib olinadi. Kitob ham qo‘lga kiritiladi. Amir Nasrulla 1842-yilda hatto Qo‘qonni zabt etishga muvaffaq bo‘ladi. Lekin Buxoro yerlariga Olloqulixonning qo‘qqisdan bostirib kirishi Buxoro amirining vodiydan tezda qaytishiga sabab bo‘ladi.

Amir Nasrulla Qo‘qonda Ibrohim parvonachini boshqaruvchi etib tayinlab ketadi. Mahalliy aholiga nisbatan zulm o‘tkazgan bu shaxs ikki oydan so‘ng xalqning qarshilik kuchlari tomonidan ag‘darib tashlanadi. Nasrulla qo‘shinni qayta tuzib, unda tartib-intizom joriy qiladi. U Rossiya bilan do‘stona munosabat o‘rnatishga harakat qiladi.

Olloqulixon – 1825–1842-yillarda Xiva xonligini boshqargan qo‘ng‘irotlar yetakchisi.

Xalq orasida “amiri ma’sum” – begunoh amir sifatida nom chiqargan Shohmurod, manbalarda ta’kidlanganidek, darveshona hayot kechirgan, ovqatlanishi va yeb-ichishi ham oddiy bo‘lgan edi. Uning kundalik xarajatlari bir tangadan oshmagan. U o‘z sharafiga turli dabdabali tadbirlar uyushtirilishiga yo‘l qo‘ymas edi.

Atamalar

Qushbegi – amirlikning bosh vaziri.

Manbalarda

“Amir Nasrulla o‘ylamasdan Qo‘qonga Ibrohim parvonachi mang‘itni tayinlab, o‘zi Buxoroga qaytib ketdi. Ibrohim parvonachi esa kechagina urushdan chiqqan mahalliy aholiga nisbatan zulm o‘tkaza boshladi, ayniqsa, oliq-soliqlar borasida.

Natijada ikki oy o‘tib-o‘tmay asli minglardan bo‘lmish, qirq besh yil davomida tog‘lik yerlarda, qirg‘izlar orasida yashagan Sherali vaziyatdan xabar topib, tezda lashkar tortib keldi va Buxoro noibini ag‘dardi. Garchi amir Nasrulla ham qo‘shin tortib kelib, Qo‘qonni yana bir bor egallashga harakat qilgan bo‘lsa-da, biroq uddasidan chiqolmadi. Shu tariqa Buxoro va Qo‘qonni birlashtirish imkoni qo‘ldan ketdi”.

O‘sha zamon voqealari guvohi, tarixchi Muhammad Hakimxonning “Muntaxab at-tavorix” asaridan



Buxoro amirligi bayrog‘i va gerbi

Bilasizmi?

Buxoro amirligiga yuborilgan rus geografi, sharqshunosi va diplomati tomonidan yozilgan “Buxoro amirligining tavsifi” kitobida Amir Nasrullaxonning portreti berilgan. Bu surat Buxoro amirlarining musavvir tomonidan chizilgan dastlabki portretidir.



Amir Nasrulla portreti (nusxasi)

Tarix saboqlari

Davlat boshqaruvi

Mang‘itlar sulolasi vakillari ham davlatni boshqarishni asrlar davomida shakllangan o‘zbek davlatchilik an’analariga suyangan holda amalga oshirishadi. Markaziy boshqaruv to‘laligicha dargohda mujassamlashadi.

Qushbegi – bosh vazir mang‘itlar davrida oliy hukmdordan keyingi ikkinchi shaxs bo‘lib, mamlakat boshqaruvi, moliya, soliq, xazina, poytaxtdagi ahvol bilan bog‘liq eng muhim masalalarni nazorat qilgan. Shuningdek, unga barcha viloyatlar bo‘ysungan. Xususan, qushbegi poytaxt shahar va uning viloyati hokimi ham sanalgan.

Davlat boshqaruvida muhimligi jihatidan navbatdagi o‘rinda **devonbegi** turgan. U moliya vaziri maqomiga ega bo‘lgan. Bu lavozim egasini odatda **quyi qushbegi** deb ham atashgan. Uning bunday atalishiga sabab, bosh vazir – qushbegi arkda o‘tirib, faoliyat yuritgan bo‘lsa, asosan, zakot yig‘ish bilan bog‘liq ishlarga mutasaddi bo‘lgan devonbegi qarorgohi arkdan pastda joylashgan. Uning zimmasiga Qorako‘ldagi suv ta’minoti ham yuklangan.

Otaliq – shahzodalar tarbiyasiga mas’ul bo‘lgan amaldor. Bu lavozim egalari mang‘itlar davrida mamlakatning markaziy qismi – Samarqand va Buxoro o‘rtasidagi yerlarning suv ta’minotiga, sug‘orish masalalariga ham mutasaddi bo‘lgan. **Parvonachi** – oliy hukmdorning yorliqlarini amaldorlarga, umuman, tegishli kishilarga yetkazuvchi, arab millatiga mansub aholi bilan shug‘ullanuvchi mansab egasi. **Dodxoh** – jabrlanuvchilar arzini amirga yetkazish va javobini olib berishga mas’ul bo‘lgan shaxs. Ba’zi hollarda dodxoh oliy hukmdor ruxsati bilan o‘zi ham ularning talabini qondirishi mumkin edi.

Lavozimlardan yana biri **inoq** bo‘lib, u oliy hukmdor buyruqlarini hukumatdagi oddiy xizmatchilarga yetkazuvchi va buyruqning amalda bajarilishini nazorat qilish bilan shug‘ullanuvchi mansabdor sanalgan. Harbiy sohada eng yuqori darajada harbiy vazir turgan. Uni ko‘p hollarda **lashkar to‘pchiboshisi** deb atashgan. Mamlakat miqyosidagi xavfsizlik xizmatini **ko‘kaldosh**



boshqargan. Haram xodimlari boshlig‘i – **bosh xoja,** qurilish ishlariga mas’ul – **kutvol, bakovul-boshi,** oliy hukmdor va amaldorlarning xizmatidagilarni nazorat qilib turuvchi – **kichik o‘roq, eshikog‘aboshi, miroxur,** qurol-aslahaga mas’ul – **qo‘rchiboshi,** shahar, yo‘llar posboni – **qorovulbegi,** harbiy harakatlar davrida harbiylarni turiga qarab taqsimlovchi – **udaychi,** elchilar qabulini uyushtiruvchi – **shig‘ovul** kabi mansablar ham bo‘lgan.

Bu davrda **shayxulislom, qozi, muftiy** singari mansablar o‘zining ilgarigi mavqeyini saqlab qolgan. Ma’muriy-boshqaruv tizimida qozilar bilan bir qatorda muftiylar ham katta o‘rin tutishgan. Muftiylik lavozimini egallagan shaxslar qozilar kabi shariat asoslari va musulmon qonunshunosligi bo‘yicha keng qamrovli bilimga ega bo‘lishlari lozim edi. Muftiylarni tayinlash huquqi poytaxt Buxoroning **qozikalon**iga berilgan. Boshqaruv tizimida, shuningdek, **rais (muhtasib), sadr** (vaqf mulklari hisob-kitobi va nazorati bilan shug‘ullanuvchi) mansab egalari ham faoliyat yuritishgan. **To‘qsabo** mansabi ham juda ahamiyatli bo‘lib, u davlat bayrog‘ining saqlanishiga javobgar bo‘lgan. Bu lavozim egasi bayroqdor deb ham atalgan.

Mustaqil faoliyat

1. Qaysi lavozimlar shayboniylar va ashtarxoniylar davridagi boshqaruvda mavjud bo‘lgan?
2. Mang‘itlar davrida ulardan qaysi birlarining vazifasi o‘zgargan?
3. Quyida berilgan manbani o‘qing hamda Amir Shohmurodning faoliyatiga baho bering.

Manbalarda

“Uning saroyida zarracha dabdaba yo‘q edi... Kun kechirish uchun nihoyatda kam pul xarj qilinardi. Shu sababli u turli qo‘l mehnati bilan mashg‘ul bo‘lardi va tirikchiligi shundan edi. U hech kimnikidan farq qilmaydigan oddiy kiyim kiyardi. Uning odatiy ovqati non va suv edi. Xalq unga alohida ehtirom bilan munosabatda bo‘lardi...”

1794-yili Rossiyadan Buxoroga kelgan Timofey Burnashevning esdaliklaridan



15-§. MANG‘ITLAR DAVRIDA IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOT

O‘ylab ko‘ring

1. Mang‘itlarning hokimiyat tepasiga kelishi xalq hayotida qanday o‘zgarishga sabab bo‘ldi?
2. Hokimiyat boshqaruvidagi sulolalarning o‘zgarishi iqtisodiy hayotga qanday ta’sir etadi?
3. Davlat siyosati va iqtisodiyot o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor?

Tarix saboqlari

Mamlakat aholisi

Mang‘itlar hukmronligi davrida ham xalqning katta qismini o‘troq aholi tashkil etgan. Ayni paytda ko‘chmanchi va yarimko‘chmanchi turmush kechiruvchi urug‘lar ham bor edi. Mang‘itlar Buxoro va Qarshi atroflarida, xitoylar Buxoro va Karmana, naymanlar Ziyovuddinda, qipchoqlar Kattaqo‘rg‘on va Samarqandda, saroylar Mirzacho‘lda, shuningdek, Samarqanddan Qarshiga boruvchi yo‘l bo‘ylab, Qarshi va uning o‘rtasidagi tog‘larda qo‘ng‘irotlar, G‘ijduvon atrofida do‘rmonlar, Nurda burgutlar, Shahrisabzda kenagaslar yashashgan.

O‘troq aholi sug‘orma dehqonchilik qilishga qulay bo‘lgan vohalar va ularda joylashgan shahar, qishloqlarda istiqomat qilishgan. Shuningdek, yarimko‘chmanchi hayot tarzini kechirgan abdal, qarluq, qang‘li, barlos, jaloyir va boshqalar, asosan, lalmi yerlarda yashab, dehqonchilik va chorvachilik bilan ham shug‘ullanishgan. Vardanza, Samarqand, Qarshi atroflarida yashab, bozorlariga qora va kulrang qorako‘l yetkazib bergan arablar aholining uncha katta bo‘lmagan qismini tashkil etgan.

Marvlik oilalarning Samarqand atrofiga ko‘chib kelishi natijasida aholi soni ortgan. Forslar, turkmanlar, dasht yerlari va mamlakatning shimolida, shuningdek, Zarafshon vodiysida yashagan qoraqalpoqlar, shimoli-sharqda yashagan Kichik va O‘rta juz qozoqlari vakillari ham aholining muayyan qismini tashkil etgan. Mamlakatda Buxoro yahudiylari, Samarqand va Qorako‘l atrofida lo‘lilar, ruslar, tatarlar, afg‘onlar, hindlar, qalmiqlar yashagan.

Manbalarda

1832-yili Buxoroda bo‘lgan ingliz elchisi Aleksandr Byorns Buxoro qovunlari haqida yozar ekan, ularni hind va fors qovunlari bilan qiyoslab bo‘lmasligini, hatto mashhur afg‘on qovunlari ham ular bilan raqobatlasha olmasligini ta’kidlagan.

Tarix saboqlari

Aholining mashg‘ulotlari

Mang‘it amirlari ham sun’iy sug‘orish masalasiga jiddiy e’tibor berishgan. Chunonchi, yangi ariqlar bunyod etilgan va eskilarini ta’mirlash ishlariga alohida ahamiyat qaratishgan. Jumladan, urushqoq urug‘lar ishlov berilmagan yerlarga ko‘chirilgan. Bu ayni paytda turli urug‘larning o‘troqlashuviga ham sabab bo‘lgan. Ayni paytda o‘troqlashgan aholining xo‘jalik yuritishi uchun sun’iy sug‘orish tizimlari bunyod etilgan. Bu boradagi ishlar, ayniqsa, Zarafshon vohasida faol olib borilgan.

XVIII asrning 50-yillarida Panjikent, Sheroz, Urgut va Samarqand yaqinida Oqdaryo va Qoradaryodan qazilgan ariqlar tozalandi, ta’mirtalab holga tushib qolgan Darg‘om arig‘idagi suvayirg‘ich – to‘g‘on qayta tiklandi va yangilari bunyod etildi.

Bu ishlar natijasida sun’iy sug‘orish tizimi yoqalab ko‘chmanchi aholining o‘troqlashish jarayoni kechgan. Bu esa, o‘z navbatida, dehqonchilikda band yerlarning kengayishiga olib keldi. Aholi, asosan, suvli, to‘qay hamda lalmi yerlarda dehqonchilik bilan shug‘ullangan. Sun’iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik olib borilgan yerlar **suvli yer** deb atalgan va uning maydoni **lalmi yerlar** maydonidan katta edi. Bu yerlardan yilda ikki marta hosil olingan.

XVIII–XIX asrlarda mamlakat dalalarida g‘allachilik, paxtachilik, polizchilik, bog‘dorchilik, uzumchilik kabi sohalar rivojlanib, turli ekinlar, mevalar yetishtirishning hajmi ortgan. Ular ichida donli o‘simliklar – bug‘doy, sholi, arpa, tariq, jo‘xori katta o‘rin egallagan.



Miyonqol va Shahrisabzda yetishtirilgan sholi nihoyatda yuqori baholangan. Jo‘xorining turli navlari ekilib, yuqori hosil olingan. Yog‘ ishlab chiqarishda katta ahamiyatga ega bo‘lgan kunjut, oddiy navli zig‘ir va uning alohida bir turi bo‘lgan indiv singari ekinlar ekilgan.

Turli poliz ekinlari ekilib, ulardan olingan hosil mamlakat bozorlaridagi ichki savdoda muhim o‘rin tutgan. Aholi kashnich, rayhon, bodyon, zira, shuningdek, turli gullar yetishtirish bilan ham shug‘ullangan.

Suv taqsimotida tegirmon, uning yarmiga teng, 10–15 tanob yerni sug‘orishga yetadigan tosh, quloq o‘lchov birliklaridan hamda ravoqdan ham foydalanishgan. Bu moslama odatda toshko‘priklar ostida bunyod etilgan bo‘lib, uning yordamida 100 tanob yerni sug‘orishga yetadigan suv taqsimlab berilgan. Samarqand yaqinida bu yerdan Karmanagacha bo‘lgan yerlarni sug‘orishga qodir Zarafshonning suvini taqsimlash uchun 21 ravoq bor edi.

XIX asrda birgina Samarqand va uning atroflarida atirgul, nastarin, to‘q qizil rangdagi atirgul (arg‘uvon), lola, havorang, qizil va oq binafshalar, oq, qizil va qashg‘ar gullari, qizil va oq xitoy atirguli, ra’no, zebo, hindi, tugma gullari va boshqalar ekilgan. Mamlakat va undan tashqarida bedona navli Shahrisabz anorlari, Samarqand shaftolilari, Shahrisabz yaqinidagi tog‘larda yetishtirilgan bodom mashhur edi.

Amirlik hududida chorvachilik ham rivojlangan. Chorvachilikka ixtisoslashgan hududlarda qo‘y, qoramol, tuya va otning turli zotlari ko‘paytirilgan. Ular bilan nafaqat ichki, balki tashqi bozorda ham katta savdo amalga oshirilgan. Parrandachilik ham rivoj topgan. Aholi kaklik va baliq ovlash bilan ham shug‘ullangan.

Mang‘itlar davrida ham mamlakat hayotida shaharlar muhim o‘rin tutgan. Ulardan biri poytaxt Buxoro bo‘lib, sulola vakillari olib borgan siyosat natijasida uning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy mavqeyi va salohiyati yanada oshib boradi. Shaharda ko‘plab savdo inshootlari, madaniy muassasalar, jamoat binolari quriladi.



Bu davrga kelib Samarqand o‘zining ilgarigi mavqeyini tiklaydi. Mang‘it amirlarining harakati bilan shahar asta-sekin aholi bilan to‘lib boradi. Ichki va tashqi savdo keng rivojlanadi. Savdo taraqqiyoti natijasida Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Qarshi kabi shaharlarning iqtisodiy qudrati o‘sadi.

Buxoroda kiyinish madaniyati turli davrlarda turlicha bo‘lgan. U asrlar davomida mavjud bo‘lgan urf-odat va an’analarga asoslangan.

Bu davrda milliy kiyimlarni tikishning o‘ziga xos uslubi shakllangan. O‘zbek xalqi o‘zining milliy marosimlari uchun alohida kiyingan. Urf-odat yoki marosim kiyimlari o‘ziga xos ko‘rinishga ega bo‘lgan.

Bilasizmi?



Buxoro amirlari tomonidan rus podshosiga hadya sifatida yuborilgan harbiy chodir.

U hozirda Rossiyaning eng yirik muzeyi bo‘lmish Ermitajda saqlanmoqda.

Chodirning maxsus ramka dizayni tashrif buyuruvchilarga uning bezaklarining tashqi va ichki tomonlarini tomosha qilish imkonini beradi.



O‘ylab ko‘ring

1. Rasmlarga qarab mang‘itlar davrida ayollar va erkaklarning liboslari qanday bo‘lganligini mulohaza qiling.
2. Har bir rasmdagi elementlarga e’tibor bering.


1


2




3


4



10




5


6


7

8

9


11

Bilasizmi?

1. Erkaklar bosh kiyimi.
2. Sallapo‘sh.
3. Ayollar bosh kiyimi – kalta-po‘shak.
4. Ayollar bosh kiyimi – pesho-nabog‘.
5. Kamar.
6. Peshonabog‘.
7. Ayollar oyoq kiyimi – mahsi.
8. Erkaklar oyoq kiyimi – etik.
9. Erkaklar oyoq kiyimi – kavush.
10. Kattalar kiyimi.
11. Bolalar va yoshlar kiyimi.

Tarix saboqlari



Hunarmandchilik

Hunarmandchilikda talab katta bo‘lgan mahsulot paxta edi. Dehqonlar uni o‘zlarining ehtiyojlari va sotish uchun yetishtirishgan. Paxta mamlakatning ko‘p yerlarida ekilgan. Shu bilan bir qatorda aynan ushbu mahsulotni yetishtirishga ixtisoslashgan tumanlar mavjud edi. Buxoro, Shahrisabz, Kattaqo‘rg‘on va boshqa tumanlar shular jumlasidandir. Bu hududlarda oq va toza navli hisoblangan hamda biroz qizg‘ish tusga ega g‘o‘za urug‘lari ekilgan. Ushbu dehqonchilik mahsulotiga Rossiyada talab katta edi.

Tashqi savdo aloqalarida tovar ahamiyatiga ega paxtaga Rossiyada ehtiyojning ortishi mamlakatda bu dehqonchilik ekini ekiladigan yer maydonlarining kengayishiga olib keladi. Bu davrda tamaki ham yetishtirilgan. Ayniqsa, Qarshi atrofida, Urgut va Kattaqo‘rg‘onda yetishtirilgan tamaki yuqori baholangan.

Mamlakatda turli bo‘yoqlar beruvchi o‘simliklar ham o‘stirilgan. Yetishtirilgan ro‘yon, isparak, buzg‘unch ko‘p hollarda tovar ahamiyatiga ega bo‘lib, xorijga ham chiqarilgan. Masalan, buzg‘unch Buxorodan Hirotga olib borilgan.



Tarix saboqlari

Pul va savdo munosabatlari

1785-yilda pul muomalasi borasidagi tartibsizliklarga barham beruvchi islohot o‘tkaziladi. Kumush tangalarning og‘irligi, kattaligi, aslligi, zarb etish yo‘li, tangadagi yozuvlar mazmuni va bezaklar o‘zgartiriladi. Shayboniylar va ashtarxoniylar hukmronligi davrida qariyb ikki yarim asr mobaynida kumush tangalar har xil asllik darajasiga ega bo‘lsa-da, ularning og‘irligi bir misqolga teng bo‘lgan.

1785-yili kumush tangalar kichkina, yumaloq shaklda bo‘lib, yuqori soflik darajasiga ega edi. Ushbu islohot natijasida eski tangalar muomaladan chiqariladi. Faqat 1753–1758-yillarda amir Muhammad Rahim tomonidan chiqarilgan tanga – **miri** muomalada qoldiriladi.

Mang‘itlar hukmronligi davrida savdo-hunarmandchilik muassasalari yirik mulkdorlar – oliy hukmdor, turli toifadagi amaldorlar, qabila boshliqlari, ulamolarning yirik vakillari va boshqalar qo‘lida to‘plana borgan. Qishloq yerlari va shaharlardagi ko‘chmas mulk va savdo-hunarmandchilik muassasalaridan keladigan foydaga ular yangi mulklarni sotib olishgan.

Xalqaro savdo bilan shug‘ullanib, uzoq yurtlarga savdo karvonlarini jo‘natishgan. Bu davrda muayyan pul miqdoriga ega har bir shaxs savdo bilan shug‘ullangan. Biroq ular tomonidan o‘zlashtirilgan bu boyliklar ishlab chiqarish jarayoniga sarflanmagan va mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotiga xizmat qilmagan.

O‘ylab ko‘ring

1. Qishloq yerlari va shaharlardagi ko‘chmas mulk va savdo-hunarmandchilik muassasalaridan keladigan foydaga yangi mulklarning sotib olinishi natijasida qanday iqtisodiy jarayonlar yuzaga keladi?
2. Jahon tarixidan olgan bilimlaringizga tayanib Rus-turk urushining sabablarini eslang.

Tarix saboqlari

Tashqi siyosat

Bu davrda rus-turk munosabatlarining keskinlashuvi natijasida Usmonli sultonligi Buxoroga yuborgan elchisi Olamgir Mehmed Sayidog‘a amir Shohmuroddan rus hukumatiga qarshi chiqishni so‘raydi. Qipchoq dashtida yashovchi “qirg‘izlar va qozoqlar” orasida ruslarga qarshi g‘azavot g‘oyasini targ‘ib qilish, Rossiyada yuz berayotgan voqeliklar haqida usmonlilarni xabardor qilib turish kabilarni iltimos qiladi.

Amir Shohmurod qurol-aslahalar usmonlilar tomonidan yetkazib berilsa, harbiy harakatlarni boshlashi va Rossiya bilan chegaradosh yerlarda harbiy istehkomlar qurishi mumkinligini bildiradi.

Mang‘itlar Istanbulga o‘ndan ortiq elchilar yuboradi. Elchilar orqali yuborilgan maktublarda mamlakat sarhadlarida yuz berayotgan o‘zgarishlar haqida bildirilib, usmonlilardan qurol-yarog‘, ishlab chiqarishning turli sohalarida ustalar, shuningdek, tog‘-kon ishlari, metallurgiya, tibbiyotga oid kitoblar, diniy adabiyotlar ham so‘raladi.

Biroq bunga javoban usmonlilar tomoni kitoblarni yuborish bilan chegaralanib qolgani inobatga olinsa, biror-bir amaliy yordam ko‘rsatilmagan.

Hindistonda mustahkam o‘rnashib olgan inglizlar XIX asrning ikkinchi o‘nyilligidan e’tiboran Turonga katta qiziqish bildira boshlaydi. Inglizlar turli safarlar orqali mintaqadagi siyosiy vaziyat, hududning ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlari, karvon yo‘llarini o‘rganadilar. Buxoroga kelgan U. Murkroft va D. Trebek, A. Byorns, A. Konolli va Ch. Stoddartlar Ost-Indiya kompaniyasining maxfiy topshiriqlarini bajaradilar.

Buyuk Britaniyaning o‘zbek davlati bilan munosabatlari faollashishini o‘z zarariga yo‘ygan rus hukumati Turonni egallash bilan bog‘liq yangi rejalar tuza boshlaydi. Rus hukumati tomonidan yuborilgan elchiliklar o‘zbek davlatlari haqida to‘liq ma’lumot to‘plash kabi vazifalarni amalga oshiradi. Ayni paytda rus hukumati tomonidan zimdan harbiy yurishlarga tayyorgarlik boshlangan edi.

Manbalarda

“Mahalliy mahsulotlarning hammasi juda arzondir va shuning uchun Buxoroning ko‘ylak bozori serhasham kiyim bilan Xitoy Tatariyasiga qadar barcha musulmonlarni ta’minlaydi”.

Arminiy Vamberi, 1863-yili Turkistonda bo‘lgan vengriyalik sayyoh va olim

Qrim aslida Rossiya tarkibiga 1783-yilda va rasmiy ravishda – Rossiya va Usmonli imperiyalari o‘rtasidagi Yassi tinchlik shartnomasiga binoan 1791-yil 29-dekabr (1792-yil 9-yanvar) da o‘tadi.

Rossiyaning Qrimda mustahkam o‘rnashib olishga qaratilgan birinchi urinishi imperator Pyotr Buyuk hukmronligining boshlanishiga (Azov kampaniyasi) to‘g‘ri keladi. Ammo Shimoliy urush natijasiga ko‘ra Rossiya uchun Yevropaga darcha ochiladi va Istanbulda Qrim bo‘yicha shartnoma tuziladi. Qrimni qo‘shib olish Pyotr I ga nasib qilmaydi. Uni imperator Yekaterina II amalga oshiradi.

Xulosa

1. Bu davrda muayyan pul miqdoriga ega har bir shaxs savdo bilan shug‘ullangan. Biroq ular tomonidan o‘zlashtirilgan bu boyliklar ishlab chiqarish jarayoniga sarflanmagan va mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotiga xizmat qilmagan. Topshiriq:

– Ushbu holat mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatgan?

– “Ishlab chiqarish jarayoni” deganda nimani tushundingiz? Ishlab chiqarish rivojlanmasa, faqat savdoning o‘zi bilan mamlakat iqtisodi rivojlana oladimi?

2. O‘rganilayotgan davrda Yevropa davlatlari iqtisodini Buxoro davlati iqtisodi bilan solishtiring. Xulosalaringizni yozing.

– Mamlakat iqtisodiyotidagi muammolar davlat mustaqilligining barqarorligiga qanday ta’sir ko‘rsatadi? Fikringizni asoslang.

– Agar siz shu davrga tushib qolsangiz iqtisodiyotning qaysi sohasini rivojlantirgan bo‘lardingiz?

3. Rossiya–Buyuk Britaniya munosabatlari Buxoroning ichki siyosatiga, iqtisodiga qanday ta’sir ko‘rsatdi?

4. Mang‘itlarning Usmonli sultonligi bilan munosabatlaridan ko‘zlagan maqsadi nima edi?

5. Nima sababdan rus hukumati Buyuk Britaniyaning Buxoro amirligi bilan munosabatlari faollashishini o‘z zarariga yo‘yganligini misollar bilan tushuntiring.

16-§. MANG‘ITLAR DAVRIDA ILM-FAN VA MADANIYAT

O‘ylab ko‘ring

1. XVII–XVIII asrlarda jahon ilm-fani yuksak taraqqiy etganligiga misollar keltiring.
2. Fanning qaysi sohalari rivojlanib borgan? Bu sohalar mamlakatlar rivojiga qanday ta’sir ko‘rsatgan?
3. XVIII asrda sanoatda qanday tub o‘zgarishlar yuz bergan?
4. Ilm-fanning rivojlanishi uchun qanday omillar zarur? Mang‘itlar bu omillarga qanchalik e’tibor berishgan?

Tarix saboqlari

Mang‘itlar davrida ilm-fan yo‘nalishlarida erishilgan yutuqlarni qayd etishning imkoni yo‘q. To‘g‘ri, madrasalar qurilgan, borlari o‘z faoliyatini davom ettirgan. Biroq ulardagi ta’lim saviyasi tobora ortda qolib ketgan. Bunga jahonda erishilgan marralardan xabarsizlik sabab bo‘lgan.

Me’morchilik-qurilish sohasida Amir Haydar tomonidan Samarqandda qurilgan madrasa, Buxoroda Shayx Jalol xonaqohi, Xalifa Xudoydod masjidi, Rahmonquli madrasasi, Ernazar Elchi madrasasi, Tursunjon madrasasi, Chor minor madrasasi, Qarshida Amir Haydar davrida “sut sotish bilan shug‘ullanuvchi ayol – Gulining mablag‘iga qurilgan” kabi madrasalarni qayd etish mumkin.

“... jahonda erishilgan marralardan xabarsizlik” degan jumlani “Kimki axborotga ega bo‘lsa, u dunyoga egalik qiladi” degan fikr bilan tushuntiring. Axborotga ega bo‘lish va ilm o‘rganish, zamonaviy kasblarni tanlash mamlakat iqtisodini qay darajada belgilaydi? Misollar bilan tushuntiring.

Jahonda

Yevropada XVII–XVIII asrlarda aniq fanlar sohasida katta muvaffaqiyatlarga erishiladi. Bu muvaffaqiyatlar, birinchi navbatda, ingliz olimi I. Nyuton (1643–1727) va nemis olimi G. V. Leybnis (1646–1716) nomlari bilan bog‘liq. 14 yoshli I. Nyuton uchun fan asosiy mashg‘ulotga aylanadi.



Uning fizika fani taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi butun olam tortishish, mexanik harakat va nurning tarqalish qonunlarini kashf etgani bilan belgilanadi. I. Nyuton 1671-yilda shisha linzani, eng katta teleskoplardan ko‘ra osmon jismlarini yaxshiroq ko‘rsatadigan kichkina oynali teleskopni ham ixtiro qiladi. Shu tariqa olim yulduzlar olamini odamlarga yanada “yaqinlashtiradi”. Fan sohasida erishgan katta muvaffaqiyatlari uchun 30 yoshga ham to‘lmagan I. Nyuton Qirollik jamiyati a’zosi (akademik) etib saylanadi.

Tarix saboqlari

XIX asrning birinchi yarmida poytaxt Buxoroda undagi ko‘chalar soniga mos ravishda 360 ta masjid faoliyat ko‘rsatgan. Bu davrda tarix, adabiyot, tibbiyotga oid qator asarlar yaratildi.

“Tuhfat al-xoniy”, “Tarixi amir Haydar”, “Fathnomayi sultoniy”, “Mang‘itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi”, “O‘zbek podshohlari zikri”, “Tarixi salotini mang‘itiya, o‘zbakiya va ashtarxoniya” kabi tarixiy asarlar shular jumlasidandir.

Shuningdek, Muhammad Sharif Buxoriyning “Mizan at-tibb” asariga sharhlar yozildi. Shaharning XVIII asrda kengaytirilgan qal’a qismida Abdulazizxon barpo ettirgan Havzi Nav ansambli, Xalifa Xudoydod kompleksi, Chor minor nomi bilan mashhur bo‘lgan Xalifa Niyoz madrasasi, Baland, Xo‘ja Zayniddin va Bolohovuz masjidlari o‘sha davr me’morchilik ilmining namunalari edi.

Buxoro amiri Shohmurod (1785–1800) va Amir Haydar (1800–1826) hukmronligi davrida ilmga e’tibor bir qadar kuchayadi. Shohmurod Mir Arab madrasasining bitta hujrasida kecha-kunduz riyozat chekib ilm olish bilan shug‘ullanadi va xalq orasida “Amiri Jannatmakon” nomi bilan taniladi.

Manbalarda

Amir Shohmurod davriga kelib aholisi kamayib, qishloq darajasiga tushib qolgan Samarqand qayta quriladi. Amir Shohmurod Samarqandni qayta qurish tarhini o‘zi chizgan. U shaharda 24 ta mavze qurdirib, davlatning sharqiy viloyatlaridan bu yerga ko‘plab oilalarni ko‘chirib keltiradi. Natijada shahar gavjumlashib, iqtisodiy va madaniy ahvol ancha yaxshilanadi. Hozirda Samarqand ko‘chalaridan biri uning nomi bilan ataladi.

Amir Shohmurod haqida qo‘shimcha ma’lumot



Tarix saboqlari

Xalifa Xudoydod majmuasi

“Tuhfat az-zohirin”da yozilishicha, Xalifa Xudoydod Xorazm shahzodalaridan hisoblanadi. Xalifa Xudoydod Xorazmdan Buxoroga kelib, Mir Arab madrasasida ta’lim olgan.

Xalifa Xudoydod Amir Shohmurod davrida Buxoro shahridan o‘n ikki tanob yer sotib oladi va 1786-yilda u yerda toshdan xonaqoh hamda uning yonidan madrasa, sardoba va tahoratxona qurdiradi. Xalifa Xudoydod har bir bino uchun alohida vaqf ta’sis etadi.

Majmuaga kirish eshigi ikkita bo‘lib, g‘arbiy tomonda asosiy darvoza joylashgan. Majmuaning miyonsaroyi bo‘lib, uning tepasiga kichkina minora qurilgan. Minoradan azon o‘qish maqsadida foydalanilgan. Madrasaning eshigi ikki tabaqali, har bir xonasi ikki-uchta tokchadan iborat bo‘lgan.

Majmuada sardoba ham mavjud bo‘lib, ikkita kirish eshigi bor. Xalifa Xudoydod majmuasida 39 ta bir qavatli hujralar ham qurilgan. Madrasada 150–200 talaba tahsil olgan.

Hovli uch tomondan bir qavatli hujralar bilan o‘ralgan. Hovlining janubi-g‘arbida joylashgan masjid murabba tarhli, gumbaz bilan yopilgan, uch tomoniga yog‘och ustunli ayvon ishlangan. O‘ymakor ustunlari naqshlar bilan jozibador bezatilgan. Sardobaga zinapoya orqali kiriladi. Madrasaning old tomonida koshin qoldiqlari saqlangan. Hovlining shimoliy markazi orqali Xalifa Xudoydod qabri bo‘lgan qabristonga o‘tiladi. Qabr yaqinida ikki ustunli, shifti bo‘yama naqshlar bilan pardozlangan ayvon bor.

Xalifa Xudoydod majmuasi turli diniy va memorial inshootlarni o‘z ichiga olgan majmua namunasidir. Majmuadagi masjid maydoni 25×25,4 metrga teng va masjid ustida kitoba bo‘lgan, ammo u hozirgi kunda saqlanib qolmagan. Masjidning shimoliy tomonida ayvon mavjud va uning oldida darsxona ham bunyod etilgan.

Xalifa Xudoydod majmuasi – Buxorodagi me’moriy yodgorlik. Majmua Buxoro amirligida hukmronlik qilgan mang‘itlar sulolasi davrida 1777–1855-yillarda Shayx Xudoydod ibn Toshmuhammad Azizon al-Buxoriy tomonidan qurilgan. Majmua madrasa, masjid, hovli, sardoba va qabristondan iborat.



Ijodiy ish

Nima deb o‘ylaysiz, matematika, geometriya, mineralogiya va boshqa tabiiy fanlarga tamal toshini bizning ajdodlarimiz qo‘ygan bo‘lsa, nima uchun rivojlanish Yevropada ro‘y bergan?

Manbalarda

A.Byorns Buxoroda 366 ta “katta va kichik” madrasa bor, deb ko‘rsatar ekan, madrasalar toliblari orasida “Erondan tashqari hamma mamlakatlar kishilarini uchratish mumkin. Ular yetti yoki sakkiz yillik o‘quv kursini tugatib, o‘z vatanlariga bilim zaxirasi va mashhurlik bilan qaytadilar”, deb qayd etgan edi.

Tarix saboqlari

Chorsu (Samarqand)

Amir Shohmurod Samarqand shahri markazida olti qirrali Chorsuni bunyod ettiradi. Chorsuga o‘sha davrda Toqi musaddas deb nom beriladi.

Binoning tashqi devorlari 12 qirrali prizmani hosil qiladi. Olti tarafga qaragan ravoqlar va ular orqasidagi yo‘laklar shaharning asosiy ko‘chalari yo‘nalishlari bo‘yicha qurilgan. Ravoqli tomonlarning oraliqlarida tarhlari uchburchak shaklida bo‘lgan do‘konlar joylashgan.

Yo‘laklar usti kichik gumbazlar bilan, markaz katta gumbaz bilan yopilgan. Chorsu yo‘laklarining 6 ta bo‘lgani shahar darvozalari soniga ishora – ramzi ma’nosi bor. Yo‘laklarning yo‘nalishlari Registon madrasalari tomonlariga ham mos kelgan. Chorsu binosi hozir ham attorlik do‘konlari majmuyi sifatida xizmat qilmoqda.

Chorsu Registonning janubi-sharqida, Samarqand, Toshkent, Buxoro va Shahrisabzni bog‘lovchi yo‘llar chorrahasida joylashgan. Chorsu o‘rnida dastlab XV asrda qurilgan bozor bo‘lgan. Ilgari Chorsuda joylashgan bozor bugun Bibixonim masjidi yonidagi Siyob bozoriga aylangan. Hozirda bino muzey va galereya sifatida faoliyat yuritmoqda. Samarqand boshqa me’moriy va arxeologik yodgorliklari bilan birgalikda YUNESKOning O‘zbekistondagi Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan.



Chorsu – Samarqand (Registon) chorrahasida joylashgan usti berk bozor-tim

Tarix saboqlari

Chor Minor

Chor Minor (fors. to‘rt minora) – 1807-yilda qurilgan. Buxorodagi me’moriy yodgorlik. Chor Minor an’anaviy usulda qurilgan masjid, bir qavatli madrasa, atrofi bir qavatli hujralar bilan o‘ralgan hovlidan iborat. U o‘z davrida masjid, madrasa, darveshlar va musofirlar tunab qolishi mumkin bo‘lgan xonaqoh vazifasini bajargan. Chor Minor majmuasi Sharq me’morchilik an’analarini o‘zida mujassamlashtirgan.

To‘rt minorali bino ba’zan bir vaqtlar orqa tomonida mavjud bo‘lgan madrasalar uchun eshik vazifasini bajargani taxmin qilinadi. Chor Minor aslida yashash va ibodat qilish uchun mo‘ljallangan kompleks bino hisoblanadi.

Sinchli peshayvon tipidagi masjid hovlining janubi-g‘arbiy burchagida joylashgan. Madrasaga ikki qavatli, gumbaz tomli darvozaxona orqali kiriladi. Murabba tarhli darvozaxona o‘ziga xos mujassam yechimga ega: oldi peshtoqli, to‘rt burchagida to‘rtta minora joylashgan (nomi ham shundan), minoralarning tepa qismi gumbaz shaklida yakunlangan bo‘lib, ular sirkori koshinlar bilan bezatilgan. Ikki qavatli inshootning birinchi qavati miyonsaroy ko‘rinishida bo‘lib, izoralari toshlar bilan qoplangan, tomi gumbazli, ikkinchi qavati kutubxona. Kutubxonaning shifti pastak gumbazli bo‘lib, sodda muqarnaslar halqasi bilan to‘ldirilgan. Ikkinchi qavatga minoralarning biridagi zina orqali chiqiladi.

Sobiq Ittifoq davrida bu yerdagi masjid tuz omborxonasi sifatida foydalanilganligi bois yaroqsiz holga kelgan va buzib tashlangan.

Bugungi kunda Chor Minorning kirish qismi minoralari, eski hovuz va madrasa qayta ta’mirlanib, oldingi shakliga keltirilgan.



1995-yilda Chor Minor madrasasi YUNESKO tashkiloti tomonidan “Butunjahon madaniy yodgorliklari” ro‘yxatiga kiritildi.

Mir Bekoybiy madrasasi

Bu madrasa Qarshining mashhur va qadimiy madrasalaridan biridir. Ushbu madrasa to‘g‘risida ma’lumotlar unchalik ko‘p saqlanmagan. Bir qancha urinishlar va izlanishlardan so‘ng madrasa haqida tasavvur paydo qilishga imkon bera oladigan ayrim tarixiy manbalar topib o‘rganilgan.

Mazkur hujjatlarda juda aniqlikda bo‘lmasa-da, madrasa o‘rni ham ko‘rsatilgan. U shahar qal’asi ichkarisida, shimoliy darvoza yaqinida joylashgan.

Shimoliy darvoza Tutak darvozasidir. U taxminan hozirgi Abdulazizboy, Qilichboy madrasalari darvozasi ro‘parasida, Bekmir madrasasining orqa tarafidagi yalanglik hududida bo‘lgan.

Manbalarda

Amir Shohmurod mazkur madrasaga vaqf mulki ajratgan. Hijriy 1208-yili davron hukmdori Nasaf shahri muzofotida joylashgan to‘rtta mashhur qishloqning baytulmolga tegishli ekinga yaroqli yerlarini Mir Bekoybiy ibn Kamoybiy madrasasiga vaqf qilish uchun sotib oladi va unga shar’iy tarzda vaqf qiladi.

“Tarixiy savol” ko‘rsatuvi. Mang‘itlar

Atamalar

– Fors tilidan “Chorsu” nomi “to‘rtta yo‘l” deb tarjima qilinadi.

– Tim (fors-toj.) – usti yopiq bozor, savdo rastasining baland tomi, gumbazi.

– “Registon” so‘zi “qumloq joy” degan ma’noni anglatadi. O‘rta asrlarda hamma katta shaharlarda markazlar “Registon” deb atalgan.

Registon maydoni – tarixda shaharning ilm-fan, siyosat va diniy markazi shu nom bilan atalgan.

Loyiha ishi

1. Buxorodagi me’moriy obidalar haqida qo‘shimcha ma’lumot to‘plang. Taqdimot tayyorlang.
2. Shayboniylar, ashtarxoniylar, mang‘itlar davrini solishtiring. Xulosalaringizni yozing.

QO‘NG‘IROTLAR BOSHQARUVI



17-§. XIVA XONLIGINING TASHKIL TOPISHI

O‘ylab ko‘ring

1. Xorazmda temuriylar hukmronligi qachon va kim tomonidan tugatilgan edi?
2. 1510-yili Marv yaqinida qanday tarixiy voqea sodir bo‘lgan? Bu voqea natijasida Turon zaminida qanday siyosiy o‘zgarishlar yuz bergan? Bu o‘zgarishlar Xorazmga qanday ta’sir ko‘rsatgan?

Tarix saboqlari

Arabshohiylarning hokimiyatga kelishi

Arabshohiylar – 1511–1770-yillarda Xorazmda hukmronlik qilgan sulola; sulola nomi Elbarsxonning Arabshoh avlodidan ekani bilan bog‘liq.

Arabshohning shajarasi Jo‘jining beshinchi o‘g‘li Shaybonga borib taqaladi.

Muhammad Shayboniyxon 1505-yilda Urganchni egallagach, Xorazmda ham temuriylar sulolasi boshqaruviga chek qo‘yadi. 1510-yilda esa Xorazmni safaviylar bosib oladi.

Ammo 1511-yilda Xorazmda safaviylarga qarshi xalq harakati boshlanadi. Bu harakatga Vazir shahrining (Ustyurtda, Ko‘hna Urganchdan 60 km uzoqlikda joylashgan) qozisi Umar Shayx boshchilik qiladi.

Qo‘zg‘olonchilar Xorazmning Vazir, Urganch, Xiva, Hazorasp shaharlaridagi eroniy noiblar va ularning qo‘shinini mag‘lub etadi. Xorazmning obro‘li shayxlaridan bo‘lgan Shayx Ota avlodlari Qipchoq dashtidagi ko‘chmanchi o‘zbeklarning Berka sulton avlodidan bo‘lgan Elbarsxonga maktub yo‘llab, uni Xorazm taxtiga taklif qiladilar.

1511-yilda Xorazmda Shaybon avlodi bo‘lgan arabshohiylar sulolasining hukmronligi boshlanadi. Shu tariqa O‘rta Osiyoda ikkinchi o‘zbek davlati – Xiva xonligi tashkil topadi.

Elbarsxon tez orada Xiva, Hazorasp, Urganchdan ham eronliklarni haydab chiqaradi va bu bilan cheklanmay, g‘arbda Kaspiy dengizi, shimolda Orol dengizi, janubda esa Atrok daryosi va Saraxs atroflarigacha bo‘lgan yerlarni bo‘ysundirishga erishadi.

Elbarsxon vafotidan keyingi davrda arabshohiylar o‘rtasida hokimiyat uchun kurash kuchayib ketadi. Ubaydullaxon Xorazmga qo‘shin tortib boradi va Xorazmni yana markaziy hokimiyat izmiga qaytaradi. O‘g‘li Abdulazizxonni noib etib tayinlaydi. Lekin 1538-yilda Elbarsxonning amakivachchasi bo‘lgan Dinmuhammad sulton Abdulazizni o‘z yurtiga qochishga majbur qiladi. Buxoro xoni Ubaydullaxonning Xorazmni qayta bo‘ysundirish yo‘lidagi urinishlari esa natija bermaydi.

1558-yillardan vaziyat biroz mo‘tadillashadi, siyosiy barqarorlik o‘rnatilib, nisbatan tinch-osoyishta hayot ta’minlanadi.

Aynan shu davrdan boshlab Xiva shahrining poytaxt sifatidagi ahamiyati oshib boradi. U qo‘shnilar bilan aloqalarini imkoniyat darajasida mustahkamlashga muvaffaq bo‘ladi. Lekin shayboniylardan Abdullaxon II 1575-yilda Urganchni, 1593-yilda esa butun Xorazmni bo‘ysundirishga erishadi.

Arabshohiylar Abdullaxon II vafotidan keyingina (1598) Xorazmda hokimiyatni yana qo‘lga oladi. 1739–1740-yillarda esa Eron shohi Nodirshohning Xorazmga hujumi vaziyatni og‘irlashtiradi.

Xonlikda taxtga qo‘g‘irchoq xonlarni o‘tqazish va ularni tez-tez almashtirish davri boshlanadi.

Ana shunday vaziyatda ko‘pdan beri hokimiyatga intilayotgan siyosiy kuchlardan biri – **qo‘ng‘irot qabilasi** yetakchisi hamda 1762-yildan buyon otaliq lavozimini egallab kelayotgan Muhammad Amin inoq raqiblarini yengib, 1770-yilda uzil-kesil hokimiyatni o‘z qo‘liga oladi. Shu tariqa Xorazmda qo‘ng‘irotlar sulolasining rasmiy hukmronligi boshlanadi.



Tarix saboqlari

Davlat boshqaruvi

Arabshohiylar boshqaruv tizimi xuddi shayboniylarda bo‘lgani kabi ko‘chmanchi dasht tartib-qoidalari bilan mahalliy o‘troq davlatchilik an’analarining qorishuvidan iborat bo‘lgan. Oliy hukmdorlik chingiziy sultonlardan yoshi eng ulug‘iga o‘tgan. Ya’ni taxt otadan o‘g‘ilga meros bo‘lib o‘tgan emas. Xonning ukalari bo‘lmagan taqdirdagina katta o‘g‘il taxtga o‘tqazilgan.

Ma’muriy, qonunchilik va sud hokimiyati to‘laligicha mutlaq oliy hukmdor – xon qo‘lida edi. Qo‘ng‘irot xonlarining dastlabki vakillari davrida davlat boshqaruvi tizimida Oliy Kengash faoliyat yuritgan bo‘lib, unda ayrim umumdavlat darajasidagi, jumladan, hukmdorni taxtga o‘tqazish masalalari muhokama etilgan.

Oliy hukmdor hayotlik vaqtida valiahd, ya’ni taxt vorisini tayinlab qo‘yish hamda xorazmshohlarning davlatchilik an’analarida mavjud bo‘lgan ko‘pgina mansab va lavozimlar, ularning vakolatlari ma’lum darajada o‘z ahamiyatini saqlab qolgan.

Taxt vorisi **qolxon** yoki **kolxon,** xonadonning boshqa a’zolari – shahzodalar **sulton** deb atalganlar.

Xon xonadonining boshqaruv ishiga layoqatli vakillariga turli viloyat va shahar yoki ma’lum bir ma’muriy-hududiy birlik mulk qilib berilgan.

O‘ylab ko‘ring

1. Turli viloyat va shahar yoki ma’lum bir ma’muriy-hududiy birliklarning kimgadir mulk qilib berilishining oqibati nimalarga sabab bo‘lishi mumkin?

2. Mamlakatning mayda mulklarga bo‘linishi taraqqiyot uchun qanday ta’sir ko‘rsatadi? Fikringizni izohlang.



Tarix saboqlari

Bu davrda Urganch, Kot, Vazir, Yangi Shahar, Tirsak, Xiva, Hazorasp va unga tutash hududlar hukmron sulola vakillarining mulki hisoblangan. Xonning qarindoshlari katta-kichikligi va unga uzoq yoki yaqinligiga qarab ayrim shahar hamda viloyatlarni boshqarish huquqini olganlar.

Qarindoshlar kam bo‘lsa, ularning har biriga bir nechta shahar tekkan. Agar qarindoshlar ko‘payib ketsa, daromadiga qarab shaharning yarmini olishga ham majbur bo‘lishgan.

Xiva shahri XVI asr ikkinchi yarmi boshlarida Po‘lod sulton va Temur sultonning mulki sanalgan. Xonga yaqin qarindoshlar iqtisodiy va siyosiy jihatdan muhimroq hududlarni qo‘lga kiritishgan. Albatta, xonlarning almashinib turishi bilan turli hududlarga egalik qilish huquqi ham o‘zgarib borgan.

Qipchoq dashtidan kirib kelgan urug‘larning XVI–XVII asrlar Xorazmda o‘troqlashish jarayoni, o‘z navbatida, alohida urug‘larning o‘zaro aloqalarini yo‘lga qo‘yish hamda ularning umumdavlat boshqaruvida ishtirokini ta’minlashga xizmat qiladigan ma’lum bir tizim va tartibni ishlab chiqishni talab etar edi. Bunday tadbirlar Abulg‘ozixonning hukmronligi davrida o‘tkazilgan bo‘lib, u xonlikning boshqaruv tizimini qayta tashkil etadi va Xorazm aholisi quyidagi to‘rtta asosiy bo‘linmaga (to‘pga) bo‘linadi:

– uyg‘ur-nayman;
– qiyot-qo‘ng‘irot;
– nukus-mang‘it;
– qang‘li-qipchoq.



Markaziy boshqaruvda Oliy va Kichik Kengash tashkil etilgan. Xonlik hayotiga oid kundalik eng muhim masalalar Kichik Kengashda hal etilgan.

Buxoro amirligidan farqli ravishda Xiva xonligida Bosh vazir mehtar (vaziri a’zam, dasturi mukarram, nizom ul-mulk) deb atalgan. Qushbegi esa soliqlar yig‘imiga, davlat moliyasiga, shuningdek, qo‘shinning shay turishiga javobgar bo‘lgan.

Boshqaruv tuzilmasiga ham jiddiy o‘zgarishlar kiritilgan.

Muhammad Rahimxon I davrida davlat lavozimlari soni 360 tadan 100 taga qisqartiriladi. Biy, otaliq, inoq singari mansablar bekor qilinadi.

Muhammad Rahimxon I ning o‘tkazgan ma’muriy islohoti natijasida xonlikning markaziy va janubiy qismlaridagi quyi ma’muriy bo‘linishning ilgarigi kent shakli o‘rniga **masjid birliklari (masjid qavmi yoki masjid jamoasi)** joriy etiladi.

Xonlik ma’muriy-hududiy jihatdan bekliklarga bo‘lingan va ularni hokimlar boshqarishgan.

Xon tomonidan tayinlangan hokimlar o‘zlari boshqargan hudud doirasida keng vakolatlarga ega bo‘lib, ma’muriy, moliyaviy va sud ishlarini amalga oshirishgan. Jinoyatchilarni “oliy jazo”ga buyurish esa faqat oliy hukmdor vakolatida edi.

Poytaxt shahar bo‘lgan Xiva bevosita oliy hukmdor boshqaruvida bo‘lgan. Poytaxt shahar boshqaruvi masalalari xonning qarorgohi – Arkda hal etilgan.

Hukmdor saroyida **“hukumat devonxonasi”** tashkil etilgan. Quyi ma’muriyat vakili oqsoqol bo‘lib, u huquq-tartibot ishlarini nazorat qilgan va yuqori vakolatli organlar qarorlarining ijrosini ta’minlagan.

O‘ylab ko‘ring

Mang‘itlar boshqaruvi va qo‘ng‘irotlar boshqaruvining o‘ziga xos jihatlarini qayd eting. Qo‘ng‘irotlar o‘zlaridan oldingi boshqaruvning qaysi jihatlarini saqlab qolganlar? Buning sabablari nimada edi deb o‘ylaysiz?



18-§. TASHQI SIYOSAT

Tarix saboqlari

Qo‘ng‘irotlar qozoq juzlari, Buxoro va Qo‘qon hukmdorlari bilan uzluksiz elchilar almashib turgan. Shuningdek, Eron va Rossiya, Hindiston va Usmonli sultonligi bilan ham siyosiy aloqalarni yo‘lga qo‘ygan. Ruslar Kaspiy-Volga yo‘li orqali savdoni kuchaytirishga harakat qilgan. Chunki Rossiya uchun xonlikning xomashyosi juda muhim edi.

Manbalarda

Turonda o‘z siyosiy va iqtisodiy manfaatlarini o‘rnatish, ushbu mintaqa orqali Hindistonga yuzlanishni bosh maqsad qilib qo‘ygan Pyotr I harbiy kuchlarini birinchilardan bo‘lib qarshi olgan Sherg‘ozixon bo‘lgan.

Pyotr I topshirig‘i bilan 1714–1717-yillarda uyushtirilgan, Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy boshchiligidagi 6000 askardan iborat qurolli yurish xon va uning atrofidagilarda xavotir uyg‘otishi tabiiy edi. Sherg‘ozixon ochiq maydonda urushgandan ko‘ra, dushman kuchlarini mayda-mayda bo‘laklarga ajratib yo‘q qilish rejasini tuzgan va bunga erishgan ham.



O‘ylab ko‘ring

Sherg‘ozixonning bu siyosati Rossiya va Xorazm o‘rtasidagi munosabatlarga qanday ta’sir ko‘rsatgan?

Tarix saboqlari

Xiva va Rossiya davlati o‘rtasidagi muzokaralar o‘zaro “bojsiz savdo”ni yo‘lga qo‘yishga qaratiladi. Shu tufayli ham:

- “Xazina mollari”dan boj olmaslik;
- qimmatbaho toshlar, rangli va qimmatli metallar bilan erkin savdo qilish;
- amaldorlar tomonidan tortib olingan yoki qaroqchilar tomonidan o‘g‘irlangan mollarni savdogar va elchilarga qaytarish;
- nasiyaga olingan mollarning pulini to‘latishda davlatlarning aralashuvi (hukmdorga yozilgan rasmiy shikoyatnomalar va yo‘qotilgan mollarning ro‘yxati) nazarda tutilgan. Shuningdek, Rossiya va Turkiston orasidagi hududlarda qaroqchilikni tugatish, o‘zaro savdoni rivojlantirish masalalariga e’tibor qaratilgan.

XVI–XIX asrlar davomida Xivadan Rossiyaga 50 marta elchilik yuborilgan. Rossiyadan esa Turkistonning siyosiy markazlariga 17 ta elchilik yuborilgan.

Eron safaviylar hukmronligi ostida bo‘lgan davrda ikkitomonlama aloqalar iliq kechadi. Bu munosabatlar Nodirshohning 1739–1740-yillarda Turkiston, jumladan, Xorazmga uyushtirgan yurishlari oqibatida buziladi.

Xorazm hukmdori Elbarsxon Eron qo‘shinlari bilan bo‘lgan jangda halok bo‘lgach, Xorazm Nodirshoh noiblari tomonidan boshqarila boshlanadi.

Manbalarda

Mashhur davlat arbobi va tarixchi Abulg‘oziy Bahodirxon asarida qayd qilinishicha, uning otasi Arab Muhammad sultonning xonlik davrida (1603–1623) ming nafardan iborat Yoyiq kazak otliqlari Xorazmning Urganch (Ko‘hna Urganch) qal’asiga qadar yetib kelib, uni talon-toroj qilib, mol-mulklarini yoqib yuborganlar. Qo‘lga kiritgan boyliklarini mingta aravaga ortib, mingtacha qiz-juvonlarni ham asir olib ketayotganlarida xorazmliklar tomonidan qirib tashlanganlar.

Tarix saboqlari

Eronda hokimiyat qojarlar sulolasi qo‘liga o‘tgach, ular bilan ham o‘zaro elchilik munosabatlari olib boriladi. Buning sababi chegaradosh hududlarga uyushtiriladigan o‘zaro “olomon” yurishlar va uning oqibatlarining oldini olish, Xurosonning chegaradosh hududlarida ingliz va rus hukumatlarining Xiva – Eron aloqalariga aralashuvi singari masalalarni tartibga solish nazarda tutilgandi.

1812–1852-yillar oralig‘ida Qo‘ng‘irot xonlari va Eron o‘rtasidagi elchilik aloqalari, asosan, asirlarni ozod qilish, qul savdosini to‘xtatish kabi masalalarga qaratilgani bilan ajralib turadi. Asir tushganlarni ozod qilish esa juda murakkab masala bo‘lib, katta miqdordagi to‘lov evaziga amalga oshirilgan.

Usmonli davlatini Turon bilan bog‘lashda xonlik ham o‘tar hudud sifatida muhim o‘rin tutgan. Hindiston, Xitoy yoki qo‘shni Buxoro, Qo‘qon tomonlarga kelgan turk sayyohlari, elchilari ko‘p hollarda yo‘lni qisqartirish yoki qulay yo‘l orqali o‘z yurtlariga qaytish maqsadida “Xorazm yo‘li”dan foydalanishgan.

Xonlik Usmonli davlati bilan do‘stona aloqalarni yo‘lga qo‘ygan. Bu aloqalar turli murakkab vaziyatlarda o‘zaro yordam va hamkorlik, yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini saqlab turish ko‘rinishida namoyon bo‘lgan. Zero, olis O‘rta dengiz hududlariga yo‘l olgan savdo karvonlari ham, haj ziyoratiga chiqqan ziyoratchilar ham Usmonli sultonligi nazoratidagi hududlardan o‘tgan yo‘llardan keng foydalanishgan. Hindiston bilan ham do‘stona munosabatlar o‘rnatish maqsadida Arab Muhammadxon boburiylar bilan elchilar almashgan.

Qo‘ng‘irotlarning qozoq juzlari bilan aloqalaridagi asosiy omil Kichik qozoq juzi va Sirdaryo bo‘ylaridagi bir qancha qozoq urug‘larining rus fuqaroligini qabul qilishi bilan bog‘liq bo‘lgan.

Rossiya imperiyasi ularni “bizning qozoqlarimiz” deb qarasa, qo‘ng‘irotlar tarixan xonlik tarkibidagi yoki unga tutash bo‘lgan ushbu hududlarga o‘z da’volarini bildirib, bu yerlardan soliq (zakot) olishni hamda qozoq urug‘larining ichki ishlariga aralashishni davom ettirganlar. Xiva xonlari ko‘p hollarda u yoki bu qozoq sultonlari va xonlarini qo‘llab-quvvatlashgan, buning evaziga Sirdaryo bo‘yidagi qozoq ovullari Xivaga soliq to‘lab turgan. 1824-yilda rus hukumati tomonidan Kichik qozoq juzidagi xon boshqaruvining tugatilishi u yerda katta noroziliklarni keltirib chiqargan.

XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida qozoq dashtida Rossiya imperiyasi harbiy harakatlarining faollashuvi ularga qarshi milliy-ozodlik kurashlarining avj olishiga sabab bo‘ladi. Bu kurashlarda qozoq sultonlari va qabila boshliqlari xorazmlik siyosiy kuchlarni o‘zlariga ishonchli ittifoqchi deb bilishgan. Shu jihatdan, Xiva – qozoq aloqalarining yana bir shakli rus hukumatiga qarshi qaratilgan milliy-ozodlik kurashida o‘zaro birdamlik harakati edi.

Qojarlar – 1795 – 1925-yillarda Eronni boshqargan turkiy sulola.



Manbalarda

XIX asr Xiva – rus munosabatlarining keskinlashuvi bilan o‘ziga xosdir. Rus asirlarini ozod qilish bo‘yicha 1837–1838-yillardagi bir qator muvaffaqiyatsiz muzokaralardan so‘ng, 1839-yil kuzida Orenburgdan V. Perovskiy boshchiligidagi 5 ming kishilik harbiy qo‘shin Xivaga yuboriladi.

Qattiq qish va qalin qor qo‘mondonlikning rejalarini barbod qilib, qo‘shinning harakatini deyarli imkonsiz qilib qo‘yadi. Ketma-ket uchragan mag‘lubiyatlardan so‘ng rus hukumati xonlikni harbiy yo‘l bilan bo‘ysundirish mushkulligini anglab, muzokaralar yo‘liga o‘tadi.

Mustaqil faoliyat

1. Qo‘ng‘irotlar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishiga qanday omillar sabab bo‘lgan?
2. Xiva – Rossiya munosabatlarida har bir tomonning manfaatlari nimadan iborat edi?
3. Qo‘ng‘irotlar davlat boshqaruvi qaysi jihatlari bilan shayboniylar, ashtarxoniylar va mang‘itlar hukmronligi davri davlat boshqaruvidan farq qilgan?



19-§. QO‘NG‘IROTLAR DAVRIDA IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOT

O‘ylab ko‘ring

1. Xorazmning geografik joylashuvini tavsiflab bering. Uning shu davrdagi siyosiy-geografik o‘rni qanday edi?

2. Xiva shahrining madaniy yodgorliklari tarixini bilasizmi? Ulardan bugungi kunda qaysilari saqlangan?

Tarix saboqlari

Aholi

Turonning yirik siyosiy, savdo-iqtisodiy markazlaridan biri, eskidan sharq va janubni shimol bilan bog‘lovchi yo‘llar chorrahasida joylashgan Xorazm Amudaryo quyi oqimidagi yerlarni o‘z ichiga olishi bilan birga, Orol-Kaspiy pasttekisligining shimoli-sharqiy qismini, sharqda Orol va Kaspiy dengizlari o‘rtasidagi Ustyurt yassiligi hamda Qoraqum cho‘lining shimolini, ayrim davrlarda janubda, hatto Xuroson tog‘larining shimoliy cho‘qqilari bo‘ylab cho‘zilib yotgan hududlarni, shimoli-sharqda Qizilqum sahrosidan to Sirdaryoning quyilishigacha bo‘lgan yerlarni egallagan.

Qumli keng sahro xonlikni ikki bo‘lakka – Amudaryo orqali sug‘oriladigan – Suvbo‘yi (daryo tomoni) va Kopetdog‘ning tog‘oldi yerlari – Tog‘bo‘yi hududlariga ajratgan.

Aholining asosini qadimgi o‘troq xalqning avlodlari tashkil etgan. XVI–XVII asrlar davomida Qipchoq dashtidan ko‘chmanchi urug‘lar Turon, xususan, Xorazm vohasiga ommaviy tarzda kirib kelgan. Keyinchalik ular dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi mahalliy aholi orasiga singib ketishgan.



Xonlikning shimoli-sharqiy chegaralarida, Amudaryoning qo‘ltiqlari oralig‘ida qoraqalpoqlar joylashgan bo‘lib, ularning bir qismi bu yerda oldindan yashab kelgan bo‘lsa, bir qismi Sirdaryoning quyi oqimlaridan XVIII asrda ko‘chib o‘tganlar. Qoraqalpoq urug‘lari joylashgan hududning jug‘rofiy o‘ziga xosligi ishlab chiqarish an’analari va xo‘jalik munosabatlariga o‘z ta’sirini o‘tkazgan.

Turkmanlarning katta qismi esa Kaspiy dengizi bo‘ylarida yashagan. XVI asr o‘rtalariga kelib, yaylovlarning siyraklashib qolishi tufayli turkmanlar sharqqa, xususan, Xorazm va Xurosonning dehqonchilik hududlariga ko‘chgan.

XVII asrning boshlarida esa turkmanlarning Xorazm hayotidagi ishtiroki sezilarli darajada oshgan va ularning xonlik hududlariga kelib joylashuvi XIX asrning birinchi yarmiga qadar davom etgan.

O‘ylab ko‘ring

1. Donli ekinlar deganda qaysi o‘simliklar tushuniladi? Hozirda mamlakatimiz hududida qanday donli ekinlar yetishtiriladi?
2. Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda bug‘doyning ahamiyatini misollar bilan sharhlashga harakat qiling.

Tarix saboqlari

Dehqonchilik va chorvachilik

Ma’lumotlarga ko‘ra, o‘zlashtirilgan yerlarning 93 foizi xonlikning janubiy qismiga to‘g‘ri kelgan.

Janubiy Xorazm dehqonchiligi mutlaqo sun’iy sug‘orishga asoslanganligi bilan Turonning boshqa hududlaridan tubdan farq qilgan. Tuproq hosildorligining pastligi unga ishlov berishning maxsus usullarini qo‘llashni talab etgan. Dala eniga va bo‘yiga 5, 10, hatto 20 martalab haydalgan.

Xonlikda ekinlarni almashlab ekish tajribasi qo‘llanilgan. Ko‘p yillik ekinlar bir dalada, boshqa turdagi o‘simliklar bilan ma’lum bir ketma-ketlikda ekib borilgan. Xonlik xo‘jaligida donli ekinlar asosiy o‘rinni egallagan.

“Sharqda ham, g‘arbda ham Xorazm qovuniga teng keladigani yo‘q” bo‘lib, uning oftobda quritilgan qoqisi Hindiston va hatto Xitoyning uzoq shaharlarida ham sotilgan.

XVII asrda Balxda (Afg‘oniston) meva va sabzavotlarning navini yaxshilash maqsadida Xorazmda yetishtirilgan qovunlarning ko‘ktarnay navidan foydalanilgan.

Voha iqtisodiyotida bog‘dorchilikning o‘rni yuqori bo‘lmasa-da, mevalarning deyarli barcha turlari va eng yaxshi navlari yetishtirilgan. Xorazmning o‘troq agrar xo‘jaligida chorvachilikning ham o‘rni katta edi. Yerga ishlov berishda ot, ho‘kiz, tuya va qisman eshakdan foydalanilgan.

Dehqonchilikda otlar asosiy ish kuchi hisoblanib, Xorazm otlarning turkman oti va qozoq oti singari zotlari bilan mashhur bo‘lgan. Turkman oti, asosan, chavandozlikda, qozoq oti esa ishchi kuchi sifatida foydalanilgan.

Chorvachilikda zotdor qo‘ylar yetishtirilgan bo‘lib, ularning ham turkmani qo‘y, qozoqi qo‘y hamda arabi qo‘y va guzari qo‘y kabi zotlari qimmatli ahamiyatga ega bo‘lgan.

Manbalarda

“Xiva mevalari shu qadar yaxshiki, ularga o‘xshashini nafaqat Eron va Turkiyada, balki butun Yevropada ham topish qiyin. Ayniqsa, Hazoraspning olmalari, Xivaning nok va uzumlari va uzoq Pekingacha mashhur bo‘lgan beqiyos ajoyib qovunlari tahsinga loyiq”.

Arminiy Vamberi

Tarix saboqlari

Yer egaligi

Xonlikda barcha yerlar davlat (xon) mulki hisoblansa-da, egalik shakliga ko‘ra davlat yerlari, xususiy yerlar va vaqf yerlari shakllari mavjud bo‘lgan.

Hukmdorga qarashli yerlar, asosan, zabt etilgan hududlar hisobidan shakllantirilgan va yer solig‘ini to‘lash evaziga dehqonlarga ijaraga berilgan. Davlat yerlari qo‘riq yerlarni o‘zlashtirish va obodonlashtirish hisobiga ham to‘ldirilgan. Hujjatlarda ularning “zamini maita”, “bekor yer”, “bo‘z yerlar” singari shakllari tilga olinadi. Davlat yerlarining yana bir manbayi yer egalari bilan tuzilgan fuqarolik shartnomalari yoki meros huquqi – “zamini matruka” asosida davlatga o‘tgan yerlar bo‘lgan. Shariatga ko‘ra, vafot etgan shaxsning yeri vorisi bo‘lmagan taqdirda meros tariqasida xalifa yoki uning noibi: sulton, amir, xonga o‘tgan. Bu toifaga aybdor shaxslarning musodara qilingan yer mulklari ham kirgan.



Hukmdor bu yerlarni o‘z mulozimlariga davlat solig‘ini to‘lash va mehnat majburiyatlarini o‘tash evaziga vorislik huquqi asosida ijaraga bergan. Xiva xonligida XVI–XVIII asrlardagi siyosiy keskinliklar va tartibsizliklar aholining boshpanasiz qolishiga va dehqonchilikning izdan chiqishiga sabab bo‘ladi.

XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib qo‘ng‘irotlar hokimiyatiga qarshi muxolif kuchlarning bartaraf etilishi va ularga tegishli mulklarning musodara qilinishi hisobiga davlat yer jamg‘armasi kengayadi. Keng miqyosli sug‘orish ishlarining yo‘lga qo‘yilishi (bosh ariqlarning tiklanishi va qurilishi) natijasida o‘zlashtirilgan katta miqdordagi qo‘riq yerlar ham davlat yer maydonlarining ko‘payishini ta’minlaydi.

Manbalarda

“Ul vaqtda Mazdehqon qal’asindin to Baqirg‘anning beri yuzi Quyg‘un tegan yergacha bug‘doy ekilur erdi. Bizning xon (Arab Muhammadxon) Tuk qal’asining yuqorisidin bir ariq qazdurub tururlar. Faqir dunyog‘a kelmasdin bir yil burun. Me’zon bo‘lg‘anda saqasini ko‘marlar erdi. Bug‘doyni o‘rg‘an vaqtda ocharlar erdi. Bir necha yildin so‘ng ariqning kengligi otqan o‘q o‘tmasday bo‘ladi. Suvning oyoqi Quyg‘un boradi. Yolg‘uz bug‘doy ekilur erdi. Otli kishi o‘n kunda bug‘doyning toshindan aylanib kela bilmas erdi. Ul vaqtda pul-puchak, yarim misqol ko‘mush bir tanga yerina yurur erdi. Bir tangaga yarim teva yuki bug‘doy berurlar erdi. Bir misqol ko‘mushga bir xarvor bug‘doy berurlar erdi”.

Abulg‘ozi Bahodirxon, “Shajarayi turk” asaridan

Hunarmandchilik

Xonlikning xo‘jalik hayotida otlar muhim o‘rin tutganligi bois, otning anjomlari – egar-jabduqlar tayyorlash va ularga bezak berishga alohida e’tibor qaratilgan.

Shuningdek, Xorazmda Amudaryo orqali savdo qilish, kemalar qatnovi yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Bu kemachilikni hunarmandchilikning yana bir rivojlangan turiga aylantirgan. Xorazm ustalari kichik qayiqlardan tortib katta kemalargacha mahorat bilan yasashgan.

Sun’iy sug‘orishga asoslangan xo‘jalik Xiva xonligida chig‘ir tayyorlashning keng tarqalishiga sabab bo‘ladi. Hunarmand ustalar chig‘irning uchta asosiy qismlarini (suv idishlari o‘rnatilgan g‘ildirak, gorizontal o‘q va charxlarni) yasashda katta mahoratga ega bo‘lishgan.

Hunarmandlarning mehnati savdo-sotiq bilan bevosita bog‘langan edi. Ular o‘z mahsulotini ko‘pincha olibsotar orqali, ayrim hollarda esa o‘zlari sotar edilar.







Xorazm Turonning yirik savdo markazlari qatorida G‘arb bilan Sharqning iqtisodiy aloqalarida o‘ziga xos o‘ringa ega edi. Karvonsaroylarga keltirilgan xilma-xil mollarning bir qismi Xivada sotilsa, qolgan qismi boshqa joylarda sotilgan. Hunarmandchilik ko‘p tarmoqli bo‘lib, har bir soha ma’lum bir mahsulotni tayyorlashga ixtisoslashgan. Bu o‘rinda Xorazmning tabiiy-iqlim sharoiti va hududiy xususiyatlari hisobga olingan.

Xonlikda to‘quvchilik nisbatan keng tarqalgan. Zero, ipak va paxta matolarga talab katta edi. Hunarmandchilikning rivojiga, ayniqsa, chegaradosh ko‘chmanchi dasht aholisining ehtiyoji ham sabab bo‘lgan. Ayni paytda to‘qimachilikning rivojlanishi nafaqat ichki, balki tashqi bozor uchun ishlovchi shaharlarning taraqqiyotini ham ta’minlagan.

Xorazmda hunarmandchilikning Turonda rivoj topgan deyarli barcha turlari mavjud bo‘lgan. Kigiz-namat to‘qish va kigizfurushlik, po‘stindo‘zlikda, cho‘girma – qorako‘l terisidan maxsus telpaklar tikishda Xorazm ustalari katta mahoratga ega bo‘lishgan. Turkman gilamlari ham tayyorlangan.

Madaniy hayot



Xorazm o‘lkasida ta’lim tizimi Turonning boshqa hududlarida bo‘lgani singari quyi bosqich – maktablar va yuqori bosqich – madrasa negizida faoliyat yuritgan. Maktablar yirik shaharlarning deyarli har bir mahallasida mavjud bo‘lib, bolalar 6 yoshdan (ba’zan 5 yoshdan) ta’lim olishni boshlar va 15–16 yoshgacha davom ettirar edi. Maktablar odatda mahalla masjidlari qaramog‘ida bo‘lgan. Maktablarda qiz bolalar uchun maxsus sinflar ham ajratilgan.

Madrasalar odatdagidek hukron sulola vakillari, yirik amaldorlar tomonidan qurdirilgan. Ularning ko‘pchiligi Xiva shahrida faoliyat yuritgan. Madrasalar Urganch, Shohobod, Shovot, Hazoraspda ham mavjud edi.

Kitobat va xattotlik, musiqa san’ati juda rivojlangan.



Bilasizmi?



1. Xorazmlik o‘rta yashar erkak.
2. Erkaklar turma belbog‘i.
3. Din peshvolarining ustki kiyimi.
4. Chopon. Olacha, jiyak.
5. Kavush.











6. Ayollar bosh kiyimi.
7. Chopon. Olacha.
8. Xorazmlik o‘rta yashar ayol.
9. Mahsi.
10. Paranji, chachvon.

Mustaqil faoliyat

1. Bu davrda Xorazm vohasida dehqonchilikning o‘ziga xos jihatlari nimalardan iborat edi? Xorazm o‘zining qaysi dehqonchilik mahsulotlari bilan dunyoga tanilgan?

2. Yerga egalik qilishda qanday o‘zgarishlar ro‘y bergan? Yer egaligining qanday shakllari bor edi va ularning bir-biridan farqlarini aytib bering.

3. Berilgan rasmlar asosida o‘sha davrdagi hunarmandchilikning o‘ziga xos jihatlarini sanang.

4. Nima deb o‘ylaysiz, o‘rganilayotgan davrdagi kiyinish madaniyati hozirgi kunda ham saqlanib qolganmi?

5. Buxoro va Xorazm madaniy hayotining o‘xshash va farqli jihatlarini yoritib bering va to‘plagan ma’lumotlaringiz asosida taqdimot tayyorlang.



Yog‘och o‘ymakor usta

Respublika Ta‘lim Markazi

20-§. QO‘NG‘IROTLAR DAVRIDA XIVA ME’MORCHILIGI

O‘ylab ko‘ring

1. Quyi sinflarda olgan ma’lumotlaringizga tayanib, Xorazm davlati me’morchiligi haqida ma’lumot bering. Ulardan qaysilari bugungi kungacha saqlanib qolgan?
2. Xorazmda bunyod etilgan tarixiy obidalardan qaysilarining qurilish tarixini yaxshi bilasiz?
3. Ichan qal’ada joylashgan monumental binolarning qurilishiga e’tibor qilganmisiz?

Tarix saboqlari

XVIII asrning birinchi yarmida mamlakatda yuz bergan iqtisodiy va siyosiy buhronlar xonlik hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Xiva imoratlarining aksariyati XVII–XIX asrlarga oid. 1740-yilda Eron qo‘shinlarining Xorazmga kirib kelishi mamlakatni vayron qiladi. 1768-yilda esa butun mamlakat bo‘ylab o‘lat tarqaladi.

Manbalarda

“Xivada bor-yo‘g‘i 40 oiladan iborat aholi tirik qoldi... Shaharda hammayoqni yulg‘un bosib ketdi, uylarga yovvoyi hayvonlar uya qurib oldi”.

Munis Xorazmiy



Munis Xorazmiy – shoir, tarixnavis, tarjimon, xattot va ma’rifatparvar. Dastlabki ma’lumotni tug‘ilgan qishlog‘ida olgan, keyinchalik Xiva madrasalarida o‘qigan.

Bilasizmi?

Munisning “Firdavs ul-iqbol” asari uzoq tarixiy davrni qamrab olgan bo‘lib, Markaziy Osiyo, ayniqsa, Xiva xonligi tarixini o‘rganishda qimmatli manbadir. Asarda Xorazmning qadimgi davrdan 1825-yilgacha bo‘lgan tarixi bayon etilgan bo‘lib, unda toj-taxt, boylik uchun olib borilgan kurashlar, shuningdek, Xiva xonlarining qo‘shni turkman va qoraqalpoq xalqlari bilan bo‘lgan munosabatlari haqida qimmatli ma’lumotlar beradi. Munis Avazbiy inoq va uning o‘g‘li Eltuzarxon davrida yashagan. Xonlikning bosh mirobi lavozimida mehnat qilgan. Munis “Firdavs ul-iqbol” tarixiy asarini Eltuzarxonning taklifi bilan yozgan. Biroq o‘limi tufayli asarni Ogahiy yakunlagan. Munis o‘z davridagi sug‘orish inshootlari va yer-suv munosabatlariga doir “Arnalar” (arna – anhor, kanal) nomli risola ham yozgan. Bu risola XVIII asr oxiri – XIX asr boshlaridagi dehqonchilik bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlarni o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.



Ogahiy (taxallusi; to‘liq ismi Muhammadrizo Erniyozbek o‘g‘li).

Munisning vafotidan so‘ng uning ishini davom ettirgan.



Tarix saboqlari

Xiva faqat XVIII asrda Arab Muhammadxon hukmronlik qilgan davrda xonlikning poytaxtiga aylanadi va ravnaq topadi. Bu davrda ko‘plab inshootlar quriladi. Arab Muhammadxon madrasasi, jome masjidi va Anushaxon hammomi shular jumlasidandir.

Xiva Xorazm me’morchiligining o‘ziga xos muzeyi hisoblanadi. Dunyoga mashhur bo‘lgan Ichan qal’a ichki shahar bo‘lib, unda monumental binolar ansambli o‘rin olgan. Bu binolarning ko‘pchiligi paxsa va xom g‘ishtdan qurilgan. Shulardan biri – (o‘ra) ustunli Jome masjidi o‘z davrining ajoyib arxitektura namunasi hisoblanadi. Bu yerdagi ustunlarning har biri mahalliy me’morchilik san’atining alohida bir sahifasi deyish mumkin.

Ichan qal’a Xiva shahrining 26 gektar qismini egallagan va qo‘rg‘on devori bilan o‘ralgan. Inshootning burchak qismida mustahkamlovchi minoralar qad ko‘targan.

Ichan qal’a me’moriy yodgorliklarining ko‘pchiligi XIX asrning birinchi yarmida qurilgan. Pahlavon Mahmud maqbarasi, Olloqulixon saroyi, madrasasi, karvonsaroyi va timi, Muhammad Aminxon madrasasi, Ko‘hna Ark va Toshhovli saroy ansambllari eng so‘nggi me’morchilik obidalaridir.

Xorazm qishloq me’morchiligida uy-joylarning eng ko‘p tarqalgan turi – murakkab, to‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi, baland paxsa devorlar bilan o‘rab olingan hovli-joylar hisoblanadi. Ularda har xil tishli, qoshli bezaklar, bursakli maqbaralar, keng va katta darvozalar mavjud bo‘lib, hovli bamisoli bir qal’aga o‘xshab ketadi.

Bilasizmi?

XIX asrda Xivada madaniy hayot yuksaldi, qurilishlar avj oldi. 1842-yilda Xiva tevaragida uzunligi 6 km bo‘lgan yangi qal’a devori va uning 6 ta darvozasi qurildi. Shahar atrofidagi Rafoniq, Nurillaboy va Nurillabek bog‘lari shahar tarkibiga kirdi. Shaharning katta halqa ichidagi qismi Dishan qal’a (tashqi qal’a) deb ataladi.



Tarix saboqlari

Ichan qal’a

Ichan qal’a ansambli me’moriy yodgorlik sifatida muhofazaga olinib, muzeyga aylantirilgan.

1990-yildan Ichan qal’a majmuasi YUNESKOning Umumjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan.

Xorazm xalq me’morchiligining ajoyib obidalari: madrasa, masjid, saroy va minoralarning katta qismi Ichan qal’ada joylashgan. Undagi me’moriy yodgorliklarning yaratilish tarixi, asosan, 4 davrga bo‘linadi:

Birinchisi Xorazmning qadimgi davridan to mo‘g‘ullar istilosigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu davrdan Ko‘hna arkning g‘arbiy devori, qal’a devorining shimoli-sharqiy burchagidagi qadimgi davrga mansub burj va qal’a devori qoldiqlari saqlanib qolgan.

Ikkinchisi – Xorazmning 1220-yildagi mo‘g‘ullar istilosidan keyingi tiklanish davri. Bu davrda Sayid Alovuddin maqbarasi va boshqa mahobatli binolar qurilgan.

Uchinchisi XVI–XVII asrlarga to‘g‘ri keladi. Shu paytda Ichan qal’ada Ko‘hna ark istehkomlari mustahkamlanadi. Ko‘rishishxona (xonning qabulxonasi) quriladi, bir qancha madrasalar va ma’muriy binolar bunyod etiladi. Lekin Buxoro bilan Eron o‘rtasida Xiva xonligi uchun boshlangan urush natijasida nafaqat Ichan qal’a, balki umuman Xiva shahri ham qattiq shikastlanadi.

To‘rtinchisi XVIII–XX asrlarni o‘z ichiga oladi. Bu davrda O‘rta Osiyo mahalliy me’morchilik an’analari asosida masjid, madrasa, tim va toqilar quriladi. Ota darvozadan Polvon darvozagacha katta yo‘l o‘tkaziladi. XVIII asr oxirida Juma masjidi qayta quriladi va uning yonida baland minora qad ko‘taradi. Ichan qal’aning xaroba devorlari tiklanadi, bir qancha imoratlar ta’mirlanadi. Ko‘hna arkda saroy qurilishi tugallanadi. Yangi va katta Toshhovli saroyi quriladi. Polvon darvozaga yaqin qo‘rg‘on devorining bir qismi buzilib, o‘rniga Olloqulixon karvonsaroyi, madrasasi va timi quriladi. Xalq ijodining ajoyib namunasi – Pahlavon Mahmud maqbarasi qad ko‘taradi. Ichan qal’a qurilishida Xiva me’morlari O‘rta Osiyoda qadimdan qo‘llanib kelgan uslub – inshootlarni ro‘parama-ro‘para qurish uslubidan (qo‘shdan) foydalanishgan.



Xivada shahar an’anaviy ravishda ikki qismga bo‘lingan: Ichki shahar (qal’a, shahar) – Ichan qal’a (so‘zma-so‘z: ichki mudofaa devori) va tashqi shahar (rabot) – Dishan qal’a (tashqi mudofaa devori). Ichan qal’a devorlari: balandligi 8–10 metr, qalinligi 5–6 metr va tashqi perimetri bo‘ylab uzunligi 6250 metr. Tashqi va ichki “aylana”ning mudofaa qal’alari taxtadan qilingan. Ichan qal’a devorlarida har 30 metrda devorlardan tashqariga chiqib turuvchi dumaloq mudofaa minoralari qad rostlagan.

Devorlarning yuqori qismida qamal paytida dushmanga o‘q otish uchun qirrali panjaralar mavjud bo‘lgan. Mudofaa istehkomlari tizimida suv bilan to‘ldirilgan ariqlar bo‘lgan. Hozir ham bu janubiy qismdagi relyefda sezilib turadi. Shimol va g‘arbda esa asfalt qadimiy zovurlarni qoplagan.

Yog‘och o‘ymakorligi, sangtaroshlik, ganchkorlik, sirkor sopol va boshqalar rang-barang naqqoshlik bezaklari bilan bezatilgan. Arab Muhammadxon madrasasi – Ichan qal’a ansamblidagi me’moriy yodgorlik (1616, 1838). U dastlab bir qavatli, oddiy sinchli, trapetsiya shaklida qurilgan. Serhasham ishlangan ayvon Xiva muzeyida saqlangan. Olloqulixon davrida madrasa binosi murabba tarhli, peshtoq va gumbazli qilib qayta qurilgan. Bosh tarzidagi masjid va hujralar ikki qavatli, ikki burchagida guldastalari bor. Qolgan tomonlaridagi hujralar bir qavatli. Hovli etagida oldi ayvonli masjid ham qurilgan.

Manbalarda

Arab Muhammadxon davrida Xiva xonligida davlat parokandalikning yuqori nuqtasiga yetadi. Amudaryo o‘zanining o‘zgarishi va uning qurib borishi bu davrda ham davom etadi. Natijada Arab Muhammadxon xonlik poytaxtini Urganchdan Xivaga ko‘chirishga majbur bo‘ladi. Tarqoqlik va urushlar avj olganligi Xivaning ma’muriy tuzilishiga ta’sir etadi. Chunonchi, har bir shahzodaning o‘z yerida shaxsiy idora apparati – o‘z a’yonlari, xazinasi, yasovullari, bojxona xizmatchilari va boshqalar bo‘lgan. 1623-yilda o‘g‘illari Habash va Elbars sultonlar taxt talashib unga qarshi urush boshlaydilar. Bu urushda Arab Muhammadxon yengilib, Qum qal’aga qamalgan va o‘sha yerda 1623-yilda vafot etgan.

Abulg‘ozi Bahodirxon

Arab Muhammadxon madrasasi



Tarix saboqlari

Sherg‘ozixon madrasasi

Mazkur madrasa Xivadagi me’moriy yodgorlik bo‘lib, Ichan qal’a tarkibida joylashgan ko‘plab imoratlardan biri sanaladi. Manbalarda 1719–1726-yillarda o‘zbek hukmdori Sherg‘ozixon mablag‘i va farmoni bilan qurilganligi keltiriladi. Madrasa Pahlavon Mahmud maqbarasiga yaqin qurilgan, uning qurilish tarixi marmarga o‘yilib yozilgan va madrasa peshtoqiga o‘rnatilgan. Marmar lavhalardan to‘rttasi bugungacha o‘z holicha saqlangan. Madrasaga kirish eshigining yoniga o‘rnatilgan marmar lavhalarga 32 misralik forsiy she’r bitilgan. Unda bu madrasaning qurilish tarixi, madrasaga vaqf qilib berilgan yerlar, mutavalli, mudarris, imom, muazzin, kutubxonachi, farrosh va yana shu yerda yashovchi talabalarning oylik maoshi haqida ma’lumotlar mavjud. She’riy lavhadagi “Maskani fozilon” (“Olimlar maskani”) jumlasidan madrasaning 1720-yilda qurilgani ma’lum bo‘ladi.

Madrasaning asosiy binolari bir-biri bilan bog‘langan. Madrasa ikki qavatli. Ulkan peshtoq orqali kiraverishda gumbazli miyonsaroy, uning ikki burchagida chortoq tarhli, gumbazli masjid va darsxona joylashgan. Miyonsaroy tepasidagi kichik hujralar talabalar uchun yotoqxona bo‘lgan. Devorlariga tokcha, taxmon, kosamonlar ishlangan. Hovli atrofidagi bir qavatli qator hujralar oldi ayvonli bo‘lib, hovli o‘rtasida hovuz joylashgan. Hujralar soni 55 tani tashkil etgan.

Manbalarda

Sherg‘ozixon (1714–1726) aqlli, jasur, tadbirkor, harbiy ishlarda juda mohir bo‘lgan. Ayniqsa, rus podshosi Pyotr I tomonidan Xorazmdagi oltin qumni qo‘lga kiritish uchun yuborilgan knyaz Bekovich-Cherkasskiy boshchilik qilgan rus qo‘shinini harbiy hiyla bilan tor-mor etganligi uning nomini abadiylikka muhrladi. Biroq Sherg‘ozixon o‘z xizmatkorlari tomonidan o‘ldirilgan. Shuning uchun tarixchilar uning vafoti sanasini “Dod az g‘ulomon” (“Qullar dastidan dod”) 1139-hijriy yozuvlaridan aniqlaganlar (1726-yil). Xonning qabri o‘zi qurdirgan madrasasining kun botish tomonida joylashgan.



Sherg‘ozixon madrasasi

Tarix saboqlari

Kaltaminor

Kaltaminor Xiva xoni Muhammad Aminxon tomonidan musulmon olamidagi eng katta va eng baland minora sifatida qurilgan.

Uning rejasiga ko‘ra, minoraning balandligi 70–80 metr bo‘lishi, balandligi oshgan sayin keskin pasayib boruvchi diametri minoraning mustahkamligini oshirishi kerak edi. Muhammad Aminxon hatto Hindistondagi 73 metrlik Qutb minordan ham oshib ketadigan dunyodagi eng baland minorani qurishga qaror qiladi. Uning poydevorining diametri 14,2 metrni tashkil qiladi. Ba’zi manbalarda uning balandligi 110 metrga yetkazilishi qayd etilgan. Qurilish 1852-yilda boshlangan, lekin 1855-yilda minora balandligi 29 metrga yetganida, qurilish to‘xtatilgan. Ogahiyning yozishicha, bunga qurilish tashabbuskori Muhammad Aminxonning 1855-yilda Saraxs yaqinidagi jangda halok bo‘lganligi sabab bo‘lgan. Minora qurilishiga xivalik shoir, tarixchi va davlat arbobi Muhammad Rizo Ogahiy guvoh bo‘lgan. Muhammad Aminxon minorasida Ogahiy ijodiga oid 16 qator tarixiy ma’lumotlardan 12 tasi saqlanib qolgan.

Ta’mirlash paytida asl holati tiklangan yozuvda minora jannatda o‘sadigan Tubo daraxtiga qiyos qilinadi.

Manbalarda

Madrasa qurib tugatilgach, Muhammad Aminxon tomonidan uning yonida eng baland minora barpo etishga farmon berilgan. Minora qurilishi davom etayotgan paytda (1855-yil) Muhammad Aminxon Eron ustiga qo‘shin tortadi va jangda shahid bo‘ladi, natijada xon boshlagan minora bitmay qoladi.

Tarixchi Mulla Olim Maxdum Hojining
“Turkiston tarixi” asaridan

Ayvonining falakka bo‘y cho‘zgan ustuni osmon gumbazini tutib turuvchi ustun deyiladi. Ogahiy uning tugatilishi tantanasiga bir nechta she’riy ta’rixlar yozgan. Ularning biri minora yuqorisidagi chiroyli koshin plitkalarga yozib qo‘yilgan. Yozuvlar sovetlar hukmronligi davrida qo‘porib, yulib tashlangan edi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin ushbu yozuvlar Ogahiyning qo‘lyozma asari orqali topilib, qayta tiklanadi. Minora o‘z davrida “Ko‘k minor”, “Ulli (ulug‘) minor” nomlari bilan ham atalgan. Bugungi kunda Kaltaminor shaharning asosiy bezagi bo‘lib, butunlay sirlangan koshinlar bilan qoplangan yagona minora hisoblanadi.

Minorani bezashda geometrik naqshlar ko‘p qo‘llanilgan. Ikkinchi qavatidan boshlab minoraning yuqorisiga chiqish mumkin. Ichkarisida yuqoriga olib chiquvchi yog‘och zinapoya mavjud. Bu zinapoya tez-tez ta’mirlab turilgan. Bezagida oq, yashil, feruza rangli koshinlar qo‘llanilgan (feruza rangli koshin ko‘p ishlatilganidan Ko‘kminor deb ham ataladi). Xiva shahrining 2500 yilligi arafasida (1996–1997) Kaltaminorning ustki qismidan tushib ketgan koshinkori yozuvlari quruvchilar tomonidan to‘liq ta’mirlanadi va undagi Ogahiy tomonidan fors tilida yozilgan “nasta’liq” yozuvlari qayta tiklanadi. Harflarni ta’mirchi usta Rustam Tohirov qaytadan tiklagan.

Kaltaminor o‘zining tugallanmaganligi, shuningdek, o‘ziga xos bezaklari bilan mashhur.

Manbalarda

Rivoyatga ko‘ra, Xiva xoni shaharda ulkan va baland minora qurishni buyuradi. “Uning tepasidan Buxoroyi azim ko‘rinib tursin” deydi. Bundan xabar topgan Buxoro amiri usta bilan kelishib, xuddi shunga o‘xshash minorani Buxoroda ham qurishni reja qiladi. Buni eshitgan Xiva xoni minora bitgandan keyin ustani minoradan tashlashni buyuradi. Xon bunday minora boshqa joyda takrorlanishini istamaydi.

Buni bilib qolgan ustalar bu haqda g‘ishtga yozib tepaga, katta ustaga yetkazishadi. U esa kerakli anjomlarni topishni aytib, o‘ziga qanot yasab uchib ketgan ekan.

Minora bitsa dunyodagi eng baland minora bo‘lishi mumkin edi.



Tarix saboqlari

Anushaxon hammomi

Anushaxon hammomi taxminan 1657–1664-yillarda bunyod etilgan. U shu turga mansub me’moriy yodgorliklar ichida eng qadimiysidir. Anusha Muhammadxon hammomi ancha murakkab reja asosida barpo etilgan.

Anushaxon hammomi ixtisoslashgan kasalxona vazifasini ham o‘tagan. Bu yerda tibbiy uqalash muolajalari ham o‘tkazilgan. Issiq bug‘dan oyoq-bo‘g‘im va bod kasalliklarini davolashda foydalanilgan. Hammomning alohida xonasida tishi og‘rigan bemorlarning tishi olib tashlangan. Qon bosimi, ya’ni xafaqon dardiga uchragan bemorlardan qon ham olingan. Xafaqon xastaligiga uchragan kishilardan ortiqcha qonni olish orqali qon bosimi me’yorga tushirilgan. Mijozlar uchun hammomda choyxona ham tashkil etilgan. Choyxonada odamlar o‘zaro gurunglashib, dam olishiga sharoitlar yaratilgan.

Hammom xonalari issiqni yaxshi saqlash uchun yer ostida joylashtirilgan bo‘lib, tashqaridan faqat gumbazlar ko‘rinib turgan. Anushaxon hammomida dahliz, kiyimxona, sovuqxona, issiqxona, issiq suv turadigan hovuzcha, go‘lax bo‘lgan. Hammom pishiq g‘ishtdan ishlangan. Ichki tomoni suvalgan, bezak berilmagan. Hammom arxitekturasi juda sodda. Xonalar pol tagidagi maxsus quvurlar yordamida qizdirilgan.

Devor va gumbaz sathi suvga chidamli qorishma bilan suvalgan. Xonalar kichik bo‘lgani uchun ustalar oddiy tuzilishdagi gumbazlarni qo‘llashgan.

Hammomga gumbazli dahliz orqali kirish eng qulay yo‘l hisoblangan. Devorlarning butun kengligi bo‘ylab to‘rtta bo‘shliqli xonalar bo‘lgan. U xona orqali maxsus cho‘zinchoq yo‘lak bilan



doira shaklidagi kiyinish xonasiga o‘tilgan. Kiyinish xonasidan so‘ng asosiy kir yuvish xonasiga kirilgan. Kir yuvish xonasi kvadrat, ikkita chuqurlik bilan ajratilgan. Shimoliy va janubiy devorlarda chuqurlik tomonlari bo‘lsa, sharqiy tomonda ikkita kichik kir yuvishga moslashtirilgan sayozlik hududi bo‘lgan. Kir yuvish xonalari o‘sha davrda noyob hisoblangan maxsus suv yo‘laklari orqali issiq suv bilan ta’minlangan. Suvni isitishda ko‘mirdan foydalanilgan. Quduqlar orqali suv chiqarilgan va maxsus yo‘l hammomga olib borgan. Asosiy zalning tepasida qurilish qotishmasidan yasalgan fonus o‘rnatilgan. Shiftga qo‘yilgan plitalar ustiga qamish yotqizilgan va hammomdagilarga xavf tug‘dirmaydigan qilib mustahkamlangan. To‘rtburchak xonalar naqshlar bilan bezatilgan. Ichki devorlarga suv o‘tkazmaydigan qilib maxsus ishlov berilgan.

Hammomning umumiy maydoni – 27,0×15,0 m, zallarning yon tomonlari – 4,3 m, 4,0×4,0 m; 4,7×4,2 m, qubba balandligi – 5,0×3,2 m; 3,7×3,7 m, suv quduqlari hajmi – 8,0 dan 6,5; 4,0 m bo‘lgan.

Manbalarda

Anushaxon

Anushaxon, Abulmuzaffar Muhammad – shayboniylardan Abulg‘ozi Bahodirxonning o‘g‘li.

Buxoro xoni Abdulazizga qarshi jang (1657-yil)da qahramonlik ko‘rsatib, jang taqdirini xivaliklar foydasiga hal qiladi va otasini o‘limdan saqlab qoladi.

Buning uchun otasi Anushaxonga tug‘, lashkar va Hazorasp shahrini in’om etadi hamda Xivada uning nomiga katta hammom qurdiradi.

Anushaxon taxtga o‘tirgach, xonlik chegaralarini mustahkamlash uchun Yangi Kot, Shohobod qal’alarini qurdirgan. Anushaxon davrida Buxoro – Xiva munosabatlari yanada keskinlashadi. Buxoro xonligiga yurish qilib, G‘ijduvon, Hazora, Samarqand, Qarshi va Shahrisabzni egallaydi. Anushaxon turkmanlar, Ashtarxon ruslari bilan ham aloqalarni tiklaydi. Natijada Turkmaniston hududi orqali Kaspiy dengizi va Xiva o‘rtasidagi savdo yo‘lini qayta ochishga erishadi.



Anushaxon savdo-tijorat yo‘llariga egalik qilish maqsadida Buxoroga qarshi bir necha marta harbiy yurishlar uyushtiradi.

1686-yili Anushaxon va Subhonqulixon o‘rtasida bo‘lib o‘tgan jangda Anushaxon katta talafot bilan chekinadi va fitnachilar tomonidan o‘ldiriladi.

Anushaxon davrida Qoraqalpog‘istondagi Sulton Uvays bobo va Xivadagi Pahlavon Mahmud maqbaralari, Oq masjid ta’mirlangan, “Shajarayi turk” asari oxiriga yetkazilgan. Anushaxon Xivadagi Pahlavon Mahmud maqbarasiga dafn etilgan.



1672-yilda XV–XIX asrlarda diplomatik yozishmalarda foydalanish uchun siyosiy arboblarining unvonlari haqida ma’lumot beruvchi, “Buyuk davlat kitobi yoki rus hukmdorlarining shajarasi” kitobida berilgan Anushaxonning portreti

Tarix saboqlari

Polvon darvoza

Bu darvoza Ichan qal’aning sharqiy darvozasi sanaladi. Darvoza Xiva shahrining asosiy kirish eshigi bo‘lib, bir mirshab boshchiligida yettita navkar qo‘riqlagan. Qal’a devorining atrofini Amudaryodan suv keladigan kanal o‘rab turgan. Darvozaning kechasi ko‘tarib qo‘yiladigan ko‘prigi bo‘lgan. Polvon darvoza mirshabi Xiva xoni saroyi bo‘lgan Arkning darvozasida soqchilik qiladigan mirshab bilan teng miqdorda maosh olgan. Polvon darvozaning hozirgi qiyofasi bir qancha ta’mirlashlar natijasidir. Avval darvoza qal’a devoridan ozroq tashqi tomonga bo‘rtib chiqqan shaklda bo‘lgan. Uning ustida shahar tashqarisini kuzatib turish qulay bo‘lgan.

Darvoza 1806-yilda Eltuzarxon tomonidan pishiq g‘ishtdan qayta qurilgan. Darvozaning yon tomonidagi burjlari shahar devori bilan ulanib ketgan. 1835-yilda darvoza ichkarisida Olloquli-xon madrasasi qurilishi bilan uning g‘arbiy qismi qaytadan tiklangan. Chiroyli koshin plitkalar bilan bezatilgani uchun “Gul darvoza” nomini ham olgan. Darvoza xivalik shoir, yetti asr muqaddam yashagan, uch yuzdan ortiq ruboiy muallifi, shahar himoyachisi hisoblangan Pahlavon Mahmud sharafiga nomlangan. Pahlavon Mahmud Juma masjidining orqa tarafida joylashgan mahobatli maqbaraga dafn etilgan.

Mustaqil faoliyat

1. Mavzuda keltirilgan tarixiy yodgorliklarning qurilish uslublariga e’tibor qarating, ularning o‘ziga xos jihatlarini aniqlang.
2. Hozirgi kunda saqlanib qolgan me’moriy obidalar haqida taqdimot tayyorlang.
3. Matnda berilgan ma’lumotlarga siz yana qanday ma’lumotlarni ilova qilgan bo‘lardingiz?
4. Agar sizdan biror xorijlik mehmon Xivani tanishtiring deb so‘rasa, ekskursiyani qayerdan boshlagan bo‘lardingiz?
5. Xiva arxitekturasi Buxoro arxitekturasidan qaysi jihatlari bilan farq qiladi? Ularning bir-biriga o‘xshash jihatlari ham bormi?





XVI–XIX ASRLARDA QORAQALPOQLAR



21-§. XVI–XIX ASRNING BIRINCHI YARMIDA QORAQALPOQLAR

O‘ylab ko‘ring

1. Bugungi kunda qoraqalpoq xalqi qaysi hududlarda istiqomat qiladi?
2. “Qoraqalpoq”, “qora uy” atamalarining kelib chiqish sabablari va tarixini bilasizmi?
3. Qoraqalpoqlarning etnogenezida rol o‘ynagan qaysi elatlarni bilasiz?

Tarix saboqlari



Tarixda qoraqalpoqlar dastlab bir nechta qabilalar uyushmasidan tarkib topgan. Ularning eng qadimgi ajdodlari Orol dengizining janubiy sohillarida yashagan massaget qabilalari hisoblanadi.

Qoraqalpoqlarning Amudaryo quyi etagida turkiy bijanak qabilasi negizida xalq sifatida shakllanish jarayoni XI asrda nihoyasiga yetadi.

G‘arbiy Xorazm, Ustyurt va Volga sohillarida yashagan qoraqalpoqlar Oltin O‘rda xonligi hukmronligi ostida bo‘lgan. No‘g‘ay ulusida joylashgan qoraqalpoqlar ham XIV asrning boshlarida Volga sohillariga ko‘chib o‘tgan edi. Shunday qilib, qoraqalpoqlar Xorazm va Volga o‘rtasidagi kengliklarda yaxlit xalq sifatida shakllandi. XV asrning ikkinchi yarmidan to XVI asrning ikkinchi yarmigacha bo‘lgan davrda qoraqalpoqlar No‘g‘ay xonligi tarkibida bo‘lgan.

1556-yilda Rossiya Ashtarxon xonligini bosib olgach, No‘g‘ay qabila sardorlari o‘rtasida o‘zaro nifoq va janjallar boshlanadi. Buning ustiga xonlikda ikki yil (1557–1558) davomida ekin bitmay qoladi, oqibatda ocharchilik boshlanadi. Ushbu ofatlar tufayli xonlik hududida istiqomat qilayotgan xalqlarning ko‘p qismi boshqa o‘lkalarga ko‘chib ketishga majbur bo‘ladi. Qoraqalpoqlar ham No‘g‘ay xonligi hududini tark etib, Amudaryo bo‘ylaridagi avvalgi yerlariga qaytish imkoniyati bo‘lmaganligidan Sirdaryo sohillariga kelib joylashadilar.

O‘sha paytlarda Amudaryo sohillari suvsizlikdan qovjirab qolgan edi. Faqatgina XVII asrning boshlariga kelib Amudaryo eski o‘zanga qaytadi va Kaspiy dengizidan Orol dengiziga quyila

boshlaydi. O‘sha davrdan boshlab qoraqalpoqlar Amudaryoning ikki sohili bo‘ylab yastangan qadimiy joylariga qaytib, yerlarni qaytadan o‘zlashtirishga kirishishadi.

XVII asrda qoraqalpoqlar Xorazmga ko‘chib o‘tgan o‘zbeklar bilan birga Xiva xonligining shimolida Orol (Aran) davlatini barpo etadilar. Orol qoraqalpoqlari va o‘zbeklar XIX asrning boshlarida Xiva xonligi hududida ham yashaganlar. Qoraqalpoqlarning etnogenezida muhim rol o‘ynagan Qipchoq dashti qabilalari qoraqalpoq tiliga o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Ularning shakllanish jarayoni va nomining paydo bo‘lishi XVI–XVIII asrlarga to‘g‘ri keladi. XVIII asrlarda qoraqalpoqlarning bir qismi Farg‘ona vodiysiga ko‘chib o‘tgan bo‘lsa, aksariyati XIX asr boshlarida Sirdaryoning quyi oqimidan qozoqlarning siquvi va xonlarning zulmi natijasida Amudaryoning quyi qismlariga ko‘chib ketishga majbur bo‘lishadi.

Manbalarda

Yozma tarixi yo‘q ko‘plab xalqlar kabi qoraqalpoqlarning kelib chiqish tarixi uzoq yillar muammo bo‘lib kelgan edi. So‘nggi yillarda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarga ko‘ra, o‘g‘uz-bijanak qavmlaridan bir guruhiga nisbatan qo‘llanilgan qoraqalpoq so‘ziga hamohang “chyorniye klobuki” atamasi XII asrdagi rus solnomalarida uchraydi.

“Chyorniye klobuki”lar rus knyazlari bilan shartnomalar tuzib keng maydonni egallaydilar. Ular Kiyev Rusi knyazining grajdanlari hisoblanib, rus askarlari bilan birgalikda dushmanlarga qarshi janglarda ko‘p qatnashganlar. Sharqshunos P. P. Ivanov Abu Fazl Bayhaqiyning “Tarixi Bayhaqiy” kitobini o‘rganib, XV asrdagi Xorazmshohlar lashkarida “Qalpoq” ismli lashkarboshi bo‘lganini, biroq bu “qalpoq” atamasining lashkarboshiga daxli yo‘qligini, o‘sha paytlardagi taomilga ko‘ra lashkarboshiga o‘zi boshqaruvchi xalq nomi berilishini alohida ta’kidlaydi. Shunday qilib, olim “Qalpoq” so‘ziga ma’nodosh “Qalpoq” etnonimi XI asrda Orol bo‘ylarida yashagan, degan fikrga keladi.

Tarixchi An-Nuvayriyning XIV asrga mansub xalqlar ro‘yxatida polovets – qipchoq toifalari ichida “qora bo‘rkli” degan atama uchraydi.

Qoraqalpoqlarning aniq nomi ilk bor shayboniylar sulolasidan bo‘lgan Abdullaxon II ning Sig‘noqdagi Ziyovuddin maqbarasiga 1598-yilda bergan yorliqnomasida uchraydi. Abdullaxon II bu yorliqnomasida Sig‘noq atrofida yashaydigan har xil urug‘lar qatorida qoraqalpoq xalqining nomini to‘liq keltirgan.

1723-yilda Jung‘or xonligining Turkistonga hujumi sababli qoraqalpoq xalqi uch guruhga bo‘linib ketdi. Qoraqalpoqlarning bir guruhi Xitoy, Afg‘on ellariga ko‘chdi. Ikkinchi guruhi O‘rta Osiyoning keng dalalarida bo‘linib-bo‘linib yashab qoldi.

Uchinchi guruhi esa hozirgi Qoraqalpog‘istonda yashovchi qoraqalpoqlarning bobokalonlaridir.

To‘lepbergen Qayipbergenov, “Qoraqalpoqnoma” kitobidan

Bilasizmi?

– Qoraqalpoqlarning Amudaryo quyi etagida turkiy bijanak qavmi negizida xalq sifatida shakllanish jarayoni XI asrda nihoyasiga yetdi.

– XII asr rus manbalarida qoraqalpoqlar “chyorniye klobuki” nomi bilan uchraydi.

– Qoraqalpoqlarga nisbatan “qora bo‘rkli” atamasi ham ishlatilgan.

Tarix saboqlari

Olimlar fikriga ko‘ra, “qoraqalpoq” so‘zi qipchoq tiliga mansub bo‘lib, o‘g‘uz-bijanak qabilalarining boshlariga kiyib yurgan qalpog‘ining shakli va rangiga qarab berilgan nomdir.

XVIII asr boshlariga kelib, Sirdaryo bo‘yida yashovchi qoraqalpoqlar birlashishga harakat qiladilar.

Buning natijasi o‘laroq, 1714-yilda Sirdaryo bo‘yi qoraqalpoqlari yetakchilari Eshmuhammad (Eshimxon) boshchiligida tuzilgan davlatga birlashadilar. Bu davlat Sirdaryoning quyi oqimi, Volga bo‘ylari jung‘orlari, Boshqird ulusi va Kichik juz qozoq xonliklari bilan chegaradosh edi. Biroq bu davlat iqtisodiy va siyosiy jihatdan Kichik juz qozoq xonligiga qaram bo‘lib qoladi. Qoraqalpoqlar Kichik juzda o‘lpon (yasoq) to‘lashga va harbiy jangchilar bilan ta’minlashga majbur etiladi.



22-§. QORAQALPOQLARNING QO‘SHNI XALQLAR BILAN MUNOSABATLARI

Bilasizmi?

Qoraqalpoqlar antropologik jihatdan qozoqlar, Xorazm mang‘itlari va quramalarga yaqin. Qoraqalpoq tili qipchoq tillari guruhining qipchoq-no‘g‘ay shoxobchasiga kiradi.

Manbalarda

X–XI asrlarda qoraqalpoqlar yashagan hududlar O‘g‘uz davlatiga, keyinchalik qudratli Xorazm davlatiga bo‘ysungan. XIII–XIV asrlarda mo‘g‘ullar hukmronligi ostida bo‘lgan, XIX asrning ikkinchi yarmida esa Rossiya davlati tarkibiga kiritilgan.

O‘ylab ko‘ring

1. Qoraqalpoq xalqining etnik negizida bijanak qavmi qanday o‘ringa ega?
2. Qoraqalpoqlar nega doim ko‘chib yurishga majbur bo‘lganlar?
3. Oydo‘stbiy boshchiligidagi qo‘zg‘olonning oldini olish mumkinmidi?
4. Qoraqalpoqlarning antropologik jihatdan qozoq, qirg‘izlarga yaqinligi nimani anglatadi?
5. Nega biylar qoraqalpoqlar jamiyatida katta ta’sirga ega bo‘lgan?

Tarix saboqlari

Qoraqalpoq va Rossiya munosabatlari

XVIII asrning 20-yillaridan boshlab qoraqalpoq xoni Rossiya bilan yaqinlashish yo‘llarini qidira boshlaydi. Buning sababi, birinchidan, qoraqalpoqlarning Rossiya bilan savdo aloqalarini (Tatariston va Boshqirdiston) yanada kengaytirishdan manfaatdorligi edi.

Ikkinchidan esa, XVIII asrning 20-yillari boshlarida Jung‘orlar hujumi xavfi nihoyatda kuchayadi. Ayni paytda qoraqalpoqlarning Rossiya bilan yaxshi aloqa o‘rnatish yo‘llaridagi harakatlari Rossiya uchun ham foydali edi. Chunki Rossiya xazinasi davom etayotgan Shimoliy urush oqibatida borgan sari bo‘shab borardi.

Uchinchidan, Rossiyaning savdo karvonlarini O‘rta Osiyo xonliklariga olib boradigan yo‘l qoraqalpoqlar hududidan o‘tar edi. Savdo yo‘llarining xavfsizligini ta’minlashda qoraqalpoqlar katta rol o‘ynagan.

Eshmuhammadxonning 1721-yilda Rossiyaga yuborgan elchilariga javoban ruslar ham qoraqalpoqlar yurtiga elchi jo‘natadi.

Biroq bu elchi almashinuvlar o‘z samarasini bermasdanoq, 1723-yilda jung‘orlarning (qalmiqlar – g‘arbiy mo‘g‘ullar) hujumi boshlanadi (1635-yilda tashkil topgan bu davlat 1758-yilda Chin imperiyasi tomonidan tugatilgan).

Bu hujum natijasida qoraqalpoq xalqi uch guruhga bo‘linib ketadi. Ularning bir guruhi Xitoy va afg‘onlar yurtiga ko‘chadi. Ikkinchi guruhi O‘rta Osiyoning keng dalalaridan boshpana topadi.

Uchinchi guruhi hozirgi Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida yashab qoladi va ular hozirgi qoraqalpoq xalqining bobokalonlari hisoblanadilar.

Qoraqalpog‘iston hududida qolganlarning bir qismi Sirdaryoning yuqori oqimidan Toshkentga, qolganlari esa daryoning quyi oqimi bo‘ylab Orol dengiziga qarab siljiydilar. Shu tariqa qoraqalpoqlar shartli ravishda “quyi” va “yuqori” qoraqalpoqlarga bo‘linib qoladi.

Quyi qoraqalpoqlarning asosiy qismi Quvondaryo atrofida (Amudaryo bilan Sirdaryo oralig‘ida o‘zlashtirilmagan yer) joylashadilar.

Ular qozoqlarning Kichik juz xonligiga o‘lpon to‘lab turadilar. 1724-yildan boshlab qoraqalpoqlar yana Rossiya bilan munosabatlarini qayta tiklashga harakat qiladi.

1726-yilda qozoq xoni Abulxayrxon Peterburgga o‘z elchilarini jo‘natadi. Uning tarkibida qoraqalpoqlar vakili ham bor edi. Bunga javoban 1731-yilda Rossiya M.Tevkelevni Abulxayrxon huzuriga yo‘llaydi. Muzokaralar natijasida Kichik juz qozoqlari va quyi qoraqalpoqlar Rossiya fuqaroligiga qabul qilinadi. Ayni paytda, qoraqalpoqlarning Rossiyaga emas, Kichik juz xonligiga o‘lpon to‘lashi tan olinadi.

Biroq keyinchalik qoraqalpoqlar Kichik juzga qaramlikdan chiqishlarini ma’lum qilib, Peterburgga elchi yuboradilar.

Rus imperatorining bu taklifga roziligini olish uchun 1743-yilda atoqli botir Mamanbiy boshchiligida Peterburgga elchi yuboriladi. Mamanbiy rus hukumatidan Rossiyaga qo‘shilganliklari haqidagi yorliqnomani oladi va qoraqalpoqlar o‘lponni to‘g‘ridan to‘g‘ri Rossiyaga to‘laydigan bo‘ladilar. Ammo Rossiya imperiyasi saroyidagi ichki nizo-janjallar tufayli qoraqalpoqlarga berilgan yorliq unutiladi. Bundan foydalangan Abdulxayrxon qoraqalpoqlar yurtiga hujum qiladi va ularni o‘ziga qayta bo‘ysundiradi.



Manbalarda

“...bobolarimiz tili va dinining boshqaligiga qaramasdan, o‘zlaridek oqko‘ngil, Kuyov (Kiyev Rusi) o‘ris eli bilan qiz olishib, qiz berishib, quda-anda bo‘lib yashayverishibdi. Uzun qo‘lli Yuriy (Yuriy Dolgorukiy) podsho tirikligida qanotliga qoqdirmay, tumshuqliga cho‘qitmay ularga g‘amxo‘rlik qilibdi. Afsuski, uzun qo‘lli Yuriy podshodan keyin mamlakatga allaqaysi yovuz, qudratli dushman bostirib kelib, el-u elatlar pardek to‘zg‘ib ketibdi. Bobolarimiz tag‘in boshpanasiz, vatansiz qolib, yana sarsonlikka tushibdilar. Avvaliga Bolqon tog‘lari tevaragida “qora bo‘rklilar” degan nom bilan yashabdi.

Yana bir payt “hap sanimi” deb yurgan dushmanlari ularni tirqiratib quvganida, naq Sulaymon tog‘i etaklarida bir to‘xtab, bu atrofda “Qavmi kulohi siyoh” nomi bilan yashabdi. Keyinchalik ular bu maqomda ham muqim yashashga imkon topmay, Turkistonga kelibdi.

Darhaqiqat, xalqimiz tarix o‘yinlarida sal-sari koptokdek dunyoning u chekkasidan bu chekkasiga, u makondan bu makonga ko‘p badarg‘a bo‘lgan. Bobolarimiz davrlar to‘fonlarida goh ummonlar qa’riga cho‘kib, goh yana yuzaga qalqib chiqib, har gal omon qolib yashayverganlar.

Davr suronlaridan omon chiqishga-ku chiqqanlar. Biroq, baribir, qoraqalpoqlar xalq sifatida bu behalovat va sershovqin olamni yashnatish-yashartishga qanday hissa qo‘shdi, bu yo‘lda kimlarga qanday ta’sir qilib, kimlarga qanday ziyon-zahmat yetkazdi, degan savollar ham beixtiyor oldingizda ko‘ndalang bo‘ladi.

Qoraqalpoqlar tarixi – yarimko‘chmanchi, mabodo qo‘nim topgudek bo‘lsa, mehnatdan bo‘yin tovlamaydigan dehqonning tarixi, saraton otashida kuyib, tog‘-toshlarda tovoni tilinib mol haydagan podachining tarixi. Bu xalqning tarixini yozgan harflar – vatandan vatanga darbadar kezgan paytlarida qo‘noq joylarda qolgan o‘choqlar.

Uning o‘z tarixini yozgan qalamlar – yangi makonini gullatib-yashnatish umidida yer haydagan omoch-bo‘yinturuqlari. Uning o‘z tarixini yozgan siyohi – makon tutgan yerini himoya qilish yo‘lida ayollar va norasida bolalarning otalar qoniga aralash-qura-lash oqqan ko‘z yoshlari!

Bu xalqning fe’l-atvoridagi allanechuk olazaraklik – qo‘sh haydaganda bir ko‘zi omochida, ikkinchi ko‘zi tevaragida, ko‘chsa – bir ko‘zi oldida, ikkinchi ko‘zi ortida; qo‘nsa – bir ko‘zi uyquda, ikkinchisi notinch yotganining natijasi. Bu xalqning ozligi, nochorligi, ustiga ustak, ko‘p urug‘ga bo‘linganligi sabab, bir urug‘ining boshqasiga ola qaraganligi tufayli yiqqan-terganlarini kuchlilar bosib olaverganlar. Shuning uchun bo‘lsa kerak, bobolarimiz hech qayerga ma’lum va mashhur bosh qal’a, poytaxt ham tiklay olmaganlar.

Bu xalqning eng yaxshi fazilati – bir makonda andak o‘troqlashsa, suv topsa, non topsa, darrov qo‘shni qidirgan, do‘st izlagan, o‘zlarining oz sonligini, ojiz-nochorligini tushunib, kuchliroq panoh izlagan.

T.Qayipbergenov, “Qoraqalpoqnoma”

Tarix saboqlari

Qoraqalpoq va Xiva munosabatlari

Abdulxayrxonning qoraqalpoqlarga nisbatan siyosati ularni ko‘chishga majbur etadi. Biroq Abdulxayrxon qoraqalpoqlar xohishiga qarshi ularning bir qismini Talas daryosi bo‘yiga ko‘chishga majburlaydi. Shunday bo‘lsa-da, qoraqalpoqlarning asosiy qismi Yangidaryo va Quvondaryo bo‘ylariga ko‘chib ketishga muvaffaq bo‘ladilar. Bu yerda avval ko‘chib kelishga ulgurgan qoraqalpoqlar yashardi.

Bu yerlar Xiva xonligiga chegara hududlar edi. Yangi yerlar qoraqalpoq xalqining o‘ta mashaqqatli mehnati evaziga o‘zlashtiriladi.

Tarixchi olimlar Yangidaryoda yaratilgan ajoyib sug‘orish inshootlari tizimiga – bu qoraqalpoq xalqi ajdodlari qahramonona mehnatining ulug‘vorligi xotirasidir, deb baho berganlar.

Asta-sekin qoraqalpoqlarning orolbo‘yi o‘zbeklari (qo‘ng‘irotlar) bilan yaqinlashuvi yuz bera boshladi.

Orollik o‘zbeklar Xiva xonligi markaziy hokimiyatiga muxolifatda edilar. Endilikda, qoraqalpoqlar orollik o‘zbeklar bilan birgalikda markaziy hokimiyatga qarshi turadilar. Shu tariqa ular o‘rtasida ittifoqchilik munosabatlari qaror topadi.

Xiva xonligi avval qoraqalpoqlarni bo‘ysundirmasdan turib orollik o‘zbeklarni itoat ettira olmasligini to‘g‘ri baholaydi.

Elbarsxon davrida orolbo‘yi o‘zbeklari va qoraqalpoqlar Xiva xonligi hokimiyatini tan oladilar. Muhammad Amin inoq davrida (1770–1790) qoraqalpoqlar ixtiyoriy ravishda Xiva xonligi fuqaroligiga o‘ta boshlaydilar. Chunki qoraqalpoqlar uchun ham tinch hayot juda muhim edi.

1811-yilda qoraqalpoqlar to‘la Xiva xonligiga bo‘ysundiriladi. Shu tariqa qoraqalpoqlar Xiva xonligi fuqarosiga aylanadilar.



Tarix saboqlari

Oydo‘stbiy boshchiligidagi qo‘zg‘olon

Muhammad Rahimxon I qoraqalpoq biylaridan biri Oydo‘stbiyni biylar biyi lavozimiga tayinlaydi va unga katta imtiyozlar beradi. Xivaga kelganida uning hurmati joyiga qo‘yilib, biy bobo deb siylangan va katta in’omlar berilgan. Biroq Olloqulixon davrida unga berilgan imtiyozlar bekor qilinadi. Natijada Oydo‘stbiy Olloqulixonning siyosatidan norozi bo‘ladi.

O‘zini kamsitilgan deb hisoblagan Oydo‘stbiy 1827-yilda soliqlarning oshirilishidan norozi bo‘lgan xalqni qo‘zg‘olon ko‘tarishga da’vat etadi.

Xiva xoni Olloqulixon Oydo‘stbiy qo‘zg‘olonini bostirish uchun qo‘shin yuboradi. Oydo‘stbiy qoraqalpoq ovullariga otliq choparlar jo‘natib: “*Hamma bola-chaqasi bilan qo‘zg‘olonga yig‘ilsin. Kimda-kim bosh tortsa – u dushman hisoblanadi*” degan mazmunda buyruq beradi.

To‘qnashuv davomida Oydo‘stbiy tarafdorlarining aksariyati halok bo‘ladi. Qolganlari dengiz tomon chekinadi.

Oydo‘stbiy Qo‘ng‘irotda navkarlarining yengilganini eshitib, o‘ziga yaqin odamlari bilan o‘tovni tashlab chiqishga majbur bo‘ladi. Hal qiluvchi jangda qo‘zg‘olonchilar tor-mor etiladi. Oydo‘stbiy va uning ikki o‘g‘li ham halok bo‘ladi.

Mustaqil faoliyat

1. Qoraqalpoq xalqining etnik tarixi haqida ma’lumot bering.
2. Qoraqalpoq – Rossiya, Qoraqalpoq – Xiva munosabatlariga oid ma’lumotlardan qanday xulosa chiqarish mumkin?
3. Oydo‘stbiy boshchiligidagi qo‘zg‘olonning oldini olish mumkin edimi? Qanday maslahat bergan bo‘lardingiz?
4. Qoraqalpoqlar hayotida urug‘chilik va qabiladoshlik munosabatlarining mustahkamlanishiga nimalar sabab bo‘lgan?
5. Nega biylar qoraqalpoq jamiyatida katta ta’sirga ega bo‘lgan?



23-§. QORAQALPOQLARNING TURMUSH TARZI

O‘ylab ko‘ring

1. Qoraqalpoq xalqini boshqa xalqlardan ajratib turuvchi urf-odatlarini bilasizmi?
2. Qoraqalpoq xalqining turmush tarzida o‘ziga xos jihatlarni toping.
3. Qoraqalpoqlarning xo‘jalik hayotida qaysi sohalar va nima uchun yetakchi bo‘lgan?

Tarix saboqlari

Qoraqalpoqlarda ijtimoiy hayot

Qoraqalpoqlar ijtimoiy hayotida urug‘chilik, qabiladoshlik munosabatlari ancha mustahkam edi. Har bir urug‘ yoki qabilaga biylar boshchilik qilgan. Harbiy qismlarni botirlar boshqargan. Aholi orasida ruhoniylar, shayxlar, xo‘jalarning o‘rni katta edi. Ovul boshlang‘ich ma’muriy bo‘g‘in bo‘lib, ularning butun hayotiga Oqsoqollar kengashi rahbarlik qilgan. Shuningdek, qoraqalpoqlarda yuzboshi, mirobboshi, qozi, rais kabi ma’muriy mansablar ham mavjud edi.

Biylar avvallari urug‘ yig‘inlarida saylangan. Biylarbiyi esa qoraqalpoqlar Xiva xonligiga bo‘ysundirilgach, xon tomonidan tayinlanadigan bo‘lgan. Xon tomonidan tayinlangan biyga boshqa biylar bo‘ysungan. Amudaryoning so‘l sohilidagi Qo‘ng‘irot, o‘ng sohilidagi Chimboy qoraqalpoqlarning bosh ma’muriy markaziga aylanadi.

Aholi orasida mulkiy tabaqalanish ham kuchayib boradi. Yerga jamoa bo‘lib egalik qilish asta-sekin barham topib, katta yer egaligi vujudga kela boshlaydi. Chorvachilikda minglab qoramol, qo‘y, echki, yilqi, tuyalarga ega tabaqalar shakllanadi. Juda ko‘p baliq ovlanadigan suv havzalari ham alohida kishilar tomonidan egallanib boriladi. Natijada yersiz, chorva mollarisiz qolgan kambag‘allar soni ko‘payadi. Ular yer egalaridan ijaraga yer olib ishlashga, chorva mollarini boqib kun kechirishga majbur bo‘lishadi.



Xo‘jalik hayoti

Qoraqalpoqlar qadimdan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanib kelganlar. “Qirqqiz” dostonida qoraqalpoqlarning yerlarni o‘zlashtirib, suv inshootlari qurib, yer haydab g‘alla yetishtirganligi, bog‘lar yaratganligi haqida ma’lumotlar bor.

Qoraqalpoqlar Orol bo‘ylarida, Sirdaryo va Amudaryo oralig‘idagi yerlarda dehqonchilik bilan shug‘ullanganlar. Bug‘doy, arpa, tariq va boshqa ekinlar ekib, mo‘l hosil olganlar.

Yangi (Jana)daryo va Quvondaryo havzalarida qoraqalpoqlar tomonidan barpo etilgan kanal va sug‘orish inshootlari xo‘jalikda dehqonchilik tarmog‘ining yetakchi o‘rinda bo‘lganligidan guvohlik beradi.

XVIII asr oxirlarida Amudaryo quyi tarmoqlarida Qalliko‘l, Kegayli, XIX asr o‘rtalarida Chimboy, Qo‘ng‘irot kabi dehqonchilik vohalari vujudga keladi. Dehqonchilikda omoch, mola, ketmon, belkurak, o‘roq kabi mehnat qurollaridan foydalanilgan.

Qoraqalpoqlar iqtisodiy hayotida chorvachilik ham muhim o‘rin tutgan. Poda-poda qoramol, qo‘y, echki, ot va tuyalar boqilgan. Chorvadorlar ho‘kiz va tuya qo‘shilgan aravalarda poda va otlari bilan yil davomida sero‘t yaylovlarga ko‘chib yurganlar. Qishlov uchun xashak tayyorlangan. Ayniqsa, mayda qamish chorva mollari uchun to‘yimli ozuqa bo‘lib xizmat qilgan.

Qoraqalpoqlarning iqtisodiy hayotida baliqchilik ham alohida ahamiyatga ega edi. Orol bo‘ylari, daryolarning havzalari baliqchilikning rivojlanishiga katta imkoniyat yaratgan. Baliqchilik, ovchilik aholi uchun qo‘shimcha tirikchilik manbayi edi.



Hunarmandchilik



Qoraqalpoqlar yashaydigan ovul va qishloqlar o‘zining duradgori, taqachisi, aravasozi, egarchisi, etikdo‘zi va zargariga ega bo‘lgan. Qoraqalpoqlar orasida yog‘ochsozlar, chig‘ir, qayiq va o‘tov yasaydigan ustalar ham ko‘p edi. Ular to‘quvchilik, gilamdo‘zlik, namat, ya’ni kigiz tayyorlash bilan ham shug‘ullanishgan. Bo‘yrachilik mahsulotlari ham xaridorgir edi. Qoraqalpoq kulollari yasagan tandir va sopol idishlarga talab katta bo‘lgan. Egarchi (yershi) ustalar, jumladan, otorqa deb ataladigan qolipda egar yasashgan.

Egarning sakkiz bo‘lagi ana shu qolipda yig‘ilib, yelimlangan. Ip yigirish uchun urchuq ishlatilgan. Jun gazlama, sholcha hamda gilam to‘qish uchun o‘rmak deb atalgan oddiy moslamadan foydalanilgan. Kenagas va mang‘it ayollari nihoyatda mohir to‘quvchi bo‘lgan.

Turarjoylar qoraqalpoqlar yashaydigan hududning geografik holati, tabiiy va iqlim sharoitlariga qarab har xil qurilgan.

Ularning har qanday sharoitga mos keladigan va eng yaxshi ko‘rgan uyi o‘tov bo‘lib, mahalliy aholi uni “qora uy” deb atagan. Bundan tashqari, “qoqra” nomi bilan ma’lum bo‘lgan loysuvoq uylari ham bo‘lgan. Ayrim hollarda yerto‘lalarda ham yashashgan. Yirik boylarning katta hovlilari bo‘lib, bunday hovlilar paxsadan qurilgan va atrofi devor bilan o‘ralgan.



Soliq va majburiyatlar

Dehqonlardan **salg‘ut** (yer) solig‘i, chorvadorlardan **zakot** solig‘i, aholidan ruhoniylar uchun **ushur** solig‘i olingan. Soliq miqdorini xon amaldorlari belgilagan. Yer solig‘i butun qabila yoki urug‘ga biryo‘la solingan. Biy va amaldorlar ham o‘z xarajatlarini qoplash uchun xalqdan qo‘shimcha soliqlar undirganlar. Harbiy xavf yuz berganda xalqdan **qozon** (xo‘jalik) solig‘i undirilgan. Yigitlar majburiy harbiy xizmatga chaqirilgan.

Soliqlardan tashqari, xalq kanal va ariqlar qazish, sug‘orish inshootlarini tozalash kabi ishlarga majburiy safarbar etilgan.

Mustaqil faoliyat

1. Qoraqalpoqlar hayotida urug‘chilik va qabiladoshlik munosabatlarining mustahkam bo‘lganligiga nimalar sabab bo‘lgan?
2. Qoraqalpoqlar kundalik hayotining asosini nimalar tashkil etgan?



24-§. QORAQALPOQLARNING MADANIY HAYOTI

O‘ylab ko‘ring

“Folklor” va “san’at” atamalariga izoh bering.

Tarix saboqlari

Folklor, tasviriy san’at va musiqa

Qoraqalpoqlarning xalq og‘zaki ijodi juda boy. Ular so‘z ustalari bo‘lgan chechanlarni, baxshi (jirov)larni sevadilar. El oqsoqollari, rahbarlari yonidan qissaxonlar arimagan. O‘zbeklarning Afandisi kabi qoraqalpoqlarning ham qiziqchisi – O‘mirbek laqqisi bor.

O‘mirbek laqqi o‘z latifalarida jamiyatdagi kamchiliklar ustidan kuluvchi xalq qahramoni sifatida gavdalanadi.

U adolatsiz amaldorlar, qozilar, so‘zi bilan ishi mos kelmaydigan ruhoniylarning kirdikorlarini fosh qilib, mardlik, to‘g‘rilik, haqiqat, adolatni kuylagan. Latifalarni yengil mutoyiba, achchiq hajv bilan ixcham ifodalab, tinglovchilarni xursand qilgan.



“Qirqqiz”, “Alpomish”, “Qublon”, “Mastposhsho”, “Edigey” kabi qahramonlik dostonlarida qoraqalpoqlarning boy tarixi kuylanadi.

Masalan, “Edigey” dostonida Amir Temur, To‘xtamish faoliyati bilan bog‘liq voqealar bayon etilsa, “Qirqqiz”da qoraqalpoq xalqining ozodlik kurashi, Xorazm xalqining Eron shohi Nodirshohga qarshi kurashi o‘z badiiy ifodasini topgan. Qoraqalpoqlarning xalq qo‘shiqlarida el-yurt yo‘lboshchilari, qahramonlari – Maman botir, Esangeldi mahram, Oydo‘stbiy, Ernazarbiylar ulug‘lanadi.

Qoraqalpoqlarning tasviriy san’atdagi o‘ziga xosligi, ayniqsa, ular to‘qigan gilam va kashta buyumlarda yorqin ifodasini topgan.

Ularga tushirilgan naqshli bezaklar suv ramzini aks ettiruvchi to‘lqin ko‘rinishiga ega bo‘lgan. Bu bejiz emas edi. Chunki qoraqalpoqlar qadimdan daryo va ko‘l bo‘ylarida yashab kelganlar. Bundan tashqari, qoraqalpoq tasviriy san’atining yana bir o‘ziga xosligi uning qadama naqshli yog‘och o‘ymakorligida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Qoraqalpoqlar qo‘shiqchiligi mazmuniga ko‘ra xalq, tarixiy va marosim qo‘shiqlariga bo‘lingan. Ular qo‘biz, dutor, g‘ijjak, surnay, nog‘ora kabi musiqiy cholg‘u asboblari yordamida ijro etilgan. Doston ijrochilari jirovlar, baxshilar va qissaxonlar deb ataluvchi uch guruhga bo‘linganlar. Ular bir-biridan aytadigan dostonlarning mazmuni, ijro etish uslublari, kuy va musiqiy cholg‘u asboblari bilan farq qilganlar. Masalan, jirovlar qahramonlik dostonlarini qo‘biz jo‘rligida, baxshilar dutor va g‘ijjak jo‘rligida ijro etganlar.

Qissaxonlar esa doston qo‘lyozmalarini zo‘r mahorat bilan o‘qib yoki yoddan aytib berganlar.



Qo‘biz chalayotgan mashshoq

Atamalar

Qo‘biz (qil qo‘biz, qobuz) – torli musiqa cholg‘usi.

O‘rta asr (Mahmud Koshg‘ariy, Navoiy, Bobur, Darvishali Changiy va boshqalar) manbalarida qo‘biz turkiy xalqlarning eng sevimli torli-tirnama musiqa cholg‘usi sifatida ta’riflangan. Bu shakldagi qo‘biz (hozirgi do‘mbiraga yaqin) qirg‘izlarda qo‘muz, xakaslarda xomis nomi bilan saqlangan. O‘zbek, qozoq, qoraqalpoqlarda qo‘biz – torli-kamonli cholg‘u sifatida mashhur. Umumiy uzunligi 700 mm atrofida. O‘yma kosasi (rezonatori) va yoysimon bukilgan yo‘g‘on dastasi bir butun yog‘ochdan yasaladi. Kosasining uzunchoq pastki qismi teri bilan qoplanadi. Otning chiyratilmagan qilidan yasalgan 2 tori kvarta (ba’zan kvinta)ga sozlanadi. Yoysimon kamon (600–700 mm atrofida) qillari barmoqlar yordamida taranglashtiriladi.



Tarix saboqlari

Qoraqalpoq yozma adabiyoti



Ajiniyoz Qo‘siboy o‘g‘liga atab qurilgan haykal. Nukus shahri



Berdaq. Zamonaviy rasm

XVIII–XIX asrning birinchi yarmida qoraqalpoq adabiyotining ko‘zga ko‘ringan bir nechta namoyandalari qalam tebratganlarki, ularning nomlari bugungi kunda ham ardoqlanadi.

Ulardan biri **Jiyen Jirov** (1730–1784) mashhur baxshi, hajviy shoir sifatida kamol topadi. Qoraqalpoq adabiyotining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan yana biri **Kunxo‘ja Ibrohim** (1799–1880)dir.

Uning, ayniqsa, “O‘roqchilar”, “Cho‘ponlar”, “El bilan” kabi she’rlari xalq orasida mashhur edi. Bu asarlarda qoraqalpoq xalqining og‘ir ahvoli, cheksiz turmushi va hukmron tabaqalarning kirdikorlari katta mahorat bilan fosh etilgan.

Ajiniyoz Qo‘siboy o‘g‘li (taxallusi Zevar) (1824–1878) ham qoraqalpoq xalqining atoqli shoirlaridan biri. U boshlang‘ich ta’limni Mo‘ynoqdagi eski maktabda oladi. Keyin Xivadagi Sherg‘ozixon madrasasida o‘qiydi. Ajiniyozdan yuzdan ortiq she’r va dostonlar meros qolgan.

She’rlarida vatan, insonparvarlik g‘oyalarini kuylagan shoirning “Bo‘zatov” dostonida qoraqalpoq xalqining boshqa yurtlarga ko‘chib ketishga majbur etilganligi katta mahorat bilan tasvirlangan. “Kerak”, “Bo‘ladi”, “Bo‘lmasa”, “Yaxshi”, “Yigitlar” kabi asarlarida Ajiniyozning insonparvar g‘oyalari, falsafiy qarashlari ifodalangan.

Xalq orasida keng tarqalgan “Qiz Mengesh bilan aytishuv” (1878) asari, ayniqsa, mashhurdir. Uning hayoti haqida shoir Ibroyim Yusupov “Ajiniyoz” asarini yaratgan. Uning asarlari o‘zbek tilida ham nashr etilgan.

2024-yilda Ajiniyoz tavalludining 200 yilligi keng nishonlandi.

Berdaq. Qoraqalpoq xalq adabiyoti uning asoschisi Berdimurod Qarg‘aboy o‘g‘li (taxallusi Berdaq) nomi bilan mashhurdir. Berdaq av-

val ovul maktabida, so‘ngra madrasada tahsil olgan. U Navoiy, Fuzuliy, Maxtumquli, Kunxo‘ja asarlarini chuqur mutolaa qilgan. Berdaq tarixni, xalq og‘zaki ijodini mukammal bilgan.

Uning ijodi 18–19 yoshlarida do‘mbira chertib, she’r aytishdan boshlangan. 25 yoshida iste’dodli shoir sifatida xalq orasida tanilgan.

Uning “Bo‘lgan emas”, “Umrim”, “Yordam ber” she’rlarida mehnatkash xalqning og‘ir hayoti tasvirlangan. Amaldorlar zulmiga qarshi xalq noroziligi ifodalangan.

“O‘g‘limga”, “Ahmoq bo‘lma” she’rlari orqali yoshlarni vatanni sevishga, ma’rifat cho‘qqilarini zabt etishga chaqiradi.

Berdaq tarixiy mavzularda ham qalam tebratgan. Uning “Avlodlar”, “Omongeldi”, “Oydo‘stbiy”, “Ernazarbiy” kabi asarlarida xonlar zulmiga qarshi kurashgan xalq qahramonlarining jasorati faxr bilan kuylanadi.





25-§. QORAQALPOQLARNING MILLIY KIYIMLARI

Tarix saboqlari

Kiyim – inson ziynati



Kiyim-kechaklar uchun zarur gazlama va matolarni to‘quvchi ustalar yetkazib bergan. Bo‘z to‘n tikish uchun yo‘l-yo‘l alasha, ayollar ko‘ylaklari uchun ishlatiladigan katak-katak shatirash, ingichka tuya junidan movut (shol), qop va har xil xalta tikishda foydalaniladigan jun gazlama tayyorlangan. Po‘stin, qalpoq va poyabzalbop teriga mahorat bilan ishlov berilgan.

Qoraqalpoq erkaklarining an’anaviy kiyimlari xorazmliklarnikiga o‘xshab ketadi. Erkaklar ko‘ylak, shalvar va dambal kiyganlar. Shalvarning poychalari etik ichiga tiqib kiyilgan. Sovuq kunlarda yupqa shalvar ustidan qalin chit yoki jun gazlamadan tikilgan issiq shim kiyilgan. Keyinchalik no‘g‘ay yoqali ko‘ylak kiyish urfga aylangan. Qoraqalpoqlarda chopon keng tarqalgan. Chopon turli usullarda tikilgan, qavilgan chopon ham ishlatilgan. Jun, gazlama va movutdan shekpen (chakmon) tayyorlangan. Bayram kunlari yaltiroq gazlamadan tikilgan chopon kiyilib, uning ustidan belbog‘, ba’zan esa kayis (kamar) bog‘lab yurilgan. Qoraqalpoqlar qishda po‘stin va qalpoq kiyishgan. Qalpoqni takiya deb ham ataganlar. Qalpoq katta va keng qilib tikilgan. Deyarli salla o‘ralmagan, faqatgina din peshvolarigina bundan mustasno edi. Oyoqqa charm poyabzal, mahsi, kalish, etik, qishda



Belbog‘ va takiya



Takiya bolalar bosh kiyimi

esa jun paypoq kiyilgan. Yoshlar bilan katta yoshdagi erkaklarning kiyimlari deyarli farq qilmagan. Faqatgina katta yoshdagilarning kiyimlari sal kengroq va uzunroq ko‘rinishda tikilgan. Qoraqalpoq ayollarining kiyimlari ko‘ylak, lozim, kamzul va yengsiz chopondan iborat bo‘lgan. Ayollar boshlariga do‘ppi kiyib, ro‘mol o‘ragan, yana “jegde” deb ataladigan chopon yopib yurgan. Bayram ko‘ylaklari Buxorodan olib kelingan ola shoyidan tikilgan. Ko‘ylakning tugma qadaladigan ikki tomonida yoqasidan beligacha, yenglari va etagiga xilma-xil rangli ipdan chillak shaklida keng kashta tikilgan. Bunday ko‘ylaklar halqali ko‘ylak deb atalgan. Azador ayollar gulsiz ko‘k ko‘ylak kiygan. Qoraqalpoq ayollarining bosh kiyimlari boshqa xalqlarnikidan yaqqol ajralib turadi. Ayniqsa, kimishek va savkali deb ataladigan bosh kiyimlari juda ham mashhur. Qiz yashaydigan xonadonning hammasida albatta kimishek tikilgan. Uni qizning o‘zi tikkan va ovulga to‘yi kuni kiygan. Kimishekni bo‘lajak turmush o‘rtog‘ining ovulidan kelgan ayollardan biri qizning bo‘yniga solib qo‘ygan. Chunki kimishekda boshga kiyish uchun maxsus teshigi bo‘lgan. Kimishekning old tarafi qizil movutdan uchburchak shaklda, orqa kuyrikshasi esa Buxoro shoyisidan popukdor qilib, har xil rangdagi jun ipdan to‘qilgan. Yonlarida quloqchinlari, old tarafida peshonaga tushib turadigan jigalari (peshona) bo‘lib, orqasidan uzun guldor “kokil” osilib turgan.

Qoraqalpoq kiyimlarining o‘ziga xos jihatlaridan yana biri jengse (yeng)dir. Bunday yenglar ko‘pincha qizil guldor matodan alohida maxsus tayyorlanadi, so‘ngra to‘n yoki choponga tikiladi.



Haykel. Ayollar taqinchog‘i



Saukele kiygan ayol



O‘rta yoshli ayol libosi



Tumor

Oq jegde – keksa ayollar yopinchiq libosi



Turme, oydinli – ayollar boshiga o‘raydigan mato



Bala shapan – bolalar ustki kiyimi



Ayollar poyabzali



Sarvi gevish – ayollar kavushi



Ko‘k ko‘ylak – to‘y ko‘ylagi



Chopon



Kurte – bolalar kiyimi



Sariq ko‘ylak – ayollar kiyimi



Mustaqil faoliyat

1. Nega qoraqalpoqlarning naqshli bezaklari suv ramzini aks ettiruvchi to‘lqindan iborat bo‘lgan?
2. “Qoraqalpoqlar milliy kiyimlarining o‘ziga xos jihatlari” nomli jadval tuzing.
3. Erkak va ayollar kiyimlari uchun ishlatiladigan materiallarning ro‘yxatini tuzing.
4. Berdaqning qoraqalpoq adabiyotida tutgan o‘rni nima bilan belgilanadi?

Loyiha ishi

Qoraqalpoq madaniyat kunlari (liboslar, urf-odatlar, adabiyot va san’at) bo‘yicha taqdimot tayyorlang.

MINGLAR HUKMRONLIGI DAVRI



26-§. MINGLAR HUKMRONLIGI DAVRIDA SIYOSAT

O‘ylab ko‘ring

1. Qanday omillar Nodirshohning Buxoro va Xivaga yurishini amalga oshirishiga imkon bergan?
2. Nodirshoh Buxoro va Xivada qanday siyosat olib borgan?

Tarix saboqlari

Siyosiy vaziyat

Ashtarxoniy hukmdor Ubaydullaxon davrida markaziy hokimiyat o‘ta zaiflashadi. Oqibatda ham poytaxtning o‘zida, ham joylarda mustaqil siyosat yuritish ilinjida bo‘lgan siyosiy guruhlarning kuchayishi uchun zarur sharoit yuzaga keladi.

Ulardan biri keyinchalik ashtarxoniylardan markaziy hokimiyatni tortib olgan mang‘itlar bo‘lsa, ikkinchisi mang‘itlardan oldinroq “otni qamchilagan”, o‘z siyosiy ishtahasini o‘lkaning bir chekkasida ham qondirish mumkinligini amalda ko‘rsatib qo‘ygan farg‘onalik minglar urug‘i edi.

Ashtarxoniylar o‘zlarining ichki muammolari bilan ovora bo‘lib turganlarida, ming urug‘idan bo‘lgan Shohruxbiy 1709-yilda Farg‘onada o‘z mustaqil hokimiyatini o‘rnatadi.

Shu tariqa, yagona davlat va yurtda siyosiy, iqtisodiy hamda hududiy jihatlardan bo‘linish yuz berib, o‘zagi Farg‘ona vodiysi bo‘lgan, keyinchalik muomalada Qo‘qon xonligi deb yuritila boshlagan mustaqil davlat tashkil topadi. Shohruxbiyning o‘g‘li Abdurahimxon Farg‘ona vodiysini to‘liq bo‘ysundirishdan tashqari, 1733-yili Samarqand, Jizzax va Kattaqo‘rg‘onni, ya’ni ashtarxoniylar izmida bo‘lgan muhim yerlarni ham o‘z boshqaruviga olishga erishadi, lekin og‘ir kasalga chalinib, Xo‘jandda vafot etadi.



Nodirshohning 1740-yildagi bosqini paytida Samarqand, Kattaqo‘rg‘on va Jizzax, ya’ni minglar qo‘l ostida bo‘lgan hududlar dushman ixtiyoriga o‘tadi. Bunga javoban minglar qo‘shini Peshog‘arga yetib kelganida, Eron qo‘shini Xorazmga qarab yurishni davom ettirayotgan edi.

Har ehtimolga qarshi o‘sha davrda Qo‘qon xonligini boshqargan minglar yetakchisi Abdukarimxon Peshog‘ar va Xo‘jandda qo‘shin qoldiradi. O‘zi esa Qo‘qonga qaytadi. Tez orada jung‘orlarning vodiyga bosqinini qaytarishga muvaffaq bo‘ladi.

Abdukarimxon qariyb 9 oy hukmronlik qiladi. Undan keyingi uch yil davomida Qo‘qon taxti da’vogarlar o‘rtasida talash bo‘ladi.

Bir qancha urinishlardan so‘ng Erdonaxon hokimiyat tepasiga keladi. Erdonaxon davrida O‘sh, O‘zgand bo‘ysundiriladi. U Xo‘jand, Sharqiy Turkistonni egallashga ham urinib ko‘radi. Lekin Xitoyning jung‘orlarga tegishli hududlarini Toshkent, Sayram, Suzoq va Turkistongacha kengaytirish niyatini barbod qilishga erishadi.

Xo‘jand Qo‘qon hukmdori tomonidan bir necha marta qo‘lga kiritilib, boy berilgan. Faqat 1758-yilda Erdonaxon raqiblarini mag‘lub etib, Xo‘jand va O‘ratepani egallaydi.

Erdona zamonida xonlik qudrati ancha yuksalib, vodiyda tinchlik va farovonlikka erishiladi. U Qo‘qon xonligini Xitoy va Buxoro amirligi bilan tengma-teng kurasha oladigan davlatga aylantira oladi.

Atamalar

Jung‘or (Oyrat) – Jung‘or xonligi, 1635-yilda Ili vodiysida tashkil topgan davlat. 1758-yilda Xitoy tomonidan tugatilgan.

Manbalarda

Erdona minglar orasida birinchi bo‘lib xon unvonini olgan. So‘nggi izlanishlarga ko‘ra, 1763-yili o‘zbek elchisi Xitoyga olib borgan maktubda u xon sifatida tilga olingan.



O‘ylab ko‘ring

1. Agar Buxoroga Nodirshohning hujumi bo‘lmaganida Qo‘qon mustaqil bo‘la olarmidi?
2. Qo‘qon xonligining tashkil topish infografikasini tuzing. Uning tashkil etilishiga ta’sir ko‘rsatgan omillarni aniqlang.

Manbalarda

Qo‘qon xonligiga asos solgan ming urug‘ining boshlig‘i Shohruxbiy ibn Ashur Muhammaddir. Ming urug‘i XVIII asrning boshlarida Farg‘onada siyosiy hokimiyatni xo‘jagon sulolasining qo‘lidan tortib oladi. Xo‘jalar yoki xo‘jagon sulolasi Sharqiy Turkistonning ruhoniy nasabli hokimlari bo‘lishgan.

Sulolaning asoschisi Maxdumi A’zam – Xo‘ja Ahmad ibn Sayyid Jaloliddin bo‘lib, u IX asrda Xuroson va O‘rta Osiyoda paydo bo‘lgan xo‘jagon tariqatiga mansub shaxs. Maxdumi A’zam 1463-yilda tavallud topib, 1542-yilda vafot etgan.

Ular Sharqiy va G‘arbiy Turkistonda hukm surgan chig‘atoy hokimlari davrida katta mansab va vazifalarda ishlab, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy ta’sir kuchiga ega bo‘lishgan.

Ashtarxoniylar sulolasi hukmronligi davrida Farg‘ona vodiysida eski o‘troq zodagonlardan bo‘lmish xo‘jalarning ta’siri katta edi. XVIII asrning boshlariga kelib ming urug‘ining boshliqlaridan biri Shohruxbiy o‘z hukumati kuch-qudratini mustahkamlash maqsadida Chodak xo‘jalaridan birining qiziga uylanadi. Shuning uchun ham Qo‘qon xonligi shakllanishi va kuchayishi jarayonida mazkur Chodak xo‘jalarining nufuzi va o‘rni alohida ahamiyatga ega bo‘lgan.

Shodmon Vohidov, “Qo‘qon xonligi tarixi (xonlik tarixi – manbalarda)”

“Oltin beshik” afsonasi

Qadimdan ma’lumki, mamlakat taxtiga o‘tirish va unga hukmronlik qilish uchun Chingiz yoki Afrosiyob avlodidan bo‘lish zarur bo‘lgan. Shohruxbiy esa Chingiz avlodidan ham, Afrosiyob avlodidan ham bo‘lmaganligi uchun “Oltin beshik” afsonasi to‘qib chiqariladi.

Ushbu afsonaga ko‘ra, Kobul tomon otlangan Zahiriddin Muhammad Bobur yo‘lda tug‘ilgan o‘g‘il chaqalog‘ini oltin beshikka soladi va uni o‘sha yerda qoldirib ketadi. Keyinchalik ming urug‘i vakillari beshikni topib oladilar. Bolaga Oltin beshik deb nom qo‘yadilar. Beshikdagi bola voyaga yetgach, undan Tangriyor tug‘iladi. Tangriyordan Xudoyor, Muhammad Amin, Abulqosim, Shohmastbiy, Hojibiy, Ashurbiy, so‘ng Shohruxbiy dunyoga keladi.



Shohruxbiy hukmronlik qilgan davlat tarkibiga dastlabki yillari poytaxt Qo‘qondan tashqari Namangan, Marg‘ilon, Konibodom va Isfara shaharlari ham kirgan.

Tarix saboqlari

Boshboshdoqlikning boshlanishi

Eng uzoq muddat xonlikni boshqargan Norbo‘taxon davri nisbatan siyosiy barqarorligi va iqtisodiyot bir maromda rivojlanib borgani bilan ajralib turadi. Xo‘jandda minglar hokimiyatini o‘rnatish ham aynan unga nasib etadi.

Biroq uning vafotidan so‘ng hokimiyat uchun kurashlar natijasida taxtga Olimxon o‘tiradi. Olimxon hukmronligining dastlabki kunlaridan boshlab muxolifatni yo‘qotish uchun qattiq kirishgani ma’lum. U markaziy hokimiyatni kuchaytirish maqsadida harbiy sohada islohot o‘tkazadi.

Olimxon qattiq harbiy intizom joriy qiladi. Mamlakatdagi sayyidlar va eshonlarga berilgan tarxonlar, soliqlardan ozod qilingan imtiyozli yerlarni qayta ko‘rib chiqish maqsadida tekshiruvlar o‘tkazadi.

O‘ylab ko‘ring

1. Olimxon qattiq harbiy intizom o‘rnatishdan va mamlakatdagi sayyidlar hamda eshonlarga berilgan tarxonlar, soliqlardan ozod qilingan imtiyozli yerlarni qayta tekshiruvdan o‘tkazishdan qanday maqsadni ko‘zlagan deb o‘ylaysiz?

2. Bu tadbirlar mamlakat uchun qanday ahamiyat kasb etgan?

Tarix saboqlari

Olimxon ijtimoiy qatlam vakillariga berilgan imtiyoz – soliqlardan ozod etishning haqiqiyligi yoki soxtaligini tasdiqlovchi hujjatlarni aniqlash va qayta nazoratdan o‘tkazish bo‘yicha farmon beradi. Bu davrga kelib soxta hujjatlarning ko‘payib ketishi natijasida davlat xazinasiga tushadigan daromad kamayib borayotgan edi. Olimxonning bu siyosati nafaqat davlat iqtisodiyotini tartibga solish, balki davlat hujjatlarini qalbakilashtirishga qarshi qaratilgan islohoti ham edi.

Muhammad Alixon davrida Qorategin, Ko‘lob, Darvoz, O‘ratepa Qo‘qon xonligiga qo‘shib olinadi. 1831-yilgi Pekin bilan imzolangan kelishuvga ko‘ra Koshg‘ardagi xalqaro savdo to‘liq Qo‘qon nazoratiga o‘tadi.

Muhammad Alixon siyosatidan norozi bo‘lgan ayrim mansabdorlar Buxoro amirligidan panoh topadilar. Ular Buxoro hukmdori Nasrullaxonni Qo‘qonga qo‘shin tortishga ko‘ndiradilar. Nasrullaxon 1842-yili Qo‘qonni bo‘ysundirishga muvaffaq bo‘ladi.

Amir Nasrulla mang‘itlardan bo‘lgan Ibrohim parvonachini Qo‘qonga hokim etib tayinlaydi, o‘zi esa Buxoroga qaytadi. “Ibrohim Xayol” laqabi bilan tanilgan bu parvonachi o‘zining ikki oy hukmronligi davrida aholi boshiga yangi-yangi soliqlar soladi. Natijada Qo‘qon xalqi qipchoq va qirg‘iz jamoalari kuchlari bilan birga mang‘itlarni Qo‘qondan haydab chiqaradi. Talas qirg‘izlarining bosh-

lig‘i Muhammadyusuf xon avlodlaridan bo‘lgan Sheralixonni xonlik taxtiga ko‘taradi. O‘zi mingboshi bo‘lib oladi. Qo‘qon xonligining oldingi chegaralari tiklanadi. Qo‘qondan Toshkent, Xo‘jand va janubiy Qozog‘istongacha bo‘lgan mulklarga voliylar qayta tayinlanadi. Sheralixonni taxtga ko‘targan qipchoq-qirg‘iz jamoasi rahbarlik mansablariga tayinlanadilar.

Biroq orada mang‘itlar lashkarini Qo‘qon hududidan haydashda ishtirok etgan qipchoqlarga oliy mansablar tegmay qoladi. Muhammadyusuf ham ularga qarshi xatti-harakatlarni boshlaydi. Bu xabarni eshitib, qipchoqlar Andijon va Shahrixonga borib qo‘shin yig‘adi. Qipchoqlar oldiga muzokara uchun Yusuf mingboshi va Sheralixonning o‘g‘li Sarimsoqbek yuboriladi. Qipchoqlar talabi bilan Muhammadyusuf mingboshilik mansabidan chetlashtiriladi.

Sheralixonning soliq siyosatiga qarshi xonlikning qator tumanlarida qo‘zg‘olonlar ko‘tariladi. 1845-yilda O‘shdagi qo‘zg‘olonni bostirish uchun Andijon hokimining boturboshisi qipchoq Musulmonqul yuboriladi.

Mazkur vaziyatdan foydalangan Murod (Olimxonning o‘g‘li) Sheralixonni o‘ldirib, o‘zini xon hamda Buxoro amirining noibi deb e’lon qiladi. Musulmonqul bu voqealardan xabar topib, qizini Sheralixonning o‘g‘li Xudoyorga turmushga beradi va u bilan birga Qo‘qonga keladi hamda Murodni taxtdan ag‘daradi. Yosh Xudoyor xon deb e’lon qilinadi.

Amalda hokimiyatni Musulmonqul boshqaradi. U ayni paytda mingboshi – Bosh vazir lavozimini egallaydi. Shu davrdan boshlab Qo‘qonda faqat qipchoqlarning hukmronligi boshlanadi. 1852-yil farg‘onalik mulkdorlar toshkentliklar yordamida qipchoqlar hokimiyatiga qarshi qurolli kurash boshlashadi. Kurashda qipchoqlar yengiladi. Musulmonqul o‘ldiriladi.

O‘ylab ko‘ring

1. Soxta hujjatlarning ko‘payishi davlat iqtisodiga qanday zarar keltirishi mumkin?
2. Bugungi kunda ham davlat qimmatli qog‘ozlari yoki pulni qalbakilashtirish qanday oqibatlarga olib keladi?
3. Bunday ishlar mamlakat iqtisodiga ta’sir ko‘rsatadimi?

Manbalarda

“Shunday zamon bo‘ldiki, har kim o‘zicha hukm surardi. Xon unvoni ma’nosiz bo‘ldi. Musulmonqul va qipchoqning boshqa ashroflari o‘lkani o‘zaro bo‘lib oldilar”.

Avaz Muhammad Attor Xo‘qandiy, “Tarixi jahonnamoy”

Tarix saboqlari

Xudoyorxon Musulmonqul ta’siridan qutulsa ham amalda mustaqil xon sifatida hukm sura olmaydi. Mahalliy hokimlardan Abdulg‘afurbek yuz O‘ratepada va ukasi Mallabek Toshkentda unga qarshi chiqa boshlashadi.

1853-yili Oqmasjid graf Perovskiy tomonidan bosib olinadi. Qal’a hokimi To‘raqul (Abdu Vali) va qal’a himoyachilari halok bo‘lishadi. Oqmasjid mag‘lubiyati bilan Qo‘qon – Rossiya munosabatlarining keskinlashuvi boshlanadi. 1853-yilda Rossiya qo‘shinlari ham Oqmasjid orqali Qo‘qon xonligi yerlariga bostirib kirishni davom ettiradi. Xudoyorxon uchtomonlama bo‘layotgan tazyiqlar ostida qoladi.

Manbalarda

Qamal davomida 30 nafar qo‘qonlik, hujum vaqtida esa 212 kishi halok bo‘lgan, shulardan 4 nafar ayol, 2 nafar bola 217 nafar yaralanganlar bilan birga ruslar tomonidan asir olingan.

Avaz Muhammad Attor Xo‘qandiy, “Tarixi jahonnamoy”

Xulosa

1. Qo‘qon xonligining tashkil topishidagi siyosiy vaziyat haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Qo‘qonda yuzaga kelgan ichki nizolar qanday oqibatlarga olib kelgan?
3. Qo‘qon – Rossiya munosabatlari keskinlashuvining oldini olish mumkinmidi? Oqmasjiddagi mag‘lubiyat tufayli Qo‘qon – Rossiya munosabatlari qanday o‘zgargan?



27-§. QO‘QON XONLIGIDA DAVLAT BOSHQARUVI

O‘ylab ko‘ring

1. Bu davrda Xiva va Buxoroda davlat boshqaruvi qanday edi?
2. Davlat mustaqilligi uchun uning boshqaruvida qanday lavozimlar bo‘lishi kerak deb o‘ylaysiz?
3. Monarxiya deganda nimani tushunasiz? Monarxiya necha turga bo‘linadi?

Tarix saboqlari

Minglar sulolasi boshqaruvi

Minglar sulolasi ham boshqaruvni o‘zbek davlatchiligida mavjud bo‘lgan an’analar asosida davom ettiradi. Ular ham viloyatlarni o‘z sulola vakillari orqali idora etish tizimini yo‘lga qo‘yishga harakat qilishadi.

Bu sulola davrida ham devonlar tizimi deyarli saqlanib qolmaydi. Devonlar vazifasi esa dargohdagi mansabdorlar zimmasiga yuklatiladi. Xonlikda davlat boshqaruvining oliy idorasi dargoh hisoblangan. Davlat tepasida oliy hukmdor – xon turgan.

Xonlikning poytaxti Qo‘qon shahri bo‘lib, u mamlakatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy markazi edi.

Minglar mang‘itlar hukmronligidan ajralib chiqqan ilk paytlarda boshqaruv tizimi deyarli o‘xshash edi. Lekin keyinchalik ayrim o‘zgarishlar amalga oshiriladi. Buni bosh vazirlik lavozimida ko‘rish mumkin.

1810-yilga qadar bosh vazir vazifasini xuddi Buxorodagidek **qushbegi** bajargan. Umarxon davriga kelib bu lavozim **mingboshiga** o‘zgartiriladi. Davlat siyosatida harbiy masala ustuvor darajaga ko‘tarilgani uchun shunday qilinadi. Mingboshi lavozimi egasiga lashkarboshilik vakolati ham yuklatiladi. Xonlikning uch tomonida xavfning yuzaga kelishi boshqaruvda ushbu yangilikni kiritishga sabab bo‘ladi.

Boshqaruv tizimidagi yana bir o‘zgarish – bu Toshkent hokimiga **beklarbegi** unvonining berilishi edi. Boshqaruvdagi bu islohot Muhammad Alixon davriga to‘g‘ri keladi. Aniqrog‘i, poytaxtdan ancha uzoqda joylashgan va XIX asrning dastlabki o‘nyilligida xonlik tarkibiga qo‘shib olingan Toshkent va Qipchoq dashtining xonlikka tegishli hududlarini boshqarish murakkablashadi. Bu esa mazkur hududlarni boshqarish tizimiga ayrim o‘zgartirishlar kiritishni talab etadi. Shundan kelib chiqib, 1831-yili Muhammad Alixon tomonidan beklarbegi unvoni joriy qilinadi. Bu unvon faqat Toshkent hokimiga berilgan edi. Beklarbegi bir qator imtiyozlarga ega bo‘lgan, jumladan, unga xonlikning shimoliy hududlaridagi Turkiston, Chimkent, Avliyoota ustidan siyosiy, iqtisodiy va harbiy nazorat qilish vazifasi topshirilgan.

Markaziy boshqaruvda iqtisodiy masalalar bo‘yicha mas’ul amaldor – **devonbegi** ham muhim o‘rin tutgan. Mamlakat xazinasiga tushadigan mablag‘ va uning sarf-xarajati devonbegi nazoratida bo‘lib, kirim-chiqim maxsus daftarlarda qayd etib borilgan.

Markaziy boshqaruv tizimida xonlikka chet mamlakatlardan siyosiy, iqtisodiy, diplomatik maqsadlarda kelgan elchilarni kutib olish, ularni joylashtirish va xonlikdagi faoliyatiga javobgar bo‘lgan **shig‘ovul**, ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan **dasturxonchi**, moliya vazirining yordamchisi **mehtar**, xonning xos va sirdosh mulozimi **inoq** hamda **otaliq** kabi mansabdorlar faoliyat yuritishgan.

Shuningdek, markaziy boshqaruv tizimidagi eng oliy diniy mansab – **shayxulislom**, sudlov va huquq-tartibot ishlariga mas’ul – **qozikalon**, fiqh olimi – **xojakalon**, harbiy ishlar qozisi – **qozi askar** lavozimlari mavjud bo‘lgan.

O‘ylab ko‘ring

Markaziy boshqaruv lavozimlarini alohida jadvalga soling (1-ustunda – lavozimi, 2-ustunda – vazifasi, 3-ustunda – unvonlari).

Manbalarda

Qo‘qon xonligi Xivaga nisbatan besh baravar, Buxoroga nisbatan uch baravar, Tehronga nisbatan to‘rt baravar katta bo‘lgan.



1709–1876-yillarda davlat ramzi bo‘lgan Qo‘qon xonligi bayrog‘i

Tarix saboqlari

Mahalliy boshqaruv tizimi

Xonlikdagi mahalliy boshqaruv tizimi tepasida turgan viloyat boshliqlari **hokim** deb yuritilgan. Manbalarda qayd etilishicha, **qushbegi, parvonachi, devonbegi, dodxoh** kabi mansab va unvon egalari viloyatlarga hokim etib tayinlangan.

Ma’muriy-boshqaruv tizimida viloyat hokimining asosiy yordamchilari **sarkor** (yoki mirzaboshi) hamda **boturboshi** lavozimlari hisoblangan. **Muftiy, a’lam, qozi, rais** (muhtasib) kabi mansab egalari zimmasiga aholining ijtimoiy va ma’naviy hayotini tartibga solish masalalari yuklatilgan.

Qo‘qon shahrini xonning o‘zi boshqargan. XIX asrning 20-yillarida Qo‘qon shahrida 3 mingga yaqin xonadon va oltita bozor, shu asrning 50-yillarida Qo‘qonda 8 ming xonadon, 30 mingga yaqin aholi, 9 ta karvonsaroy va 6 ta hammom mavjud bo‘lgan.

Xonlik ma’muriy-boshqaruv tizimining eng quyi bo‘g‘ini oqsoqollikdan iborat bo‘lib, uning tarkibiga katta bir qishloq yoki bir necha kichik qishloqlar kirgan. Mazkur ma’muriy birlikni aminlar va oqsoqollar, ayrimlarini sarkorlar nazorat qilgan.

XIX asrning 40-yillariga qadar xonlik ma’muriy jihatdan viloyatlarga, viloyatlar sarkorlikka, sarkorlik oqsoqollik va aminliklarga bo‘lingan holda idora etilgan. Tarixiy manbalarda xonlikning ma’muriy-hududiy bo‘linishi Marg‘ilon, Andijon, Shahrixon, Namangan, Xo‘jand, Chust, Isfara, O‘ratepa, Qurama, Toshkent va Turkiston viloyatlaridan iborat bo‘lgani qayd etiladi. Ushbu viloyatlarga hokimlar tayinlash xon izmida bo‘lgan.

Farg‘ona vodiysi xonlik hududining o‘zagi edi. Ilk pallalarda u Namangan, Marg‘ilon va Andijon bilan cheklangan. Abdurahimxon Xo‘jand viloyatini bo‘ysundirishga erishgan. Erdonaxon esa O‘sh va O‘zganni xonlik tarkibiga kiritgan.

Olimxon tomonidan Toshkent bekligining qo‘shib olinishi xonlik hududining yanada kengayishiga olib keladi. Umarxon esa uni Qipchoq dashti yerlarining bir qismi hisobiga kengaytirgan edi. Muhammad Alixon qisqa muddat bo‘lsa-da, Qorategin, Ko‘lob, Darvozni Qo‘qonga bo‘ysundirishga muvaffaq bo‘ladi.



Manbalarda

XVIII asr oxirlarida xonlikning hududlari hali Farg‘ona vodiysidan iborat edi. Vodiy qulay iqlim va tabiiy geografik mintaqada joylashgan bo‘lib, uning hududi 22,2 ming km^2 ni, tog‘li hududlar bilan birga 80 ming km^2 ni, sharqdan g‘arbga tomon uzunligi 300 km, shimoldan janubga qadar ba’zan 170 km ni tashkil qilgan.

V. I. Masalskiy, “Туркестанский край”

Tarix saboqlari

Aholining tarkibi

Xonlik aholisining asosiy qismini o‘zbeklar tashkil qilgan. Shahar va qishloqlarda qadimdan yashab kelgan o‘troq aholi urug‘-qabila tizimiga ega bo‘lmagan Muhammad Shayboniyxon davrida ko‘chib kelgan ko‘chmanchi va yarimko‘chmanchi xalq edi. Ular chorvadorlar bo‘lib, XVII asr oxiri – XVIII asr boshlarida o‘troqlasha boshlagan.

Shuningdek, xonlik aholisi tarkibining ma’lum qismini tojik va qirg‘izlar tashkil etgan. XVIII asrning ikkinchi yarmidan XIX asrning o‘rtalariga qadar Farg‘ona vodiysiga, asosan, Sirdaryo bo‘ylariga qoraqalpoqlar kelib o‘rnasha boshlagan. Shuningdek, lo‘li, mazang, og‘acha kabi mayda guruhlar hamda hindlar yashashgan.

Mustaqil faoliyat

1. Qo‘qon xonligi aholisining tarkibi Xiva xonligi va Buxoro amirliginikidan qaysi jihatlari bilan farq qilgan?

2. Venn diagrammasini chizing. Qo‘qon, Buxoro va Xiva davlatlarining boshqaruv tizimini solishtiring, o‘xshash va o‘ziga xos jihatlarini aniqlang.



28-§. QO‘QON XONLIGIDA IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOT

O‘ylab ko‘ring

1. Farg‘ona vodiysida qadimdan dehqonchilik va hunarmandchilikning qaysi sohalari rivojlangan edi? Bugungi kunda ulardan qaysi birlari hamon mashhur?
2. Hunarmandchilikning yangi sohalarining ochilishiga qanday omillar sabab bo‘ladi?
3. Bu davrda dunyo mamlakatlarida qanday kasblarga ehtiyoj yuzaga kelgan edi?

Tarix saboqlari

Yer-suv munosabatlari

Farg‘ona vodiysida dehqonchilik qadimdan rivojlanib kelgan. Vodiy aholisi g‘allachilik, bog‘dorchilik, sabzavot va poliz mahsulotlari yetishtirish hamda ipakchilik bilan shug‘ullangan. Donli ekinlardan jo‘xori yetishtirish keng tarqalgan bo‘lib, u shahar va qishloqlarda kambag‘allarning asosiy iste’mol mahsuloti hamda chorva ozuqasi edi. Shuningdek, XIX asrga kelib xonlikda paxtachilik sohasiga ham katta e’tibor berilishi natijasida paxta ekiladigan maydonlar hajmi to‘xtovsiz kengayib boradi.

Farg‘ona vodiysi g‘arbiy qismining tabiiy sharoiti bog‘dorchilik va uzumchilikni rivojlantirish uchun juda qulay bo‘lgan. Vodiyning janubi-g‘arbidagi Xo‘jand, Konibodom, Isfara, So‘x, Chimyon, Rishton hududlari asosan o‘rik yetishtirishga ixtisoslashgan. Bu davrda butun Farg‘ona vodiysida tut daraxti keng tarqalib, tog‘oldi va qadimgi dehqonchilik vohalari hisoblangan So‘x, Isfara, Namangan, Ashtda ipakchilikni yanada rivojlantirish maqsadida tut daraxtlari soni nihoyatda ko‘paytirilgan.

Xonlikda yerga egalikning to‘rt turi mavjud edi. Bular: mulk yerlari; davlat yoki amlok yerlari – xonga qarashli yerlar, o‘rmonlar, to‘qaylar; xususiy yerlar – xonning maxsus yorlig‘i bilan harbiylarga berilgan yerlar; vaqf yerlari – diniy muassasalarga, ya’ni masjid, madrasa, maktabxona, xonaqoh, mozorlarga qarashli yerlar. Bundan tashqari, “mulki huri xolis” yerlari ham bo‘lgan. Amlok xon ixtiyoridagi yer bo‘lib, u zamini xos deb ham yuritilgan va undan keladigan barcha daromad xonning ixtiyorida bo‘lgan. Bunday yerlar xon tomonidan yirik dehqonlarga ijaraga berilgan. Yerni olgan kishi uni o‘z hisobidan sug‘orib, olgan hosilidan xazinaga soliq to‘lagan va uning miqdori hosilning 1/5 qismini tashkil qilgan.

Tarix saboqlari

XIX asrda sug‘orish tizimida yangi davr boshlanadi. Yirik sug‘orish inshootlari, katta-kichik ariqlar, to‘g‘onlar qurila boshlaydi. Masalan, Sirdaryoning asosiy irmoqlaridan bo‘lgan Norin va Qoradaryodan suv oladigan Shahrixonsoy arig‘i, Namangan yangi arig‘i, Chinobod arig‘i, Andijonsoy va boshqa sug‘orish tarmoqlarining qazilishi Farg‘ona vodiysida sug‘orish tarmoqlarining ko‘payishiga, sug‘oriladigan yer maydonlarining sezilarli darajada kengayishiga hamda dehqonchilik va bog‘dorchilikning rivojlanishiga olib keladi.

Olimxon hukmronligi yillarida Farg‘ona vodiysining janubiy hududlaridagi suv ta’minotini yaxshilash uchun So‘x daryosida oltita ariq qaziladi. 1800–1803-yillarda Namangan viloyatida yangi yerlarni o‘zlashtirish uchun Norin daryosidan suv oluvchi Yangiariq arig‘i qaziladi. 1819-yilda Umarxon farmoni bilan Yangiariq arig‘i yana uzaytirilib, uning uzunligi 120 chaqirimga yetkazildi. 1868–1871-yillarda qurilgan Ulug‘nahr arig‘i Farg‘ona vodiysidagi eng katta sug‘orish arig‘i bo‘lib qoladi.

O‘ylab ko‘ring

1. Xon ixtiyoridagi yer qanday nom bilan atalgan? U boshqa yerlardan nimasi bilan farq qilgan?

2. XIX asrda Qo‘qon xonligining sug‘orish tizimida qanday o‘zgarishlar ro‘y bergan? O‘zgarishlarning sabablari nima edi?





















O‘ylab ko‘ring

1. 154-betda berilgan rasmlarga diqqat bilan qarang. Qo‘qon xonligida qanday kasb va hunarlar rivojlanganligini aniqlang.

2. Ushbu kasb va hunarlardan qaysilari bugungi kunda ham mavjud?

Loyiha ishi

1. Har bir buyumning yaratilish tarixini o‘rganing.

2. “Moddiy yodgorliklar tarixdan xabar beradi” mavzusida taqdimot tayyorlang.













Tarix saboqlari

Hunarmandchilik

Xonlikning asosini tashkil etgan Farg‘ona vodiysida shaharlashuv jarayonlari faol kechgan. Qo‘qon, Marg‘ilon, Andijon, O‘sh, To‘raqo‘rg‘on, Chust, Xo‘jand shaharlarida hunarmandchilikning miskarlik, zargarlik, yog‘och o‘ymakorligi, harbiy qurol yasash, sopol va ko‘zachilik, qog‘ozgarlik, to‘qimachilik, do‘ppichilik, kashtachilik, temirchilik kabi turlari rivojlangan. Shaharlarda hunarmandchilikning muayyan bir turi bilan shug‘ullanuvchi mahallalar bo‘lib, ularning nomi ham mazkur hunarlar nomi bilan bog‘liq bo‘lgan. Bu esa o‘sha mahallada yashaydigan aholining kasb-korini ifodalagan.

Xonlikning yirik shaharlarida hunarmandchilikning ixtisoslashgan turlari mavjud bo‘lib, u sohaning yanada rivojlanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Masalan, Marg‘ilonda ipakchilik tufayli shoyi matolarning turlari va sifati o‘sib boradi. Hatto Qo‘qon va Marg‘ilonda ishlangan shoyi gazlamalar elchilik munosabatlarida ming hukmdorlarining noyob hadyalari qatoridan o‘rin oladi. Shuningdek, Chust va Shahrixon shaharlarida pichoqchilik taraqqiy etadi. Qo‘qon shahrida yog‘och o‘ymakorligi bilan qog‘ozgarlik yuqori darajaga ko‘tariladi. Natijada Qo‘qon qog‘oziga bo‘lgan ehtiyoj Turonning boshqa hududlarida ham oshib boradi.



Hunarmandchilik turlari ichida qo‘lyozma kitoblarni tayyorlash – sahhoflik sohasi xonlikdagi madaniy hayotning darajasini ham belgilab beradi. Bu davrda sahhoflar tomonidan Qo‘qonda tayyorlangan noyob qo‘lyozma asarlar bugungi kunda dunyoning yirik kutubxonalari va muzeylarida saqlanmoqda.



29-§. QO‘QON XONLIGIDA KIYINISH MADANIYATI

O‘ylab ko‘ring

1. Bugungi kunda o‘zbek milliy do‘ppilarining bir-biridan farqi nimada? Ularning necha turi mavjud?
2. Farg‘ona do‘ppisining o‘ziga xosligi nimada?

Tarix saboqlari

Liboslar

Xonlikda jun, charm, ipak va paxta mahsulotlariga talab yuqori bo‘lganligi sababli ularni ishlab chiqarish rivojlangan. Kosiblar tomonidan to‘qilgan ipak, yarimipak atlas, beqasam, shoyi va abr, tovlanma adras matolarga talab yuqori bo‘lgan. Xonlikda chit va bo‘z matolar ham to‘qilib, nafaqat mahalliy aholi, balki qo‘shni hududlar aholisining ushbu matoga bo‘lgan ehtiyoji qondirilgan.

Liboslar shakli, bichimi, matosi, libos ansambli tarkibi, nomlanishi va atamalari uzoq davrlar mobaynida shakllanib, milliy qadriyat darajasiga ko‘tarilgan. Libos ansambli tarkibiga yelka ichki va yelka ustki to‘g‘ri bichimli kiyimlar, bel ichki kiyimi, bosh kiyim, poyabzal va aksessuarlar, zargarlik buyumlari kirgan. Ayollar kiyinish madaniyatida bosh kiyim muhim o‘rin tutgan.

An’anaviy bosh kiyimlardan biri ro‘mollar bo‘lgan. Marosim va bayramlarda ayollar zar yoki kumush iplar qo‘shib to‘qilgan ro‘mollarni o‘rashgan. Kundalik yumushlarda esa doka ro‘mollarni boshlariga tashlab yurishgan.

Shuningdek, qiz va ayollar iroqi hamda kashtadan tikilgan, gardishlari nafis jiyaklar bilan bezatilgan yoki gulsiz matodan tikilgan do‘ppilarni ko‘p kiyganlar. Boy-badavlat oila ayollari ipak-shoyi gazlamalardan, quyi tabaqa oila ayollari chit matolardan ko‘ylaklar kiyganlar.

Kiyimlar turli bichim va ko‘rinishda mavsumga qarab kiyilgan. Ko‘ylak ustidan “kamzul” yoki “munisak” kiyganlar. Munisaklar astar qo‘shib tikilgan, qishki mavsumda kiyishga mo‘ljallanganlari paxta solib qavilgan. Qulaylik yaratish maqsadida munisaklar yenglari birmuncha kaltaroq tikilgan. Vaqtlar o‘tishi bilan tirsak chizig‘igacha kaltalatilgan munisaklar ham tikilgan. Munisaklar o‘z o‘rnini torroq, kalta va yengi bo‘lgan “kamzul”larga bo‘shatib bergan. Kamzul-



lar asosan tovlanib turuvchi yo‘l-yo‘l yarimipak beqasam, adras, baxmal, duxoba matolardan tikilgan. Ayollar mahsi va kavush kiyganlar. Qishda va namgarchilikda yog‘ochdan yasalgan poshnali “haqqar kavush”lar kiyilgan.

Qo‘qon xonligida erkaklar bosh kiyimi – do‘ppi erkaklar uchun ziynat hisoblangan. Xonlik hududlariga ko‘ra kiyilish usuli, matolarning rangi turlicha bo‘lgan va farqlangan. Mato mo‘yna va kigizlardan tikilib, ular marosim, mavsumiy, iqlimning issiq va sovuq kunlariga mo‘ljallangan.

Salla xonlikning barcha hududlarida o‘ralgan bo‘lsa-da, ammo salla uchun tanlangan matoning rangi, o‘ralish usuli, taxlamalari, shakli va qo‘shma bezak detallari bilan farqlangan. Sallaning mato rangi, uning o‘ralish usuli, shuningdek, bezatilishi erkak kishining etnik va ijtimoiy kelib chiqishi, yoshini bildirib turgan.

“Kuloh”, “Do‘ppi”, “Kallapo‘sh”, “Araqchin”, “Buruk” (barak), “Qalpoq” kabi sallalar bo‘lgan.



“Haqqar kavush”



Kigizdan tikilgan kuloh bir xil konus shaklida (23–26 cm) vertikal bo‘yicha birlashtirib tikilib, ayrimlari kashta bilan bezatilgan. Baland uzunlikdagi kulohlarni darvishlar, pastroq balandlikdagilarni mulla, qozi, ulamo va mudarrislar kiygan.

XIX asrga kelib do‘ppilar kulohlarning o‘rnini egallay boshlaydi. Bu vaqtda sallalarni do‘ppi ustidan o‘rash va araqchin qo‘yish urf bo‘ladi.

Do‘ppilar hududlarga qarab turlicha bo‘lgan. Farg‘ona, Chust, Toshkent, Namangan do‘ppilari o‘ziga xosligi bilan ajralib turgan.

Erkaklar ko‘ylagi yoqali, yoqasiz, yaxlit bichimli va mavsumiy yaxtaklardan iborat bo‘lgan. Ularning ustidan to‘n kiyilgan. Ichki ko‘ylaklar kabi ustki kiyimlar ham turli bichim va ko‘rinishda bo‘lgan. To‘n, joma, kamzul, chakmon, jelak, nimtan, kebanaklar oldi ochiq qilib tikilgan. Erkaklarning ustki kiyimlari sokin rangda, nimrang yo‘l-yo‘l chiziqli matolardan tikilgan.



Ijodiy faoliyat

1. Rasmlarga e’tibor bering. Ularning ichida Xiva xonligi va Buxoro amirligidagi urflarga moslari bormi?

2. Har bir libosning nomini va qayerlarga kiyilishini aniqlang.









30-§. ICHKI VA TASHQI SAVDO. SOLIQ TIZIMI

Tarix saboqlari

Ichki savdo

Qo‘qon xonligi ijtimoiy-iqtisodiy hayotining muhim bo‘g‘ini hisoblangan ichki savdo hukmdorlar tomonidan qo‘llab-quvvatlangan.

Yangi bozorlar, savdo majmualari, karvonsaroylar qurilib, mavjudlari ta’mirlangan. Mamlakat bozorlariga shahar va qishloq aholisi dehqonchilik hamda hunarmandchilik mahsulotlari, tog‘li hudud aholisi va ko‘chmanchi chorvadorlar chorva va chorvachilik mahsulotlarini olib kelishgan. Mahalliy savdogarlar xonlikning chekka qishloqlariga borib, o‘sha hududda yetishtiriladigan yoki tayyorlanadigan mahsulotlarni ulgurji sotib olgan va yirik shahar bozorlariga keltirib sotishgan. O‘z navbatida, hunarmandlarning mollarini sotib olib, boshqa bozorlarga yoki shaharma-shahar, qishloqma-qishloq sotib yuruvchi savdogarlar ham faoliyat ko‘rsatishgan.

Qo‘qon shahri xonlikning yirik iqtisodiy markazi edi. Mahalliy aholi Qo‘qon bozorlariga hunarmandchilik, shahar atroflaridan esa dehqonchilik mahsulotlarini olib kelishgan.

Qo‘qondan Toshkentga paxta, xom ipak hamda ipak va yarimipak, ip matolar, quruq mevalar, Koshg‘ar va Xitoy mollari keltirilgan.

Toshkentdan Farg‘ona vodiysiga esa har yili 10 mingdan ortiq tuyada g‘alla, temir, po‘lat, cho‘yan, mis va ulardan yasalgan buyumlar keltirilgan.



Ijodiy faoliyat

1. Nima uchun ichki savdo Qo‘qon xonligi ijtimoiy-iqtisodiy hayotining muhim bo‘g‘ini hisoblangan?
2. Qo‘qon xonlari ichki savdoni rivojlantirish uchun qanday ishlarni amalga oshirishgan? Siz qanday tadbirlarni amalga oshirgan bo‘lardingiz?
3. Ulgurji savdo haqida tushuncha bering. Savdoning bu turi bugungi kunda ham mavjudmi?
4. Qo‘qon xonligi savdo mahsulotlari xaritasini chizing.

Tarix saboqlari

Tashqi savdo

Qo‘qon xonligi faol tashqi savdo aloqalarini olib borgan. XVIII asrning o‘rtalari, aniqrog‘i, Erdonaxon hukmronligidan boshlab Xitoy mollarini Turonning boshqa hududlariga yo‘naltirishda vodiylik savdogarlar asosiy vositachilikni o‘z qo‘liga olganlar. Qolaversa, xonlik Koshg‘ardagi xalqaro savdoni to‘liq nazorat ham qilgan.

Xitoydan Turonga, asosan, choy, xom ipak va ipak matolar, chinni, qog‘oz, kumush yombi, mushk, rovoch va boshqa mahsulotlar olib kelingan.

Turon bozorlariga Xitoy choyini farg‘onalik savdogarlar olib kelishgan. Muhammad Alixon saroyidagi omborxonalarda katta miqdorda xitoy choyi saqlangan. Muhammad Alixon xalqaro savdoga alohida e’tibor qaratgan, ayniqsa, choy savdosini o‘z nazoratiga olgan.

Farg‘onalik savdogarlar tomonidan birgina Buxoroning o‘ziga yiliga 1000 tuyada ipak jo‘natilgan. Uning miqdori 12 ming pudga to‘g‘ri kelgan. Shuningdek, 1860-yili 1 pud ipakning bahosi 22 oltin tangaga, rus pulida esa 197 rublga teng bo‘lgan.

Aslida butun Farg‘ona vodiysida qadimdan ipak yetishtirilgan bo‘lsa-da, Turon bozorlaridagi ehtiyojni ta’minlab bera olmagan. Shu bois uni to‘la qondirish uchun Xitoydan ham katta hajmda ipak keltirilgan.

Turonda qog‘oz ishlab chiqarish, asosan, Samarqand va Qo‘qonda yo‘lga qo‘yilgan. Shuning uchun Qo‘qon va Samarqand qog‘ozi mashhur edi. Lekin XIX asrda Turon bozorlarida xitoy qog‘ozi sotilganligi ham ma’lum.

Buxoro bozorlariga Qo‘qon savdogarlari “Ishtarxoniy” navli Qo‘qon qog‘ozini keltirishgan. Bundan tashqari, Xitoydan “Abrisham” qog‘oz turi juda ko‘p miqdorda Qo‘qon orqali olib kelingan.

XIX asrda xonlik o‘zbek davlatchiligi hududida faoliyat yuritayotgan mang‘itlar va qo‘ng‘irotlar qo‘l ostidagi yerlar, Rossiya imperiyasi, Qozoq dashtlari, Koshg‘ar, Xitoy, Afg‘oniston, Eron, Hindiston bilan bevosita va bilvosita savdo aloqalarini amalga oshirishgan. Qo‘qondan Hindiston va Afg‘onistonga xom ipak, yarimipak matolar, quritilgan mevalar, echki momig‘i jo‘natilgan. Xonlikda tayyorlangan ipakning “Chilla” deb nomlangan navi Hindistonda juda mashhur bo‘lgan. O‘z navbatida, Hindistondan dorivor giyohlar, murch-ziravorlar, banoras kimxobi, kashmir ro‘mollari, qimmatbaho toshlar, choy va hatto diniy kitoblar ham olib kelingan.

1813-yilda imzolangan Qo‘qon–Xitoy shartnomasiga ko‘ra, Qo‘qon xoni Koshg‘arda savdogarlardan boj yig‘ish huquqini olgan.

O‘ylab ko‘ring

Qo‘qon xonligida import va eksport qilinadigan tovarlar ro‘yxatini tuzing. Qo‘qon xonligi qaysi davlatlar bilan savdo-sotiq olib borgan?

Davlat hujjatlari, chet ellarga maktublar, kitoblar Samarqand va Qo‘qon qog‘oziga yozilgan.

Tarix saboqlari

Soliq tizimi

Xonlikda soliqlarning uzoq tarixiy davrlar mobaynida shakllangan turlari deyarli o‘zgarishsiz saqlanib qolgan. Davlat g‘aznasiga tushadigan asosiy soliq turlari xiroj, tanobona va zakotdan iborat bo‘lgan.

Xonlik soliqchiligi mahalliy boshqaruv tizimi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Soliqlarning asosiy qismi viloyatlarda to‘planib, davlat xazinasiga yuborilgan. Soliq tizimida faoliyat yuritadigan mansabdorlar sarkor (yoki mirzaboshi), amlokdor, mirzolardan iborat bo‘lib, ularga mahalliy boshqaruvdagi ariq oqsoqoli, mirob, amin va oqsoqollar yordam berishgan.

Har bir viloyatda sarkor amlokdorlar va soliq yig‘uvchi mirzolarning faoliyatini nazorat qilish bilan bir qatorda, soliq yig‘ish jarayonida ham faol ishtirok etgan. Ular har bir ma’muriy birlikda faoliyat yuritib, undirilishi lozim bo‘lgan soliqning xazinaga to‘liq tushishini nazorat qilgan.

Soliq tizimida maxsus umumiy kirim-chiqim daftarlari bo‘lib, ularda soliq va tushum turlari, soliq undirilgan ma’muriy birliklar hamda xazinaga berilgan pullar miqdori alohida qayd qilib borilgan.

Xiroj (yer solig‘i) donli ekinlar va paxta hosili yig‘ishtirib olingandan so‘ng tovar shaklida hosilning 1/3 va 1/5 miqdorida davlat foydasiga undirilgan. 1/10 miqdorida undirilgan soliq esa **ushr** deb atalgan.

Xonlikda **tanobona** solig‘i mevali bog‘lardan va poliz ekinlaridan olingan. Tanobona ham xiroj singari yer solig‘i hisoblansa-da, soliqning ushbu turi pul hisobida undirilgan.

Har bir musulmon mol-mulkining 1/40 (2,5%) miqdorida **zakot** to‘lagan.

Soliq va yig‘imlardan tashqari davlat xazinasiga tushadigan turli to‘lovlar ham mavjud edi.

Asosiy davlat soliqlaridan tashqari turli xizmat ko‘rsatish evaziga undiriladigan yig‘imlar bo‘lgan.

Xulosa

1. Nima uchun Qo‘qon xonligining soliq siyosati mahalliy boshqaruv tizimi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan? Fikringizni asoslang.
2. Soliqlarning yer-suv munosabatlariga qanday aloqasi bor?
3. Mang‘itlar, qo‘ng‘irotlar sulolasi hukmronlik qilgan davlatda qanday soliq tizimi mavjud edi? Ularni solishtiring.

31-§. QO‘QON XONLIGIDA TA’LIM VA MADANIYAT

O‘ylab ko‘ring

1. Ta’limning rivoji uchun qanday sharoit zarur deb o‘ylaysiz? Qo‘qonda shunday sharoit mavjud edimi?

2. Hozirgi kunda sizning ilm olishingiz uchun yetarli sharoit bormi? Javobingizni misollar bilan asoslang.

3. Mamlakat tinchligi, ravnaqi va davlatning mustaqil bo‘lishi uchun ilm-fanning qanday ta’siri bor? Fikringizni misollar bilan asoslang.

XIX asr o‘rtalarida xonlikda Qo‘qon, Marg‘ilon, Andijon, Toshkent, Xo‘jand, O‘sh shahrida jami 350 dan ortiq madrasa faoliyat ko‘rsatgan.

Tarix saboqlari

Ta’lim tizimi

Xonlik ta’lim tizimi an’anaviy ikki bosqich – maktab va madrasadan iborat bo‘lgan. O‘z o‘rnida maktab ta’limi masjidlar qoshidagi quyi maktab hamda faqat shaharlarda, katta qishloqlarda faoliyat yuritgan yuqori maktablarga bo‘lingan. Ikki-besh yil davom etgan quyi maktab 10 nafardan 30 nafargacha o‘quvchini qamrab olgan.

Qiz bolalar maktabi alohida bo‘lib, ularga otinoyilar dars berishgan.

Manbalarda

“Mening suhbatdoshlarim va dugonalarim aqlli qizlar va iste’dodli shoiralar edi. Ellik bir yil davomida men maktabdorlik qildim va yiliga 20 tadan 30 tagacha o‘quvchim bo‘lib, sakkiz yuz to‘qsonta qizning savodini chiqardim, bulardan deyarli chorak qismi she’riyatga qobiliyatli bo‘lib, shoira va o‘z davrining aqlli va dono odamlari edi”.

Dilshodi Barno xotiralaridan

Tarix saboqlari

Tarixchilik sezilarli ravishda o‘sib borganini ko‘ramiz. Minglar hukmronligi davri tarixini tadqiq etgan tarixchi, manbashunos olimlar tomonidan nazm va nasrda 40 ga yaqin tarixiy asarlar yaratilgani ma’lum.

Qo‘qondagi Norbo‘tabiy, Jome, Chalpak, Oliy, Modarixon, Kamol qozi, Dasturxonchi, Miyon Hazrat madrasalari, Toshkentdagi Ko‘kaldosh, Baroqxon, Mo‘yi Muborak, Beklarbegi, Eshonquli dodxoh, Yunusxon, Mahmud dasturxonchi, Normuhammad qushbegi va Abulqosim eshon madrasalari, Xo‘janddagi Muslihiddin madrasasi, Marg‘ilondagi Sayidahmadxo‘ja madrasalari xonlikdagi eng mashhur madrasalardan hisoblangan. Toshkentdagi Ko‘kaldosh va Baroqxon madrasasidan tashqari barchasi xonlik davrida qurilgan.

Madrasada talabalarga Qur’on qiroati ilmi (tajvid), aqida, fiqh, hadis, arab tili grammatikasi, falsafa, mantiq, notiqlik, meros, faroiz, shuningdek, matematika, tabobat, adabiyot kabi fanlar o‘qitilgan. Biroq tabiiy va aniq fanlar saviyasi dunyoning ilg‘or mamlakatlari darajasidan ancha orqada edi.

Maktab va madrasalar vaqf mulklari tomonidan moliyalashtirilgan.

Maktabxonalarda So‘fi Olloyor asari o‘rganib bo‘lingach, Sharq olamida mashhur bo‘lgan, XIII asrda yashab o‘tgan Sa’diy Sheroziyning “Bo‘ston” va “Guliston” asarlari o‘rganilgan.

BMTning Tinchlik Kengashi binosi peshtoqiga “Guliston” asaridan olingan quyidagi misralar bitilgan: “Odam bolalari ibtidoda bir gavhardan bino bo‘lganligi tufayli yaxlit bir vujud kabidirlar. Binobarin, zamon uning bir a’zosiga jarohat yetkazsa, boshqa a’zolari ham o‘z tinchini yo‘qotadi”.

Keyingi bosqichda Hofiz Sheroziyning (1326–1389) “Devon”ini o‘rganish boshlangan. Mazkur asar lirik she’rlar to‘plami bo‘lib, o‘quvchilarning axloqiy tarbiyasida asosiy qo‘llanma sanalgan. Shuningdek, maktabxonalarda arab grammatikasi, Alisher Navoiyning she’riy to‘plamlari hamda husnixat, hisob-kitob (arifmetika) ham o‘qitilgan.

Ijodiy faoliyat

1. Bu davrda Buxoro va Xivada qanday madrasalar faoliyat ko‘rsatayotgan edi? Ularda qaysi fanlardan darslar o‘tilgan? Ularning Qo‘qon xonligidagi ta’lim tizimidan farqi va o‘xshashlik tomonlari nimalardan iborat bo‘lgan?

2. Adabiyot fanidan olgan bilimlaringizga tayanib javob berishga harakat qiling: XIX asrda Qo‘qonda yashab ijod qilgan shoirlarni bilasizmi? Ularning ijodi haqida ma’lumotga egamisiz va qaysi she’rlarini yoddan bilasiz?

3. Amiriy taxallusi bilan ijod qilgan shoirning ismini eslang.

32-§. QO‘QON ADABIY MUHITI

Tarix saboqlari

Umarxon davrida adabiy muhitning shakllanishi



Umarxon Qo‘qon adabiy muhitining shakllanishi va rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan. Qolaversa, o‘zi ham **Amiriy** taxallusi bilan o‘zbek va fors tillarida she’rlar bitgan. Umarxon Qo‘qonda ilm-fan va adabiyotning gullab-yashnashi uchun sharoit yaratadi. Umarxon davrida Qo‘qon, Toshkent, Turkiston, Chimkent, Sayram, Taraz kabi shaharlarda masjid va madrasalar quriladi. Yangi Shahrixon shahriga asos solinadi.

Umarxon Lutfiy, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy, Bedilni o‘ziga ustoz sanab, ularning asarlarini o‘qib, ijod sirlarini o‘rgangan. Ularga ergashib ijod qilgan, g‘azallariga muxammaslar bitgan. Uning atrofida 70 dan ortiq shoir yig‘ilgan. Xon saroyida eng yaxshi shoirlar, rassomlar va xattotlar to‘plangan.

1821-yilda Fazliy Namangoniy Umarxon amriga binoan, 63 shoirning she’rlarini o‘z ichiga olgan “Majmuayi shoiron” to‘plamini tuzadi.

Umarxonning g‘azallar devoni 1882-yilda Istanbulda, 1905-yilda Toshkentda chop etilgan.

Umarxon davrida arab va fors tillaridagi kitoblar o‘zbek tiliga tarjima qilinadi. Noyob kitoblar iste’dodli xattotlar tomonidan ko‘chiriladi, nozik tasvirlar bilan bezatiladi.

Uning adabiyotga bo‘lgan e’tibori, homiyligi tufayli xonlikning turli hududlaridan tashqari, Buxoro, Sharqiy Turkiston, Afg‘oniston tomonlardan ham iste’dodli olim va shoirlar kelib ijod qilishadi.

Umarxon davrida yuzaga kelgan adabiy oqim Farg‘ona vodiysida Muqimiy, Furqat, Oraziy, Tajalliy kabi taniqli pedagoglar, demokrat shoirlarning paydo bo‘lishiga imkon yaratadi.



Hozirda Umarxonning turli davrlarda ko‘chirilgan 26 ta qo‘lyozma devoni mavjud. Bu qo‘lyozmalar Sankt-Peterburg, Toshkent, Samarqand va Buxoro kutubxonalarida saqlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida Umarxonning 17 ta qo‘lyozma devoni mavjud.

Tarix saboqlari

Maxmur va Gulxaniy

Amir Umarxon davridagi yirik shoirlardan biri **Maxmur** (asl ismi Mahmud) XVIII asr oxirida tug‘ilib, 1844-yili vafot etgan. Maxmur fors tili va she’riyatini mukammal bilgan. Bir qancha forsiy asarlar ham yaratgan. Qo‘qondagi Madrasayi Mirda o‘qigan, keyin qo‘shinda sipohlik qilgan. Maxmurning hajviy she’rlar devoni saqlangan bo‘lib, unda 69 asar (3717 misra) jamlangan. U milliy adabiyotda ijtimoiy hajviyani yuksak pog‘onaga ko‘targan.

Hajviy asarlarida xalqqa jabr yetkazgan amaldorlarni keskin tanqid ostiga oladi. Xususan, “Hapalak” she’rida Hapalak qishlog‘idagi xalq hayotining ayanchli holatini aks ettirsa-da, aslida bu she’r butun xonlik hududidagi xalq hayotining manzarasini ifodalar edi:

Xalqini ko‘rsang agar, o‘lasi-yu qoq-u xarob,
Ochlikdin egilib qomati misli kamalak.
Ajirig‘ tomirini o‘g‘urida mayda tuyub,
Qaynatib kunda ichar, otini derlar sumalak.



Gulxaniy

O‘zbek mumtoz adabiyotining tanqidiy yo‘nalishini rivojlantirgan Maxmur merosi keyingi davrdagi qalam ahlining hajviygo‘ylik ijodiga samarali ta’sir ko‘rsatadi.

Shoir qoldirgan adabiy meros ichida “Karimquli Mehtarning sifatlari” deb nomlangan masnaviy alohida o‘rin tutadi. Tarixan hayotda bo‘lgan voqeani badiiy bayon etuvchi bu asarda shoir mohir hajviy-hazil she’r ustasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu davr adabiyotining yana bir yirik namoyandasi **Gulxaniy (Muhammad Sharif)** bo‘lgan. U 1770-yilda hozirgi Tojikistonning Tavildara tumanida tug‘ilgan. Boshlang‘ich ta’limni qishlog‘ida olgan. Muhtojlik oqibatida Namanganga kelib mardikorlik qilgan.

Keyinchalik Qo‘qonda istiqomat qilgan. Bu yerda hammomda go‘lax (o‘t yoquvchi) bo‘lib ishlagan. Shu bois “Gulxaniy” taxallusi bilan ijod qilgan. Gulxaniy o‘zbek va tojik tillarida ijod etgan. Bizgacha bir necha g‘azali, hajviyalari hamda “Zarbulmasal” (“Yapaloqqush” hikoyasi) nasriy asari yetib kelgan. “Zarbulmasal” nafaqat o‘zbek mumtoz adabiyoti, balki butun Sharq adabiyotining ham nodir namunasidir.



Gulxaniy “Zarbulmasal”da xalq maqollari (400 ga yaqin), saj’lar (qofiyali nasr), masal va rivoyatlardan samarali foydalangan. Bu masal va rivoyatlar mohiyat jihatdan bir-biriga bog‘lanib, yagona bir butunlikni tashkil etgan. Asarda Yapaloqqush bilan Boyo‘g‘lining qu-da-anda bo‘lishi sarguzashtlari majoziy, o‘tkir hajviya tarzida tasvirlangan. Gulxaniy qushlarning o‘zaro murakkab munosabatlari asosida o‘z davri ijtimoiy hayotining tanqidiy manzarasini ko‘rsatib bergan.

Uvaysiy



Uvaysiy (taxallusi; ismi Jahon) (1779–1845) – shoira, ma’rifatparvar. Uvaysiy oilada xat-savodini chiqarib, avval xalfa, so‘ngra onasining yonida maktabdorlik qilgan. Akasi Oxunjon hofizdan she’riyat ilmini o‘rgangan, tez orada shoira, otin sifatida tanilgan. U, ayniqsa, aruzni, muammo (she’rda fikrni yashirib ifodalash) san’atini mukammal egallagan. Qo‘qon adabiy muhiti bilan yaqinlashib, mushoiralarda qatnashgan. Saroyda Nodira va boshqa xotin-qizlarga she’riyat ilmidan dars berib, ustozlik qilgan.

Uvaysiy Nodira bilan Konibodom, Xo‘jand, O‘ratepa, Toshkent, Andijon kabi shaharlarga safar qilgan. 1842-yilda Buxoro amiri Nasrullaxon Qo‘qonni egallagach, Marg‘ilonga qaytib, umrining oxirigacha shu yerda yashagan.

Uvaysiy o‘zbek mumtoz she’riyatining barcha janrlarida ijod qilgan. Navoiy, Fuzuliy va boshqalarning asarlariga muxammaslar bog‘lagan.

Uvaysiy asarlari o‘zining latif mazmuni va dilkash badiiyligi bilan xalq ommasi orasida keng yoyiladi. Asarlari hali-hamon hofizlar, xonandalar tomonidan maqom va xalq ohanglari yo‘lida kuylanib kelinmoqda. Uning xattotlar tomonidan ko‘chirilgan 3 nusxa qo‘lyozma devoni O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti va Andijon universiteti kutubxonasida saqlanadi.

Ijodiy faoliyat

Uvaysiy portretida shoiraning qo‘lida anor ushlab turgan holat aks ettirilishining ramziy ma’nosi nimada deb o‘ylasiz?

Umarxon Uvaysiyga atab Marg‘ilonda muhtasham uy qurdirib bergan. Shoiraning avlodlari bu uyda 1941-yilga qadar yashaganlar. Marg‘ilon shahrida joylashgan Jahon Otin Uvaysiy uy-muzeyi 2007-yilda qurilgan. Muzeydagi eng noyob eksponat – bu Uvaysiyning o‘zi foydalangan sandiq.



Tarix saboqlari

Nodira



Nodira – Mohlaroyim (1792–1842) – shoira, ma’rifatparvar va davlat arbobi. “Komila” va “Maknuna” taxalluslari bilan ham she’rlar yozgan. 1807-yilda Umarxonga turmushga chiqadi. 1822-yilda Umarxon vafot etgach, o‘g‘li, 14 yoshli Muhammad Alixon (Madalixon) taxtga o‘tiradi. Lekin davlatni, asosan, Nodiraning o‘zi idora qiladi. U madaniyat va san’atni rivojlantirishga intiladi.

Nodira bir necha kitoblarni ko‘chirtiradi va shoirlarni yangi-yangi asarlar yozishga ilhomlantiradi. Shoira devonlarning chiroyli yozilishi, muqovasining bezatilishini o‘zi shaxsan ko‘zdan kechirib turgan. U yaxshi ishlagan kotiblarga tilla qalam, kumush qalamdon berib, ularni “Zarrin qalam” lik mansabiga ko‘targan. Nodira bozor va rastalar, masjid va madrasalar, karvonsaroylar qurilishiga e’tibor qaratgan. Go‘ristoni kalondagi Madrasayi Chalpak, Taqagarlik rastasidagi Mohlaroyim madrasasini bino ettirgan.

Nodira o‘z ijodida dunyoviylik bilan bir qatorda tasavvufning naqshbandiya yo‘nalishiga asoslangan bir butunlik orqali insonning jamiyat va tabiatga munosabatini ham, ilohiy muhabbat yo‘lidagi ruhiy dunyosini ham juda go‘zal va jonli misralarda ifodalab bergan.

Buxoro amiri Nasrulla 1842-yilda Qo‘qonga bostirib kirib, Madalixonni, ukasi Sulton Mahmudxonni, 14 yashar o‘g‘li Muhammad Aminxonni va Nodirani fojiali ravishda qatl ettirgan.

Manbalarda



“Asar yozishdan maqsadim Nodiraning oqila, fahmli, ilm va so‘zning qadriga yetadigan donishmand ayol ekanligini ko‘rsatishdir…

Umarxon vafotidan so‘ng bu iffat sadafining injusi kunlarni hasrat-u firoq bilan shu tariqa o‘tishini noshukurlik deb bildi. U gulistondek Chahorchaman bog‘iga borib, Farg‘ona, Toshkent, Xo‘jand, Andijon va boshqa shaharlardan fozillar, olimlar, xattotlar, naqqoshlarni o‘z xizmatiga chaqirtirib keldi”.

Nodiraning zamondoshi qozi Abdunabi Xotifning tamomlanmay qolgan voqeaband dostonidan

Mustaqil faoliyat

1. Qo‘qon xonligidagi adabiy muhit haqida ma’lumot bering.
2. Maxmur va Gulxaniy ijodi avvalgi shoirlarning ijodidan nimasi bilan farq qiladi?
3. Gulxaniy “Zarbulmasal” asarida qanday muammolarni ko‘targan?

Loyiha ishi

Dilshodi Barno haqida ma’lumot to‘plang. Uning ijodida mamlakatimiz tarixini o‘rganishda foydalaniladigan jihatlarini aniqlang.

Manbalarda

Quyi maktablarda o‘qish 2–5 yil, yuqori maktablarda esa 5–7 yil davom etgan. Kimning maktabxonada necha yil o‘qishi o‘qituvchining mahoratiga, o‘quvchining zehniga va oilasidagi muhitga bog‘liq edi.

Maktabxonalarda dars mashg‘ulotlari quyosh chiqishidan to kechgacha davom etgan.

Juma va bayram kunlari dars mashg‘ulotlari bo‘lmagan. Yoz fasli va ramazon (ro‘za) oyida o‘quvchilarga ta’til berilgan.

Dars mashg‘ulotlari arab alifbosini o‘rganishdan boshlangan. Alifbe darslarida dastlab harflarning yozilishi mashq qilingan. So‘ng harflarning turli o‘rinlardagi shakllari o‘rganilgan. Keyin esa zer-u zabar, ya’ni harflarning osti va ustiga qo‘yiladigan farqlovchi belgilar va ularning qo‘llanishi, shuningdek, ular yordamida bo‘g‘in tuzish qoidalari o‘rgatilgan. Maktabdor (o‘qituvchi) harflarni yog‘ochga yoki qattiq lavhalarga yozib devorga osib qo‘ygan. Unga qarab harflari yod olingan. Harflarni bir-biriga qo‘shib yozish mashq qilingan. Duoyi salomni yoza olgan o‘quvchi “xati chiqqan” deb hisoblangan.

Alifbe o‘rganilib bo‘lingach, “Haftiyak” (muqaddas Qur’oni karimning 1/7 qismi ko‘chirib yozilgan kitob)ni o‘rganishga kirishilgan. Keyin “Tavjid” (Qur’oni karimni qiroat bilan o‘qish san’ati to‘g‘risidagi ilm)ga o‘tilgan. Undan so‘ng esa bevosita Qur’oni karimning o‘zini o‘qitish boshlangan. Shundan so‘ng “Farzi ayn”, ya’ni shariatga ko‘ra barcha musulmonlarga buyurilgan va bajarilishi shart bo‘lgan amallar haqida tushunchalar berilgan. O‘rganilib bo‘lingach, islom dinining asosiy qoidalari bayon etilgan “Chor kitob” (“To‘rt kitob”)ni o‘rganishga kirishilgan. Undan keyin So‘fi Olloyorning “Sabot ul-ojizin” (“Ojizlar saboti”) kitobi o‘qitilgan. Mazkur asarda islom dinining asosiy qoidalaridan tashqari, go‘zal insoniy fazilatlar, axloqiy tarbiyaga oid hikmatlar, ibratli hikoyalar, she’r va dostonlar o‘rin olgan.

“Sabot ul-ojizin”dan song shu asarning fors tilida yozilgan va “Maslak ul-muttaqin” (“Taqvodorlar maslagi”) deb atalgan asl nusxasi o‘rganilgan. “Sabot ul-ojizin”, “Maslak ul-muttaqin”ning turkiy tilda qisqartirib yozilgan nusxasi ming baytdan tuzilgan.

33-§. QO‘QON XONLIGINING TASHQI SIYOSATI

O‘ylab ko‘ring

1. Minglarning hokimiyat tepasiga kelishidagi shart-sharoitlar qanday bo‘lgan? Buxoro va Qo‘qon – Xiva munosabatlari qanday kechgan?
2. Eron bilan munosabatlar qanday edi?
3. XVII–XIX asrlarda Rossiya tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlarini aniqlang. Yevropa davlatlarining Markaziy Osiyo davlatlariga bo‘lgan qiziqishlarining asl sabablari nimada edi? Fikringizni Jahon tarixi darsligidan olgan bilimlaringiz asosida to‘ldiring.

Tarix saboqlari

Sharqiy Turkiston muammosi

Abdukarimxon 1745-yili Jung‘or xonligi tomonidan yuborilgan elchilarni qabul qiladi. Shu yilning o‘zida jung‘orlarning Turkiston va Toshkent hududiga bostirib kelishi Qo‘qonga ham xavfni yuzaga keltiradi. Ularga qarshi Abdukarimxon o‘z ukasi Bobobek boshchiligida qo‘shin yuboradi. Lekin qo‘shin mag‘lubiyatga uchraydi.

Norbo‘taxon hukmronligi davrida Qo‘qon xonligining tashqi siyosatiga yana bir omil ta’sir ko‘rsatadi. Bu Xitoy bilan Sharqiy Turkiston xo‘jalari masalasi edi. Norbo‘taxonning faol tashqi siyosati tufayli Chin hukumatiga yuborilgan diplomatik missiyalar ijobiy natijalarga erishadi. U Sharqiy Turkistonda Qo‘qon savdosi va qo‘qonlik savdogarlarning faoliyatini erkinlashtirish uchun 1782–1783-yillarda Abdulqosim, 1792–1793-yillarda Mirza Muhammad Rahim, 1796–1797-yillarda esa Bobojon boshchiligida elchilar guruhini Pekinga jo‘natadi. Bu elchiliklar Sharqiy Turkistondagi qo‘qonlik savdogarlarni nazorat qiladigan va Qo‘qonning rasmiy vakili – xudoydod mansabini joriy etish masalasini hal etadi. Bu mansab egasi nafaqat Qo‘qon savdogarlari faoliyati va ularning haq-huquqlarini, balki Sharqiy Turkistonda muomalada bo‘lgan Qo‘qon tanga-pullarini ham nazorat qilardi. Bundan tashqari, Koshg‘ar xo‘jalarini nazorat qilish evaziga Xitoy Qo‘qonga yillik mablag‘ to‘lab borishi belgilanadi.

O‘ylab ko‘ring

1. Xitoy – Qo‘qon munosabatlari qanday yo‘lga qo‘yildi?
2. Iqtisod va tashqi siyosat o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor?

Tarix saboqlari

Qo‘qon – Xitoy munosabatlari

1757–1759-yillarda Xitoy Sharqiy Turkistonda o‘z hukmronligini o‘rnatadi. 1760-yildan boshlab Erdonaxon faol tashqi siyosat yurita boshlaydi. Xitoyning xonlikning sharqiy hududida joylashgan Sharqiy Turkistonni bosib olishi Qo‘qonga ham xavf tug‘dirgan. Buning oldini olish choralarini ko‘rish juda muhim edi. Shuning uchun afg‘on hukmdori Ahmadshoh Durroniyga maktub yuboradi va uni harbiy ittifoqqa da’vat etadi.

Shunday sharoitda ham xonlik Xitoy bilan savdo munosabatlarini davom ettiradi. Oxir-oqibat Sharqiy Turkiston hududida Qo‘qon savdogarlariga imtiyozlar berilishiga erishadi. Koshg‘arda Qo‘qon xudoydodligi (konsulligi) ham ochiladi.

Bu faktlar minglar orasida Erdonaxon faol tashqi siyosat yuritganini tasdiqlaydi. Muhammad Alixon Sharqiy Turkiston hududida Qo‘qon savdogarlariga imtiyozlar berilishiga erishadi. 1831-yili tuzilgan Qo‘qon – Pekin shartnomasi xonlik uchun Koshg‘ardagi xalqaro savdoni to‘liq nazorat qilish imkoniyatini beradi. Mazkur hujjat Xitoy hukumati o‘zining zaifligini tan olganligini, tinchlik evaziga Qo‘qonning talablariga yon berishga rozi bo‘lganini ko‘rsatadi.

Ayni paytda Qo‘qon xonligi Koshg‘arning sobiq hukmdori Jahongirxo‘ja avlodlarini Sharqiy Turkistonga o‘tkazmaslik majburiyatini oladi.



Manbalarda

Minglarning Xitoy hukmdori Changlingga (1736–1795) qo‘ygan talabi

1. Xitoyga qarshi harakatlari uchun ayblangan koshg‘arliklarni afv etish.
2. Xitoyning musulmonlardan musodara qilgan yerlar, uylar va boshqa narsalarni qaytarib berishi.
3. Elchilarning hamrohlari, savdogarlarning Koshg‘arga kirganda to‘lanadigan boj yig‘imini Qo‘qon hukumati olishi huquqiga ega bo‘lishi.
4. Qo‘qonliklar Koshg‘arga olib kirgan tovarlari uchun bojxona to‘lovini to‘lamasligi.
5. Xorijliklar tomonidan Oltishaharga olib kirilgan savdo mollari uchun yig‘imlarning barchasi Qo‘qonga tegishli bo‘lishi.
6. Ushbu yig‘imlarni undirish uchun Qo‘qon hukmdorining vakili bo‘lishi.
7. Oltishaharga kelgan barcha xorijliklar ma’muriy va politsiya masalasida Qo‘qon hukmdorining vakiliga bo‘ysunishi.

Tarix saboqlari

Xonlikning Rossiya imperiyasi bilan elchilik munosabatlari esa 1810-yildan boshlanadi. Umarxon hamda Muhammad Alixon hukmronligi yillarida Rossiya bilan savdo aloqalari yanada faollashadi.

1819–1820-yillardan boshlab minglar Usmonli sultonligi bilan elchilik munosabatlarini o‘rnatishga kirishadi. Umarxon tomonidan Xoja Mir Qurbon elchi sifatida Istanbulga yuborilgani ma’lum. Muhammad Alixon ham 1833, 1837-yillarda Usmonlilar poytaxtiga ikki marta elchilik yuboradi. Qizig‘i, ular olib borgan maktublarda siyosiy vaziyat haqida umuman so‘z yuritilmaydi.

Maktublarda barcha masala muxtor elchi tomonidan og‘zaki aytilishi qayd etilgan xolos. Shu yo‘l bilan maktublarning dushmanlar qo‘liga tushishining oldi olingan edi.

Elchilik tarkibi usmonlilar hukumatidan harbiy qo‘shinning zamonga mos holda jangovar tayyorgarligini oshirish masalasida yordam so‘ragan. Xonlikning Hindiston bilan aloqalari XIX asrning birinchi yarmidan boshlanib, dastlabki elchilik 1837-yilda yuboriladi. Qo‘qon – Hindiston munosabatlari Rossiya imperiyasining bosqini arafasida jadallashadi. Bu davrda xonlik o‘z harbiy salohiyatini ko‘tarish maqsadida Hindiston orqali Buyuk Britaniya hukumati bilan ham aloqa o‘rnatadi.

Xoja Mir Qurbon – minglar davrining nufuzli davlat arbobi, u Muhammad Alixon davrida ham Istanbul va Sankt-Peterburgga elchi qilib yuborilgan.

Qo‘qonda ingliz harbiy usuli asosida hindlarning Qo‘qon askarlariga harbiy mashg‘ulotlarni olib borishiga erishish elchilikning asosiy maqsadi edi.

Ming hukmdorlari tomonidan Istanbul, Kashmirga yuborilgan maktublardan ma’lum bo‘lishicha, 1820-yillardayoq Rossiya imperiyasi tomonidan tahdid yuzaga kelishi mumkinligini sezgan xonlik harbiy salohiyatni kuchaytirishga intiladi. Ruslarning Farg‘ona vodiysini batamom bosib olishga qaratilgan rejasi ham bejiz emas edi. Rossiya hukumati Qo‘qon hukmdorlarining Usmonlilar sultonligi va Buyuk Britaniya bilan aynan harbiy-siyosiy masalalar bo‘yicha hamkorlikka intilganlaridan yaxshi xabardor bo‘lishgan. Shuning uchun ham, 1850-yillardan boshlab Qo‘qon hukumati Usmonlilar sultonligi va London bilan elchilik aloqalarini sir tutishga harakat qilgan. Biroq barcha sa’y-harakatlar oxir-oqibat natija keltirmaydi.

Qo‘qon – Buxoro munosabatlari

Buxoro amirligi doimo Qo‘qon xonligi hududi shayboniylar va ashtarxoniylar davrida Buxoro xonligi tarkibida bo‘lganligiga urg‘u bergan. Bu esa ikki davlat munosabatlarida dushmanlik kayfiyatining ustunlik qilishiga sabab bo‘ladi.

Ikkinchidan, Buxoro amirligi o‘zini uchta o‘zbek davlati orasida yetakchi deb hisoblar va bu maqomning qolgan ikki o‘zbek davlati tomonidan e’tirof etilishini istar edi.

Uchinchidan, Qo‘qon xonligi o‘z hududini Buxoro amirligi ko‘zlagan yoki uning hokimiyatini tan olgan viloyatlar hisobiga ham kengaytirib boradi. O‘zaro qurolli to‘qnashuvlarda goh Buxoro amirligining, goh Qo‘qon xonligining qo‘li baland kelib turadi.

Umarxon davrida Buxoro amiri Haydar hatto butun musulmon olamining xalifasi deb e’tirof etilgan Usmonli davlati sultoni Mahmud II ga Xiva va Qo‘qon xonliklari ustidan arz qilib xat ham jo‘natadi. Xatda Movarounnahr, Qo‘qon, Marv, Balx, Ko‘lob va Badaxshon avvaldan Buxoroga bo‘ysunib kelganligi, Qo‘qon va Xiva xonlari esa Buxoro amirligining oliy hokimiyatini tan olmayotganligidan shikoyat qiladi. Xiva va Qo‘qon munosabatlarida bir-birini o‘zaro tushunib yashash, imkoniyat bo‘lganida o‘zaro yordamga intilish yetakchi bo‘lgan.

Toshkentning mustaqil beklik maqomi esa 1810-yilda tugatiladi va butunlay Qo‘qon xonligiga qo‘shib olinadi.

Mustaqil faoliyat

1. Qo‘qon xonligining Usmonli sultonligi va Hindiston bilan elchilik munosabatlaridan ko‘zlagan maqsadi nima edi?
2. Minglarning Xitoy hukmdori Changlingga qo‘ygan talabini diqqat bilan o‘qib chiqing. Qo‘qon xonligining mavqeyini tasvirlang.
3. Erdonaxonning Durroniyga taklifi mazmunidan kelib chiqib Qo‘qonning siyosiy mavqeyiga baho bering.
4. Mazkur davrda Qo‘qon – Buxoro – Xiva munosabatlari qanday edi?

Shodmon Vohidovning “Qo‘qon xonligi tarixi (xonlik tarixi – manbalarda)” asari

34-§. O‘ZBEK DAVLATLARINING HARBIY SALOHIYATI

O‘ylab ko‘ring

1. Nima deb o‘ylaysiz, nega davlatga o‘z mustaqilligini saqlab turishi uchun harbiy kuch zarur?
2. XVI–XIX asrlarda Yevropa davlatlarida qanday qurollardan foydalanilgan?

Tarix saboqlari

Qo‘shinning tuzilishi



Jang nog‘orasi

Katta davlatning hukmdoriga aylangan shayboniylar qo‘shini otliq va piyodalardan tashkil topgan. Uning asosi otliq askarlardan iborat bo‘lgan. Qurol-yarog‘ asosan o‘q-yoy, uzun nayza, qilich, gurzi, uzun dastali jang boltasi (tabarzin), ilgaklardan tarkib topgan. Shayboniylardan Ubaydullaxon va Abdullaxon II davrida jang qurollari birmuncha takomillashadi. Abdullaxon II davrida o‘tsochar pilta miltiqlar hamda kichik to‘plardan foydalanilgan.

XVIII–XIX asrlarda xonliklar qo‘shinlari asosan nomuntazam (qilquyruq, qora qozon, qora chechak, qoracherik), shuningdek, tajribali otliq jangchilar – navkarlardan va urush holatida to‘planadigan ko‘ngilli lashkarlardan tarkib topgan. Navkarlar odatda otda jang qilishgan, lekin zarur bo‘lsa, piyoda jangchiga ham aylanishgan. Xon qo‘shinlari o‘nlik tizimi shaklida tashkil qilingan. Safdagi qo‘shinlardan tashqari, xonlarning shaxsiy qo‘riqchilari va saroy soqchilari – otliq qism mavjud bo‘lgan. Tig‘li qurollarning deyarli barcha turlaridan foydalanilgan. XVI asrdan esa o‘qotar qurollardan foydalanila boshlangan.

XIX asrning boshlarida Buxoro amirligida harbiy kuchlar ikki qismga: muntazam – “navkariya” va muntazam bo‘lmagan – “qora cherik”ka bo‘lingan. 1837-yilda Amir Nasrulla o‘tkazgan harbiy islohotlar natijasida muntazam qo‘shin tuzilgan. U piyodalar (sarbozlar), navkar (otliq askar) va to‘pchilardan iborat edi.

Piyodalar soni to‘pchilardan 3,5 barobar ko‘p bo‘lgan. Bu davrda sarbozlar va to‘pchilar kiyimi qizil, qora va sariq matodan tikilgan kamzul, oq shim, qorako‘l telpak va bir juft etikdan iborat bo‘lgan. Muntazam qo‘shinni kiyim va qurol-aslaha bilan ta’minlash davlatning zimmasida bo‘lgan.



Qamchi

Buxoro amirligining qo‘shini, XIX asr





Pichoq qini bilan. Damashq po‘lati, fil suyagi, zarhallangan. Xiva, XIX asr. Usta Xabir





Qo‘qon va Xiva xonligining qo‘shini, XIX asr





Qo‘shinning harbiy holati

XIX asrning boshlarida Xiva xoni Muhammad Rahimxon I tomonidan 2000 ta harbiydan tarkib topgan muntazam qo‘shin tuziladi. Xon navkarlari deb ataluvchi bu qo‘shin tinchlik davrida xon va uning oilasini qo‘riqlagan. Xiva muntazam qo‘shinining maxsus kiyimlari bo‘lmagan.

Qo‘qon xonligida ham qo‘shinlar, asosan, muntazam (askariya) va muntazam bo‘lmagan qismdan iborat bo‘lgan. Muntazam qo‘shin sipoh (otliq), to‘pchilar va sarboz (piyoda)lardan iborat edi. Harbiy libos qizil va moviy chopon, sariq shim va oq salladan iborat bo‘lgan.

Xonliklardagi nomdor jangchilarning himoya aslahasi turli xildagi halqa-parchinli sovutlar, yumaloq konussimon dubulg‘alar, tirsakbandlar, oyoqlarni himoya qiluvchi vositalar va qalqonlardan tashkil topgan. Halqa-parchinli sovutlarning keng tarqalgan turi baktarlar, ko‘krakpo‘sh va yelkapo‘sh bo‘lib, ular parchindan 3–9 qator terib tayyorlangan. Libosning yengi va pochasi sovutdan bo‘lgan. Og‘ir baktarlar parchin bilan deyarli to‘liq qoplangan. Temir sovutlar tez qizib ketganligi bois askarlar jang liboslari ustidan chopon kiyishgan.

Jang liboslarining eng ko‘p tarqalgan turlari parchin qoplangan zirhlar, mashhur kuyaklar bo‘lib, unda parchinlar ichki tomondan shunday qoplanganki, tashqaridan faqatgina parchin qatorlari ko‘ringan.

XVI–XVIII asrlar himoya aslahalarining turli-tumanligi bilan ajralib turadi. Ular mahalliy an’analar va Old Osiyo hamda O‘rta Sharqdan keltirilgan yangi qurollarning uyg‘unlashuvidan iborat bo‘lgan. Shuning uchun o‘rta osiyolik qurolsoz ustalar yaratgan himoya qurol-aslahalari qo‘shni davlatlarning jang aslahalariga juda o‘xshab ketgan.

Jangovar otlar XIII asrdan so‘ng zirhli to‘shama (jul)lar bilan himoyalana boshlangan. Ular ikki yonlik, sag‘rinpo‘sh, ko‘krakpo‘sh, bo‘yinbog‘ va peshonabog‘dan iborat bo‘lgan. Ular tizimcha bilan o‘rilgan uzun charm tasmalardan jamlangan va paxta tiqib qavilgan.

XVI–XIX asrlarda qurol-yarog‘ faqatgina muayyan joyning o‘zida tayyorlanmasdan, xonliklarga Eron, Rossiya, Jung‘oriya va G‘arbiy Yevropa davlatlaridan keltirilgan. Xonliklar qurolsoz ustalari tomonidan yasalgan qurol-aslahalar boshqa davlatlarga ham sotilgan.



To‘pponcha. O‘rta Osiyo. XIX asr. Mis, nikel, yog‘och



Tepkili to‘pponcha. XIX asr. Metall, yog‘och, sadaf



Tepkili to‘pponcha. O‘rta Osiyo. 1857-yil. Metall, yog‘och, zarhallangan



Moslashtirilgan miltiq. 1857-yil. Kumush, charm, yog‘och

XVI asrdan mis yoki metall stvolli, dastlab piltali, so‘ng burama kertikli (soyli) miltiqlardan muntazam foydalanilgan. Biroq bunday miltiqlar juda oz bo‘lgan. Turg‘un holatda lafet (to‘p)lardan bir yo‘nalish bo‘ylab yadro toshlar otadigan artilleriya bo‘lgan.

O‘ratepada to‘p va yadro toshlar, miltiq va tig‘li qurollar tayyorlaydigan katta ustaxona (zavod) bo‘lgan.

Barcha xonliklarda oliy bosh qo‘mondon xonlar hisoblangan. Harbiy kuchlarga bosh qo‘mondonlik vazifasini Buxoro amirligida **vaziri harb** (harbiy vazir), Xivada **yasovulboshi,** Qo‘qonda **mingboshi** amalga oshirgan.

Harbiy harakatlar vaqtida harbiy kuchlar quyidagicha taqsimlangan: oldinda avangard, uning ortidan aryergard borgan. Ularni chap va o‘ng qanot, markaz va pistirmadan tarkib topgan qo‘shinlar yakunlagan.

Qo‘shinlar jangga bayroqlar va tug‘lar bilan kirgan. Qo‘shinlarda musiqachilar – karnaychi, surnaychi, nog‘orachi, naychi, do‘lchi va boshqalar xizmat qilgan. Sardorlar qo‘shinni oziq-ovqat bilan ta’minlaganlar. Qo‘shinlar bilan birga hunarmandlar, savdogarlar, yo‘llarni tozalab ko‘prik quruvchilar ham borgan.

Xonliklarda muntazam harbiy ko‘rik o‘tkazilib turilgan.

Manbalarda

Bu zavodlarning tuzilishi ancha sodda, hatto yomon deb aytish mumkin. Lekin shunga qaramay mis to‘plar shu qadar yaxshiki, o‘zining pardozi bilan artilleriya ishidan ozmoz xabardor bo‘lgan har bir yevropalikni lol qoldiradi.

M. Bekchurin,
XIX asrda yashagan tarjimon-tilshunos olim



To‘qmoq uchun ilgilar

Mustaqil faoliyat

1. Xonliklarning harbiy salohiyatiga baho bering. Ularning bu salohiyati bilan yirik davlatlarning bosqiniga qarshi turish mumkinmidi?

2. Amir Temur davri va xonliklar davrining harbiy salohiyatini solishtiring. Ularning o‘xshashligi va o‘ziga xosligini aniqlang.

3. Temuriylar davridan beri harbiy sohaning qaysi yo‘nalishlari rivojlangan?



35-§. TURKISTONNING UCH XONLIKKA BO‘LINIB KETISHI VA UNING OQIBATLARI

O‘ylab ko‘ring

1. Turon, Turkiston va Movarounnahr atamalariga izoh bering.
2. Jahon tarixi darsligidan foydalanib XVI asr Yevropasini XVI asr O‘rta Osiyosi bilan taqqoslang.
3. Buyuk Britaniyada sanoat to‘ntarilishi qachon yuz bergan? Buning natijasi Britaniyaning iqtisodiy ahvoliga qanday ta’sir ko‘rsatgan?

Tarix saboqlari

Turkistonning bo‘linib ketishi

Temuriylar davridagi yagona saltanat XVI asr boshida dastlab ikki, XVIII asr boshida esa (1709-yil) uchta o‘zbek xonligiga bo‘linib ketadi. XV asr oxirlarida Yevropada markazlashgan kuchli davlatlar (Fransiya, Angliya va boshqalar) qaror topadi.

Buxoro amirligida o‘zbeklarning mang‘it, Xiva xonligida qo‘ng‘irot va Qo‘qon xonligida esa ming urug‘i vakillari hukmronlik qiladilar. Ayni paytda bu sulola hukmdorlari orasida o‘zaro nizolar va urushlar davom etib turadi. Ular o‘zaro g‘animlarga aylanadilar.

Buxoro amiri Farg‘ona vodiysining Buxoro xonligi tarkibidan ajralib chiqqanligi va Qo‘qon xonligi tuzilganini tan olmas edi. Bu esa urushlarga, hudud talashishlarga sabab bo‘ladi.

Ijodiy faoliyat

1. Bir o‘ylab ko‘ring-chi, Turonning xonliklarga bo‘linib ketishi, o‘zaro urushlar mamlakatda xalqning kayfiyatiga qanday ta’sir ko‘rsatgan?
2. Yuqoridagi jarayonlarning ta’lim muassasalarining faoliyatiga qanday ta’siri bo‘lgan? Aniq va tabiiy fanlar sohasida ixtirolarning to‘xtab qolishiga nimalar sabab bo‘lgan?

Tarix saboqlari

O‘zbek xonliklarining jahon taraqqiyotidan uzilib qolishi

XVII–XIX asrlar G‘arbiy Yevropa tarixida yuksalish davri bo‘ldi. Xususan, XVIII asrda Buyuk Britaniyada sanoat to‘ntarishi yuz berdi. Bu – ishlab chiqarishda texnikaning (mashina) keng qo‘llanilishi boshlandi degani edi. Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyot (ishlab chiqarish) qaror topdi. Mashinalashgan ishlab chiqarish natijasida qo‘l mehnati siqib chiqarila boshlandi. Ishlab chiqarishda dastgoh (stanok)larning qo‘llanishi yirik ixtiro bo‘ldi. 1825-yilda dunyoda ilk temiryo‘l qurildi.

Temiryo‘l qurilishining boshlanishi, o‘z navbatida, cho‘yan, temir va po‘latga bo‘lgan ehtiyojni oshirib yubordi. Sanoatning yangi tarmog‘i – parovozsozlik paydo bo‘ldi. Bu esa qudratli savdo va harbiy-dengiz floti tuzishga imkon berdi. XIX asr insoniyat tarixiga bug‘ mashinalari asri bo‘lib kirdi.

XIX asrning 40-yillariga kelib qishloq xo‘jaligida ham mashinalar va kimyoviy o‘g‘itlardan foydalanish boshlandi. Temiryo‘llar va yirik sanoat korxonalari qurilishi katta mablag‘ talab etardi. Bu esa tijorat banklarining qudratini yanada orttirdi. Ular endi xalqaro miqyosda ham faoliyat ko‘rsata boshladilar. Jahon tarixida birinchi marta mamlakat iqtisodiyotida yetakchilik qishloq xo‘jaligidan sanoatga o‘tdi.

Ijodiy faoliyat

1. Bu davrda uchta xonlikda ahvol qanday edi?
2. Ishlab chiqarish qurollarining rivojlanishi nimaga ta’sir etadi?
3. Uchta xonlikda sanoatning qaysi sohalarini rivojlantirgan bo‘lardingiz? Fikringizni asoslang.
4. Bugungi kunda sanoatning qaysi sohasini rivojlantirish kerak deb hisoblaysiz?

Tarix saboqlari

Turkiston xonliklari esa ana shunday jarayonlardan chetda qoldi. Nima uchun shunday bo‘ldi?

Birinchidan, Osiyoda, shu jumladan, Turkistonda ham an’anaviylikka asoslangan tartib-qoidalar hukm suravergan. Ya’ni mulkchilik, ishlab chiqarish va taqsimot davlat tomonidan qat’iy belgilab qo‘yilar edi.

Bu – o‘zgarmas, turg‘un va islohotlarga toqatsiz jamiyat edi. Osiyoda, jumladan, Turkistonda ham yer davlat mulki bo‘lib qolavergan.

Yevropada esa yerga nisbatan xususiy mulkchilik qaror topgan edi. G‘arbiy Yevropada yer-mulk otadan katta farzandga meros qolgan bo‘lsa, Osiyoda ota bir parcha yer-mulkini ham merosxo‘rlarga teng bo‘lib bergan. Chunki jamiyatda qaror topgan axloq me’yorlari mayda va jamoat mulkchiligini himoya qilgan. Davlat yerini ijaraga olib mehnat qilayotgan dehqonni hech

qachon yerning unumdorligini oshirish masalasi tashvishlantirmagan. Bu qoida ishlab chiqarishning yiriklashuviga, daromadning yagona qo‘lda to‘planishiga imkon bermaydi.

XIX asrning boshlarida Osiyoning iqtisodiy rivojlanishda tobora Yevropadan ortda qolib borishi kuchayadi. Masalan, Yevropa Osiyodan aholi jon boshiga daromad bo‘yicha 2 barobar o‘zib ketadi.

Yerga xususiy mulkning to‘la qaror topmaganligi mulkchilikning boshqa sohalariga ham ta’sir o‘tkazadi. Osiyoda hunarmandchilik fabrika ishlab chiqarishi darajasiga ko‘tarila olmaydi. Aksincha, u, asosan, erkin oilaviy sharoitda rivojlanadi. Natijada Yevropadagidek mashina kuchidan foydalaniladigan sanoat ishlab chiqarishga ehtiyoj tug‘ilmaydi. Iqlimning noqulay o‘zgarishi, haroratning pasayishi, tez-tez qurg‘oqchilikning ro‘y berishi ham iqtisodiyotga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayni paytda o‘zaro urushlar, ko‘chmanchilar hujumi ham dehqonchilik maydonlarining uzoq vaqt qarovsiz qolib ketishiga sabab bo‘ladi. Bu holat harbiy xarajatlarning ko‘payishiga olib keladi.

Bundan tashqari, Osiyoda ishlab chiqarishda texnikaning qo‘llanilmaganligi xo‘jalikning intensiv rivojlanishiga to‘siq bo‘lib qoladi. Natijada ekstensiv rivojlanish usulining yetakchiligi qaror topadi.

Yevropada kuchli mulkiy tabaqalanish o‘zaro begonalashishni, shaxsiy manfaatni ustun qo‘yishini, yashash uchun shafqatsiz kurash sharoitiga moslashishni vujudga keltirgan bir sharoitda an’anaviylik Osiyoda shaxs tashabbuskorligini rag‘batlantirmaydi. Bu omillar Osiyoda O‘rta asrlar tartiblarining uzoq saqlanib qolishiga sabab bo‘ladi.

Ikkinchidan, bo‘linish natijasida Turkiston mintaqasida yagona ichki bozor shakllanmaydi.

Uchinchidan, xonliklar o‘rtasidagi (asosan Buxoro – Xiva, Buxoro – Qo‘qon) o‘zaro urushlar, xonliklar ichidagi o‘zaro nizolar iqtisodni tang ahvolga keltirib qo‘yadi.

To‘rtinchidan, XVI asrda dengiz savdo yo‘llarining ochilishi Buyuk ipak yo‘lini ahamiyatsiz qilib qo‘yadi. Shunday sharoitda ham hukmdorlar o‘zaro ichki iqtisodiy va savdo birligini shakllantirishga intilmaydilar. Natijada Turkiston xalqlari o‘rtasida yagona xalq, yagona vatan tushunchasi shakllanmaydi.

Beshinchidan, Turkistonda vatan istiqboli uchun qayg‘uradigan, xalqni yagona g‘oya va ezgu maqsad yo‘lida birlashtirishga qodir, qadim Turon jangovarlik ruhini namoyish qila oladigan yo‘lboshchi chiqmaydi. Oqibatda bu holat XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonning Rossiya imperiyasining mustamlakasiga aylanishiga zamin yaratadi.



Mustaqil faoliyat

1. Turkistonning uchta mustaqil davlatga bo‘linishi mamlakatning iqtisodiy rivojiga ta’sir ko‘rsatganmi? Fikringizni asoslang.
2. Turkistonning bo‘linishiga asosiy sabablar nimalardan iborat edi? Bunday holatning oldini olish mumkin edimi?
3. Dengiz yo‘llarining ochilishi, Rossiyaning dengizga chiqishi xonliklar iqtisodiga qanday ta’sir ko‘rsatgan?
4. Ilm-fan va mamlakat taraqqiyoti o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor?
5. Siz o‘z bilimingizni rivojlantirish uchun qaysi omillardan foydalanasiz?
6. Bugungi kunda geosiyosiy vaziyatga qanday baho berasiz? Agar bilimlar muntazam rivojlantirilmasa mamlakat iqtisodiyoti, mustaqilligi, suverenitetiga salbiy ta’sir ko‘rsatadimi?

36-§. O‘ZBEK DAVLATLARI TARIXI BO‘YICHA MANBALAR

O‘ylab ko‘ring

“Tarix – faoliyatimiz xazinasi, o‘tmish guvohi, bugungi kun uchun ibrat va o‘git, kelajak uchun esa ogohlantirishdir” iborasi mazmunini izohlang.

Tarix saboqlari

Arxiv hujjatlari

Tarix uchun ma’lumotlar birinchi navbatda tarixiy hujjatlarni o‘rganish natijasida to‘planadi. Bunday hujjatlar saqlanadigan joy arxiv deyiladi. Olimlar arxiv hujjatlarini o‘rganadilar, sharhlaydilar va shu orqali tarixni tiklaydilar.

O‘zbekiston davlat arxivida uch o‘zbek davlati tarixiga oid hujjatlar ham saqlanib kelinmoqda.

Arxiv hujjatlari davlat tuzumi, soliq va majburiyatlar, pul muomalasi, davlatning ma’muriy-hududiy bo‘linishi, aholining xo‘jalik mashg‘uloti, savdo-sotiqning ahvoli va albatta, davlatning tashqi siyosati haqida qimmatli ma’lumotlar beradi.



Xiva xonligi bo‘yicha mahalliy tarixchilarning asarlari

Tarixchi olim Hasanbek Rumluning “Eng go‘zal tarix” asari XVI asrning birinchi yarmidagi Xiva tarixiga bag‘ishlangan.

Xiva xoni, tarixchi olim Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarayi turk” asari ayniqsa katta ahamiyatga egadir. Asar turkiy qabilalar shajarasi haqida qimmatli ma’lumotlar beradi.

Munis va Ogahiylarning tarixiy asarlari ham xonlik tarixini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Munisning “Firdavs ul-iqbol” deb ataluvchi tarixiy asari 1806-yilda Eltuzarxonning topshirig‘i bilan yozilgan. Asarda Xorazmning 250 yillik o‘tmishi yoritilgan.

Ogahiydan qolgan “Shohidi iqbol” asari esa 1872-yilgacha bo‘lgan tarixni aks ettiradi.

Yusufbek Bayoniy Xiva xonligining 1872–1911-yillardagi tarixini 1912-yilda Xiva xoni Asfandiyorxonning topshirig‘i bilan yaratgan.

O‘zbek olimlarining asarlari

O‘zbek olimlari ham Xiva xonligi tarixini o‘rganish ishiga katta hissa qo‘shganlar. Ular orasida akademik I. Mo‘minov boshchiligida yaratilgan “Xorazmning sug‘orilish tarixi” (Qadimgi zamonlardan hozirgacha), akademik M. Yo‘ldoshevning “Xiva xonligida feodal yer egaligi va davlat tuzilishi” hamda D. Alimova tahriri ostida chop etilgan “O‘zbekiston tarixi” (XVI–XIX asrning birinchi yarmi) kitobi va boshqalar muhim ahamiyatga ega asarlardir.

Xorazmning eng qadimgi davrdan to hozirgi kungacha tarixi haqida Xiva shahrining 2500 yillik yubileyi munosabati bilan 1997-yilda chop etilgan “Xiva – ming gumbaz shahri” kitobi ham tarixiy ma’lumotlarga boy asardir.

Akademik A. Ziyoning “O‘zbek davlatchiligi tarixi”, akademik A. Asqarov va boshqalar tomonidan yozilgan “O‘zbekiston tarixi (Eng qadimgi davrlardan bugungi kungacha)” kitoblari ham mazkur davr haqida ma’lumotlar beradi.

Qo‘qon xonligi tarixi bo‘yicha asarlar

Qo‘qon xonligi tarixi bo‘yicha dastlabki asarlardan biri Abdulkarim Namangoniyning “Umarnoma” yoki “Shohnomayi Umarxon” (1820-yil) kitobi bo‘lib, u she’riy uslubda bitilgan minglar sulolasining rasmiy tarixi sanaladi.

Kitobning asosiy maqsadi – Umarxonning kelib chiqishini “Oltin beshik” rivoyatiga bog‘lab hokimiyatining qonuniyligini asoslashga xizmat qilish bo‘lgan.

Yana bir muhim manba Muhammad Hakimxon to‘ra ibn Sayid Ma’sumxonning “Saralangan tarixlar” asaridir. Muhammad Hakimxon Umarxon davrida saroyda naqib lavozimida xizmat qilgan.

Hakimxonning onasi Oftoboyim Umarxonning singlisi edi. Muhammad Alixon taxtga o‘tirgach Hakimxonni Namangan hokimi etib tayinlaydi. Biroq bir yildan so‘ng uni lavozimidan ozod etadi va ularning mol-mulki musodara qilinadi. Bunga Oftoboyimning o‘g‘illaridan birini taxtga o‘tqazishga urinishi sabab bo‘ladi.

Bulardan tashqari, Mirzo Olim Toshkandiyning “Qo‘qon xonligi tarixi”, Mirzo Olim Maxdum hojining “Tarixi Turkiston”, Is’hoqxon Junaydullo o‘g‘li Ibratning “Farg‘ona tarixi” kitoblari ham Qo‘qon xonligi tarixini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

Bilasizmi?

“Qo‘qon shamoli” badiiy filmini tomosha qiling va ona-bola o‘rtasida bo‘lib o‘tgan suhbat mazmunini diqqat bilan tinglang.

Ha, o‘tmish tariximiz qayg‘uli voqealarga to‘la. Toj-u taxt uchun kurash qanday oqibatlarga olib kelishini siz temuriylar, shayboniylar, ashtarxoniylar, arabshohiylar, minglar, mang‘itlar, qo‘ng‘irotlar misolida bilib oldingiz. Bilib olganlaringiz – bu tarixiy saboq. Zero, donishmandlar aytganidek, “tarix – faoliyatimiz xazinasi, o‘tmish guvohi, bugungi kun uchun ibrat va o‘git, kelajak uchun esa ogohlantirishdir”.

Loyiha ishi

Donishmandlarning yuqorida keltirgan fikrlarining har bir qismiga tarixdan dalillar keltiring va ularni daftaringizga qayd eting.



O‘rta asrlar mualliflarining shayboniylar va Bobur Mirzo haqida yozib qoldirgan asarlari

O‘rta asrlar tarixchilari orasida Muhammad Kamoliddin Binoiyning “Shayboniynoma” asari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Binoiy 1453-yilda Hirot shahrida tug‘ilgan. Dastlab Zahiriddin Muhammad Bobur, so‘ng Muhammad Shayboniyxonga xizmat qilgan. 1512-yilda Bobur va Najmi Soniylarning Qarshi shahrini egallashi chog‘ida halok bo‘lgan.

Asar Muhammad Shayboniyxonning Samarqandni olishi, uning Ko‘hak daryosiga ko‘prik qurishi kabi voqealar haqida ma’lumot beradi.

Yana bir muhim manba Mirzo Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy” asaridir. Bu asarning qimmati shundaki, u Bobur Mirzoning Ismoil Safaviy bilan 1510-yildan keyingi munosabatlari haqida ma’lumot beradi.

Muhammad Haydar 1507-yildan Kobul shahrida Bobur saroyida yashagan. Boburning Movarounnahr uchun bo‘lgan janglarida qatnashgan. 1511-yilda Boburdan ruxsat olib Andijonga qaytgan.

Bu asarda yozib qoldirilgan quyidagi fikrlar kishini befarq qoldirmaydi: “Bobur podshoh Samarqand qamali paytida opasi Xonzodabegimni o‘z joni evaziga Shohibekxonga (Shayboniyxonga) berib, o‘zi Samarqanddan chiqib ketgan edi. Shayboniyxonning vafotidan so‘ng shoh Ismoil Xonzodabegimni e’zoz va iltifot bilan qabul qiladi va o‘z elchilari ortidan turli tuhfalar, sovg‘a-salomlar bilan Bobur podshoh huzuriga yuboradi”.

Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma” (1–2-kitoblar) asari haqida

Mazkur asar Markaziy Osiyo xalqlarining XVI asrdagi tarixini o‘rganishda katta o‘rin tutadi va tarixiy voqealarni to‘liq yoritish bilan o‘sha davrning boshqa tarixiy asarlaridan ajralib turadi.

Bu asar shayboniy Abdullaxon II ning tug‘ilganidan to vafotiga qadar Markaziy Osiyoda kechgan siyosiy voqealar haqida ma’lumot beradi.

Asarning qimmati shundaki, Hofiz Tanish voqealarni uning guvohi bo‘lgan kishilar og‘zidan yozib olgan. Ko‘plariga esa o‘zi shohiddir.

Hofiz Tanishning otasi Ubaydullaxonga yaqin kishilardan bo‘lgan.

Asarda ta’kidlanishicha, Ubaydullaxonning o‘limidan so‘ng qo‘shhokimiyatchilik (birinchisi – Buxoroda, ikkinchisi esa Samarqandda) vujudga keladi. Hech kim siyosiy tarqoqlikka barham bera olmaydi. Abdullaxon II faqat Navro‘z Ahmadning vafotidan keyingina og‘ir va qonli kurashlardan so‘ng barcha raqiblari ustidan g‘alaba qozonib, davlatni yagona markazga birlashtira oladi.

Ashtarxoniylar haqidagi asarlar

Buxoro xoni Ubaydullaxonning o‘ldirilishi haqida Abdurahmon Tole o‘zining “Tarixi Abulfayzxon” asarida batafsil yozib qoldirgan. Chunonchi, asarda quyidagi ma’lumotlar qayd etilgan: “O‘sha kezlarda ulug‘ xon Samarqanddan Buxoroga kelgandi. Xoja Davlat Saroy Javshan qalmiq bilan birlashib, janobi oliylarini o‘ldirmoqchi edi. Bu barcha ig‘volar sababchisi mehtar Kobuliy bo‘lgan. Uning uyi oliy arkning etagida joylashgan edi.

Abulfayz (Ubaydullaxonning ukasi) Bahodirxon ham o‘sha yerda turardi.

Mehtar Kobuliy u bilan tanishib, amirlar qoshiga yashirin maslahatga bordi va ul janobi oliylarining xon bo‘lish to‘g‘risidagi xohishni arz qildi. Ular Abulfayz iltimosini qabul qildilar. O‘sha bahor chog‘i hukmdor Ubaydullaxon shaharlar onasi – Balxga bormoqni ixtiyor ayladi. Uni bu yo‘ldan qaytarmoqni istaganlarning gapiga quloq solmadi. Janobi oliylari Piri Mirza chorbog‘iga kelib qo‘ndi. Oradan bir hafta o‘tdi. Qotillar xonga tashlanib uni xanjar bilan halok qildi.

Suiqasdga Javshan qalmiq boshchilik qildi. U xonning mahramlarini ham yo‘q qilishga kirishdi. Uning hukmi borgan sayin kuchaydi. Ubaydullaxonga sodiq mulozimlar ta’qib etildi. Oradan to‘rt oy o‘tgach uning o‘zi ham qatl qilindi”.

Mang‘itlar haqidagi asarlar

Mang‘itlar haqida Muhammad Yoqub (Buxoroning ikkinchi amiri Doniyolbiyning o‘g‘li) “Gulshan ul-mulk” nomli asar yozib qoldirgan. Asarda shayboniylar, ashtarxoniylar va asosan mang‘itlar haqida ma’lumot berilgan. Xususan, u Doniyolbek, Shohmurodbek, amir Haydar va Nasrullo davridagi siyosiy voqealarga shaxsan guvoh bo‘lgan. Asarda, jumladan, quyidagilarni o‘qiysiz: “1747-yil Movarounnahrda hokimiyat Muhammad Rahimxon mang‘it qo‘liga o‘tdi. Mang‘itlar 12000 uylik bo‘lib, bir necha urug‘larga bo‘linadi. Ular Shayboniyxon davrida Movarounnahrga kelishgan. U vafot etgach asl vatanlari Qipchoq dashtiga qaytishgan. Qipchoq dashtida mang‘itlar ulug‘i Numonbek edi. Ikki yildan so‘ng Ubaydullaxon bilan yana Movarounnahrga qaytib kelishgan. Bu davrda mang‘itlar oqsoqoli (ulug‘i) Jonibek edi. Ular Samarqandning Konko‘l (Konigil) qoruqiga joylashganlar. So‘ng Qarshiga kelib o‘rnashdi”.



O‘ZBEKISTON TARIXIGA OID AYRIM MUHIM SANALAR

1428–1468-yillar – “O‘zbek ulusi”da Abulxayrxonning hukmronligi.

1428-yil – Abulxayrxon Sharqiy Qipchoq dashtini egallab, alohida davlatga asos soladi. Tarixiy manbalarda bu davlat “O‘zbek ulusi” (o‘zbeklar mamlakati) deb ham ataladi.

1483-yil 14-fevral – **1530-yil 26-dekabr** – Bobur Mirzo yashagan yillar.

1493–1529-yillar – Bobur “Boburnoma”da bo‘lib o‘tgan tarixiy voqealar haqida yilma-yil hikoya qiladi.

1496-yil 17-iyun – Bobur Mirzoning Samarqandga birinchi yurishi.

1497-yil may – Bobur Mirzoning Samarqandga ikkinchi yurishi.

1497-yil noyabr oxiri – Bobur Mirzo Samarqand taxtini egallaydi.

1499-yil – Muhammad Shayboniyxonning Movarounnahrni zabt etishni boshlashi.

1500-yil – Muhammad Shayboniyxon Samarqandni jangsiz egallaydi.

1500–1601-yillar – Movarounnahrda shayboniylar sulolasi hukmronligi.

1500-yil kuz – Bobur Mirzo Samarqandga yurish boshlaydi.

1501-yil – Muhammad Shayboniyxon Samarqandni uzil-kesil egallaydi. Katta qo‘shinga ega bo‘lgan Muhammad Shayboniyxon endi butun Movarounnahrni egallay boshlaydi.

1501-yil – Bobur Samarqandni tark etadi.

1504-yil – Farg‘ona zabt etiladi. Shu tariqa butun Movarounnahrda shayboniylar sulolasi hukmronligi o‘rnatiladi. Samarqand shahri poytaxt etib belgilanadi.

1504-yil sentyabr – Bobur Mirzo Kobulga borib, bu yerda hokimiyatni qo‘lga kiritadi.

1507-yil – Muhammad Shayboniyxon Xurosonni bo‘ysundiradi. Butun mintaqani yagona bir markaz – Samarqand qo‘l ostida birlashtiradi.

1510-yil – Shayboniyxon va Eron hukmdori shoh Ismoil qo‘shini to‘qnashadi. Marv yaqinida bo‘lgan jangda Muhammad Shayboniyxon qo‘shinlari yengiladi. Shayboniyxon va uning safdoshlari jangda halok bo‘lishadi.

1511-yil kuz – Bobur Eron shohi Ismoil yordamida Samarqandni uchinchi marta qo‘lga kiritadi. Lekin yana qo‘ldan chiqaradi.

1552-yil – Ivan Grozniy Qozon xonligini bosib oladi.

1556-yil – Ivan Grozniy Hojitarxon (Astraxan, Ashtarxoniylar) xonligini bosib oladi.

1558-yil – “Moskva savdo kompaniyasi” vakili A. Jenkinson boshliq elchilar rus podshosining guvohnomasi bilan Buxoroga yuboriladi. Elchi A. Jenkinson Buxoro xoni Abdullaxon II tomonidan qabul qilinadi.

1572, 1577-yillar – Abdullaxon II Akbarshoh huzuriga o‘zining elchilarini yuborgan yillar.

1620-yil – Farg‘onaning qadimgi poytaxti Axsikent qattiq zilzila oqibatida vayron bo‘lganligi uchun aholi Namangan atrofiga ko‘chgan. Namangan tuz koni (“namak kon”) yaqinida qurilgan edi.

1710–1721-yillar – Farg‘ona vodiysida Shohruxbiy hukmronligi davri.

1717-yil – A. Bekovich-Cherkasskiy harbiy ekspeditsiyasi Xiva xonligi hududlariga kirib keladi va harbiy to‘qnashuvlar bo‘ladi. Xiva xoni Sherg‘ozixon Bekovich-Cherkasskiyning qo‘shinlarini qirib tashlaydi. Pyotr I uyushtirgan ekspeditsiyaning halokati Xiva – Rossiya munosabatlarini keskinlashtirib yuboradi.

1721–1725-yillar – Rossiya hukumati elchisi Florio Benevenining Buxorodagi faoliyati.

1780–1841-yillar – Uvaysiy (asl ismi Jahon, xalq orasida Jahon otin sifatida tanilgan) yashagan yillar.

1792–1842-yillar – o‘zbek shoirasi, ma’rifatparvar davlat arbobi Mohlaroyim – Nodira yashagan yillar.

1803-yil – Toshkent elchilari Sankt-Peterburgga borib, imperator Aleksandr I qabulida bo‘ladilar.

1824–1878-yillar – qoraqalpoq xalqining atoqli shoirlaridan biri Ajiniyoz Qo‘siboy o‘g‘li (taxallusi Zevar) yashagan yillar.

1827–1900-yillar – qoraqalpoq xalqi adabiyotining asoschisi Berdaq (taxallusi; asl ismi Berdimurod Qarg‘aboy o‘g‘li) yashagan yillar.

1827-yil – Oydo‘stbiy boshchiligida qo‘zg‘olon yuz beradi.

1832-yil – A. Byorns Buxoroga kirib keladi.

1832-yil – Pekinda Xitoy – Qo‘qon shartnomasi imzolanadi.

1839-yil – Rossiya Xiva xonligiga qarshi birinchi harbiy yurishni boshlaydi.

1842-yil – Amir Nasrullo qo‘shinlari Qo‘qonga yurish qiladi. Qo‘qon qo‘shinlari mag‘lubiyatga uchraydi.

O‘quv nashri

Nargiza Kamaritdinovna Ismatova,
Usmon Toshpo‘latovich Jo‘rayev

O‘ZBEKISTON TARIXI
9-sinf

Yangi nashr

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinf o‘quvchilari uchun darslik

Muharrir	*T. Mirzayev*
Texnik muharrir	*A. Boboqulov*
Musahhih	*J. Matyoqubov*
Rassom	*S. Farmonov*
Sahifalovchi-dizayner	*I. Saloxitdinov*

Bosishga 14.11.2024 ruxsat etiladi. Bichimi 60x84 1/8.
“Arial” garniturasi. Kegli 11 shponli. Ofset bosma.
Shartli bosma tabog‘i 22,32. Nashriyot-hisob tabog‘i 20,73.
Adadi 598 352 nusxa. Buyurtma № 95.

"SAHOVAT EGALARI" MCHJ
Ishlab chiqarish: Toshkent viloyati, Zangiota tumani,
Nurafshon MFY, Mustaqillik ko‘chasi, 27-uy.

Darslikdan foydalanish holatini ko‘rsatuvchi jadval

№	O‘quvchining ismi va familiyasi	O‘quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshiril-gandagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						
6.						

Darslik o‘quvchiga berilib, o‘quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbarlari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to‘ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marta foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari bor, yirtilmagan, ko‘chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo‘q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, lekin qoniqarli ta’mirlangan. Ko‘chgan varaqlari qayta joylangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqova yirtilgan, ustiga chizilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo‘q, qoniqarsiz ta’mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo‘yab tashlangan. Darslikni tiklab bo‘lmaydi.